

MIRADILOV V.M.
KARIMOV V.Z.
UMBETOVA B.Z.



**SPORT PEDAGOGIK
MAHORATINI OSHIRISH
BASKETBOL**



7A8-1

N74

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JISMONIY TARBIYA VA SPORT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

SPORT PEDAGOGIK
MAHORATINI OSHIRISH
(BASKETBOL)

CHIRCHIQ - 2018

841 2269 / 100

UO'K: 796.323.2(075.8)

KBK: 75.566ya73

M 53

M 53 Sport pedagogik mahoratini oshirish (basketbol). – T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2018. – 252 b.

ISBN – 978-9943-5306-8-3

Mazkur o'quv qo'llanma amaldagi DTS, o'quv rejasi, o'quv dasturi va zamon talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zDJTSU talabalari, magistrantlari, olimpiya zaxiralari KHKlari o'quvchilari, basketbol bo'yicha sport maktablari, jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarga mo'ljallangan.

Darslik O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil 28-iyundagi 434-sonli buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO'K: 796.323.2(075.8)

KBK: 75.566ya73

Mualliflar:

B.M.Miradilov - katta o'qituvchi

B.Z.Karimov - o'qituvchi

M.A.Umbetovalar - o'qituvchi

Taqrizchilar:

Koshbaxtiyev I.A.

– pedagogika fanlari doktori, professor

Kerimov F.A.

– pedagogika fanlari doktori, professor

ISBN – 978-9943-5306-8-3

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY
TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

ILMIY TEXNIKA AXBOROTI-PRESS NASHRIYOTI, 2018

U 2269/100

KIRISH

Yurtimizning mustaqil taraqqiyoti davrida erishilgan eng noyob kashfiyotlardan biri O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi va uning bevosita rahbarligi ostida ishlub chiqilgan, bugungi kunda o'zining mazmundor hayotiy aksini topib kelayotgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dir. Aynan ushbu dastur tufayli mamlakatimizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan ta'lif tizimi ko'p bosqichli va uzlusiz ta'lif maktabiga aylandi. Lekin bugungi kunda bunday maktab salohiyatini raqobatbardosh ta'lif modeli darajasiga ko'tarish mahalliy va xorijiy ta'lif tizimida to'plangan ilg'or tajribalar, etakchi davlatlar ta'lif maktablarida ishlub chiqilayotgan va amaliyotda o'zining yuksak samaradorligini betayotgan axborot-kommunikatsion hamda innovatsion-pedagogik texnologiyalardan foydalunish zarurligini taqazo etmoqda. Alohida ta'kidlash joizki ularni jadul sur'atlar amalga joriy etish va progressiv mutujalarpa erishish o'sib kelayotgan kasb egasining sihat-salomatligi, bilimi va kusbly mahorati, ma'nnaviy-madaniy imkoniyatlari bilan belgilannadi. Bu borada millat genofondini shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash beqiyos vosita bo'lmish jismoniy tarbiya va sport ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz tomonidan ushbu sohn bo'yicha qabul qilingan barcha farmon va qarorlar ijrosini davom ettirayotgan Yurtimizning bugungi rahbari Sh.M.Mirziyoevning konceptual ko'retmalari tufayli jismoniy tarbiya va sport davlat niyosatining ustuvor yo'nalishlari doirasida cho'qqi sari intilmoqda.

Bugungi kunda Respublikamizning barcha hududlarida, hatto uzoq uzoq qishloq manzillarida ham jismoniy mashqlar yoki sport turlari bilan shug'ullanishga barcha imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilgan. Ta'kidlash joizki, yurtimiz bo'ylab ommaviy sog'lomlashtirish ishlarini jadallashtirishda sportning basketbol turi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, basketbol yer kurrasida eng ommaviy lashgan sport turi deb tan olingen.

Respublikamizning ta'lif muassasalarida basketbol fan va sog'lomlashtirish vositasi sifatida o'quv rejalariga kiritilgan. Ushbu sport turi 2000 yildan boshlab o'tkazilib kelinayotgan ko'p bosqichli "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" kabi ommaviy sport nusobaqalari dasturidan joy olgan. Ammo ommaviy basketbol

miqyosini yanada kengaytirish va yuqori malakali basketbolchilar tayyorlash samaradorligini oshirish uchun shu ixtisoslik bo'yicha kadrlar tayyorlash sifati bilan belgilanadi. Mazkur muammoni maqsadli hal etish foydalaniladigan o'quv adabiyotlari va birinchi navbatda keng qamrovli, yangi ilmiy-uslubiy ma'lumotlarga asoslangan darsliklar salohiyatiga bog'liqdir.

Katta o'qituvchi B.M.Miradilov, o'qituvchi B.Z.Karimov va M.A.Umbetovalar tomonidan tayyorlangan va jismoniy tarbiya instituti talabalariga mo'ljallangan "basketbol bo'yicha sport-pedagogik mahoratini shakllantirish" o'quv qo'llanmasi o'z mohiyati hamda mazmuni jihatidan nafaqat jismoniy tarbiya va sport ixtisoslashgan barcha ta'lim muassalalari o'quvchi-yoshlariga tavsiya etiladi, balki shu soha o'qituvchi-murabbiylari va mutaxassis-tashkilotchilariga ham dasturiyal qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ushbu darslik O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'quv rejasi, DTS va na'munaviy o'quv dasturiga muvofiq tayyorlangan.

Albatta, sport nazariyasi, uslubiyati va amaliyoti kundan-kunga o'zgarib borishi tabiiy hol. Binobarin, darslikda ko'zga tashlangan ayrim kamchiliklar haqida o'z fikr-mulohazalaringizni bildirilishi navbatdagi darslik yoki o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda foydali manbaa bo'lib xizmat qiladi.

I BOB. ZAMONAVIY BASKETBOL VA UNING DOLZARB MUAMMOLARI

O'ta keskin o'zgaruvchan yo'naliishlar bo'ylab favqo'lodli viziylatlarda va zizh raqobat ostida kechayotgan zamonaviy basketbol musobaqlarida goh hujum, goh himoyada o'ynash samaradorligini ta'minlash hamda yuksak natijalarga erishish zaruriyatni jismoniy, psixofunktional va texnik-taktik imkoniyatlar zahiralarini izlash, mushg'ulotlarni ilmiy ijodiy va ilg'or texnologiyalar asosida tashkil qilishga davad etmoqda. Ushbu choralarни amalga oshirish uchun bugungi basketbolda yuzaga kelayotgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni hal etish muhimligi isbot talab qilmaydi.

Durhaqiqat, so'nggi 30-40 yil davomida basketbol o'z mohiyati, mozmuni va yunalishi jihatlaridan tubdan o'zgargan. Jumladan, texnik-taktik usullar, taktik kombinatsiyalar, to'psiz va to'p bilan ijro etilagan humkat «fintlari» (chalg'ituvchi harakatlar) hajmi ortgan ijrochilik sanutining serqirralik (ko'pyoqlamalik) doirasi kengaygan. Bugungi basketbol hujum va himoya harakatlarining ko'p martalab keskin almashtinuvi bilan farqlanadi. Basketbolchilarning jismoniy va psixofunktional imkoniyatlari nihoyatda kuchaygan. Lekin, bunday ijobjiy progressiv o'zgarishlar bilan bir qatorda musobaqa qoldalarining yangilanib turishi va raqobatning keskinlashsha borishi o'yinchilarning texnik nazariyi va psixologik tayyorgarligi mashg'ulot oldi va musobaqoldi razminkasi hujum harakatlaridan himoya harakatlariga va uksincha himoya harakatlaridan hujum harakatlariga o'tish taktikasi bilan bog'liq muammolarni yaratmoqda va ularni hal qillish zarurligiga e'tibor qaratmoqda.

Alohiда tu'kidlash joizki, basketbolning bugungi kun tartibiga bolalari basketbolidan boshlab professional basketbolchilargacha «chubhlantirilishi» zarur bo'lgan yana bir qator muammolar mavjuddir. Bular: keskin o'zgaruvchan yo'naliishlarda zo'r qarshilik ko'rsutnyotgan raqibdan to'pni «berkitib» (unga yon yoki teskari joylaшиб) boshqarib (to'pni urib) uni yorib o'tish; har xil oraliqlardan shu jumladan, 3 ochkoli oraliqdan sakrab o'ng va chap tomonlarga 90° yoki 360° aylanib to'pni savatga tashlash; o'z sheringiga uzatish; to'pni boshqarishda o'ng va chap tomonlarga bir xil mahorat bilan fintlarni qo'llab (chalg'ituvchi harakat) raqibni chalg'itib o'tish; savat

halqasi yoki shchitdan sapchigan to‘pni sakrab yana takroran savatga tashlash; to‘psiz va to‘p bilan hujum qilayotgan raqib o‘yinchilarini zo‘r «yopish» (pressing).

O‘yin shiddatini «jo‘rtaga» goh sustlashtirib, goh faollashtirib raqib taktikasini «buzish» va uning ruhiyatini muvozanatdan chiqarish kabi masalalardan iboratdir.

Bugun basketbolga xos va amalga oshirilishi zarur bo‘lgan yana bir o‘ta dolzarb muammolardan biri shuki, bu turli yosh va malakali xatto professional klublar o‘yinchilari «o‘naqay» va «chapaqay» harakat funksiyalarini (to‘p urib boshqarish, to‘p uzatish va uni savatga tashlash) simmetrik nisbatga bir hil mahorat bilan ijro eta olmasliklaridadir. L.R.Ayrapetyans va Sh.A.Irmatovlar (2012) 100 dan ortiq yosh basketbolchilar o‘rtasida so‘rovnama o‘tkazib, ularga «zaif» qo‘l bilan to‘pni urib harakatlanish va noqo‘lay tomonlarga burilish/aylanish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida mashqlar beriladimi degan savol bilan murojat qilishdi va natijalar 88,6-100% «yo‘q» javoblari bilan yakunlangan.

Ushbu mualliflarning ta‘kidlashicha, yosh basketbolchilar mashg‘ulotiga bunday «biryoqlamalik» bilan yondashish ular ulg‘ayib, mahorat bosqichiga etganda ham ijrochilik faoliyatiga salbiy tasir ko‘rsatar ekan. Bunday fikrni isbotlash uchun mualliflar basketbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy championatida ishtirok etuvchi «Sug‘diyona» (Navoiy sh.) va «MHSK» (Toshkent sh.) jamoalarining rasmiy o‘yinlarida basketbolchilar musoboqa faoliyatini «stenografik» kuzatuv ostiga olishdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, «Sug‘diyona» basketbolchilarida savatga to‘p tashlash hajmi jami 84,2% ni tashkil etgan bo‘lsa, shundan faqat 15,8% chap (zaif) qo‘l bilan ijro etildi. To‘pni urib harakatlanish o‘ng qo‘l bilan 74,4%, chap qo‘l bilan esa 25,6% ni tashkil etdi. To‘pni uzatish – o‘ng qo‘l bilan-23.4%, qolgani ikki qo‘l bilan ijro etildi. Chap qo‘l bilan umuman to‘p uzatilmadi.

«MHSK» jamoasida savatga to‘p tashlash o‘ng qo‘l bilan jami 78,9%, chap qo‘l bilan – 21,1% ga teng bo‘ldi. Jamoada bir nafar «chapaqay» o‘yinchi bo‘lib, u o‘ng qo‘l bilan umuman savatga to‘p tashlamadi. «O‘naqay» basketbolchilarda o‘ng qo‘l bilan to‘pni urib harakatlanishi 62,5% ni, chap qo‘l bilan esa – 37,5% ni tashkil etdi. To‘p uzatish o‘ng qo‘l bilan 73,1%, chap qo‘l bilan 26,9%ga teng bo‘ldi. Ta‘kidlash joizki «zaif» qo‘l bilan savatga to‘p tashlash, to‘pni

urib harakatlanish va to'pni uzatish ko'nikmalari 90% dan ortiq muvaffakiyatsiz natijalar bilan yakunlandi. Afsuslanarli joyi shundaki, basketbol bo'yicha chop etilgan va amalda qo'llanilib kelinayotgan hujjatlarda (o'quv dasturlari, rejalashtiruv hujjatlari, tanlov va nazorat testlari), maxsus darslik va o'quv qo'llanmalarida to'pni o'ng va chap qo'lida bir xil mahorat bilan (simmetrik) boshqarish qobiliyatlarini shakllantirish masalasi umuman joy olmagan.

Basketbol olamida mashhur, ko'plab professional basketbol jamoalarini yetishtirgan Amerikalik Nik Sortel (2005) eng nufuzli xalqaro musoboqalarda ishtirot etuvchi yetakchi basketbolchilar ham «noqo'lay» qo'l bilan to'pni urib, raqibni chalg'itib o'tish, to'pni uzatish va savatga tashlash kabi texnik usullarni mahorat bilan ijro etaolmaydilar deb ta'kidlaydi. Ushbu mutaxassisning fikriga qaraganda, buning yagona sababi basketbolga dastlabki o'rgatish bosqichidan boshlab, ko'p yillik sport mashg'ulotining barcha bosqichlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarga «noqulay» (zaif) qo'l bilan texnik-taktik ko'nikmalarni shakllantirish «noqulay» tomonlarga joydan va sakrab burilish-aylanish mashqlarini alohida qo'llanmasligida ekan, Nik Sortel basketbolda «o'naqay» va «chapaqay» harakat funksiyalarini erta yoshlikdan boshlab simmetrik turibda muntazam shakllantira borish ijrochilik mahoratini boyitadi, uning doirasini kengayishiga imkon yaratadi, deb fikr bildiradi.

Sportchilar tayyorlash amalyotiga bunday prinsipda yondoshish zarurligi va afzalligi yana bir qator mutaxassis olimlar tomonidan tayyin etilgan (I.Tuchashvili, R.Yinchuk, 1998; A.Ilogrebov va b., 2007).

Yuqorida qayd etilgan o'ta dolzarb va muhim amaliy ahamiyatga ega muammolar mamlakatimizda malakali basketbolchilar tayyorlash amalyotiga ham to'g'ridan-to'g'ri taaluqlidir. Bu borada echilishi zarur bo'lgan yana bir tashkiliy-uslubiy muammo kun tartibida «ko'ndalang» bo'lib turibdi. Gap shundaki, respublikamizda yuqori malakali, raqobatbardosh basketbolchilarni tayyorlash va mamlakatimiz terma jamoalariga iste'dodli sport zaxiralarini yetkazib berish ustuvor jihatdan bolalar basketbolini maqsadli tashkil qilish jumladan ko'p yillik sport trenirovkasining barcha bosqichlarini (boshlang'ich, o'quv-mashg'ulot, takomillashtiruv, oliy sport mahorati) izchilligi va mutanosibligini ta'minlash, o'rgatish-

pedagogik texnologiyalarini joriy etish va albatta, o'quv mashg'ulotlarini ilmiy asosda tashkil qilish zarurligiga bog'liqdir. Afsuski, ushbu masalada bir qator jumboqlar, kamchiliklar yo'q emas. Chunonchi, barcha turdag'i ta'lif muassasalarida, ayniqsa umumta'lim maktablarida o'tkaziladigan akademik darslarda va sinfdan yoki maktabdan tashqari vaqtarda olib boriladigan sport mashg'ulotlarida muayyan sport turiga mehr (qiziqish) uyg'otish, o'quvchilarda sport bilan shug'ullanish salomatlik, ruhiy va jismoniy barkamollik uchun o'ta soydali ekanligi haqida motivatsiya hosil qilish, ularda muayyan basketbol (yoki boshqa sport turi) bilan shug'ullanishi extiyojini tug'dirish ishlariiga yetarli e'tibor qaratilmaydi. BO'SMilar, Oliy sport mahorati maktablari, sport kulublari va terma jamoalar o'rtasida iste'dodli basketbolchilarni tayyorlashga qaratilgan yagona «konveyr» tizim mavjud emas. Vaholangki, xalqaro pog'onaga mos yuqori malakali, raqobatbardosh basketbolchilarni tarbiyalash aynan shunday tizim, shunday yondashuv asosida amalga oshirilishi mumkinligi jahon sport amaliyoti tajribasidan ma'lumdir. Ushbu o'ta dolzarb masalani yo'lga qo'yish, ommaviy va professional sportni shu jumladan, o'zbek basketbolini yanada rivojlantirish borasida yurtimizning birinchi rahbari I.A.Karimov va hukumatimiz tomonidan ulkan ishlar, beqiyos islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari doirasida rivoj topib borayotgan jismoniy tarbiya va sport tamomila yangicha tus olib, samarali yo'lda shakllanib bormoqda. Mamlakatimizning barcha mintaqalarida, xatto uzoq-uzoq qishloq hududlarida ham minglab jahon standartlariga mos sport inshoatlari barpo etildi va ular millionlab farzandlarimiz, sportchilarimiz hamda turli qatlamga mansub aholimizga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Respublikamizda borgan sari o'ta nufuzli musobaqalar Osiyo va jahon championatlari, xalqaro turnirlarni muntazam tashkil etilishi odat tusiga kirib bormokda. 2000 yildan boshlab kadrlar tayyorlash milliy dasturiga «hamohang» bo'lgan ko'p bosqichli «Umid nihollar», «Barkamol avlod» va «Universiada» kabi ommaviy sport musobaqalarining joriy etilishi va muntazam o'tkazilib borilishi shubhasizki, jismoniy tarbiya va sportni xalqimiz, ayniqsa o'quvchi-yoshlarimiz ongiga singib, ularning kundalik ehtiyojiga aylanib bormoqda. Albatta, ommaviy sport salohiyatini oshirish va professional sportni, shu jumladan, basketbolni ham jahon maydoniga

olib chiqish o'qituvchi-murabbiy kadrlarga bog'liqdir. Bu borada ham davlatimiz tomonidan taxsinga sazovor ishlar amalga oshirilayotgani isbot talab qilmaydi. Shunday bo'lsada hali ushbu masalada muammo va kamchiliklarimiz yo'q deb bo'lmaydi. Ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, 2010 yil 23 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan «Sport maktablari faoliyatini hamda sport maktablari murabbiylari va mutaxassislari mehnatini moddiy rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 211-tonli qarori, 2012-yil 13-iyundagi «O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan murabbiylar faoliyatini tartibga solish choralar to'g'risida»gi 214-tonli qarori va shu masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan e'lon qilingan. 2247-tonli buyruq yuqorida qayd etilgan qator muammo va kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini yaratadi hamda yaqin kelajakda mutaxassis kadrlar salohiyatini ko'tarish va professional sportni, shu jumladan, o'zbek basketbolini ham jahon maydoniga olib chiqishga turki beradi.

Zamonaviy basketbolga xos o'yin usullariga o'rgatish ularni takomillashtirish va jamoa o'yinchilarining musobaqa faolligini oshirishda yuqori malakali basketbolchilar uchun belgilangan model ko'rsatkichlarga mo'ljal qilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu model ko'rsatkichlar 6- va 7-jadvallarda keltirilgan.

1.1-jadval

**Yuqori malakali basketbolchilarda har bir o'yin bo'yicha qayd etiladigan o'rtacha musobaqa ko'rsatkichlari
(Yu.D.Jeleznyak-2013 bo'yicha)**

O'yin ko'rsatkichlari	Erkaklar	Ayollar
O'yinda savatga to'p tashlash soni	57-61	62-66
Ochkolar	78-80	75-80
Ikki ochkoli to'p tashlash aniqligi - %	50-53	46-51
Uch ochkolik to'p tashlash aniqligi - %	34-37	30-35
Jarima to'pni tashlash aniqligi - %	73-76	72-75
Olib qo'yish	7-9	7-10
To'pni to'sish	2-4	3-4
O'z shchitidan sapchigan to'pni egallash soni	22-24	25-28
Raqib shchitidan sapchigan to'pni egallash soni	8-12	10-12
Ochko keltiruvchi uzatish	14-16	14-18
To'pni yo'qotish	19-23	22-27
Follar	21-24	15-18

1.2-jadval

Yuqori malakali basketbolchilarda qo'llaniladigan hujum turlari va ularni samaradorligi (Yu.D.Jeleznyak-2013 bo'yicha)

O'yinlar	Ko'rsatkichlar	Tezkor yorib o'tish	Avvalroq boshlangan hujum	Pozitsion hujum
Erkaklar	Hujumlar soni, %	11,8	17,2	71,0
	Samaradorlik, %	52,6	52,6	47,6
Ayollar	Hujumlar soni, %	20,0	5,2	74,4
	Samaradorlik, %	45,7	40,8	55,3

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Айрапетянц Л.Р., Ирматов Ш.А. Методика симметрического совершенствования право- и левосторонних двигательных функций при занятиях баскетболом // Методические рекомендации. – Т., 2012. – 31 с.
2. Баскетбол. Теория и методика обучения / под общ.ред. Д.С. Нестеровского. – М.: Akademiya, 2004. – 336 с.
3. Вальгин А.И. проблемы современного баскетбола. – Киев, 2003. – 169 с.
4. Железняк Ю.Д. Совершенствование спортивного мастерства: Учеб.для студ. Высш.учеб. завед/ Ю.Д. Железняк, Ю.М. Портнов, В.П. Савин и др. – М.: Akademiya, 2004. – 400 с.
5. Лях В.И. Витковски З., Жмуда В. Спортивно-двигательные тесты для оценки специфических координационных способностей футболистов. – М.: ТиПФК, 2002. – №8. – С. 51–56.
6. Методы подготовки баскетболистов. Методические журнал. Современный баскетбол. Под редакцией Белаш В.В. щ.Южный Октябрь, 2005. – 56 с.
7. Нестеровский Д.И. Теория и методика баскетбола // Учебное пособие для студентов вуза. – М.: “Akademiya”, 2010. – 336 с.
8. Ник Сортэл. Баскетбол: 100 упражнений и советов для юных игроков. – М.: ACT-Астрель, 2005. – 237 с.
9. Погребной А.И., Скрыникова Н.Г., Аришин А.В. Формирование рациональной техники плавания с учетом индивидуального профиля асимметрии. – М.: Физическая культура: воспитание, образование, тренировка, 2007. – №5. – С.70-73.
10. Полиевскиц С.А., Айрапетянц Л.Р. Губенков Л.Я., Романов В.А. Тренажеры в спортивных играх. –Т.: Ибн Сино, 1992. – 134 с.
11. Портнов Ю.М. Баскетбол// Учебник для вузов физической культуры. – М: Астра семь, 1997. – 480 с.
12. Тучинини И., Янчук В. Некоторые перспективы развития современного тенниса // Материалы конгресса «Человек в мире спорта». – М.: Физкультура, образование и наука, 1998. – С.244-245.

II BOB. O'YIN TEXNIKASI ASOSLARI

2.1. Harakat texnikasi va uning funksional mohiyati

Turli harakatlar o'ziga xos fazalar va elementlardan iborat bo'lib, vaziyat talabiga muvofiq muayyan maqsadli texnik tartibda ijro etiladi.


Harakat texnikasi morfofunksional, biomexanik va aerodinamik qonuniyatlar asosida ijro etiladi. Harakat texnikasining morfofunksional asosi – bu muayyan tana uzunligi, vazn va qaddiqomatga ega sportchining (basketbolchining) aniq maqsadga qaratilgan harakat koordinatsiyasini markaziy asab tizimi va analizatorlar tomonidan boshqarilishini anglatadi.

Texnikaning biomexanik asosi – bu harakatni bajarishda tana va tana qismlarining og'irlilik markazlarini o'zaro muvofiqlashgan holda shu harakat aniqligini ta'minlashga qaratildi.

Texnikaning aerodinamik asosi – bu muayyan maqsadga qaratilgan harakatni bajarishda tana va tana qismlarini faol bukilib-yozilib inersion kuchni yaratish va undan foydalanishini anglatadi.

Sport amaliyotida "model" (yoki etalon) texnika, rasional (maqbul) texnika va individual (shaxsiy) texnika tushunchalari mavjud bo'lib, ular quyidagilarni anglatadi: – "model" texnika – bu muayyan harakat (usul) texnikasiga o'rgatishda ayni kunda eng samarali na'munaviy (andoza, model) texnikaga mo'ljal qilish zarurligini anglatadi (lekin undan nusha ko'chirish tavsiya etilmaydi); – ratsional texnika – bu ko'pchilik uchun maqbul bo'lgan, aksariyat sportchilar tomonidan o'zlashtirilgan texnika (o'rgatishda undan asosiy namuna sifatida foydalaniлади); – individual texnika – bu har bir sportchini (basketbolchini) o'zining shaxsiy harakat qobiliyatlariga (imkoniyatlariga) qarab "model" va "ratsional" texnika nusxasi doirasida o'zlashtiradigan individual texnikani anglatadi.

Sport texnikasiga o'rgatish amaliyotida shug'ullanuvchilarga individual texnikani erkin o'zlashtirish vaziyati tug'diriladi. Bunday yondashuv bola organizmida chuqur joylashgan nasliy harakat qibiliyatlarini "ochilishiga" olib keladi, yangi harakat usullarini ixtiro qilinishiga imkon yaratiladi.



2. l-andoza. O'yin texnikasining tasnifi

"Teknika" atamasi sport amaliyotida harakat ko'nikmalari, ularni ijro etish usullari ichki (funksional organlar) va tashqi (qo'l, oyoq,

tana, ko‘z va h) ijrochi organlarning muayyan maqsad sari o‘zaro muvofiqlashgan (koordinatsiya) tartibda bajariladigan harakat mazmunini anglatadi.

Afsonaviy Pit Nevel ta’kidlagan ediki: «O‘yin jarayonida basketbolchi to‘pni qo‘lida o‘yin vaqtining 10% atrofida ushlab turadi, biroq o‘yin vaqtining 100% ichida basketbolchi oyoqlarda ishlaydi». Demak, har qanday darajada ishlayotgan murabbiyning bevosita vazifasi basketbolchi oyoqlari ishlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlardan foydalanishdan iborat. Boz ustiga, murabbiy har doim shuni yodda tutishi kerakki, u o‘yinchilariga bajarish uchun berayotgan har bir hujum va himoyalanish mashqlari, birinchi qavatda, oyoqlarni ishini takomillashtirishga mo‘ljallangan mashqlardir. Ushbu bobda hujumda basketbolchi oyoqlari ishlashining uchta tomoni ko‘rib chiqiladi: sakrab turib to‘xtash, burilishlar, bo‘sh joyga tez chiqish yoki harakat suratini o‘zgartirish, harakat yo‘nalishini o‘zgartirish¹.

Basketbol ko‘plab o‘yin harakatlari (yurish, yugurish, burilish, aylanish, sakrash, to‘xtash, egilish, yozilish va h). O‘yin ko‘nikmalar (to‘p urib harakatlanish, to‘p uzatish, uni ilish, savatga tashlash) va ularni ijro etish usullaridan iboratdir. Ana shu harakatlar, ko‘nikmalar va usullar texnikasi qanchalik mukammal, san‘at darajasida shakllangan bo‘lsa, o‘yining pirovard samaradorligi shunchalik yuksak bo‘ladi.

Sakrab turib to‘xtatishni bajarish uchun o‘yinchi yugurishidan so‘ng qisqa sakrashni bajaradi, keyin bir vaqtning o‘zida ikkala oyoqda yerga tushadi. O‘yinchi sakrab turib to‘xtashni bajarayotgan paytda uning oyoqlari yylka kengligida turishi, tizzalar bukilgan, dumba pastroqda turishi bosh ko‘tarilgan va qorin bilan vertikal chiziqda turishi, qo‘llar bosh darajasigacha ko‘tarilishi, qo‘l barmoqlari keng ochilgan bo‘lishi kerak. Yaxshi bajarilgan sakrab turib to‘xtash o‘yinchiga muvozanatni saqlab qolishga va ikkala oyoqda burilish uchun qadam tashlashga imkon beradi.

Burilishlarning ikki xil turi mavjud – oldinga va orqaga burilish. Sakrab to‘pni to‘xtashni bajarish uchun o‘yinchi yugurishidan so‘ng qisqa sakrashni bajaradi, keyin bir vaqtning o‘zida ikkala oyoqda yerga tushadi. Burilishlarning ikki xil turi mavjud oldinga burilish va orqaga burilish. Oldinga burilishni bajarish uchun o‘yinchi to‘p

¹ D.Brown. Handbook of Basketball Fundamentals and Drills. U.S.A. – 2010. – 6 b.
14

tomonga qadam tashlaydi, boshqa oyog'idan esa tayanch sifatida foydalananadi. Hujumchi tajavuzkor usulda burilishlarni bajaradi, bunda to'pni imkonli boricha tanasiga yaqinroq ushlaydi. Ortiqcha burilishni bajarish o'yinchini tayanch oyoqda orqaga o'girilishga majbur qiladi (boshqacha aytganda o'ng qo'l tirsagi chap tashqi oyoqqa nisbatan orqangin harakatlanadi). Ikkala burilishlarni oldinga orqaga bajarishadi. O'yinchil past tik turishi holatini saqlab qolishi, qo'lllar tirsaklarini kengroq ushlab turishi, oyoqlarni esa yelka kengligida ochib turishi surur. Bu to'pni berkitib turishga va qo'lni muvozanatlashgan holatda burilishga imkon beradi².

O'yin texnikasi tasnifiy tuzilishi jihatidan hujum va himoya texnikasiga bo'linadi. Ularning bo'limlari, guruhlari va usullari quyidagi tasnifiy andozada aks ettirilgan (3-andoza).

Andozadan ko'rinish turibdiki, o'yin faoliyati mohiyati va yo'nalish jihatidan hujum va himoya texnikasi bo'limlardidan iboratdir. Ular o'z naybatida, harakut guruhlari, harakat usullari harakat shakllaridan turkih topjan. Har bir holat usullari turlari va shakllari o'yin vaziyati jamoadoshlari va raqiblarning joylashishi ularning harakat texnikasi, hamdu to'pning uchish texnikasi yo'nalishiga qarab turli mazmunda yoki turli variantlarda ijro etiladi.

2.2. Hujum texnikasi

2.2.1. Holatlар va harakat usullari

Holatlар texnikasi. Busketbolga xos holatlар – bu o'yinchining savatni bog'ol qilish bilan bog'liq bo'lgan harakatni tezkor va savatni qo'shishni ta'minlashgi qaratilgan dastlabki holatlardir (7-turmlig'li a, b, v) – Jangovor tuyyorgarlik holati; b - to'pni egallagan o'yinchil holati; v - inqlibni yengib o'tishga va savatni ishg'ol qilishga bozirlangan o'yinchil holati.

Ushbu holatlarni texnik jihatdan to'g'ri qabul qilish muvozanatini englush va zudlik bilan to'psiz yoki to'p bilan harakatlanishi imkoniyatini yaratadi.

Jangovor tuyyorgarlik holatida basketbolchi oyoqlarini yelka tenejiga parallell yoki (yoki chap) oyog'ini biroz oldinga qo'yib joylaiditadi. Tizzular qisman ($150-155^{\circ}$) burilgan bo'ladi, tana vazni ichi oyoppa barobor tuqsimlanadi, gavda xiyol oldinga egiladi, nazar

oldinga qaratilgan bo‘ladi, o‘yinchi turg‘un holatni qabul qiladi, qo‘llar yarim bukilgan, ko‘krak balandligida joylashadi.

To‘p uzatishlar savatni misol qilish bilan yakunlanadigan barcha kombinatsiyalarning asosi hisoblanadi. O‘z ahamiyatiga ko‘ra, ular faqat to‘p tashlashlardan keyingi o‘rinda turadi. Biroq aksariyat o‘yinchilar to‘p uzatishlardan ko‘ra to‘p tashlashlarni takomillashtirishga ko‘proq vaqt sarf qiladilar. Shuning uchun mashg‘ulotlar davomida murabbiy to‘p uzatishlarga e’tiborini qaratgan holda mashg‘ulotni muvozanatlashi lozim.

O‘yinchi uchun asosiy tamoyillar

- sherikni his etish
- piriferik ko‘rish
- odindan qaytish
- hisob-kitob


I. Sherikni his etish mohirlik bilan to‘pni uzatayotgan o‘yinchi maydondagi har bir sheringining pozitsiyalarini hamda jismoniy va psixik qobiliyatlarini doimo his qilib turishi kerak. Ya’ni har bir o‘yinchining tezligi to‘pga egalik qila olishi malakasi, tajovuzkorligi (ham hujumda, ham himoyada) fintlarga nisbatan reaksiyasi shchit tagida o‘ynay olishi va to‘p tashlashlarni bajara olishi nazarda tutilmoxda.

II. Periferik ko‘rish. To‘p uzatayotgan o‘yinchining har doim ham bir xil potensial to‘p qabul qiluvchi o‘yinchiga va har bir himoyachiga to‘g‘ri qarab turishi ilojisi, hatto hojati yo‘qligi sababli u periferik ko‘rish qobiliyatini shu darajada rivojlantirishi kerakki, o‘z oldida 180 gradus atrofida sodir bo‘layotgan barcha hodisalarini ko‘ra olishi lozim. Mashg‘ulotlar tufayli to‘p uzatuvchi o‘yinchi boshini oddiy 90 gradusga o‘ngga va chapga burib, 360 gradus atrofida sodir bo‘layotganlarni ko‘rish orqali qamray olishi mumkin.

III. Oldindan qaytish yaxshi o‘yinchi hatto to‘pni qabul qilib olgunga qadar o‘yinni rivojlantirishning eng yaxshi variantlarini oldindan his qilishi mumkin. Sheriklarining hamda ularning himoyachilarining harakatlarini oldindan payqab to‘pni o‘z vaqtida kerakli zonaga yetkazib berishi mumkin.

IV. Hisob-kitob. Bu persentiv sifat, ya'ni sezgi orqali idrok etish bo'lib, uning kerak yoki yo'qligini qachon yuqoridan havolatib to'p uzatish poldan sapchitib yoki to'g'ridan to'p uzatish lozimligini to'pni qabul qilib oluvchi o'yinchi hujum uchun qo'llay vaziyatda turgan yoki turmag'anligini, kimga noqulay vaziyatga to'p uzatib bo'lmashagini mnqiblardan qaysi biri himoyada kuchliroq o'ynayotganligini aniqlashga imkon beradi. U yana to'pni qabul qilib oluvchi har bir o'yinchi uchun «unga tez emas, unga sekin emas», «unga baland emas, unga past emas» iboralar ni'mani anglatishni, shuningdek, har bir to'p uzatishni o'z vug'tida kerakli miqdorda ayyorlik hamda aldashlar bilan bajarish sururligini aniqlashga yordam beradi».


To'pni egallagan basketbolchining holati (2.1-a,b,v rasmlar). To'pni egallagan basketbolchining holati to'psiz basketbolchining holatiga, o'xshash bo'ladi, lekin to'p ko'krak oldida (2.1-b rasm) va ko'krakdan uzoqlashgan holatda (2.1-v rasm) bo'ladi, og'irlilik markazi oldingga ko'chiriladi, to'p barmoqlar va kaft "yostiqchasiga" joylnashtiladi (2.2-a, b, v, g rasmlar).



2.1 rasm. To'pni egallagan basketbolchining holati.

a - jangisor tayyorgarlik holati; b - to'pni egallagan o'yinchi holati;

v - rafibni yengib o'tishga va savatni ishg'ol qilishga hozirlangan o'yinchi holati



2.2-rasm. To'pni ushslash.

a – yon tomondan ko'rinishi; b – old tomonidan ko'rinishi; v – orqa tomondan ko'rinishi; g – to'pni ushlab turgan barmoqlar holati

To'pni ushslash usullari oyoq va gavdaning holati vaziyatga, raqibning qarshilik ko'rsatishi, o'yinchining shchitga nisbattan joylashishi joyi va aniq maqsadga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Ikki qo'lda ko'krakdan to'p uzatish. Raqibning to'liq ta'qib qilish – yo'q bo'lgan vaziyatlarda yaqin yoki o'rta masofadan turib sherigiga tez va aniq to'p yo'naltirishga imkon beruvchi asosiy usuldir.

Tayyorlov darajasi: to'p qo'l panjalarining yuqoridan oldinga va pastga keyin tana bo'ylab yuqoriga ilmoqsimon harakat bilan ko'krakka olib kelinadi, qo'l panjalari o'zi tomonga (maksimal yoziladi): «olinadi» tana og'irligi tizzadan bukilgan va oldinda turgan oyoqqa ko'chiriladi; orqada turgan oyoq kaftning oldindi qismida tayanchni saqlab qolgan holda tekislanadi tana vertikal holatda ushlab turiladi.

Asosiy faza: oldinda turgan oyoqni tekislash bilan bir vaqtida qo'lning yelka va tirsak bo'g'imlaridan maydonga nisbatan parallel holda izchil yozuvchi harakatlari boshlanadi tana esa yuqoriga-oldinga uzatiladi; oxirgi bo'lib qo'l panjalari ishga tushadi. Ular to'pni bosh barmoq orqali kerakli yo'nalishda unga teskari aylanma harakat bergen holda itarib yuboradilar («siqib o'tadilar») tana og'irli oldinda turgan oyoqqa ko'chiriladi.

Yakunlovchi faza to'p qo'ldan chiqib ketayotgan vaqtida qo'l panjalari bilak bo'gimidan to'liq bukilgan va shunday biriktirilgan bo'ladiki, bosh barmoq pastga tushirgan kaftning ichki tomonlari bir-biriga qaratilgan tekislangan qo'llar bo'shashtirilgan holda turadi. Keyin o'yinchi bir oz bukilgan oyoqlarda tayyor holatga keladi, tana o'g'irligi oyoq kaftlarining oldindi qismiga taqsimlanadi.

Ikki qo'lida pastdan to'p uzatish tuzulishi va maqsadiga ko'ra bir qo'lida to'p uzatish mashqidan farq qilmaydi. Farqi shundaki, to'p orqagu olinadi va doimo ikki qo'l bilan nazorat qilinadi, o'rta va jumjiloqning kuchi bilan qo'l panjalaridan to'pni kuchli «siqish» orqali to'pgi kerakli yo'nalish da kuchlanish beriladi. Yakunlovchi lahzada qo'l tafluri oldinga yuqoriga o'girilgan bo'ladi.

Tu'kidlab o'tilganidek keskin raqobat o'yinda shunday vaziyatlar yuzaga keladiki, faqat yashirinchha to'p uzatishlar evaziga to'pni shergiga etkazib berishi mumkin bo'ladi. Zamonaviy basketbolda qo'l ostidan yelka ustidan va orqadan oshirib yashirinchha to'p uzatishlar tez-tez yo'llaniladi, ular faqat bir qo'lida maksimal tez va raqib uchun kutilmganda bajariladi. Hujumchi to'p uzatishning tayyorlov durajasi vaqtini minimumgacha qisqartirishiga va harakatlar amplitudorini kamyonadirishga harakat qiladi. To'p uzatayotgan o'yinchisi periferlik ko'rishi hisobiga shergini ko'radi va tayyorlanayotgan ni puzatishning asl yo'nalishini oxirgi pallagacha yashiradi.

Yelkadan (boshdan) bir qo'lida to'p uzatish ham yaqin, ham uzoq masofadagi shergiga to'pni aniq etkazib berishga imkon beradi. D.H. To'pni egallab turgan o'yinchining tik turishi to'p uzatish bajariladigan qo'lida oyoq oldinda. Uzoq masofaga to'p uzatishda to'p ushlab turgan qo'lga nisbatan teskarri tomonidagi oyoq oldinga chiqarildi.

Tayyorlov fazasida qo'llarni bukish hisobiga to'p yelkaga chosholi yug'indoshthirildi. To'pning holati uzatayotgan o'yinchisi orqa yo'sebida joylashgan qo'l panjasini tomonidan nazorat qilinadi, u mukammal dorajada orqaga uzatilgan.

To'p barmoq va tishlovchi qo'l tirsagi oldinga chiqarilgan oyoq bilan bir vertikal chiziqda turadi; boshqa qo'l to'pni yon tomonidan ushlab turadi, tunc og'irligi orqada turgan yoqqqa ko'chiriladi. Uzoq masofaga to'p uzatishda to'p tomonga qo'lni siltanish bilan bir vaqtida tunc burladi (sherkakkacha bo'lgan masofa qancha ko'p bo'lsa tuncning qayrilishi shuncha ko'p bo'ladi).

Avvilay fazuda harakat qo'llar va oyoqlarning tezda yozilishi bilan boshlanadi, u tunc og'irligining oldinda turgan oyoqqa ketma-ket ko'chirilishi bilan amalga oshiriladi. To'p uzatadigan qo'l to'liq tel istamordan so'ng qo'l panjasining savalagandek harakati bilan nejissi tekislansh beriladi, to'p bosh barmoqdan chiqib ketadi, bu


o'yinchi teskari aylanma harakat beradi, to'pni ushlab turgan qo'l yon tomonga uzatiladi. To'pni uzoq masofaga uzatib berishda tezlanish oldida tananing teskari bo'lishidan faol foydalanadi. To'p uzatish jarayoni aynan shu harakatlardan boshlanadi.

Yakunlovchi fazasiga to'p uzatayotgan qo'l to'liq tekislangandan so'ng va qo'l panjalari to'pni chiqarib yuborgandan keyin o'yinchi qo'llarini bo'shashtiradi va tayyor turish holatiga qaytadi⁴.

Harakatlanish texnikasi. Harakatlanishlar yurish, yugurish, sakrash, to'xtash, burilish va aylanishlardan iborat bo'ladi. To'psiz yoki to'pni urib yurish ayrim holatlarda qo'llaniladi. Lekin "to'pni urib yurish" tushunchasi o'z ichiga turli o'zgaruvchan yo'nalishlarda raqibga nisbattan to'g'ri yonlanma yoki orqa bilan yugurish usullarini ham kiritadi.


Sakrash. Basketbolda sakrash ko'nikmalari real vaziyat, raqibning qarshilik ko'rsatish zichligi, navbatdagagi harakatning maqsadi va boshqa sharoitlarga qarab turlicha usulda ijro etiladi. Masalan, joydan, harakat davomida yoki harakat yakunida sakrab to'g'ri, o'ng yoki chap tomonlarga burilib (aylanib) to'p uzatish, ilish, savatga tashlash, to'p yo'nalishini qo'l bilan to'sish va shchitdan sapchigan to'pni takror savatga tashlash usullarini ijro etish ko'nikmalari o'ziga xos xususiyatlar bilan faqlanadi.

Joyda turib va harakat davomida o'ng yoki chap tomonga burilish (aylanish) elementlari ham raqibni chalg'itish uchun ustuvor ahamiyat kasb etadi (2.3 a, b va 2.4 a, b-rasmlar).



2.3-rasm. Joyda turib o'ng yoki chap tomonga burilish (aylanish).
a – oldinga; b – orqaga.

⁴ D.Brown. Handbook of Basketball Fundamentals and Drills. U.S.A. – 2010. – 25-27b.
20




24 rasm. Harakat davomida o'ng yoki chap tomonga burilish
(aylanish).


a - hirinchi takt; b - ikkinchi takt.

To'xtashlar. To'xtashlar hujumda muhim taktik ahamiyat kasb etadi. Turli yo'nalishli harakatlardan so'ng keskin to'xtash, to'xtab o'ng yoki chap tomonga burilish-aylanish navbatdagi harakatni muqandiga muvofiq ijro etishga imkon yaratadi.

To'xtash - ikki qadam, bir oyoqda xatlab, sakrab yoki sirpanib to'xtash usullarida bajarilishi mumkin (2.5-, 2.6 -rasmlar). Bunday usullarda to'xtash inertsion qarshilikni yengish va muvozanatni englashtiga yordam beradi.



25 rasm. Ikki qadamda to'xtash




2.6-rasm. Sakrab to 'xtash

Sakrashlar. Sakrash basketbolda asosiy harakat ko‘nikmalarini tarkibiga kiradi. Bu ko‘nikma to‘pni uzatish, ilish, savatga tashlash, yo‘naltirilgan to‘pni to‘sish, shchitdan sapchigan to‘pni ilish yoki qayta savatga tashlash usullarini ijro etishda qo‘llaniladi. Sakrash joyida turib, harakat davomida bajarilishi mumkin. Sakrab ijro etiladigan o‘yin usullarining turiga qarab, uning turi (tuzilishi) ham har xil bo‘ladi: vertikal, balandga – uzunlikka (yoysimon – diagonal), sakrab o‘ng yoki chapga burilish - aylanish asosida amalga oshiriladi.

Zamonaviy basketbolda to‘p egallash va uni boshqarish ustuvor jihatdan bir qo‘lda amalga oshirilayotgani ko‘zga tashlanadi.

To‘pni ilish texnikasi. To‘pni ilish bir yoki ikki qo‘llab bajarilishi mumkin. Ilishe sakrab, turgan joyda, harakat davomida baland, o‘rtalik yoki past balandlikda, yoki erdan dumalab kelayotgan yoki erdan sapchigan to‘pgan nisbatan bajariladi. To‘pni ikki qo‘l bilan ilish, olish to‘pni egallahning eng oddiy va ishonchli usuli hisoblanadi.

Joyda turib ikki qo‘l bilan ilish (13-rasm). Bu usulda to‘pni ilishda tana turg‘un joylashgan, qo‘llar tirsakdan 85 gradus atrofida bukilgan holatda, nazar to‘pgan qaratilgan holatda bo‘ladi.



2.7-rasm. Joyda turib ikki qo'l bilan ilish


To'pni ilishda avval qo'llar yoziladi va qo'llarni to'p bilan "uchishish" vaqtida to'p ushlanib, ko'krak tomon yana qisman bukhaldi. Hunday holat to'pni uchish tezligi yo'nalishi va ushbu ilishning qarib turlichcha o'zgarishi mumkin. Muhimi oyoqlar tano va qo'llarni "umurtizatsion" harakatlanishi lozim bo'ladi.

Pasi yo'nalishda uchib kelayotgan to'pni ilish (2.8-rasm). Bu ilishda avval tananing umumiyligi og'irlik markazi maksimal tushuriladi va parallel ravishda chap yoki o'ng oyoq oldingga tizza qismidan bukhaldi, gavdu oldingga qisman oldingga egilib qo'llar to'pga qarshi tomon yoziladi, keyin qo'llar to'p bilan uchrashishi bilan qo'llar tirsak bo'yinda qisman bukilib umumiyligi og'irlik markazi yanada pastroq uchitilishi, to'pni ilish yakuni chap yoki o'ng oyoq bukilgan joyda tugaydi.



2.8-rasm. Post yo'nalishda uchib kelayotgan to'pni ilish

Oshishda baland uchib kelnyotgan to'pni ilish (2.9-a, b, v, g rasmida). Hunda ilish uchun uchrash va yozilgan barmoqlar bilan qo'llarni keskin yuqoriqa chiqarish kerak (katta barmoqlar erkin yozilganda bo'ladi). To'pni barmoqlarga tegish vaqtida, qo'llar to'p bilan umurtizatsion tartibda ko'krak tomon yana bukiladi.



2.9-rasm. Boshdan baland uchib kelayotgan to‘pni ilish
 a – dastlabki holat; b – sakragan holat; v – to‘pni ilib olish holati;
 g – so‘nggi holat.

To‘pni bir qo‘lda ilish – asosan, yon yoki orqa tomonlardan baland uchib kelayotgan to‘pga nisbatan ijro etiladi (2.10-rasm). Bunday to‘plarni ilish joyda, sakrab yoki sakrab o‘ng yoki chap tomonlarga burilib – aylanib bajarilishi mumkin.




2.10-rasm. To‘pni bir qo‘lda ilish

Harakatni tayyorgarlik qismida o‘yinchi to‘pni yo‘nalishiga qarab, o‘ng yoki chap qo‘lini to‘p tomon cho‘zadi. To‘p barmoqlarga tegish vaqtida qo‘l tirsakdan 90 gradus atrofida bukiladi. So‘ng ikkinchi qo‘l ham to‘pni qamrab oladi va harakatni yakunlovchi qismida qo‘llar, tana va oyoqlar amartizatsion tartibda jangovor holatni ta‘minlaydi.

Dumalab kelayotgan to‘pni ilish. Bu usulni bajarishda avval to‘pni yo‘nalishiga qarab, o‘ng yoki chap oyoq oldinga bir qadam tashlanib “yengil” va qisman bukiladi, ortda qolgan oyoq ham qisman

bukilib bo'ladi. Qo'l to'pga tegish vaqtida oyoqlar tizzadan qisman (90 gradus atrofida) bukiladi, so'ng to'p ushlanib muvofiq oyoq qandam oldinga tashlanib, og'irlilik markazi ko'tariladi va shu vaqtida to'pgan ikkinchi qo'l ham jalb etiladi (2.11- a, b, v, g, d, e rasmlar).



2.11-rasm. Dumalab kelayotgan to'pni ilish

To'xtatgandan so'ng sakrab ilishda – o'yinchi harakatni oyyorg'orlik qismida to'pni yo'nalishiga qarab, bir yoki ikki qo'lini to'p tomon uzatadi. Havoda to'p qo'llga (yoki qo'llarga) tegish vaqtida to'p yoki qo'llar amartizatsion tartibda ko'krak tomon burilishi bilan bir qisborg' o'yinchi bukilgan oyoqlarga yengil qo'nadi. Ana shu qo'shiq ijtim (fuzardon) so'ng o'yinchi to'p bilan navbatdagi harakatga quyidagi holatni qabul qiladi.

To'p uzatish Zamonnayiv basketbolda to'p uzatish o'yin usuli joylashishi yoki harakatlanayotganligi, raqiblarning joylashishi yoki uchun qoshilik ko'sntish zichligiga qarab quyidagi usullarda ijro etilishi mumkin:

joydan pastdan bir qo'llab baland, past, yerga urib sapchitib va dumalabtib uzatish;

harakat davomidan ikki qo'llab ko'krak oldidan baland, past, yerga urib sapchitib va dumalatib uzatish;


shu usullarni bir qolda bajarish;

- shu usullarni bosh ortidan bir qo'llab bajarish;
 - shu usullarni bosh ortidan ikki qo'llab bajarish;
 - sakrab bosh ortidan ikki qo'llab to'g'ri yo'nalishda uzatish;
 - sakrab o'ng yoki chap tomonga burilib-aylanib bosh ortida ikki qo'llab uzatish;
 - sakrab bosh ortidan bir qo'llab to'g'ri yo'nalishda to'p uzatish;
 - sakrab o'ng yoki chap tomonga burilib-aylanib bosh ortidan bir qo'llab uzatish;
 - joydan yoki harakat davomida yelka oldidan bir qo'llab uzatish;
- Yuqorida qayd etilgan uzatish usullari o'ziga xos mazmun va yo'nalishlarda 3 faza davomida ijro etiladi.


Tayyorgarlik fazasi – to'p qisman orqaga - o'zi tomon tortiladi, gavda qisman orqaga egiladi, oyoqlar qisman egiladi.

Asosiy faza – oyoqlar yozilib, og'irlik markazi oldinda turgan oyoqqa ko'chiriladi, gavdani oldinga harakatlantirib, qo'l yoki qo'llar keskin to'p bilan yoziladi va uni siltab, to'pni muvofiq yo'nalishda uzatiladi.


Yakunlovchi faza – qo'llarning bilak qismi va barmoqlar yordamida uzatilayotgan to'pga yo'nalish beriladi, oyoq va tananing inertsion harakati asosida to'p kerakli tomonga "uzatiladi" (2.12, 2.13, 2.14, 2.15, 2.16, 2.17, 2.18-rasmlar).




2.12-rasm. Ikki qo'llab ko'krak oldidan to'p uzatish



2.13-rasm. Bir qo'llab yelkadan to'p uzatish




2.14-rasm. Bosh ortidan bir qo'llab to'p uzatish




2.15-rasm. Bosh ortidan ikki qo'llab to'p uzatish



2.16-rasm. Pastdan bir qo'llab to'p uzatish



2.17-rasm. Pastdan ikki qo'llab to'p uzatish



2.18-rasm. Harakatda yelkadan bir qo'llab to'p uzatish

To'p olib yurish ko'pincha turli xil zarurat darajasida foydalaniladigan quroldir. O'yinchilar ko'p hollarda to'p olib yurishdan haddan ortiq foydaladilar, o'zlarini «super» dribler qilib ko'rsatishni yoqtiradilar, garchi ular faqat to'p olib yuradilar, xolos. Bu bobda to'p olib yurish asoslari, shuningdek, to'p olib yurishni rivojlantirish bo'yicha ayrim tavsiyalar ko'rib chiqiladi. Asosiy vazifa

o'yinchini o'zining to'p olib yurish mahoratini qanday namoyon qildiiga o'rgatishdir. Asosiy tamoyili – malakali driblerchilarga hamda sotinmali ostinoga aylantirishdir.

To'p olib yurish qo'llanilayotgan paytda o'yinchi bir nechta mohor turmoctilarga e'tibor qaratishi lozim: tizzalar bukilgan bo'lishi va to'p qo'l barmoqlari uchi nazorati ostida bo'lishi kerak. Odadta, to'p o'yinchining belidan yuqorida turmasligi kerak. To'pni olib yurish tezligi yuqoriga ko'tarilib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. O'yinchini to'p olib yurishni shunday tezlikda bajarishi kerakki, bu tezlikda u harakatlanishi, to'xtatishi, harakat yo'nalishi va suratini o'zgartirishi va bunga to'p ustidan nazoratni yo'qotib qo'ymasligi zarur. Juda yaxshi dribler bu barcha elementlarni yuqori tezlikda bajarishiga qodir bo'lidi⁵.

To'pni urib harakatlanish (olib yurish yoki yugurish). To'pni urib harakatlanish to'g'ri va keskin o'zgaruvchan yo'nalishlarda yurish va yugurish asosida ijro etiladi.

Shunday harakatlanishlar to'pni o'ng yoki chap qo'l bilan urib to'g'ri yo'nalishida va yonlanma (o'ng yoki chap yonlanma) holatda olib yugurish, uljib yugurish orqali ijro etiladi.

To'pni urib harakatlanish o'yin vaziyati va ehtiyojiga qarab qayidagi holatlarda qo'llanilishi mumkin.

beb in shiddatda qayti hujum uyushtirishda;
qapildorning zikh qarshiligini yorib o'tishda;

libnaya chon "ildab-chalg'itib" o'tib to'pni "ochilgan" (qo'lay
orda turpan) shartgiga uzunish yoki savatga tashlash uchun
baobabtoshishda.

toplarning o'z oldiiga chaqirish", raqiblar va o'z o'yinchilarining
holatlari yoki raqiblar harakatini tahlil qilishda va hisobni saqlash
mu'min bo'lgan chozikh holatlarda qo'llaniladi.

To'pilib yurish uchun o'yinchilarga ko'rsatmalar:


To'p olib yurishdan to'p bilan zonaga kirib borish, savat
zonaga o'tib uchun burchakni yaxshilash, to'pning yo'qotilishini
o'ldirish yoki shartigidan, to'siqdan foydalanishi hamda keyinchalik
o'lib keltish moqaddida toydalomish.

Savatga tomon ochiq joy bo'lmasa, to'p olib yurish zonasiga
kiramadik.

- Maydondagi barcha o'yinchilarni ko'rish uchun boshingizni tekis tutish.
- To'p olib yurishdan raqibga qarshi foydalanish vaqtida to'pni himoyachidan berkitib turishi uchun bo'sh yo'llardan foydalanish.
- To'p olib yurishni qo'lay bo'lgan qo'lingizda bajarish.
- Maydonning kuchli tomonlari va yon chiziqlar hamda maydon burchaklaridan uzoqroqda yurish.
- To'pni maydonning ikkala tomonida hech qachon olib yurmaslik.
- To'pni himoyachidan himoya qilish va yaxshiroq nazorat qilish uchun belingizdan pastroqda ushlab turish. To'pni tez sur'atda olib yurishda to'pni ko'krakka yaqinroq ushlashga harakat qilish.
- To'p olib yurish maydon bo'ylab harakatlanish uchun qo'llash.
- To'p olib yurishni boshlashdan oldin himoyachidan o'tib ketishi uchun bosh hamda yelkalar bilan aldamchi harakatlarni bajarish.

To'p olib yurishdagи keyingi mashqlar to'pni mukammal egallab olishni o'rgatish hamda to'p ustida ishlashga e'tibor berish uchun mo'ljallangan. Bu mashqlardan ayrimlari butun maydon bo'ylab guruh bo'lib, ayrimlari esa birga-bir bajariladi⁶.

Dastlabki holatda to'pni o'ng qo'l bilan urib harakatlanishda chap oyoq oldinda o'ng oyoq orqada, chap qo'lda urib harakatlanish uchun oyoqlar aksincha joylashadi. Oyoqlarni bukilish-yozilish burchagi va gavdaning harakatlanish dinamikasi to'pni urib harakatlanish tezligi, harakat yo'nalishi va chalg'ituvchi harakat (fint) turiga qarab har xil bo'ladi (2.19-rasm).



2.19-rasm. To'pni o'ng qo'l bilan urib harakatlanish

To'pni baland sapchitib urib harakatlanish. Bu usul raqib qarshiligi bo'limgan holatda yoki u uzoq oraliqda bo'lganda shchit

⁶ D.Brown. Handbook of Basketball Fundamentals and Drills. U.S.A. – 2010. – 18b.

tomon tezkor harakatlanish uchun qo'llaniladi. Bunday usul umallyotda “tezkor dribling” deb yuritiladi.

To'pni past sapchitib urib harakatlantirish. Ushbu usul raqib yinqlar turgan bo'lsa, yoki u zinch qarshilik ko'rsatayotgan bo'lsa, urib borilayotgan to'pni urib chiqarish xavfi bo'lsa qo'llaniladi. Bunday holatda to'pni urib yurish raqibga nisbatan yonlanma yoki orqama holatda (to'pni “berkitib”) ijro etiladi. To'pni past sapchitib urib harakatlanish imkoniyati oyoqlarni tizza qismidan ko'prok bukish roq'irlik markazini pastroq tushirish) evaziga amalga oshiriladi.

To'pni baland va past sapchitib urib harakatlanish ko'rish nazoratida yoki ko'rish nazoratisiz ijro etilishi mumkin.

Ikkita to'p bilan to'p olib yurish. To'p olib yurish malakalarini yaxshilashning eng yaxshi usuli ikkita to'p bilan to'p olib yurishni amalga oshirishni sinab ko'rishdir. Ikkita to'p bilan bajariladigan bir mukta mashqlar mavjud. Bu bo'limda biz ulardan oltitasini muhokama qilamiz.

Turgan joyda ikkita to'p bilan to'p olib yurish

Mashqning maqsadi: To'p olib yurish vaqtida tananing holati hamda to'pni to'g'ri his qilish ustida ishslash.

Mashqning bayoni: Har bir o'yinchida ikkitadan to'p (yoki to'plar etishmara juftliklarga bo'linishlari kerak). Mashq bir vaqtning o'zida ikkita to'p bilan to'p olib yurish qilishdan boshlanadi. O'yinchilarining nigoji to'g'riga qaratilgan, tizzalar bukilgan va to'plar sonlardan sonlariga ko'turilindi. To'p olib yurish qo'l va barmoqlari uchi bilan bajarilishi kerak. O'yinchilar mashqni 30 sekunddan bajarishlari hamda sherkilari bilim almashishlari zarur.

Ayarishning ko'satmasi: O'yinchilarga oyoq sonlari qancha past turon, to'p olib yurish shuncha pastroq bo'lishini eslatib turish. Bu mashqni umaliyotda to'pni nazorat qilish ustida ishslashning bir qismi istatidn har kuni bajarish lozim.

Ikkita to'p bilan navbatma-navbat to'p olib yurish

Mashqning maqsadi: To'p olib yurish vaqtida tananing to'g'ri holati hamda to'pni to'g'ri his qilish ustida ishslash.

Mashqning bayoni: O'yinchilar joyida turadilar, lekin bir vaqtning o'zida ikkita to'p bilan to'p olib yurish qilishi, ular har xil qo'lda navbatma-navbat to'p olib yurish bajarilishi lozim. To'p olib yurishning barchu asoslari bir hit: to'p sonlardan pastroqda, tizzalar bukilgan, mos tushirilgan, to'p qo'l barmoqlari uchida ushlab turiladi.

Murabbiyning ko'rsatmalari: To'pni sonlardan pastroqda ushslash muhim ekanligini namoyish qilish maqsadida o'yinchilar bu mashqni bajarishda turishlari kerak. To'plar har tomonga sabchib ketadi. O'yinchilarga ularning sonlari qancha past tursa, xatoga yo'l qo'yish imkoniyati shuncha kamroq bo'lishini tushuntirishi lozim. Va aksincha, o'yinchilar turib qolsalar xato qilish imkoniyati ortadi va to'p ustidan nazorat qilish imkoniyati yo'qotiladi. Bu mashq har kuni 30-60 soniya bajarilishi kerak.

Ikkita to'pni bir vaqtning o'zida tezlik bilan olib yurish

Mashqning maqsadi: To'p olib yurish vaqtida tananing to'g'ri holati va to'pni to'g'ri his etish ustida ishslash

Mashqning bayoni: Sirt chizig'ida ikki kishidan beshta qator turadi. O'yinchilar bir vaqtning o'zida ikkita to'p bilan yurishni katta tezlikda bajarishadi. Ular jarima chizig'igacha etmay maydonning yarimigacha boradilar va orqaga kaytadilar. Ular sirt chizig'iga etib kelganlarida to'pni qatorda keyingi o'yinchiga uzatadilar. O'yinchilar to'g'riga qarab turishlariga, tizzalari bukilganligiga hamda to'pni sondan yuqoriroqqa ko'tarib yubormasligiga e'tibor qaratish. To'p olib yurish qo'l barmoqlari uchi bilan bajarilishi kerak.

Murabbiyning ko'rsatmalari: Ancha baland bo'yli o'yinchilar bu mashqni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bunday o'yinchilar yurishdan boshlashlari, keyin yengil yugurishga, so'ngra mashqni tezlik bilan bajarishga o'tishadi. Agar biron-bir o'yinchisi bu mashqni bajara olmasa, u holda mashqni u burchakdan bu burchakkacha bajarishi mumkin. Bu mashq davomida o'yinchilar to'pga emas, balki polga qarashlari kerakligini eslatib qo'yish. Mashqni har kuni 30-60 soniya davomida bajarish kerak.

Ikkita to'p bilan yuqori tezlikda to'p olib yurish

Mashqning maqsadi: To'p olib yurish vaqtida tananing to'g'ri holati va to'pni to'g'ri his qilish ustida ishslash.

Guruqli himoya harakatlari. Guruqli himoya harakatlari individual harakatlardan iborat bo'lib, unda ikki yoki uch o'yinchi ishtirok etadi. Ularning o'zaro harakati jamoaning himoyaga qaratilgan ustuvor vazifasini hal qilishga mo'ljallanadi. Ikkii himoyachining o'zaro harakati – hujumchilarni qo'riqlash (straxovka), bir harakatdan ikkinchi harakatga almashinish (ko'chish), guruqli ishtirokida to'pni olib qo'yish va barcha hujumchilarga qarshilik ko'rsatish bilan ifodalanadi.



3.15-rasm. To'pdan uzoq tomonda "qo'riqlash" himoyachilarning guruqli o'zaro harakatlari



3.16-rasm. To'siq qo'yishda "almashish" himoyachilarning guruqli o'zaro harakatlari

¹⁶ D.Brown. Handbook of Basketball Fundamentals and Drills. U.S.A. – 2010. – 70b.

IV BOB. O'YIN TEXNIKASIGA O'RGAТИSH VA TEXNIK TAYYORGARLIK

4.1. O'rnatish asoslari

O'rnatish samaradorligi o'qituvchi-murabbiyning kasbiy pedagogik mahorati bilan belgilansa, o'zlashtirish samaradorligi shug'ullanuvchining shu jarayonga nazariy va amaliy jihatdan tayyotlik darajasiga bog'liqdir.

Sport amaliyotiga oid biror-bir harakat (usul) texnikasi yoki taktikasiga «o'rnatish» ularni «o'zlashtirish» «mukammallashtirish» atamalari mantiqiy jihatdan serqirrali va kengqamrovli manomizmunga ega bo'lib, o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi.

«O'rnatish», «o'zlashtirish» va «mukammallashtirish» «samaradorligi» o'rgatuvchi trenerning kasbiy-pedagogik mahorati va o'rganuvchining qobiliyati (iste'dodi) bilan belgilanadi. Lekin «trener-sportchi» (o'rganuvchi) juftligining o'zaro faoliyatida trener boshqaruvchi tashkilotchi o'rgatuvchi va tarbiyachi rolini o'ynosti darkor. Boshqacha qilib aytganda, agar sport to'garagiga kelgan bola momonan vu ruhan sog'lom bo'lsa, biroq istedodi (qobiliyati) yetarli bo'lmasa ham trener o'zining bilimi, kasbiy mahorati va ijodiy edobliyatini «ishga» solib, shu bolani iqtidorli sportchi qilib etishtirish mo'ljaliyatini olmog'i lozim. Ma'lumki, bolada harakat qobiliyati hisobiga hisob qobiliyatlar kabi nasliy omillarga asoslangan bo'ladi. Ushbu qibiliyatlar hayot davomida turmush tarzi va boshqa shart-daroshtlarning qarib u yoki bu darajada shakllanib boradi. Bazi bir bolalarida nasliy qibiliyatlar yoki biror-bir harakat elementlari organizmning muvosiqi «joylarida» chuqur joylashishi mumkin. Agar bu toqtingchoq, «uyatchang» bo'lsa, bu qobiliyat yoki elementlar o'shilmasligi mumkin. Aynan shunday holatlarda trenerning istedodi maxsus qobiliyat va elementlarni «ochib» bermog'i va shakllantrilmog'i darkor. Buning uchun murabbiy bolaning barcha tindokiyatlari, shu jumladan organizmga chuqur joylashgan harakat asoslaburni maxsus standart testlar va o'yinsimon mashqlar yordamida aniqlash hunda ularni «ishga tushirishi» zarur bo'ladi. Shunday ekan o'rnatishni «o'zlashtirish» va «takomillashtirish» jarayonlari murabbiy-sportchi-murabbiy-sportchi funksional tizimi asosida tushkel qilinishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Agar

«o'rgatuvchi» va «mukammallashtiruvchi» mashqlar hajm-shiddat-yo'unalish jihatlaridan maqsadga muvofiq bo'lsa, bolaning yoshi ulg'aygan sari mashqlar hajmi va shiddati asta-sekin «to'lqinsimon» prinsipda orttira borilsa, falsafiy qonuniyat bo'lmish «shakl» (qaddi-qomat) ham, «mazmun» sayqal topib boradi. Bordiyu ushbu jarayonda xatolikka yo'l qo'yilsa, ya'ni «o'rgatuvchi» va «mukammallashtiruvchi» mashqlar betartib, zo'rma-zo'raki qo'llansa, falsafaning ikkinchi qonuniyati «sabab va oqibat» yuzaga keladi – bolaning «shaklida» (qaddi-qomati) ham, harakat «mazmunida» ham salbiy o'zgarishlar (jarohatlanishi, shikastlanish va h.) ro'y beradi. Demak, «o'rgatish», «o'zlashtirish» va «mukammallashtirish» jarayonlari integral pedagogik jarayon bo'lib trenerga katta mas'uliyat yuklaydi.

Har qanday darajada ishlayotgan murabbiyning bevosita vazifasi basketbolchi oyoqlari ishlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlardan foydalanishdan iborat. Boz ustiga, murabbiy har doim shuni yodda tutishi kerakki, u o'yinchilariga bajarish uchun berayotgan har bir hujum va himoyalanish mashqlari, bиринчи qavatda, oyoqlarni ishini takomillashtirishga mo'ljalangan mashqlardir. Ushbu bobda hujumda basketbolchi oyoqlari ishlashining uchta tmoni ko'rib chiqiladi: sakrab turib to'xtash, burilishlar, bo'sh joyga tez chiqish yoki harakat suratini o'zgartirish, harakat yo'nalishini o'zgartirish.

Sport texnikasi nazariyasida "model (etalon) texnika", "maqbul (ratsional) texnika" va "individuall texnika" tushunchalari mavjud. Sport texnikasiga o'rgatish jarayoni bu "model" yoki "ratsional" texnika nusxasini ko'chirish, uni qanday bo'lsa, shunday mazmunda o'zlashtirishga qaratilmaydi, aksincha, bu "nusxalar" namuna sifatida xizmat qilishi lozim, shu "nusxalarga" mo'ljal qilgan holda o'rgatilayotgan usulni o'z imkoniyatiga qarab "shaxsiy mazmunda" ijro etilishini (yoki o'rganishni, o'zlashtirishni) anglatadi.

4.2. O'rgatish bosqichlari, uslublari, vosita va prinsiplari

Basketbolga xos o'yin usullari (ko'nikmalari) texnikasiga o'rgatish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- ho'lat va harakatlanishlarga o'rgatish;
- hujumda to'pni boshqarishga o'rgatish;

oshiriladigan harakatlari barcha o'yinchilar faolligi, shu jumladan individual va guruh ishtirokida amalga oshiriladigan taktik usullar mukammalligi hamda ularning serqirraligi bilan belgilanadi.

Jamnonning himoya harakatlari uch hil yo'nalishda amalga oshiriladi:

- birlashtirilgan (konsentratsiyalashtirilgan);
- maydon bo'ylab teng taqsimlangan;
- oralash himoya tizimi.

To'pni olib qo'yishda butun jamoa bilan kurashish lozim. Bu uchun bu vazifa faqat orqa chiziq o'yinchilarining zimmasida va yana qayd yordi boshqacha fikrlar yo'q. Gap shundaki, butun jamoa uyusibqoq holdi kurash olib borgan taqdirdagina to'pni olib qo'yishlar bo'yicha raqibdan o'zib ketish mumkin. Himoyada to'pni olib qo'yish uchun to'p tushlangan paytda o'yinchi uning chiroyli uchishiga qarab qolishi yoki to'p halqa yonidan o'tib ketishini samodan iltijo qilib turtebi kerak emas. Bu vaziyatda himoyachida refleks ishga tushishi borak, yani orqasini qo'yishi lozim. O'ziga yaqin turgan o'yinchini kiritish uchun savatdan to'sishi kerak. Buning uchun raqib tomoniga qadam takdimoti unga orqamacha burilib oyoqlar keng qo'yiladi tirsaklar dengiz yonga chiqriladi va raqib harakatlari to'sib qo'yiladi. Eng muhimmiy uni harakatlantirmaslik, itarmaslik kerak, balki turgan joyida bo'lib qo'yish o'zi uchun qulay vaziyatda qolish zarur. Ba'zan to'liq qolish uchun qolish uchun vaqt yetishmay qoladi, shunda yaqinda o'yinchiga oddiy to'siq qo'yish ham mumkin.

To'p pastigi tusha boshlagandan so'ng qarshisiga harakatlanish bo'yin hujum qilish kerak. Har bir himoyachi bittadan qarshisini obchit tagidan to'pning o'zi qo'ldan chiqib ketadi yoki o'yinchini yigorib kelib uni ko'tarib oladi. Biroq bari-bir keskin harakatini bojirish lozim. Hujumda hamma o'yinchilar to'p tushlangan bo'ling savut tomoniga bormaydilar. Chunki yorib o'tish etiboridagi etiborli zarur bo'ladi. Shuning uchun himoyaning qolish uchun to'pni olib qo'yish uchun savatga yaqin turgan 3 ta qolish uchun qolish uchun savatdan iborat. Agar hujumchi savatdan uzoqda turgan bo'lib (metrda - metrda) unga orqamacha to'siq qo'yish oqilona qoladi, uchda menyovchi qilish himoyachidan o'tib ketish uchun katta hisob beriladi.


Bundan o'yinchilarni barturnaf etish uchun savatdan to'siq qo'yish uchun to'p qolish uchun tomoniga qarib turish lozim. Agar raqib to'pni olib

qo'yishda umuman ishtirok etmagan bo'lsa, jamoa himoyasini ehtiyyotlay turib sheringizinga to'pni olib qo'yishga yordam bering¹⁸.


Birlashtirilgan himoya tizimi – raqiblarni shchitdan uzoqroq oraliqdan savatga to'p tashlashga majbur qilishni anglatadi. Bunday taktik yo'nalish raqibni yakkama-yakka himoyalash (ta'qib etish) va zonali himoyani tashkil qilishga asoslanadi.

Raqibni yakkama-yakka (shaxsiy) himoyalashda har bir o'yinchini "o'z raqibini" ta'qib qiladi. Bunday harakatlar uch ochkoli chiziq atrofida amalga oshirilishi lozim.

Zonali himoyani tashkil qilish hududiy prinsipga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda har bir himoyachi o'zi uchun belgilangan hududni himoya qiladi.



3.21-rasm. 2-3 tizim




3.22-rasm. 2-1-2 tizim


Ushbu himoya tizimi bir necha yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. 2-3 tizim (3.21-rasm);
2. 2-1-2 tizimi (3.22-rasm);
3. 1-2-2 tizim (3.23-rasm);
4. 1-3-1 tizimi (3.24-rasm);
5. 3-2 tizimi (3.25-rasm).

¹⁸ D.Brown. Handbook of Basketball Fundamentals and Drills. U.S.A. – 2010. – 53-54b.



3.11 rasm. Zonaga kirib borish va erkin jarima chizig'idan qanotga to'p uzatish.



3.12 rasm. Okqa positiya va oldamchi harakat bilan siljib harakatlanish


Bu muddagi himoyachki bilan va himoyachisiz bajarish mumkin. Buning buasi bichidagi ilovai guruhlarga bo'lindi. Ikkita himoyachi turma shayxlig' idagi pozitsiyani xallaydi, to'p ushlab turgan o'yinchini qaytaradan hunda ingoyligan erkin jarima chizig'idin turadi. To'p ushligiga o'shoitib ikkita himoyachchi zonasiga kirib boradi. Zonaga kirdi u ni qur'otli yuboradil yoki sakrab turib to'p tashlash uchun qarangiga yoki bera habba to'p uzatdi.

Hujum qilgachigan o'shoitililar belgilangan miqdorda shunday muddagi sonalg'ozishchilari bozim shundan so'ng ular himoyachilar yoki jami ammadorlari. Bu hujum qilish tushunchalarini o'rganish kerakda to'p ushlashchilar ustida tashish uchun yaxshi mashq hisoblanadi.

Undan tashqari, bu mashq maydonning turli xil qismlariga bo'lib yuborilishi va turli xil zonalardan hujum qilish usullarini o'rgatish uchun qo'llanilishi mumkin. Masalan, himoyachilar markaziy chiziqdan va zonadagi himoyachilarining ikkita yon chizig'iga ishora qiluvchi ba'zaviy chiziqdan turib ishlashi mumkin¹⁹.

Bu mashq avvalgi mashq singari bajariladi, faqat bu mashqda himoyachi paydo bo'ladi.

Peremetrdagi o'yinchi savat oldidan o'yinchini qanotdan to'p bilan ta'minlaydi va burchakka siljitadi. Savat oldidagi o'yinchidan qayta to'p qabul qilib olgan paytida uning tomoniga himoyachi chiqa boshlaysidi. Shunda o'yinchi aldamchi harakatni bajaradi bir marta to'pga tegishi bilan dribblingni (to'pli o'yinchi) amalga oshiradi va sakrab turib to'p tashlash uchun to'xtaydi²⁰.



3.25-rasm. Yorib kirish va erkin chiziq qanotga to'p uzatish

Kirib borish va to'p uzatmasdan to'p tashlash. Yorib kirish ham to'siqlarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan o'zaro harakatlar hisoblanadi. Himoyachilar uchun to'pni bir-biriga uzatib o'ynash noqulay bo'lgan paytda uning qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Ta'qib qilinayotgan o'yinchilar bilan almashgandan ko'ra yorib kirish himoyadagi o'yinchilarga raqiblarini muntazam ta'qib qilib turishga imkon beruvchi harakatlarni nazarda tutadi.


¹⁹ D.Brown. Handbook of Basketball Fundamentals and Drills. U.S.A. – 2010. – 49b.

²⁰ D.Brown. Handbook of Basketball Fundamentals and Drills. U.S.A. – 2010. – 48b.


Buning ikki xil yo'li mavjud: a) ikkita hujumchi orasidan yorib kirish, b) o'z sheriigi va to'siq qo'yayotgan hujumchi orasidan yorib kirish.

Ikkinci usul ancha samaraliroq lekin amalga oshirish qiyinroq. Ushbu hujumchi yaqindan ta'qib qilayotganda foydalanish mumkin va himoyachidan vaziyatni yaxshi nazorat qilishni tezkor hamda qat'iy barakatlarni taqazo etadi. Ikkinci usulda yorib kirishni bajarishda o'saro barakatlur muvaffaqiyatini sherikning o'zi ta'qib qilayotgan o'yinchidan o'z vug'tida bir qadam orqaga chekinishi belgilab beradi. Aynan bo'shi qolgan hudud orqali himoyachi «o'zining» hujumchisi unqidan o'tib oladi va pozision ustunlikka ega bo'lishiga yo'l qo'yinaydi. Sherigining yorib kirishidan so'ng orqaga chekingan himoyachi o'zining dastlabki holatini tiklashi kerak. Hujumchilarning ko'rsiga qarshi barakatlarnishida to'p ushlab turgan o'yinchi unqidan yurgan himoyachi yorib kirishni amalga oshirish zarur²¹.


Mardon bo'ylab teng taqsimlangan tizim – himoyachilarни engilksi boshlagan hujumidan oldinroq faol ta'qib qilinishi anglatadi. Bu urinda ham shaxsiy va zonali pressing (siqib ta'qib qilish) qo'yinadiet.



3.26-rasm. 1-2-2 tizim



3.27-rasm. 1-3-1 tizim



3.28-rasm. 3–2 tizim

Aralash himoya tizimi yuqorida qayd etilgan ikki himoya tizimiga asoslanadi. Bunday tizim raqib jamoasida etakchi ijrochilar (liderlar) mavjud bo‘lgan holda qo‘llanishi o‘ta ahamiyatli bo‘lib, ularni shaxsan zinchimoyalashga da’vat etadi.

Reyting-nazorat va bilimni baholash testlari:

1. Hujumda ikki o‘yinchining o‘zaro harakatlarining asosiy usullari?

- a) maydon yoni bo‘ylab tez yorib o‘tish
- b) “to‘pni uzat va chiq” to‘siqlar “to‘qnashtirish”
- c) yondagi hujumchi va orqa chiziqdagi ikki o‘yinchining o‘zaro harakatlari
- d) markaziy o‘yinchi va orqa chiziqdagi ikki o‘yinchining o‘zaro harakatlari

2. Himoyada uch o‘yinchining o‘zaro harakatlarining asosiy usullari?

- a) juft to‘siq “kichik sakkizlik”
- b) “sapchigan to‘p uchun kurash” son jihatdan kam bo‘lgandagi o‘zaro harakatlari
- c) ikki yon hujumchilar va markaziy o‘yinchining o‘zaroharakatlari
- d) “uchburchak”, “uchlik”, “ikki o‘yinchiga to‘qnashtirish”

3. Tez yorib o‘tishning asosiy variantlari?

- a) to‘pni o‘yinga kiritishdagi kombinatsiya
- b) to‘pni galma-gallik bilan egallashdagi kombinatsiya
- c) to‘siqdan, to‘qlashtirishga o‘tishdan keyin to‘p uzatish

d) yon chiziq bo'ylab, markaziy chiziq orqali, 3x2, 4x3.
kombinasiyalari

4. Yakka himoyani asosiy variantlari?

- a) almashib va almashmasdan o'yinchilarni o'z maydonlarida himoyalash
- b) maydonni ayrim joylarida o'yinchilarni himoyalash
- c) zonali prinsipp bilan yakka himoyani qo'llash
- d) to'pni urib ketayotganda, olib qo'yish

5. Himoyada ikki o'yinchini o'zaro harakatlarining asosiy usullari?

- a) konstirovan himoya
- b) tarqoq himoya
- c) markaziy o'yinchi orqali hujum tizimlari
- d) almashish, chekinish, sirg'atib o'tish

6. Zonali himoyani asosiy variantlarini qo'llash?

- a) harakatlantiruvchi hujum qarshi himoya
- b) 1-4. joylashishida joylashtirilishi
- c) 3-2, 2-3, 2-1-2. va boshqa xolatlarda joylashtirilishi
- d) o'z maydonida faol himoya

7. Hujum yakka takтик harakatlarida to'pni o'yinchining asosiy harakatlari

- a) o'zaroharakat uchun hujumchini o'tishiga qarshilik ko'rsatish
- b) markaziy o'yinchisiz hujumni qo'llash
- c) o'yin vaziyatiga qarab texnik usullarini asosiy vositalarini tanlash
- d) "etelonli yorib o'tishni" qo'llash

8. To'psiz o'yinchiga qarshi himoyadagi o'yinchini asosiy harakatlari

- a) to'pni olish uchun hujumchiga qo'lay vaziyatga chiqishiga to'sqinlik qilish
- b) hujumchini to'pni uzatishiga to'sqinlik qilish
- c) hujumchini to'pni urib yurib ketishiga to'sqinlik qilish
- d) hujumchini savatga to'p otishiga to'sqinlik qilish

9. Shaxsiy himoyaga qarshi hujum tizimidagi o'yin holatlari


- a) son jihatdan kam bo'lgandagi o'zaro harakatlari
- b) shaxsiy pressinga qarshi hujum
- c) markaziy o'yinchilar bilan hujum, to'siqlarni qo'llab hujum
- d) maydon bo'ylab zonali presingdagi asosiy harakatlar

10. Uch hujumchining uch himoyachiga qarshi o'yin harakatlari.


- a) zonali himoyaga qarshi tinch hujum (g‘ildirak)
- b) aralash himoyaga qarshi hujum
- c) “krest chiqish”, “ichki to‘sinq”, “just to‘sinq”
- d) shaxsiy himoya va zonali pressinga qarshi hujum

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Айрапетянц Л.Р., Ирматов Ш.А. Методика симметрического совершенствования право- и левосторонних двигательных функций при занятиях баскетболом // Методические рекомендации. – Т., 2012. – 31 с.
2. Баскетбол. Теория и методика обучения / под общ.ред. Д.С. Нестеровского. – М.: Akademiya, 2004. – 336 с.
3. Гомельский А.Я. Библия баскетбола. 1000 баскетбольных упражнений. – М.: Эсмо-Пресс, 2016. – 256 с.
4. Нестеровский Д.И. Теория и методика баскетбола // Учебное пособие для студентов вуза. – М.: “Akademiya”, 2010. – 336 с.
5. Портнов Ю.М. Баскетбол // Учебник для вузов физической культуры. – М.: Астра семья, 1997. – 480 с.
6. Расулов А.Т. Баскетбол // Олий шыгув юртлари учун дарслик. – Т.: ЩэДЖТИ нашриёт башними, 1998. – 278 б.
7. Соколова Н.Д. Курс лекций по баскетболу. Общий курс. – Т., 2007. – 83 с.
8. Спортивные игры: техника, тактика, методика обучения // Учеб.для студ.высш.пед.учеб.заведений. Под ред. Ю.Д.Железняк, Ю.М.Портнова. – М.: Академия, 2004. – 520 с.
9. Спортивные игры: техника, тактика, методика обучения// Учеб.для учащихся акад.лиц. Под ред. Л.Р.Айрапетянц. – Т.: Илим зиё, 2012. – 277 с.
10. Morgan Wootten. Coaching basketball successfully / Morgan Wootten with Dave Gilbert - 2nd ed. – USA: Human Kinetics, 2003. – 225 p.
11. Dale Brown. Handbook of basketball fundamentals and drills/USA: Coaches choice. 2010. - 109 b.




3.17-rasm. Ta'qib qilishda
"almashish" himoyachilarning
guruqli o'zaro harakatlari



3.18-rasm. Kesib chiqishda
"almashish" himoyachilarning
guruqli o'zaro harakatlari



3.19-rasm. Ikki hujumchining
o'rtasidan yorib o'tishda
"sirg'alib o'tish" himoyachi-
larning guruqli o'zaro
harakatlari



3.20-rasm. O'z sheriği va
hujumchi yonidan yorib o'tib
"sirg'alib o'tish"
himoyachilarning guruqli o'zaro
harakatlari

Ikki himoyachidan iborat o'yinchilarning raqib hujumchilarga qarshi o'zaro harakatlari (qo'riqlash, himoyachilarni o'zi ta'qib qilayotgan hujumchilarni "signal" – kelishgan holda almashib ta'qib qilish va o'z sheriği yoki hujumchi yonidan yorib o'tib, hujumchi qiliblarni ta'qib qilish – himoyalash) 3.16-3.20-rasmlarda aks ettirilgan.

Uch himoyachidan iborat o'yinchilarning raqib hujumchilarga qarshi o'zaro harakatlari uch hujumchining quyidagi harakatlariga qarshi ijro etiladi: "uchlik", "kichik sakkiz", "kesib chiqish", "jutlikda to'sish", "ikki hujumchiga sanchigan to'pga hujum uyushtirish" (3.5-3.12-rasmlarga qarang).

Markaziy o'yinchi holatida to'pni qabul qilib olgan o'yinchini ushlab turish himoyachiga qiyinchilik tug'diradi, zero hujumchi bir nechta texnik-taktik harakatlarni: holatli to'p tashlash: hujumkor to'p uzatish yoki urib borib to'p tashlashlarni bajarish imkoniyatlariga ega. Ushbu vaziyatda aldamchi harakatlardan foydalanib va keyinchalik tayyorlab qo'yilgan munosib himoya harakatlarini amalga oshirib yoki to'pdan uzoqroqdagi maydon tomonidan sheriklariga o'z vaqtida yordam ko'rsatib, hujumchini bartaraf etish mumkin. Lekin savatga yaqin joyda to'pni qabul qilib olish imkoniyatini yo'qqa chiqaruvchi faol harakatlar katta samara beradi. Himoyachining birinchi galddagi vazifasi: «Ta'qibingda turgan o'yinchiga to'pni qabul qilib olishiga yo'l qo'yma». Ayni paytda to'pni egallab turgan o'yinchini ta'qib qilayotgan himoyachi hujum harakatlari oldidan bajariladigan fintlar va to'siqlarga tayyor turish lozim. U yetarli matonatga, intuitsiyaga va «o'yinni his qilish» sezgilariga ega bo'lishi kerak. Asosiysi – hujumchidan tashabbusni olib qo'yish, uni himoyalanayotgan o'yinchi uchun qo'lay tarzda harakatlanishga yani to'pni bo'sh qo'lda olib yurishga majbur qilish, yon chiziqqa siqb chiqarish sheriklari yordam berishi mumkin bo'lgan zonaga ko'paytirish lozim. Musobaqa sharoitlarida himoyachi nafaqat yakama-yakka olishuvlarda ishtirok etadi balki hujumchilar son jihatdan ustunlikka ega bo'lganlarida ham ularni harakatlariga qarshilik ko'rsatadi himoyachi to'pni egallab turgan o'yinchining savat tomonga yurishini halqadan ancha uzoqroqda to'xtatib qolishining uzoq masofadan turib uni to'p tashlashga majbur qilishining udasidan chiqa olsa, uning bu qarshi harakatlari muvaffaqiyatlari sanaladi. Bunga 2x1 bo'lgan vaziyatlarda uch ochkoli zARBalar yoy chizig'i atrofida to'pni egallab turgan o'yinchi tomonga aldamchi harakat bajarish hamda ketidan boshqa hujumchi tomonga tezda o'tib olish hisobiga erishish mumkin. To'pni egallab turgan hujumchiga qarshi himoyada individual taktik harakatlarni o'rgatishni shug'ullanuvchilar hujumdagи tegishli texnik-taktik harakatlarni o'zlashtirib borganlari sari amalga oshirib borish zarur¹⁷.

Jamoa harakatlari. Jamoaning himoyada o'zaro kelishilgan, yagona maqsad sari muvosifqlashtirilgan harakatlari uning o'z "savati" (shchiti)ni himoyalash, dahlsizligini ta'minlash va qayta hujumni samarali tashkil qilishga asos bo'ladi. Jamoaning himoyada amalga

¹⁷ D.Brown. Handbook of Basketball Fundamentals and Drills. U.S.A. – 2010. – 60-61b.

- himoyada qarshilik ko'rsatish va to'pni egallashga o'rgatish;
- hujum va himoyada o'ynash usullariga o'rgatish.

Odatda, o'rgatish jarayoni kamida 4 ta shartli bosqich davomida amulga oshiriladi:

1 -bosqich – o'rgatilayotgan usul texnikasi haqida tasavvur hosil qilish.

Ushbu bosqichda tushuntirish, ko'rsatish (namoyish etish), takrorlash uslublaridan foydalilanadi.

Vositalari: ravon va obrazli so'zlar bilan tushuntirish, o'zaro ahlbat, muhokama, tahlil, muzokara va h.

2 -bosqich – muayyan usul texnikasiga oddiy sharoitda (ortiqcha vazifalarsiz sekin shiddatda) o'rgatish.

Qo'llaniladigan o'rgatish uslublari: ko'rsatilgan usul mazmunini uslub qolish va uni to'liq holda bajarish, usulni qism, element va farzalarga bo'lib o'rgatish, ularni "oyna" usulida takrorlash (shug'ullanuvchilarning biri bajaradi, ikkinchisi murabbiy rahbarligida kuzatadi, tahlil qiladi, xatolarni tuzatadi va baholaydi);

3 -bosqich – muayyan usul texnikasiga murakkab sharoitda (ijro etish tezligi oshiriladi, qo'shimcha vazifalar beriladi, vaziyatlar tog'dirildi, justlikda yoki uchlikda bajariladi va h.) o'rgatish.

Qo'llaniladigan o'rgatish uslublari:

To'liq-konstruktiv uslubi, takrorlash-tahlil uslubi, reproduktiv uslubi shaxsiy uslub, xatolarni tuzatish uslubi, o'yin uslubi, musobaqa uslubi.

4 -bosqich – o'rganilgan usullarni mukammallashtirish (o'quv o'yinbori va mazorat musobaqalari jarayonida).

Qo'llaniladigan o'rgatish va takomillashtirish uslublari: barcha bosqichlarda qo'llaniladigan uslublar, o'yin uslubi, musobaqa uslubi, videofaner uslubi.

Yuqorida quyd etilgan barcha bosqichlarga xos o'rgatish uslublari quyidagi vositalar (mashqlar) yordamida qo'llaniladi: tayyorlov, yordamchi, yondoshtiruvchi, taqlidiy, asosiy (o'yin usullarining o'zi), o'yin va musobaqa mushqlari, yordamchi uskunalar, texnik vositalar va trenajerlar.

O'yin texnikasiga o'rgatish, uni takomillashtirish va mukammallashtirishi suunnindorligi nafsqut o'rgatish uslublari hamda vositalari bilan belgilanadi, balki muayyan mantiqiy tartibda qo'llaniladigan pedagogik (didaktik) prinsiplarga ham bog'liqidir.

Ushbu jarayonda quyidagi pedagogik prinsiplardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: ilmiylik, ko'rgazmalilik, onglilik va faollik, muntazamlilik, uzlusizlilik, uzviylik va mutanosiblik, mukammallik, o'rgatuvchi-takomillashtiruvchi mashqlar hajmi va shiddatini "to'lqinsimon" yunalishda oshira borish, o'rgatish va tarbiyalash.

O'rgatish bosqichlari, uslublari, vositalari va prinsiplarining qo'llanish tartibi 4.1- va 4.2-jadvallarda keltirilgan.

4.1-jadval

O'rgatish bosqichlari, uslublari va vositalari

O'rgatish bosqichlari va ularning nomi	O'rgatish uslublari	O'rgatish vositalari
1-bosqich O'rgatilayotgan malaka (harakat) haqida tushuncha hosil qilish	Tushuntirish-tahlil qilish, ko'rsatish-izoh berish	So'z, suhbat, muloqat, munozara, rasmlar, andozalar, videofilmlar
2-bosqich Malakalarga oddiy sharoitda o'rgatish (yakka tartibda qo'shimcha vazifalarsiz)	Qismlarga bo'lib, element va fazalarga bo'lib o'rgatish, malakani to'liq holda o'rgatish, xatolarni tuzish, rag'batlantirish, qaytarish	Tayyorlov- yondoshtiruvchi, yo'naltiruvchi turdoch taqlidiy va asosiy texnik mashqlar
3-bosqich Malakalarni murakkablashtirilgan sharoitda o'rgatish (vaziyatli vazifalar berish, juftlikda, uchlikda va h.)	Malakalarni to'liq holda o'rgatish, tezlik va aniqlikni kuchaytirib o'rgatish, turli yunalishdagi harakatlar- dan so'ng ijro etish, reproduktiv qaytarish asosida o'rgatish, o'zaro tahlil va baholash asosida o'rgatish	1-2-bosqichlardagi vositalar, umumiy va maxsus mashqlar katta tezlik va anqlikda qo'llaniladi, juftlik, uchlikda qo'llanila- digan mashqlar, trenajor va texnik vositalar
4-bosqich O'rgatishni davom ettirish, takomillashtirish va mukammallashtirish	Barcha uslublar	Barcha vositalar va jamoa o'yinlari

4.2-jadval

O'rgatish jarayonida qo'llaniladigan umumiy va maxsus pedagogik prinsiplar

T/r	O'rgatish prinsiplari	Prisiplarni qo'llash xususiyatlari va uslubiy ko'rsatmalar
1.	Ilmiylik	O'rgatishda bolalar yoshi jinsi, jismoniy va psixofunksional imkoniyatlar etiborga olinib, mashqlar me'yoranadi. Natija testlar yordamida ilmiy tahlil qilinadi.
2.	Ong'lilik va faoliy	O'rganilayotgan malaka (harakat)larga ongli tasavvur etilishi zarur, o'rgatishda bolalar faolligi ta'minlanishi lozim.
3.	Muntazamlilik va uzviy bog'liqlik	Bosqichma-bosqich o'zlashtiruv takomillashuv va mukammallahuv ta'minlanadi.
4.	Mutanosiblik va muvofiqlik	Mashqlar murakkablik va yuklama salohiyati (hajmi, shiddati, yo'nalishi, takrorlanishi va muddati) jihatlaridan shug'ullanuvchi imkoniyatiga mos bo'lishi darkor.
5.	Mukammallik	Texnik jihatdan to'g'ri o'zlashtirilgan malakali takomillashtiruv asosida turg'un va barqaror darajada ko'tariladi.
6.	Uzluksizlik	Yildan-yilga o'rgatish va takomillashtirish jarayoni murakkablashib borishi darkor, uzilishlarga yo'l qo'yish salbiy natijalarga olib keladi.
7.	"Engilidan og'iriga"	O'zlashtirishga loyiq engil yuqilamalar progressiv yunalishda, lekin "to'lqinson" shaklda kuchaytirib borilishi kerak.
8.	"O'tilganidan o'tilmaganiga"	Shug'ullanuvchi o'zlashtirgan (unga tanish bo'lgan) mashqlardan yani mashqlarga o'tish, o'rgatish samaradorligini oshiradi.
9.	"Oddiyidan murakkabiga"	Eng oddiy mashqlarni o'rgatish va takomillashtirish davomida sekin-asta murakkablashirib borilishi lozim.
10.	Umumiy va maxsus tayyorgarlik birligi	O'rgatuvchi va takomillashtirish jarayonida jismoniy texnik-taktik va psixofunksional tayyorgarlik birligi, ularni o'zaro bog'liqligi taminlanishi zarur.

O‘yin texnikasiga o‘rgatish jarayonida har bir usul (holat-harakatlanish turlari, o‘yin usullari) texnikasining quyidagi xususiyatlari e’tibor qaratiladi:

- turg‘unlik;
- o‘zgaruvchanlik;
- mukammallik;
- serqirralik;
- barqarorlik;

- individuallik. Texnikaning turg‘unlik xususiyati – bu demak muayyan usul texnikasi qayta-qayta takrorlanish davomida shu texnika turg‘un ijro etilishi bilan ta’riflanadi.

Texnikaning o‘zgaruvchanlik xususiyati muayyan usul texnikasini o‘yin vaziyati (o‘z sheriklari va raqiblarning joylashishi, ularning harakat yunalishi, tezligi, to‘pning yo‘nalishi, tezligi va baland-pastligiga qarab) talablariga mos tartibda o‘zgartirishni anglatadi.

Texnikaning mukammallik xususiyati har bir usul texnikasi mukammal o‘zlashtirilgandan keyin boshqa usul texnikasiga o‘rgatishni aniqlaydi.

Texnikaning serqirralik xususiyati har bir o‘yin usulini keng doirada ko‘pyoqlama va turli yo‘nalishlarga ijro etilishini anglatadi. Masalan, to‘pni o‘ng qo‘lda ham, chap qo‘lda ham bir xil mahorat baland urib yurish (yugurish) qobiliyatini.

Texnikaning barqarorlik xususiyati har bir usul texnikasi o‘zgaruvchan vaziyatlar tasirida, ichki (endogen-toliqish, salbiy ruhiy holatlar) va tashqi (ekzogen-iqlim, ob-havo, kun-tun tartibining o‘zgarishi, tomoshabinlar olqishi va x.) omillar tasirida ham turg‘un va barkaror ijro etilishini anglatadi.

Texnikaning individuallik xususiyati – bu har bir shug‘ullanuvchini o‘z imkoniyatlari (bo‘yi, qaddi-qomati, harakat tajribasi harakat zaxirasi va x.) dan kelib chiqib, o‘rganilayotgan usulni “model texnika” nusxasiga asosan uziga xos mazmunda ijro etish tartibini ifodalaydi.

Sport texnikasi nazariyasida “model (etalon) texnika”, “maqbul (ratsional) texnika” va “individual texnika” tushunchalari mavjud. Sport texnikasiga o‘rgatish jarayoni bu “model“ yoki “ratsional” texnika nusxasini ko‘chirish, uni qanday bo‘lsa, shunday mazmunda o‘zlashtirishga qaratilmaydi, aksincha bu “nusxalar” namuna sifatida

element qilishi lozim, shu “nusxalarga” mo’ljal qilgan holda o’tqatilnyotgan usulni o’z imkoniyatiga qarab “shaxsiy mazmunda” ijro etilishini (yoki o’rganishni, o’zlashtirishni) anglatadi.

Burilishlarning ikki xil turi mavjud – oldinga va orqaga burilish. Sakrab to’pni to’xtashni bajarish uchun o’yinchi yugurishidan so’ng qispi sakrashni bajaradi, kiyin bir vaqtning o’zida ikkala oyoqda erga turishi. O’yinchi sakrab turib to’xtashni bajarayotgan paytda uning oyoqlari yelka kengligida turishi, tizzalar, bukilgan dumba pastroqda turishi bosh ko’tarilgan va qorin bilan vertikal chiziqdicha turishi qo’llar bosh darajusigacha ko’tarilishi qo’ll barmoqlari keng ochilgan bo’lishi beradi. Yaxshi bajarilgan sakrab turib to’xtash o’yinchiga muvozanatni oyoq qolishiga ikkala oyoqda burilish uchun qadam tashlashga imlon beradi. Burilishlarning ikki xil turi mavjud oldinga burilish va orqaga burilish. Oldinga burilishni bajarish uchun o’yinchi to’p tomonga qadam tashlaydi, boshqa oyog’idan esa tayanch sifatida bo’ldilindi. Hujumchi tajavuzkor usulda burilishlarni bajaradi, bunda to’pni imkonli boricha tanasiga yaqinroq ushlaydi. Ortiqcha burilishni bajarish o’yinchini tayanch oyoqda orqaga o’girilishga majbur qiladi (o’sebiqcha aytganda o’ng qo’ll tirsagi chap tashqi oyoqqqa nisbatan oyoqga harakatlanadi). Ikkala burilishlarni oldinga orqaga bajarishadi. O’yinchi past tik turishi holatini saqlab qolishi, qo’llar tirsaklarini oyoqqa ushlab turishi, oyoqlarni esa yelka kengligida ochib turishi surʼur. Bu to’pni berkitib turishga va qo’lni muvozanatlashgan holatda bo’llishgina imkon beradi.

O’ym jarayonida o’yinchi bo’sh joyga turli xil chiqishlarni bajaradi. Bunda u past tik turish holatini, yaxshi muvozanatni saqlab qolishi hamda oyoqlarni turli yo’nalishlarda harakatlantira olishi surʼur. O’z harakatiga qarama-qarashi bo’lgan tomonga tayanch oyoqni emas balki, boshqasini siljitim bilan bajarilishi zarur, agar o’yinchi menydonning o’ng tomonga aldamchi harakat qilishi keyin bo’lgan bo’limgan oyog’ini chapga qo’yishi va bo’sh joyga turishi bilan o’tib olishi kerak. Shu narsa muximki dgentlar va olijchalarini bajarishda o’yinchi to’xtalishli sur’atdan foydalanishi (harakat tezligini o’zgartirishi) lozim. Bunday strategiyaning qo’llanilishi himoyachini tushunmovchilikka olib kelish yoki nolashirishga uning muvozanatini buzishga mo’lajallangan.

Yinoridu qayd etilganidek, bu bob oyoqlar ishlashiga qaratilgan. Qayuda uchta sakrab to’xtash, burilishlar va bo’sh joyga tezda o’tib


olish mashqlariga urg'u berilgan holda bayon qilinadi. Barcha mashqlar basketbolchilarning oyoqlari ishini takomillashtirishga muljallangan.

Sakrab to'xtash (4.1-rasm)

Mashqning maqsadi: Sakrab turib to'xtashni bajarishda oyoqlarning to'g'ri ishlashi va muvozanat ustida ishlash.

Mashqning bayoni. O'yinchilarni yuz chizig'ida bir-birlaridan taxminan besh qadam uzoqlikda to'rtta qatorga saflanadildar. Murabbiyning ishorasidan so'ng qatorlardagi birinchi o'yinchilar tez yugurishni bajarishadi va jarima chizig'i darajasida sakrab to'xtashni amalga oshiradilar. Murabbiy o'yinchilar muvozanatni saqlab qolganliklariga, ya'ni oldinga yoki yonga yiqilib ketmayotganliklariga ishonch hosil qilishi kerak; nigoh oldinga qaratilgan bo'lishi va qorin ustidagi hayoliy vertikal chiziq markazida turishi kerak. Murabbiy ikkinchi marta ishora qilganida o'yinchilar markaziy chiziqqaga qadar yuguradilar va yana bitta sakrab turib to'xtashni bajaradilar. Ikkinci chiziq o'yinchilari jarima chizig'igacha yuguradilar va ular ham sakrab turib to'xtashni bajaradilar. O'yinchilar murabbiyning har bir ishorasida yugurishlar va to'xtashlarni qarama-qarshi tomondagи jarima va en chizig'igacha bajaradilar. Ushbu mashqni haftada 3-5 marta bir kunda 2 dan 4 daqiqagacha bajarish tavsiya qilinadi.

Murabbiyning ko'rsatmalari: O'yinchilar mashq bajarish nuqtalarini o'zgartirib keyingi mashq bajarish joyiga harakat qilayotganda ular past holatdaligiga ishonch hosil qilish kerak. O'yinchilar joylarida turishlari kerak emas.



4.1-rasm. Sakrab to 'xtash


Mashqning maqsadi: Oldinga va orqaga burilishlarni bajarishda oyoqlarning to‘g’ri ishlashi hamda muvozanat saqlash ustida ishlash.

Mashqning bayoni: O‘yinchilarning dastlabki joylashuvi va mashqning bajarilishi xuddi yuqorida berilgan mashq kabi bajariladi. Uqit ushbu mashqda murabbiy har bir ishora qilganida o‘yinchilar jarim chizig‘iga etib borganlarida oldinga va orqaga burilishlarni bajaradilar. Murabbiyning birinchi ishorasida o‘yinchilar tez yugurishni bajarib, sakrab to‘xtashlari, keyin esa burilishlarni bajarishlari kerak. Keyingi ishora berilganida markaziy chiziqgacha yugurishadi va yana burilishlarni bajaradilar. Murabbiy, o‘yinchilarning to‘g’ri holatda turishini nazorat qilishi kerak. Mashqni boshqacha ko‘rinishda bajarish ham mumkin: o‘yinchilar to‘p uşbu hitlb olib yurgandan so‘ng, sakrab turib to‘xtash, burilish va to‘p bilan oldjamchi harakatlarni bajaradilar.

Murabbiyning ko‘rsatmasi: O‘yinchilar oldinga birini qadamni to‘g’ri va kuchli bajarishlarini, burilishlardan so‘ng oyoqlar bilan moyda qavdamlar tashlamasliklarini kuzatib turishi kerak. Bu mashq madlyulotlarda avvalgi mashq kabi, haftada 3-5 marta bir kunda 2

dan 4 daqiqagacha qo'llaniladi. yuqori malakali o'yinchilar oyoqlar bilan a'lo darajada ishlashadi²².

To'p olib yurish ko'pincha turli hil zarurat darajasida foydalilaniladigan quroldir. O'yinchilar ko'p hollarda to'p olib yurishdan haddan ortiq foydaladilar, o'zlarini «super» dribler qilib ko'rsatishni yoqtiradilar, garchi ular faqat to'p olib yuradilar xolos. Bu bobda to'p olib yurish asoslari, shuningdek, to'p olib yurishni rivojlantirish bo'yicha ayrim tavsiyalar ko'rib chiqiladi. Asosiy vazifa o'yinchini o'zining to'p olib yurish qilish mahoratini qanday namoyon qilishga o'rgatishdir. Asosiy tamoili - malakali driblerchilarga hamda samarali «usta»ga aylantirishdir.



4.2-rasm.

To'p olib yurish qo'llanilayotgan paytda o'yinchi bir nechta muhim tamoillarga e'tibor qaratishi lozim: tizzalar bukilgan bo'lishi va to'p qo'l barmoqlari uchi nazorati ostida bo'lishi kerak. Odatda, to'p o'yinchining belidan yuqorida turmasligi kerak. To'pni olib yurish tezligi yuqoriga ko'tarilib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. O'yinchi to'p olib yurishni shunday tezlikda bajarishi kerakki, bu tezlikda u harakatlanishi, to'xtatishi, harakat yo'nalishi va suratini o'zgartirishi va bunga to'p ustidan nazoratni yo'qtib qo'ymasligi zarur. Juda yaxshi dribler bu barcha elementlarni yuqori tezlikda bajarishga qodir bo'ladi.

Butun maydonda to'p olib yurish texnikasi.

Mashqning maqsadi: Har xil harakatlarini bajarishida to'p olib yurish tezligi ustida ishlash.

Mashqning bayoni: O'yinchilar ikkita teng jamoalarga bo'linadi. O'yinchilar bitta yoki ikkita to'pni butun maydon uzunasi bo'ylab olib yurishni boshlaydilar. Bir vaqtda yoki navbatma-navbat to'p olib yurish qo'llashni aniqlab oling. Jamoaning barcha o'yinlari to'p olib yurishni u tomonga va orqaga bajara olsalar, shu jamaoa g'olib bo'ladi.

Murabbiyming ko'rsatmaları: O'yinchilar estafetada turli hil o'tkazishlarini (masalan; to'pni o'tkazish, oyoqlari ostidan o'tkazish va h.) qo'llashlari lozim. Bu hamma o'tkazishlar ikkita to'p bilan bajarilishi mumkin. G'olib bo'lgan jamaoa qandaydir taqdirlanishi zarur (masalan; ular birinchi bo'lib suv ichishlari). O'yinchilar to'pni oldinga otib yuborib, keyin unga etib olmayotganini hosil qiling²³.

Ikki qo'lida ko'krakdan to'p uzatish.

Raqibning to'liq ta'qib qilish yo'q bo'lgan vaziyatlarda yaqin yoki o'rta masofadan turib sherigiga tez va aniq n to'p yo'naltirishga imkon beruvchi asosiy usuldir.

Tayyorlov darajasi to'p qo'l panjalarining yuqorida oldinga va pastga keyin tana bo'ylab yuqoriga ilmoqsimon harakat bilan ko'krakka olib kelinadi, qo'l panjalari o'zi tomonga (maksimal yoziladi): «olinadi» tana og'irligi tizzadan bukilgan va oldinda turgan oyoqqa ko'chiriladi; orqada turgan oyoq kaftning oldingi qismida tuyanchni saqlab qolgan holda tekislanadi tana vertical holatda ushlab turiladi.

Asosiy fazada oldinda turgan oyoqni tekislash bilan bir vaqtda qo'lning elka va tirsak bo'g'imlaridan maydonga nisbatan parallel holda izchil yozuvchi harakatlari boshlanadi tana esa yuqoriga-oldinga uzatiladi; oxirgi bo'lib qo'l panjalari ishga tushadi. Ular to'pni bosh barmoq orqali kerakli yo'nalishda unga teskarri aylanma harakat bergen holda itarib yuboradilar («siqib otadilar») tan og'irli oldinda turgan oyoqqa ko'chiriladi.

Yakunlovchi fazada to'p qo'lidan chiqib ketayotgan vaqtda qo'l panjalari bilak bo'g'imidan to'liq bukilgan va shunday bo'rtilgan bo'ladiki, bosh barmoq pastga tushirgan kaftning ichki tomonlari bir-biriga qaratilgan tekislangan qo'llar bo'shashtirilgan holda turadi. Keyin o'yinchi bir oz bukilgan oyoqlarda tayyor holatga keladi, tana o'g'irligi oyoq kaftlarining oldingi qismiga taqsimlanadi.

Ikki qo'lda pastdan to'p uzatish tuzulishi va maqsadiga ko'ra bir qo'lda to'p uzatish mashqidan farq qilmaydi. Farqi shundaki to'p orqaga olinadi va doimo ikki qo'l bilan nazorat qilinadi, o'rta va jumjiloqning kuchi bilan qo'l panjalaridan to'pni kuchli «sisiqish» orqali to'pga kerakli yo'nalishda kuchlanish beriladi. Yakunlovchi lahzada qo'l kaftlari oldinga yuqoriga o'girilgan bo'ladi.

Ta'kidlab o'tilganidek keskin raqobat o'yinda shunday vaziyatlar yuzaga keladik, faqat yashirinchha to'p uzatishlar evaziga to'pni shergiga yetkazib berishi mumkin bo'ladi. Zamonaviy basketbolda qo'l ostidan yelka ustidan va orqadan oshirib yashirinchha to'p uzatishlar tez-tez yo'llaniladi, ular faqat bir qo'lda maksimal tez va raqib uchun kutimganda bajariladi. Hujumchi to'p uzatishning tayyorlov darajasi vaqtini minimumgacha qisqartirishiga va harakatlar amplitudasini kamaytirishga harakat qiladi. To'p uzatayotgan o'yinchi faqat periferik ko'rishi hisobiga shergini ko'radi va tayyorlanayotgan to'p uzatishning asl yo'nalishini oxirgi pallagacha yashiradi

Yelkadan (boshdan) bir qo'lda to'p uzatish ham yaqin ham uzoq masofadagi shergiga to'pni aniq etkazib berishga imkon beradi. D.H. To'pni egallab turgan o'yinchining tik turishi to'p uzatish bajariladigan qo'lda oyoq oldindida. Uzoq masofaga to'p uzatishda to'p ushlab turgan qo'lga nisbatan teskarai tomondagi oyoq oldinga chiqariadi.

Tayyorlov fazasida qo'llarni bukish hisobiga to'p elkaga (boshga) yaqinlashtiriladi. To'pning holati uzatayotgan o'yinchi orqa yuzasida joylashgan qo'l panjasini tomonidan nazorat qilinadi, u maksimal darajada orqaga uzatilgan.

Bosh barmoq va ishlovchi qo'l tirsagi oldinga chiqarilgan oyoq bilan bir vertikal chiziqda turadi; boshqa qo'l to'pni yon tomonidan ushlab turiladi; tana og'irligi orqada turgan yoqqa ko'chiriladi. Uzoq masofaga to'p uzatishda to'p tomoniga qo'lni siltanish bilan bir vaqtida tana buriladi (sherikkacha bo'lgan masofa qancha ko'p bo'lsa, tananing» qayrilishi shuncha ko'p bo'ladi).

Asosiy fazada harakat qo'ilar va oyoqlarning tezda yozilishi bilan boshlanadi, u tana og'irligining oldinda turgan oyoqqa ketma-ket ko'chirilishi bilan amalga oshiriladi. To'p uzatadigan qo'l to'liq tekislangan so'ng qo'l panjasining savalagandek harakati bilan to'pga tekkislanish beriladi, to'p bosh barmoqdan chiqib ketadi, bu o'yinchi teskarai aylanma harakat beradi, to'pni ushlab turgan qo'l yon tomoniga


uzatiladi. To'pni uzoq masofaga uzatib berishda tezlanish oldida tananing teskari bo'lishidan faol foydalanadi. To'p uzatish jarayoni aynan shu harakatlardan boshlanadi.

Yakunlovchi faza to'p uzatayotgan qo'l to'liq tekislangandan so'ng va qo'l panjalari to'pni chiqarib yuborgandan keyin o'yinchi qo'llarini bo'shashjtiradi va tayyor turish holatiga qaytadi.

To'p uzatishdagi mashqlar.

To'rtta o'yinchi va ikkita to'p (4.3-rasm).

Bu mashq to'rtta o'yinchini jalb qiladi. Uchta o'yinchi bir-biridan bir metr masofada yon chiziq yonida turadi oxirgi o'yinchini qo'lida to'p turadi qo'lida to'p ushlagan to'rtinchi o'yinchi uch to'rt metr masofa narida ularning oldida turadi. Hushtak yangrashi bilan A o'yinchi C o'yinchiga to'p uzatadi B o'yinch esa A o'yinchiga to'p uzatadi keyin esa A o'yinchi D o'yinchiga to'pni uzatadi va h.



4.3-rasm. To'rtta o'yinchi va ikkita to'p

Ikkita o'yinchi – ikkita to'p

Ikkita o'yinchi ikkita to'pni bir birlariga iloji boricha tezroq uzatadilar. Mashq yaxshi to'pga egalik qilish ko'nikmasini taqozo etadi, chunki o'yinchi tezda bitta to'pni chiqarib yuborishi va ikkinchisini ilib olish kerak, to'pni turli xil tekisliklarda uzatishi mumkin. Bir o'yinchi uni polga sapchitib uzatishi, ayni paytda boshqa o'yinchi to'p uzatishni ikki qo'lda ko'krakdan bajarishi yoki bir o'yinchi to'pini yuqoridan uzatish, boshqasi esa ko'krakdan yoki poldan sapchitib uzatishi mumkin.

Uchta o'yinchi bitta to'p

Ikkita o'yinchi bitta to'pni bir-birlariga uzatadilar. Ular o'rtasida uchinchi o'yinchi (himoyachi) turadi. U imkon qadar tezroq to'pni tutib olish kerak. Mashq to'p oshirishni yaxshi bajarishni taqozo etadi, chunkin himoyachi tezda reaksiya qilishi va uzatilgan to'pni ilib olishi lozim to'pni turli xil tekisliklarda uzatish zarur. Himoyachi to'pni tutib olib, to'p uzatishda xatoga yo'l qo'ygan o'yinchi bilan joy almashadi.

4.3. Hujum o'yin texnikasiga o'rgatish

Hujumga xos o'yin usullari texnikasini o'zlashtirish samaradorligini ta'minlash uchun ularni quyidagi ketma-ketlikda o'rgatish muhimdir:

6. tayyorgarlik holatlari va harakatlanish usullari;
7. ikki qadamli usulda to'xtash;
8. joyida va harakat davomida burilish – aylanish;
9. to'pni ushslash (qo'lda joylashishi) va muvofiq holat;
10. joyida uzatish va ilish usullari;
11. to'pni ilish davomida ikki qadamda to'xtash;
12. joyida uzoq oraliqlardan savatga to'p tashlash;
13. harakat davomida bir qo'llab (o'ng va chap qo'llab) savatga to'p tashlash usullari;
14. to'pni o'ng va chap qo'lda urib yurish – yugurish;
15. to'pni yurishdan so'ng ikki qadamda to'xtash;
16. sakrab to'xtash: to'psiz, to'p ilish bilan to'pni urib yurish va yugurishdan so'ng;
17. joyidan harakat davomida sakrab to'g'ri hamda o'nggachaqga, burilib – aylanib savatga to'p tashlash usullari;
18. to'psiz va to'p bilan bajariladigan fintlar (chalg'itish harakatlari);
19. musobaqa talabida bajariladigan o'yin usullari.

Ushbu o'yin usullari texnikasiga o'rgatishda tayyorlov, yordamchi, yondashtiruvchi, taqlidiy, asosiy va aralash mashqlar to'psiz va to'p bilan qo'llaniladi. O'rgatish jarayonida turdosh, moslashtirilgan va ixtisoslashtirilgan harakatli o'yinlardan foydalanish o'zlashtirish samaradorligini kuchaytiradi ("To'p kapitanga", "Nomer chaqirish", "Dasta qo'laguncha ushlab ol", "Quvlashmachoq", "Ovchilar va o'rdaklar", "Qarmoqcha", "Xo'rozlar jangi" va "Oqsoq qarg'a" va h.).

To'p bilan ijro etiladigan usullar texnikasiga o'rgatish.

To'pni ilish. Ushbu ko'nikma turli usullardan iborat bo'lib, dastlab joyida turib, ikki qo'l bilan to'pni ilish texnikasiga o'rgatiladi. So'ng to'pni ilish holatlari modellashtirilgan vaziyatlar talablariga mos holda harakat davomida, harakatdan keyin ikki qadamli to'xtash va sukrab to'xtash, sakrab bir va ikki qo'lida ilish usullariga o'rgatiladi. Keyingi bosqichda – qayd etilgan ilish usullari mukammal o'zlashtirilgandan so'ng to'p uzatish usullariga o'rgatiladi.

To'p uzatish. Mazkur ko'nikmaga usullari quyidagi tartibda:

20. ko'krak oldidan ikki qo'llab;
21. yelkadan o'ng va chap qo'llab;
22. bosh ustidan ikki qo'llab;
23. bosh ustidan o'ng va chap qo'llab;
24. bir qo'llab o'ng va chap yon tomondan;
25. o'ng va chap qo'l bilan bosh ustidan yarim aylana (kryuk) usulida;
26. ikki qo'l o'ng va chap bilan pastdan;
27. yerga urib uzatish;
28. to'pni dumalatib uzatish;
29. "berkitma" uzatish usullari: qo'lni o'ng va chap orqa tomoniga (belga) o'tkazib, qadam tashlayotgan oyoq o'rtaidan va h.

Ushbu uzatish usullari oddiy, murakkablashtirilgan va modellashtirilgan o'yin vaziyatlarida (raqiblar qarshiligidagi) o'rgatilishi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

To'pni urib yurish-yugurish texnikasiga o'rgatish

To'pni urib yurish-yugurish ko'nikmasi turli usul, holat, yo'nalish va vaziyatlarda ijro etiladi. Binobarin, mazkur usullar texnikasiga o'rgatish quyidagi tartibda amalga oshirish tavsiya etiladi:

joyida turib yerdan har xil balandlikda qo'l bilan to'pni urish; shu usulni joyda o'ng va chap tomonlarga burilib – aylanib hajjarish;

to'pni yo'nalishda to'pni o'ng va chap qo'l bilan urib yurish; to'pni yo'nalishda to'pni o'ng va chap qo'l bilan urib yugurish; to'pni yo'nalishda to'pni o'ng qo'l bilan urib chap yonlama yugurish;

to'pni yo'nalishda to'pni chap qo'l bilan urib o'ng yonlama yugurish;

- to‘pni o‘ng va chap qo‘l bilan ortga yurish-yugurish;
- keskin o‘zgaruvchan yo‘nalishda to‘pni o‘ng va chap qo‘l bilan urib yurish-yugurish (ustunlararo, 8 shaklda va h.);
- yuqorida qayd etilgan usullarni raqib qarshiligidan bajarish.

Savatga to‘p tashlash texnikasiga o‘rgatish

Savatga to‘p tashlash ko‘nikmasi turli usul, holat va oraliqlardan ijro etiladi. To‘p tashlash usullari texnikasiga ko‘ydagi ketma-ketlikda o‘rgatish ijobiy samara beradi:

- shchitga nisbatan to‘g‘ri turib har xil oraliqlardan to‘pni pastdan ikki qo‘llab savatga tashlash;
- shu usul, faqat to‘p ko‘krak oldidan tashlanadi;
- shu usul, faqat to‘p bosh ustidan tashlanadi;
- qayd etilgan usullar shchitga nisbatan o‘ng va chap tomonlardan diogonal holatda turib bajariladi;
- qayd etilgan usullar o‘ng va chap qo‘l bilan ijro etiladi;
- qayd etilgan usullar harakat yakunida to‘xtash usullarini qo‘llash asosida bajariladi;
- qayd etilgan usullar sakrab o‘ng va chap qo‘l bilan to‘pni tashlash asosida ijro etiladi;
- qayd etilgan usullar shchitga nisbatan o‘ng yonlama, chap yonlama va orqa bilan turgan holatlardan burilib-aylanib bajariladi;
- qayd etilgan usullar (pastdan tashlash bundan istisno) sakrab havoda 90°, 180°, 360°da o‘ng va chap tomonlarga burilib-aylanib bajariladi;
- yugurib borib shchit tagidan sakrab o‘ng va chap qo‘l bilan to‘pni savatga tashlash;
- yugurib borib shchit tagidan sakrab to‘pni ikki qo‘llab savatga tashlash;
- to‘pni urib yugurib borib, 2,5-3,0m. oraliqdan diogonal yo‘nalishda (yoysimon) sakrab to‘pni o‘ng va chap qo‘l bilan savatga tashlash.

4.4. Himoya o‘yin texnikasiga o‘rgatish

Zamonaviy basketbol musobaqalarida maqsadga muvofiq va samarali tashkil qilingan himoya harakatlari o‘z savatini dahlsiz qoldirish va qayta hujumni ijobiy natija bilan yakunlash imkoniyatini yaratadi. Buning uchun himoyaga xos o‘yin usullarini texnik jihatdan

keng doirada, serqirrali va mukammal o'zlashtirish zarur bo'ladi. Enqat yuksak shakllangan himoya texnikasi "hujumchi-himoyachi" riqobatida ustunlikka erishish chorasini beradi.

Himoyada foydali o'yin ko'rsatish himoyasidan raqib hujumchi yoki hujumchilarning (raqib jamoaning) psixojismoniy va texnik-taktik imkoniyatlari, taktik-strategik rejalarini va sir-asrorlarini bilishi, qarshi qo'llaniladigan hujum harakatlarini tez payqashi (bashorat qila olishi) va unga qarama-qarshi uyuştiriladigan himoya harakatlarini fuol amalga oshirishni talab qiladi. Bugungi basketbolga xos himoyachi-o'yinchida maydondagi vaziyatni eslab qolish, shunga nisbatan tezkor fikrlash, tahlil qilish, chaqqon harakat ko'rasatish, keng ko'rish doirasiga ega bo'lish va raqib hujumchiga qarshi foydali matija beruvchi eng maqbul usulni qo'llash qobiliyatları yuksak surajada o'zlashtirilgan bo'lmos'i lozim.

Himoya usullari texnikasiga o'rgatishda, hujum texnikasiga o'rgatishda, hujum texnikasini shakllantirishda qo'llaniladigan o'rgatish uslublari, vositalari va pedagogik prinsiplardan foydalilanildi.


Ushbu jarayonda himoya usullariga quyidagi tartibda o'rgatiladi:

30. qoida doirasida to'pni tortib olish;
31. hujumchi to'pni ilayotganda, uzatish va savatga tashlayotganda uni urib chiqarish;
32. ilinayotgan, uzatilgan va savatga tashlanayotgan to'p nolishini to'sib, urib yuborish yoki olib qo'yish;
33. ilinayotgan, uzatilayotgan yoki savatga tashlanayotgan to'pni "yopish";
34. o'z shchiti yoki halqadan sapchigan to'pni o'z sheringiga urib berish, olib qo'yish yoki maydon tashqarisiga chiqarib yuborish.

Himoya usullari texnikasiga o'rgatishda ham tayyorlov, yordamchi, yondoshiruvchi, taqlidiy, asosiy mashqlar va texnik vositnlari an'anaviy hamda modellashtirilgan tartib-vaziyatlarda qo'llaniladi.

To'p urib chiqarish (4.4, 4.5, 4.6-rasmlar)


Mushqning maqsadi: Himoyalanish va ta'qib ostida nazorat qidish uchun barcha o'tkazishlar tehnikasi ustida ishlash.




4.4-rasm. O'yinchilarni yarim maydonda harakatlinish

Mashqning bayoni: Barcha o'yinchilar to'pga ega va chegaralangan hududda joylashadilar (masalan: o'yinchilar maydonning yarmida yoki 3 ochkoli maydon ichida joylashadilar va h.). Belgilangan maydon ichida o'yinchilar to'pni olib yurgan holda o'z sheriklarini to'pni urib chiqarishga harakat qiladi. O'yinchilar soni kamaygan sari belgilangan hudud ham kichrayib borishi kerak (masalan: markaziy doira yoki 3 soniyali zona).

Murabbiy ko'rsatmalari: O'yin jarayonida o'yinchilar past holatda va boshlarini tik tutgan holda to'p olib yurishni bajarayotganligiga ishonch hosil qilish kerak. Yutgan jamoa rag'batlantirilishi kerak (masalan: ular birinchi suv ichishlari yoki tezlanib yugurishlarni bajarmasliklari mumkin)²⁴.



4.5-rasm. O'yinchilar soni kamaygani sari ular 3 ochkoli chiziq ichida harakatlanishadi



4.6-rasm. O'yinchilar soni 2 yoki 4 taga kamayganda ular 3 soniyali zona ichida harakatlanishadi


²⁴ D.Brown. Handbook of Basketball Fundamentals and Drills. U.S.A. – 2010. – 22-23b.

4.5. O'rgatish jarayonida qo'llaniladigan texnik vositalar


Basketbol mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazishda o'ziga xos bo'lgan jihozlar hamda asbob-anjomlardan foydalaniadi. Bu jihozlar va asbob-anjomlar basketbol harakatlariga o'rgatish, hosil qilingan malakalarni takomillashtirish, shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarliklarini va jismoniy sifatlarini rivojlantirishda sumarali vosita bo'lib hisoblanadi.

Jihozlar va asbob-anjomlarni ta'sir ko'rsatish xususiyatlariga qarab ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) texnik-taktik tayyorgarliklar uchun (4.7, 4.8-rasmlar).
- 2) jismoniy tayyorgarliklar uchun.



4.7-rasm. Jarima to'p tashlash ko'nikmasini shakllantiruvchi moslama



4.8-rasm. Periferik ko'rish qobiliyatini rivojlantirishda qo'llaniladigan batut

4.6. Texnik tayyorgarlik

Texnik tayyorgarlik ko‘p yillik pedagogik jarayon bo‘lib, o‘zining maqsadi, vazifalari, mohiyati va mazmuni bilan basketbolga xos harakatlar (o‘yin usullari) texnikasiga o‘rgatish, ularni takomillashtirish hamda mukammallashtirishga qaratiladi. Uning asosiy maqsadi basketbolga dastlabki o‘rgatish bosqichidan boshlab ko‘p yillik sport trenirovkasining barcha bosqichlarida o‘yinga hos harakat funksiyalarini (holat va harakatlanish, to‘pni urib yugurish, uzatish, ilish, savatga tashlash va h.) texnik jihatdan shakllantirish va mukammallashtirish hamda texnik mahoratni har tomonlama yo‘nalishda sayqal toptirishdan iboratdir.

Texnik tayyorgarlikning vazifalari har bir usul texnikasiga hos koordinatsion biomexanik va kinematik xususiyatlarni bir-biriga mos tartibda shakllantirishga qaratiladi.

Ko‘p yillik sport trenirovkasi jarayonida texnik tayyorgarlik bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uch bosqichda amalga oshiriladi:

35. boshlang‘ich o‘rgatish bosqichi;
 36. chuqurlashtirilgan o‘rgatish bosqichi (ixtisoslashtirish bosqichi);
 37. takomillashtirish va mukammallashtirish bosqichi;
- Yuksak natijalar sari o‘ta keskin raqobat ostida kechayotgan zamonaviy basketbol musobaqlari o‘yinchilardan har tomonlama shakllangan, o‘zgaruvchan vaziyatlarni “yengishga” qodir texnik tayyorgarlikni talab qiladi. O‘yin texnikasi doyirasini kengaytiruvchi yangi usullar avlodini yaratish, uzoq muddatli musobaqa sikllari bilan bog‘liq katta yuklamalarga bardosh beruvchi serqirrali va mukammal texnik tayyorgarlika erishish imkoniyati uni erta yoshlikdan boshlab ko‘p yillik sport mashg‘ulotining barcha bosqichlarida muntazam qo‘llaniladigan muvosiq innovatsion mashqlar evaziga yaratilishi mumkin. Binobarin, texnik tayyorgarlikning bunday darajada sayqal topishi uch bosqichga bo‘linadi.
38. dastlabki model texnikani o‘zlashtirish;
 39. uni shakllantirish, mukammallashtirish va yangi texnik usullar doirasini kengaytiish;
 40. yuksak texnik mahoratga erishish.

Har bir bosqichda o'ziga xos uslub va vositalar, shu jumladan, texnik-innovatsion vositalar, asta-sekin murakkablashtira borish principiga asoslangan tartibda qo'llaniladi.

Texnik tayyorgarlik jarayonida tayyorlov, yordamchi, vondashtiruvchi, taqlidiy va texnik vositalar asosida o'zlashtirilgan-tundat va harakatlanishlar, to'pni o'ng va chap qo'lida-chap va o'ng qo'lida yonlama holatda (raqibga teskari holatda-undan to'pni berkitib) hamda keskin o'zgaruvchan yo'naliishlarda (dribling) urib harakatlanish (yugurish), uzatish, ilish, savatga tashlash texnikasi avval yakka tartibda (raqib qarshiligidan) takomillashtiriladi va mukammal darajaga yetkaziladi. So'ng ushbu o'yin malakalari va ularning usullari vaziyatli o'yin, musobaqa hamda modellashtirilgan mashqlar yordamida "chaxlantiriladi". Bunday mashqlar "to'pni uzat-bo'sh joyga chiq", "uchlik", "8-shaklida", 1:1, 2:2, 2:3, 3:3, 3:4 turkibli o'yin andozalari shaklida qo'llanilishi mumkin.

Texnik tayyorgarlikni shakllantiish va har bir texnik usulni o'zlashtirish samaradorligi basketbolchilarning jismoniy imkoniyatlarga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgani tufayli mashg'ulotlarda texnik mashqlarni jismoniy mashqlar asosida (tezkor-kuch, championlik, chidamkorlik) qo'llash (qo'shma uslub) o'ta foydali natija beradi.

Mamlumki, basketbolda keskin tezlanish-to'xtash, o'z o'qi atrofida burilish-aylanish, egilish-yozilish harakatlari ko'plab tekroflanadi. Isbotlanganki bunday harakatlar vestibulyar apparatiga o'sha etib muvozanat saqlash funksiyasini zaiflashtiradi. Bunday holat o'sha navbatidn harakat texnikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday sanan, mashg'ulotlarda to'g'ri vaaylanma tezlanishlar (harakatlar) ga obi munqqlardan foydalanish texnikaning barqarorligini ta'minlaydi.

Mashg'ulotlar davomida texnik tayyorgarlik va texnik mahoratni ommorali shakllantirish uchun ularni muvofiq test mashqlari yordamida boshqacha-bosqich nazorat qilish va baholab borish tavsiya etiladi. O'ttingan test natijalariga asosan texnik tayyorgarlikni shakllantiruvchi munqqlar dasturiga zarur o'zgartirishlar kiritilishi muhim amaliy shamiyat kash etadi.

Texnik tayyorgarlikni baholashda 4.3-jadvalda keltirilgan ommorali test mashqlari va me'reiy talablardan foydalanish mumkin.

4.3-jadval

Texnik tayyorgarlikni baholashda qo'llaniladigan namunaviy test mashqlari va me'yoriy talablar

Guruhralar		Himoya holatida harakatlanish (sek)		Tezkor to'p urib yugurish va savatga tashlash (sek)		To'p uzatish tezligi (sek)		Uzoq oraliqda savatga to'p tashlash (%)		Jarima to'p tashlash (%)	
		O'	Q	O'	Q	O'	Q	O'	Q	O'	Q
BTBG	1-yil	10,1	10,3	15,0	15,3	14,2	14,5	28,0	28,0	-	-
	2-3 yil	10,0	10,2	14,9	15,1	14,0	14,4	30,0	30,0	-	-
O'TBG	1-yil	9,0	9,5	14,2	14,8	13,8	14,1	40,0	40,0	48,0	48,0
	2-yil	8,7	9,0	14,0	14,6	13,6	13,9	45,0	45,0	50,0	50,0
	3-yil	8,5	8,8	13,9	14,5	13,5	13,8	58,0	48,0	60,0	60,0
	4-5 yil	8,4	8,7	13,8	14,4	13,4	13,7	60,0	50,0	65,0	65,0

Jadvalda qayd etilgan test mashqlarini qabul qilish tartibi

1. "Himoya holatida harakatlanish (sek)":

O'yinchi orqa en chiziq ortida joylashadi; signal berilishi bilan u himoya holatida orqa bilan harakatlanib (yugurib har bir ustun (3ta ustun) oralig'ida yo'nalishni o'zgartiradi; O'rta chiziqdandan boshlab qarshi orqaga start joyiga yugurib keladi.

2. "Tezkor to'p urib yugurish":

O'yinchi orqa en chizig'i ortida joylashadi; signal berilishi bilan u ikki yonma-yon joylashtirilgan ustun tomon to'pni chap qo'li bilan urib yuguradi va to'pni o'ng qo'li bilan urib yugurishga almashtirib ustunlar oralig'iga kiradi va h. (bunday juft ustunlar 5ta); har bir juft ustunlar orvlig'ida to'pni goh chap, goh o'ng qo'l bilan urib yuguriladi; so'ngi ustunlardan to'pni o'ng qo'l bilan urib o'tgandan keyin 2 qadamda to'pni savatga tashlaydi; qaytgan to'pni olib, mashqni qarshi tomon bo'ylab bajaradi va so'ngi ustunlardan o'tib, to'pni chap qo'li bilan savatga tashlaydi.

3. "To'p uzatish tezligi":

O'yinchilarning tashlashiga qarab joylashadi; shchitga to'p uzatadi va sapechigan to'pni eng yuqori nuqtada ilib, 1-raqamli sherigiga uzatadi; so'ng o'zi qarshi shchit tomon harakatlanadi va usuliga to'pni 2-raqamli sheri giga chap qo'l bilan uzatadi; to'pni uzatilgan keyin 3-raqamli o'yinchilarning tomonidan uzatilgan to'pni ilib devoriga tashlaydi vnsapchigan to'pni yana ilib yuqorida qayd etilgan moshqlarni tekrorlaydi (mashq 2 martadan qaytarilib, 4 marta savatga tashlash bilan yakunlansidi).

4. "Uzq oraliqdan savatga to'p tashlash":

O'yinchilarning 2 daqiqalik davomida 3 ochkoli va 2 ochkoli eonalardan savatga to'p tashlaydi (har bir zonadan 2 marta). Ja'mi tashlangan to'plar soni va uning turshigan to'plar soni aniqlanadi (%).

5. "Jurona to'p tashlash": savatga 10 marta to'p tashlanadi va aniq to'plar soni to'plar soni % da bisholaganadi.

Basketbolchilar texnik tayyorgarlikni aniqlashda O'zbekiston Respublikasi sporti ta'limiya instituti "Sport o'yinlari kafedrasasi" tomonidan (sport shartnoma tabituriyentlar uchun) test mashqlari, me'yoriy tashash va bisholash mezonlaridan foydalananish mumkin (29-jadval).

4.4-jadval

Tan shartnoma va me'yoriy bolalar	O'g'il bolalar	Qiz bolalar
Yashiliklik zonadan 8 ta marta dan 10 marta dan savatga to'p tashlash (mashqilgan to'plar soni bisholaganadi)	1-10 ta	1-10ta
Hazdon o'sasidan to'pni senga urib matning chetiga idan surʼaga to'p tashlaysi, to'pni idan surʼaga qurʼoma qurʼishi hammoniga to'pni yerga urib matning chetiga idan to'p tashlaysi. Bisholay chetiga surʼa yengi to'pni tashlaysi (vngi to'pni surʼaga to'plar soni bisholaganadi)	1/20 sek - 4/20 sek	1/20 sek - 4/20 sek
To'pni (10) to'plar surʼa tashlaysi	1-6 ta	1-6 ta

va to'pni urib borib 6 ta nuqtadan uni savatga tashlash (har nuqtadan 1 imkoniyatdan, texnika va aniq tushgan to'plar soni baholanadi)		
To'p bilan mokkisimon yugurish: $5,80 \leftrightarrow 5,80 \rightarrow 14,00$ $\leftrightarrow 8,20 \rightarrow 16,40 \leftrightarrow 8,20 \rightarrow 14,00$ $\leftrightarrow 28,00\text{m}$ (vaqt va texnika baholanadi) (sek.)	16-19 sek.	18-21 sek.
Yuqoridan ikki qo'llab to'ldirma to'pni joydan sakrab uloqtirish, (m) (o'g'il bolalar - 2 kg, qiz bolalar - 1 kg)	4-15 m	2-13 m

4.7. Xorijiy tajribaga asoslangan texnik-taktik tayyorgarlik

Siljish qadamlari:



Kengaytirilgan oyoqlar

O'ng oyoq bilan siljib, chap oyoqga justlash



Chap oyoqni yonga
tashlash

To'siqlar ustidan sakrashlar



Basqash basqash



Ashrah



Ikkita oyoga tushish


Shchit tagida sakrashlar:



*Jarima chiziqdan
yugurib kelib ikki
qadam qo'yish*



*Ikki oyoqda
balandlikka sakrash*



*Sakrab qo'llar bilan
shchitga urish*

Arg'amchi bilan sakrashlar



Ikkita oyoqda



O'ng oyoqda



Chap oyoqda


Balandlikka sakrashlar: Tumbaga sakrashlar 30sm. 40sm. 60sm. 75sm. va 90sm. boshlanadi. Tumbalarni bir-biridan 60sm. qo'yiladi, kichkina balandlikdan boshlab katta balandlikda sakrashlarni to'xtatadi.



30sm. Tumbaga sakrashlar.



30sm. To 'mbaga sakrashlar.



30sm. Tumbadan sakrash


Balanslikga sakrashlar.



30sm. Tumbaga sakrashlar.



Davom etirish




45sm. tumbaga sakrashlar.

Basketbolchini sakrovchanligini shakllantirish



Sakrash holatini
shakllantirish



Sakrab shchitga kaft bilan tegish

Savatga to'p otishlar



basketbol hini turish holati



To 'potish holatiga o'tish



Yumshoq qo'lli harakatni
ba'zirishchi

To p'otish holatini 1-2 soniya
saqlash




To 'potish holatini 1-2 soniya
saqlash

To p'otish holatini 1-2 soniya
saqlash




To 'p bilan tezkor harakatlanish




*To 'pni qabul qilish
ko 'nikmasini mustahkamlash
(yumshoq qo 'llar)*

Harakatda to 'p tashlash texnikasi.




*Harakatda o 'ng qo 'l bilan to 'p
otish texnikasini
takomillashtirish*




*Harakatda chap qo 'l bilan to 'p
otish texnikasini
takomillashtirish*

Maydon bo'ylab to'p tashlash mashqlari




Maydon bo'ylab to'p tashlashlar

Keskin tezlanish, to'p shchitdan qaytishi, to'p tashlash




Keskin tezlanish, to'p
shchitdan qaytishi, to'p
tashlash,
1-usul




Keskin tezlanish, to'p shchitdan
qaytishi, to'p tashlash
2-usul


O'yinchilarni jamlash va maqsadga erishtirish




To 'p urib yurish, bir marta burilish to 'p urib yurib savatga tashlash va to 'pni ilib chap tomonga ketish



To 'p urib yurish, ikki marta burilish to 'p urib yurib savatga tashlash va to 'pni ilib chap tomonga ketish




To 'p bilan diogonal yo 'nalishda yugurish va burilishni bajarish, to 'pni savatga tashlash va ilish va chap tomonga ketish.




Maydonni o 'ng burchagi tomoniga to 'pni urib yurish bir marta burilish va to 'pni urib yurishni davom etdirish.

Maydonning pastki qismida to'siq




Maydonning pastki qismida to'siq


To'siq




To'siq




Kesishgan to'siq




Kombinatsiya to'siq




Diagonal to'siq



*To'p olib yurgan o'yinchini
uchun to'siq qo'yish*



Bittalik va ikkitalik to'siq



to'xtash.

2-mashq. Yugurib-kelib ikki qadamda to'xtash.

3-mashq. To'xtagandan so'ng tezlikni o'zgartirish.

4-mashq. To'xtagandan so'ng tezlikni va yo'nalishni o'zgartirish.

5-mashq. To'xtagandan so'ng burilib yo'nalishni o'zgartirish.


Basketbolchining holati to'xtash va oyoqlarning harakarlanishini rivojlantirish uchun harakatlar.

Maqsad: O'yinchining oyoqlarini harakatlanshini rivojlantirish.

Qo'llaniladigan asbob-uskunalar. 16 ta o'rindiq en chiziq uzunligida ikki qator qilib qo'yiladi (yoki undan kamroq). Maydonga bir-biridan bir xil oraliqda joylashgan 16 ta o'rindiqlar qo'yiladi o'yinchilar maydonning ikkala tomonida en chiziqlarda joylashadilar.


Murabbiy signali bo'yicha signalidan so'ng en chiziqlarda birinchi turgan o'yinchilar mashqni birinchi boshlashadi va quyidagi vazifalarni bajaradilar.

1-mashq. Yugurib-turib kelib sakrab



chizig'ida joylashadi.

Murabbiy signalidan so'ng yon chiziqdagi o'yinchilar to'pni qarshisida turgan o'yinchilarga uzatishadi va to'p ortidan to'pni qabul qilgan o'yinchi tomon yugurishadi, to'pni qabul qilgan o'yinchi esa dastlabki holatdan tez va aniq birinchi qadamni tashlagandan so'ng to'pni ikki marotaba yerga urib himoyachini aldab o'tishga harakat qiladi.



qo'yiladi o'rindiqlarga esa bittadan to'p qo'yiladi.

Murabbiy signalidan so'ng guruhdagi birinchi o'yinchilar o'rindiqlar sari yuguradilar o'rindiq qarshisida to'xtab to'pni o'rindiqdan olib dastlabki holatdan tez va aniq birinchi qadamni tashlab to'pni erga urub o'rindiqnı aylanib o'tadi.

O'yinchining birinchi qadamini to'g'ri qo'yishga o'rgatish.


Maqsad: O'yinchiga dastlabki birinchi qadam kuchli akrissif tez va aniq himoyachini chalg'itish uchun qo'yish.

Qo'llaniladigan asbob-uskunalar. 5ta to'p. Jamoa ikki guruhga bo'linadi birinchi guruh yon chiziqning ortida joylashadi ikkinchi guruh esa jarima

O'yinchilar birinchi qadamni qo'ygandan so'ng to'pni boshqarishga o'rgatish.

Maqsad: To'pni to'g'ri qabul qilish va birinchi qadam tashlagandan so'ng to'pni boshqarishga o'rgatish. Qo'llaniladigan asbob-uskunalar. 5 ta o'rindiq 5 ta to'p. O'yinchilar 5 ta guruhga bo'linadilar va yon chiziq ortida joylashadilar har bitta guruh to'g'risida bittadan o'rindiq

111



Halqaga orqa bilan turgan holda dastlabki holatdan halqaga qadam tashlash.

Maqsad: Halqaga orqa bilan turgan holatdan tashlash va to'pni ikki qadam usulida halqaga tashlash.

Qo'llaniladigan asbob-uskunalar.

4 ta to'p. Jamoa to'rt guruhga bo'linadi ikkitasi en chiziqda ikkitasi esa jarima chizig'ining ikki yonida joylashadi. Murabbiy signalidan so'ng en chizig'dagi birinchi o'yinchilar jarima chizig'iga yugurishadi to'pni qabul qilishadi va sakrab to'xtashadi so'ng halqaga qarab qadam tashlaydi va birmchi qadam tashlab savatga qarab harakat qilishadi ikki qadam usulda halqaga to'p tashlashadi.



Dribbling mashlari. (to'pni erga urub yurishni rivojlan-tiruvchi mashqlar)

Mashqning nomi "To'rtta burchak" mashqi.

Maqsad: Dastlabki mashqqa jamoadagi barcha o'yinchilarni jalg qilish va to'pni erga urub yurish texnikasini o'rgatish. Qo'llaniladigan asbob-uskunalar.

13 ta o'rindiq 8 ta to'p. Jamoa 4 ta guruhga bo'linadi guruhlar maydonni yarmida 4 ta burchakda joylashadilar. O'rindiqlar 4-1 rasmda ko'rsatilgan usulda qo'yiladi guruhdagi birinchi o'yinchilar to'pni yerga urub o'rindiqlarni quyidagi usullarni qo'llab aylanib o'tishadi.

1-mashq. To'pni oyoqlar orasidan o'tkazib.

2-mashq. To'pni bel ortidan o'tkazib.

3-mashq. To'pni qo'lidan qo'lga o'tkazish.

4-mashq. Yelkalar bilan chalg'itib.

5-mashq. To'pni boshqarib yurgan holatda o'rindiqni burilib aylanib o'tish.

6-mashq. To'pni pastlatib urub yurush.

7-mashq. Tezlikni o'zgartirish.

8-mashq. Ortga qaytib chalg'itish.

Reyting-nazorat va bilimni baholash testlari:

1. Texnikaga o'rgatishda qo'llaniladigan maxsus mashqlarga qaysilari kiradi?

- a) musobaqali
- b) taktika bo'yicha
- c) integral tayyorgarlik bo'yicha
- d) texnika bo'yicha

2. O'yin malakalariga o'rgatishning boshlang'ich jarayonida qanday didaktik prinsiplar eng kerak?

- a) osondon-qiyinda, umumiydan-ayrimga
- b) boshlang'ichdan-optimalga, didaktikdan-texniklikka
- c) qiyinlikdan-umumiyligka
- d) o'yinlikda-texnilikka, taktilikdan-strategiyalikka

3. O'yin texnikasiga boshlang'ich o'rgatish jarayonida qanday uslublar foydalaniladi?

- a) frontal, guruhli, yakkalilik
- b) qaytarish
- c) majmualilik
- d) intervalilik

4. Yordamchi mashqlarga qaysi jismoniy mashqlar kiradi?

- a) taktika bo'yicha yondashtiruvchi
- b) maxsus tayyorlov texnika bo'yicha
- c) maxsus va umum rivojlantiruvchi
- d) basketbolga tayyorlash

5. Turnik o'yin malakalari shug'ullanuvchilarda qaysi uslublar yordami bilan shakllanadi?

- a) moshq uslubi bilan

- b) ishontirish uslubi bilan
- c) ko'rsatish va bayon qilish usuli bilan
- d) majburlik usuli bilan

6. O'rgatish uslubiga nimalar kiradi?

- a) yordamchi va maxsus vositalar
- b) o'quv va nazorat o'yinlari
- c) og'zaki ko'rgazmali, amaliy
- d) shug'ullanuvchilarni tashkil qilish uslubi

7. Tashkil qilish uslubiga nima kiradi?

- a) guruhli, frontal aniqlashtirilgan
- b) yakka vazifalar, pedagogik nazorat
- c) frontal, amaliy vazifalar
- d) og'zaki, guruhli uslub

8. Qanday jismoniy mashqlar yordamchi (mashq qildiruvchi) mashqlarga kiradi?

- a) taktika bo'yicha
- b) texnika bo'yicha
- c) maxsus va umumiy rivojlantiruvchi
- d) musobaqa

9. Hujumda yakka taktik harakatlarga o'rgatishda to'pli o'yinchining asosiy harakatlari

- a) himoyachini o'zaro harakat qilishiga to'siqlik qilish
- b) markaziy o'yinchisiz hujumni qo'llash
- c) o'yin holatlariga qarab texnik asosiy vositalarini tanlash
- d) "eshelonli" yorib o'tishni qo'llash

10. Yakka taktik harakatlarni o'zlashtirish samaradorligi nimaga bog'liq?

- a) o'yinchining bo'yli va tezkorligiga
- b) harakat faolligi va jismoniy tayyorgarlikka
- c) psixologik tayyorgarlikka
- d) muqaddam o'rganilgan yakka taktik harakatlarni o'zlashtirganlik darajasiga

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баскетбол: 100 упражнений и советов для юных игроков: пер. с англ/ Ник Сортэл. – М. : ACT: Астрель, 2005. – 237 с.
2. O'nniyeva F.V., Qdirova M.A., Xusanova D.T. Madaminov T. Basketbolda to'pni urib yugurish texnikasi va tezligini vaziyatli maxshqlar asosida shakllantirish uslubiyati. // Ilmiy-uslubiy ixtiyariy nomda. – Т., 2015. - 50b.
3. O'nniyeva F.V. Basketbol. // Oliy o'quv yurtlari umumiy kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Т., 2009. – 69 б.
4. Доценко П.И. Баскетбол. Модель программы самостоятельной (индивидуальной) подготовки по баскетболу в группах спортивного совершенствования в вузе// Учебно-методические материалы. – Г., 2012. – 30 с.
5. Краузе Д., Мейер Д., Мейер Дж. Баскетбол / навыки и упражнения. – М.: ACT, Астрель, 2006. – 216 с.
6. Гомельский А.Я. Библия баскетбола. 1000 баскетбольных упражнений. – М.: Эсмо-Пресс, 2016. – 256 с.
7. Методы подготовки баскетболистов. Методический журнал. Современный баскетбол. Под редакцией Белаш В.В. Г.Южный Октябрь, 2005. – 56 с.
8. Спортивные игры: техника, тактика, методика обучения // Учеб. для студ.высш.пед.учеб.заведений. Под ред. Ю.Д.Железняк, Ю.М.Портнова. – М.: Академия, 2004. – 520 с.
9. Рекомендации при работе с молодыми баскетболистами. Методические пособие под редакцией Гомельского Е.Я. – М., 2009. – 92 с.
10. Giorgio Gandolfi. The Complete Book of Offensive Basketball Skills / USA: McGraw-Hill. 2009. - 272 p.
11. Morgan Wootten. Coaching basketball successfully / Morgan Wootten with Dave Gilbert - 2nd ed. USA: Human Kinetics. 2003. – 333 p.
12. Lee Rose. Winning basketball fundamentals. – USA: Human Kinetics, 2013. – 271 p.

V BOB. O'YIN TAKTIKASIGA O'RGATISH VA TAKTIK TAYYORGARLIK

5.1. O'rgatish asoslari

O'yin taktikasiga o'rgatish samaradorligi nafaqat o'rgatuvchining kasbiy mahoratiga bog'liqdir, balki shug'ullanuvchining qobiliyati xotirasi, ongi, diqqati, idroki, iroda kabi funksional hislatlari bilan belgilanadi.

O'yin taktikasiga o'rgatish jarayonini odatda o'yin texnikasiga o'rgatish jarayoni bilan parallel tartibda amalga oshirish tavsiya etiladi. Chunki har bir o'yin usuli texnikasini shakllantirish muayyan taktik maqsad sari tashkil etiladi.

Binobirin, o'yin texnikasiga o'rgatish bosqichlari, uslublari, vositalari va prinsiplari o'yin taktikasiga o'rgatish jarayonida ham o'z qiymatini saqlab qoladi. Albatta, o'yin taktikasiga o'rgatishni boshlash texnikani o'zlashtirish yakunida, uni mukammallashtirish bosqichida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. O'yin taktikasiga o'rgatish va uni shakllantirishda tushuntirish, tasavvur hosil qilish, ko'rsatish (andozalar, rasmlar, videoslaydlar, videofilmlar) uslublari alohida ahamiyat kasb etadi.

5.2. Hujum o'yin taktikasiga o'rgatish

Yakka taktik harakatlarga o'rgatish. Yakka taktik harakatlar o'yinchini (shug'ullanuvchini) to'psiz va to'p bilan ijro etililadigan harakatlarini o'z ichiga oladi.

Hujum qilayotgan o'yinchining to'psiz harakatlari doimo muayyan taktik maqsadga qaratiladi. U himoyalananayotgan raqib va raqiblarning harakati, qabul qilinadigan taktik qarori va rejasini xis qilmog'i, ularning joylashishi, o'zaro harakati, hujum usullari to'pni harakatlanish tezligi, yo'nalishi va baland-pastligini kuzatishi, tahlil qilishi, farqlashi va shunday vaziyatlarni e'tiborga olgan holda o'z faoliyatini amalga oshirmog'i darkor. To'psiz bajariladigan individual hujum taktikasiga o'rgatishda aynan ushbu holatlar murabbiyning diqqat markazidan joy olmog'i lozim. O'yinchini to'psiz bo'sh va qo'lay joyga chiqib "ochilishi" to'pni sherigidan muvaffaqiyatli qabul qilib, navbatdagi hujum harakatini foydali davom ettirish imkoniyatini

yaradidi. Aynan ana shunday individual harakatlar o'rgatish jarayonining ustuvor predmeti sifatida shakllantirilishi kerak.

To'p bilan ijro etiladigan individual taktik harakatlarga o'rgatish individual taktik harakatlar samaradorligi faqat yuksak shakllangan va muhimma sayqal topgan usullar texnikasi evaziga ta'minlanishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, agar o'yin texnikasi yuksak shakllangan bo'lmasa, ummo uning aniq taktik maqsadi mavjud bo'lmasa, shakllantirilishi bunday harakat foydali natija bermaydi. Demak, individual harakat taktikasiga o'rgatish o'yin texnikasi bilan "yonmayotgan" shakllantirilishi kerak. Har bir hujum vaziyatida qarshilik bo'lsatayotgan raqibga nisbatan faqat birgina eng samarali individual taktik mavjud bo'ladi. Ana shu usulni samarali ijro etish hujumchida quyidagi individual qobiliyatlarni shakllantirish surʼitligiga e'tibor qaratadi:

11. harakatlanayotgan to'pni doimiy nazorat qilib borish;
12. ko'rish-kuzatish doirasini kengaytirish;
13. o'z vaqtida qo'lay joyda chiqib, to'pni qabul qilish uchun "mashq" va uni egallab navbatdagi harakatni amalga oshirish.

Individual hujum taktikasini qo'llash samaradorligi ustuvor to'pni o'ng va chap qo'lda bir xil mahorat bilan urib yurish-sugurish, uzatish, ilish, savatga tashlash, to'p bilan joyda va sakrab qo'shishda chap tomonlarga burilib-aylanib uzatish, savatga tashlash, va chap tomonlar bo'ylab chalg'ituvchi harakatlarni (fintlarni) olish qobiliyatiga bog'liqdir. Binobarin, individual taktik harakatlarga o'rgatishda mazkur qobiliyatlarni shakllantirishga urg'u muhim ahamiyat kasb etadi.

Guruh hujum taktikasiga o'rgatish Guruh (2-3 kishi) ishtirokida etiladigan hujum taktikasiga o'rgatishda bir qator mashqlar foydalananish afzal: "to'pni uzat-o'zing chiq", "juftlik harakati", "uzat-kesib chiq", "uchburchak", "uchlik harakati", "kichik harakati", "kesma chiqish", "ikki yoqlama berkitish" (to'sish).

Guruh ishtirokida ijro etiladigan barcha taktik harakatlar ketma-ketlikda o'rgatilishi tavsiya etiladi:

14. namoyish "doska"sida yoki maketdagi andoza yordamida hujumayotgan harakatlar taktikasining tushuntirish va ko'rsatish;
15. ushu harakatlarni sekin, o'rtacha va tezkor shiddatda tushuntirish.

46. ushbu harakatlarni maxsus vositalar va vaziyatlar asosida modellashtirilgan, o'yin mashqlari yordamida o'zlashtirish;

47. ushbu harakatlarni bir va bir necha raqib qarshiligidagi shakllantirish;

48. ushbu harakatlarni ikki yoqlama o'quv o'yinlari davomida shakllantirish.

Jamoa hujum taktikasiga o'rgatish. Jamoa hujum taktikasiga o'rgatishda avvalo o'yinchilarning o'yin ixtisosligiga (amplusasiga, funksiyasiga) qarab maydonda dastlabki joylashishi etiborga olinishi lozim. So'ng quyidagi hujumga xos taktik harakatlar o'rgatiladi:

49. turli yo'nalishni andozalar asosida ijro etiladigan o'zaro taktik harakatlar;

50. qarshilik ko'rsatayotgan raqib va raqiblarning zinchiqibiga nisbatan taktik usullarni qo'llash mazmuni;

51. har bir o'yinchilarning jamoa oldiga qo'yilgan taktik vazifalarga muvofiq ijro etiladigan hujum harakatlari;

52. raqib yoki raqiblarni keskin "yorib" o'tib hujum taktikasini qo'llash;

53. pozision hujumda har bir o'yinchining taktik harakatlari;

54. modellashtirilgan hujum harakatlari .

Guruh va jamoa taktik harakatlarini shakllantirishda turli tartibda qo'llaniladigan o'yin mashqlaridan foydalanish muhim ahamiyatga loyiqidir. (2x2; 3x3; 4x4; 5x5; 1x2; 2x1; 2x3; 3x2; 4x3; 3x4; 5x4; 4x5;)

5.3. Himoya o'yin taktikasiga o'rgatish

Himoya taktikasiga o'rgatish yakka himoya taktikasi. Himoya ga xos individual harakatlar taktikasiga o'rgatish individual hujum harakatlari usullari, ularning xususiyati, mazmuni va shiddatiga muvofiq yo'nalishda amalga oshiriladi.

Individual himoya taktikasi to'psiz va to'p bilan ijro etiladigan harakatlardan iborat bo'ladi.

To'psiz harakat qilish taktikasiga hujum qilayotgan raqibni zinchiqib qilish, uning harakat yo'nalishini to'sish, to'p yo'nalishini "berkitish", qo'llarni yoyib qarshilik ko'rsatish, raqibning o'zgaruvchan harakatiga mos (driblingga mos) harakat bilan qarshilik ko'rsatish, uzatilgan yoki savatga tashlangan to'pga to'siq qo'yish kabi usullar kiradi. Bunday himoya usullarini dastlab sekin shiddatda

qion va fuzalarga bo'lib shakllantishirilishi tavsiya etiladi. Keyingi bosqichlarda o'rgatuvchi mashqlar mazmuni borgan sari murakkablashtirib beriladi, ularni bajarish shiddati ham sekin-asta oshirib boriladi.

Himoyaga xos individual taktik harakatlar nafaqat o'z shchiti o'stida umalga oshiriladi, balki raqib hujumining dastlabki bosqichidanoq (raqib shchiti oldidan boshlab) faol himoya choralarini bo'riladi. Bunday individual himoya tizimi 1x1 yakkama-yakka qopibat tasrida shakllantirilishi ijobi natija beradi.

Guruh va jamoa ishtirokida ijro etiladigan himoya taktikasiga o'rgatish

Guruh va jamoa ishtirokida ijro etiladigan himoya taktikasi individual o'yin usullariga asoslanadi. Himoyaga xos individual taktik usullar mukammal o'zlashtirilganidan so'ng guruh va jamoa usullariga o'rgatiladi.

Guruh va jamoa ishtirokida ijro etiladigan himoya harakatlariga shakllantirishda hujum taktikasini shakllantirishda foydalaniladigan o'yin mashqlarining barchasi qo'llaniladi. Har bir o'yinchining individual harakat taktikasi guruh va jamoa taktikasiga muvofiq amalga oshirilishi o'rgatish jarayonining muhim shartlaridan biridir.

O'yin mashqlarini 2x2 va 3x3 o'yin tizimi shaklida qo'llanilishi, undan keyin 4x4 va 5x5 o'yin mashqlaridan foydalanish maqsadga oshiriladi. Ushbu jarayonlarga shaxsiy va zonali himoya tizimlariga qo'shish, ularni turli mazmun va taktik vazifalardan iborat shakllantirilgan o'yin mashqlarini muntazam qo'llash guruh va himoya taktikasini o'zlashtirish samaradorligini kuchaytiradi.

Hujum va himoya taktikasiga o'rgatish, ularni shakllantirishda hamda ixtisoslashtirilgan harakatlari o'yinlardan unumli basketbolchilar tayyorlash sur'atini jadallashtiradi.

5.4. Taktik tayyorgarlik

Taktik tayyorgarlik – o'ziga poydevor bo'lishi jismoniy, texnik tayyorgarlik bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'yinda qo'yilgan maqsad va vazifalar, ko'rsatmalarni oshirish hamda shu orqali ushbu o'yinda g'alabani sur'olevi bi joyyonni anglatadi.

Taktik tayyorgarlik uzoq muddatli pedagogik jarayon bo'lib, u sport trenirovkasining barcha bosqichlarida o'tkaziladigan

nazariy, uslubiy (maketlar, videofilmlar va h) va modellashtirilgan mashg'ulotlar asosida shakllantiriladi.

Taktik tayyorgarlikning maqsadi – o'yin vaziyatlari, raqib jamoa o'yinchilaring imkoniyatlari va kamchiliklarini e'tiborga olgan holda o'yinda g'alabaga erishish san'atini shakllantirishdan iborat.

Taktik tayyorgarlik kamida bir-biri bilan bog'liq bo'lган 5 ta vazifani hal qilishga qaratiladi:

1. O'yinchilarda vaziyatni kuzatish, payqash, farqlash, tahlil qilish va foydali qror qabul qilish bilan bog'liq murakkab reaksiyani shakllantirish.

2. Hujum va himoyada qo'llaniladigan individual harakatlar, texnik-taktik usullarni tanlash va qo'llash mahoratiga o'rgatish.

3. O'zini va raqib imkoniyatlarini solishtirgan holda eng maqbul usul (usullarni) ni tanlash va qo'llash mahoratini shakllantirish.

4. Raqib o'yinchilari va raqib jamoaning o'yin taktikasiga qarab bir taktik harakat tizimidan boshqa taktik tizimiga o'yin mahoratini shakllantirish.

5. Hujum yoki himoyada raqibini chalg'itish uchun o'yin shiddati goh tushirish, goh kuchaytirish taktikasini shakllantirish.

Ushbu vazifalar amalga oshirishda qo'llaniladigan mashqlar quyidagi yo'naliishlarda murakkablashtirilib boriladi:

55. o'yinchilar u yoki bu harakatlarni o'zlashtirishi, sekinlashtirish yoki tezlashtirishini boshqarish uchun shartli tovush va imo-ishora signallaridan foydalanish;

56. o'yinchilar sonini kamaytirish va shartli raqiblar ko'paytirish, to'plar sonini ko'paytirish, harakatlanmaydigan va harakatlanadigan nishonlarni qo'llash;

57. maydon chegarasini qisqartirish;

58. taktik mashqlarni boshqarish jarayoniga o'ng va chap tomonlarga burilish-aylanish mashqlarini kiritish;

59. mashqlarni yonlama, orqalama va keskin o'zgaruvchan yo'naliishlarda ijro etish;

60. shartli raqib qarshiligini faollashtirish va susaytirish;

61. zich qarshishilik (pressing) ko'rsatadigan raqiblar sonini ko'paytirish.

Individual, guruuh va jamoa harakatlari quyidagi tartibda shakllantirishi tavsiya etiladi:

Individual harakatlar:

1. Himoyachini zich qarshiligidan qochish va qulay- bo'sh joy chiqish (ochilish).

2. To'p ilish va uzatish usullarini xilma-xil variantlarda qo'llash.

3. Turli oraliq, turli nuqta va turli holatlardan (joydan, sakrab, sakrab o'ng va chap tomonlardan burilib-aylanib) savatga to'p tashlash (pastdan, ko'krak oldidan, yuqoridan bir yoki ikki qo'llab).

4. Chap va o'ng yonlama - o'ng va chap qo'l bilan to'pni o'zgaruvchan yo'nalishlarda qarshiliksiz hamda zikh qarshilikda urib yugurish (dribling).

5. To'psiz va to'pni urib o'ng-chap tomonlarga chalg'ituvchi harakatlarni (fintlarni) o'zlashtirish.

Guruhi harakatlar:

1. Ikki o'yinchining o'zaro harakati: "to'pni uzat-bo'sh joyga chiq".

2. Uch o'yinchining o'zaro harakati: "Uchburchak".

3. Ikki yoqlama to'siq qo'yish;

4. Raqibni chalg'itib o'z shergini holi qoldirish.

5. "Uchlik".

6. "Kichik sakkiz-8".

7. Kesma harakat.

8. "Kesma chiqish"

Himoyada:

1. Sherikni qo'riqlash (straxovka).

2. O'zga harakatga ko'chish .

3. Orqaga tislanish.

4. Sirg'anib o'tish.

5. To'p olib qo'yish.

6. To'p yo'nalishini to'sish yoki urib yugurish.

Hujum va himoyada 2:2, 2:3, 3:2 va anzoda tarkibda o'yin mashqlarini kichiklashtirilgan maydonda qo'llash tavsiya etiladi.

Jamoa harakatlari. Jamoa ishtirokida pozision hujumni o'zlashtirish tartibi:

- hujum zonalarida dastlabki holatlarda joylashgan o'yinchilardan biriga to'pni uzatib pozision hujumni boshla;

- ikki yoki uch o'yinchini oldindan belgilangan andoza asosida o'zaro harakatlanishi orqali pozision hujumga kirishish;
- alohida sirli signal bo'yicha avvaldan o'zlashtirilgan taktik kombinatsiyani "ishga solish";
- hujum usuli va qo'lay fursatni tanlab pozitsion hujumni yakunlash.

O'zlashtirish jihatidan eng yuqori bo'lgan jamoa harakatlaridan biri – bu taktik kombinatsiyalardir. Taktik kombinatsiyalarni 4 bosqichda shakllantirish tavsiya etiladi:

1. O'rgatilgan kombinatsiya rasmlar, andozalar, maketlar va videokliplar yordamida namoyish etiladi, tahlil qilinadi.


2. Kombinatsiyada ishtirok etuvchi o'yinchilar daslabki holatlarda joylashadi. Murabbiy uning mohiyati, mazmuni, yo'nalishini ko'rsatadi va tushitiradi. Harakatni boshlanish joyi (nuqtasi), yo'nalish "yo'li" va yakunlanishi joylari kerakli belilar (andoza) bilan ko'rsatib qo'yilishi mumkin. O'yinchilar kombinatsiyani avval sekin, keyin tezlashtirilgan tartibda to'psiz va to'p bilan takrorlaydilar. Kamchilik va taktik xatolar tuzatiladi. Kombinasiya va taktik xatolar tuzatiladi. Kombinatsiyaga nisbatan o'zlashtirilgandan so'ng, o'yinchilarga shartli raqiblar qarshiligiga kiritiladi va u ko'p martalab takrорlanadi. Har bir kombinatsiyada ishtirok etayotgan o'yinchilar o'z joylari va rollarini almashtirgan holda yana takroran shu kombinatsiyani ijro etadilar.

3. Kombinatsiya – 3:3, 3:4, 4:4, 4:5 tarkibida yoki aksincha tartibda shakllantirishi mumkin.

4. Kombinatsiya o'ng va chap qanot hamda markaz bo'ylab shakllantirilishi tavsiya etiladi.

5. Kombinatsiya o'quv o'yini (5:5) davomida maksimal shiddatlarda shakllantiriladi.

Taktik tayyorgarlikni shakllantirishda ustuvor ahamiyat qaratiladigan taktik harakatlar namunasi 18-andozada keltirilgan.



5.1-andoza

5.6. Basketbolda strategiya va taktika

Har bir harakat yoki muayyan faoliyat aniq maqsad sari ijro etiladi. Shu harakat yoki faoliyatni amalga oshirishda odam (sportchi) qator qarshiliklarga (havo, suv, raqib, to'siq va h.) duchor bo'ladi. Tinobarin, bunday jarayon samaradorligini ta'minlash uchun va foydali natijaga erishish uchun sportchi tashqi qarshilik ta'sirlarini (raqibni chalg'itish, harakat usulini o'zgartirish va h.) kutilmagan taktik usulni qo'llashi darkor.

Taktika deb muayyan texnik xususiyatga ega vaziyat talablariga javob beruvchi (raqibni chalg'itish, harakat usuli yoki yo'nalishini o'zgartirish va h.) samarali mazmunga ega harakat usulini qo'llash orqali raqobatlari musobaqada (bahsda, olishuvda, tanlovda) g'alabaga erishish san'atiga aytildi.

Barcha sport turlari kabi basketbolda ham har bir o'yinga bo'lajak raqib jamoa o'yinchilari imkoniyatlari, ularning sir-asrorlari, o'yin uslubi haqidagi ma'lumotlarni bilgan holda bir necha variantli

taktik rejalar tuziladi va real o‘yin-vaziyatlariga qarab, shu taktik rejalarning eng maqbul (samarali) variantidan foydalilanadi.

Strategiya qisqa (bir o‘yinga) va uzoq (musobaqa siklari yakunigacha) muddatlarga tuziladigan, o‘z tarkibiga jamoani g‘alabaga olib boradigan taktik rejalar majmuasini kiritgan loyihani ifodalaydi.

Strategiya, jamoaning asosiy va o‘rinbosar tarkibini tuzish-jamlash, musobaqani boshqarish usullari, vositalari va shakllarini ishlab chiqish, muayyan uchrashuvning (musobaqaning) taktik rejasini tuzish, bo‘lajak o‘yining nazariy va amaliy andozasini (nushasini) qo‘llab ko‘rish, hamda o‘tkazilayotgan musobaqalarni atroficha tahlil qilish kabi tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, strategiyaga raqib jamoasi, uning o‘yinchilari haqida ma’lumotlar yig‘ish, razvedka (ayg‘oqchilik) asosida raqibning butun imkoniyat va xususiyatlarini bilib olish masalalari kiradi. “Taktika” atamasi ham yunoncha so‘z bo‘lib, tom ma’noda “tartibga keltirish” yoki “ma’lum tartibda joylashtirish” tushunchasini anglatadi. “Taktika” so‘zi “strategiya” atamasi kabi harbiy sohaga doir bo‘lib, qo‘sishlarni maqsadga muvofiq tuzish va ularni og‘ir vaziyatlarga qaramasdan g‘alaba cho‘qqisiga yetaklash san’atini nazarda tutadi.

Basketbolda o‘yin taktikasi muayyan jamoaning ikkinchi bir jamoa ustidan yakka, guruh va jamoa harakatlari yordamida o‘yin jarayonini tashkil qilish va foydali natijaga erishishni anglatadi.

Taktikaning asosiy vazifasi muayyan raqib jamoaga nisbatan mayjud vaziyatga qarab g‘alaba sari qo‘llaniladigan o‘yin vositalari, usullari va shakllarini aniqlab, qo‘llay bilishidan iborat.

Taktik kombinatsiya – bu ikki yoki undan ko‘p o‘yinchi ishtirokida raqib yoki raqiblarni chalg‘itishga qaratilgan o‘zaro kelishilgan harakatlar majmuasini anglatadi.

O‘yin intizomi – har bir o‘yinchi faoliyatining jamoa faoliyatiga bo‘ysunishi, bo‘lajak o‘yinda rejalahtirilgan taktik ko‘rsatmalarni amalga oshirish, o‘yin qoidalari va umuminsoniy hislatlarga amal qilishni anglatadi.

Taktikaning yakka, guruh va jamoa shakllari mavjud. Taktikaning usullari o‘yin tizimlaridan va kombinatsiyalardan iborat. Taktikaning vositalariga esa, bu o‘yin usullari texnikasi va ularning barcha turlari kiradi.

5.6.1. Taktikaning psixofiziologik va strategik mohiyati

Muayyan musobaqalarga mo'ljalangan taktik shakl, usul va vositalar oldindan rejalashtirilgan strategik dasturga bo'ysunishi lozim. Barcha taktik harakatlar taktik bilimlar, fikrlash, vaziyatni to'g'ri baholash, maqsadga muvofiq qaror qabul qilish, jismoniy qobiliyat, texnik mahorat va iroda imkoniyatlari asoslanishi kerak.

Taktik harakat kibernetik nuqtai nazaridan murakkab vaziyatda eng samarali qarorni topish va unga munosib harakat qilish bilan bog'liq bo'lgan o'z-o'zini sozlab boshqaruvchi faoliyatni anglatadi.

Taktik harakat MNSning afferent-efferent nerv reseptorlari, to'lulari ishtirokida tashqi muhit ta'sirotlarini qabul qilish, xotirada unqlash, tahlil qilish, vaziyatga munosib ravishda qayta ishlab motivizatsiyani qoniqtiruvchi qarorga kelish kabi faoliyatlar bilan bog'liq bo'lgan psixofiziologik jarayondan iboratdir.

Taktik harakat samaradorligi xatira, diqqat, ong, idrok, tafakkur va iroda kabi ruhiy-intellektual "organlarning" funksional imkoniyatlari bilan belgilanadi. Ushbu organlar musobaqa vaziyatlariga nisbatan to'g'ri qarorga kelish va maqsadga muvofiq taktik harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Albatta, bunday qobiliyatni takomillashuvi sportchining o'yin tajribasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'quv-mashg'ulotlar jarayonida hali ro'y beragan vaziyatni oldindan fahmlash, unga mos qarorni tanlash va osminiy harakat rejasini xotirada aks ettirish qibiliyatlarini rivojlantirishga oid mashqlarni tanlash va ulardan unumli foydalanish juda katta ahamiyatga ega. Yuqori darajada takomillashgan mazkur qibiliyatlar taktik va strategik rejani amalga oshirishda muhim pojdevor bo'lib hisoblanadi.


Oldindan fahmlash va vaziyatga munosib harakat qilish qibiliyatini rivojlantirishga oid mashqlarni qo'llashda 3 ta jarayondan iborat faoliyatni bajarish zarur bo'ladi:

1. Musobaqa vaziyatini payqash va farqlash ma'lumotini.
2. Maxsus taktik vazifani fikran bajarish.
3. Taktik vazifani harakat amalda ijro etish.

Demek, bundan ko'rilib turibdiki, o'yin jarayonida samarali hamda tayyorgarlik davrida strategik rejani amalga oshirish nazoriy bilim va amaliy malakalarni yuqori darajada tashrirish zarurligiga e'tibor qaratiladi.

Jamoa tayyorgarligining umumiyligi strategiyasi tartib bilan amalgalashiriladigan bir necha tadbirdardan iborat bo'ladi (8-andoza).

Jamoa tayyorgarligining umumiyligi strategiyasi va taktikasi-strategik ayg'oqchilar (razvedka) – jamoa tayyorgarligining strategik rejasi-jamoani jamlash va jamlab borish jamoaning taktik tayyorgarligi o'quv-mashg'ulot mashqlari, ko'rlik o'yinlari, tayyorlov musobaqalari, asosiy musobaqalar, moddiy ta'minot kabi amallarni o'rganishga da'vat etadi. Tibbiy va pedagogik nazorat-sport bazasi, uskunalar, anjomlar va sport formasi (kiyim) – shifokor nazorati, taktik tayyorgarlikni test yordamida baholash, tanlangan strategik yo'naliishning yakuniy natijalarini tahlil qilish, ham taktika va strategiyaning poydevari bo'lishi zarur.



5.2-andoza. Jamoa tayyorgarligining umumiyligi strategiyasi

Strategik reja va sport razvedkasi. Strategik reja tayyorgarlikning yo'nalishi, musobaqalarda ishtirok etish tajribasini o'rganish, raqib klubni va jamoasi haqida ma'lumotlar yig'ish tadbirdari bilan bog'liqdir. Sportchilarni tayyorlash strategiyasi borasida jamoaga sport maktabiga yosh, iste'dodli bolalarни tanlash va jalb qilish alohida ahamiyatga egadir.

Strategik rejada qo'yilgan maqsadga yuqori samara bilan erishish, naksariyat strategik razvedkaning natijalariga bog'liq bo'ladi.

Strategik razvedka raqib o'yinchilarning individual jismoniy, ruxiy, ijtimoiy, taktik, texnik xususiyatlarini mukammal bilib olishga erishish, raqib jamoasining taktik imkoniyatlarini uning yutuq va kamchiliklarini, hatto jamoaning mashg'ulot o'tkaziladigan inshoatlari sharoitini, u yerdagi iqlim va texnik omillarni bilihni taqozo etadi.

Strategik razvedka nafaqat raqib sportchilar haqida, balki jamoa murabbiylari, uqalovchi (massajist) shifokor va rahbarlari haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lishni taqazo etadi.

O'yinchining o'yin funksiyasi va jamoa taktikasini tuzish. Basketbol jamoasi tarkibidagi o'yinchilar musobaqa davomida maydonda joylashishlariga qarab barcha mavjud o'yin funksiyalarini bajaradilar. Shu bilan bir qatorda, har bir o'yinchi muayyan o'yin funksiyasiga ixtisoslashgan bo'ladi, ya'ni uni o'ziga xos o'yin "kasbi" bo'ladi. Masalan, o'yin kombinatsiyalarini uyushtiruvchi orqa zona o'yinchilari, shchit tagida hujumni samarali yakunlovchi va markaziy o'yinchilardir.

O'yinchining o'yin "kasbi" uning jismoniy, morfologik, texnik va taktik imkoniyatlariga qarab, yillar davomida shakllanib borgan sari ixtisoslasha boradi.

Zamonaviy basketbolda o'yinchi o'zining tanlangan (ixtisoslashgan) o'yin "kasbi"ni yuqori saviyada mahorat bilan ijro etishi bilan birga, o'zga o'yin funksiyalarini ham maromiga yetkazib bajarishi maqsadga muvofiqdir. Demak, yuqori malakali sportchilarni tayyorlushga qaratilgan ko'p yillik o'quv- mashg'ulot mashqlarini o'rganish va takomillashtirilgan o'yin funksiyasi asosida amalga oshirilindi.

O'yin faoliyatida sardorning ahamiyati. Basketbol o'yinda barcha sport o'yinlari turlaridagidek murabbiy o'z shogirdlari bilan ko'pot o'yin oldidan, choraklar orasida, tanaffus vaqtida qisqa muddatli muloqotlar olib baradi. Masalani mazkur tartibda amalga oshirilishi

musobaqa qoidasi bilan belgilangan. Shuning uchun o‘yin davomida o‘yinchilar faoliyatini boshqarish funksiyasi jamoa sardoriga yuklatiladi.

Sardor murabbiyning bergan ko‘rsatmasini, taktik va strategik rejasini muayyan o‘yin davomida amalga tatbiq qilishi kerak bo‘ladi. Ayrim vaqtarda vaziyatga qarab o‘yining taktik yo‘nalishini boshqarish ham sardorga yuklatiladi. Bunda sardor murabbiyning muntazam beriladigan (mumkin bo‘lgan vaqtda) qo‘sishimcha ko‘rsatma va yo‘riqlariga asoslanadi. Sardorning o‘yinchilari bilan bo‘ladigan aloqasi, ko‘rsatmasi so‘z, imo-ishora va boshqa belgilar vositasida amalga oshiriladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, sardorlik funksiyasini sifatli va samarali ijro etilishi ham yaxshi natija berishi aksariyat sardorning nafaqat obro‘siga, balki uning o‘yin mahoratiga ham bog‘liqdir. U yuqori mahoratga ega bo‘lishidan tashqari, o‘tkir zehnli, zukko, vaziyatni oldindan payqovchi, tez va to‘g‘ri fikrlovchi bo‘lishi lozim. Sardorda oliv insoniy sifatlar mujassamlashgan bo‘lishi, tashkilotchilik qobiliyati, yo‘lboshchilik san‘ati musobaqa jarayonida alohida o‘rin egallaydi.

Jamoa sardori aksariyat jamoadoshlariga nisbatan yoshi nuqtai nazaridan kattaroq, tajribaliroq bo‘lishi muhim ahamiyatga egadir.

Sardorlik “lavozimi” basketbol amaliyoti va nazariyasida ilimiyltomondan puxta o‘rganilmagan bo‘lib, ilmiy muammo sifatida o‘z yechimini tadqiqot asosida hal etilishini kutmoqda. Mazkur “lavozim” mohiyati va mazmunini shakllantirish yoki yuqari mahoratlari sardorni tarbiyalash murrabbiy-mutaxassislarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Reyting-nazorat va bilimni baholash testlari:

1. Yakka taktik harakatlarga o‘rgatish samaradorligi qanday aniqlanadi?

- a) harakatni sifatli ijro etishni tahlil qilish orqali
- b) o‘qituvchi-murabbiy fikriga ko‘ra
- c) test mashqlari natijalariga ko‘ra
- d) shug‘ullanuvchining shaxsiy fikriga ko‘ra

2. Sakrab savatga to‘p tushirish taktikasiga o‘rgatish samaradorligi qanday aniqlanadi?

- a) sakrash baladligi va savatga tushirish aniqligini hisoblash orqali

- b) test mashqlari natijalariga ko'ra
- c) sakrash balandligi, shchit va o'yinchi oralig'i va savatga tushirish sonini aniqlash orqali
- d) o'qituvchi -trenerni fikriga ko'ra

3. Guruhli taktik harakatlari o'rgatish samaradorligi qanday aniqlanadi?

- a) ikki va uch o'yinchini bajaradigan harakatlari orqali
- b) o'qituvchi-murabbiy fikriga ko'ra
- c) test mashqlari natijalariga ko'ra
- d) shug'ullanuvchining shaxsiy fikriga ko'ra

4. O'yin olib borish taktikasi vositalari nima?

- a) o'yindagi fikrlash
- b) taktik kombinatsiyalar
- c) texnik usullar va ularning bajarilish usullar
- d) joy tanlash va siljib yurishlar

5. O'yinni olib borishning taktik usullari nima?

- a) hujum
- b) to'pni o'yingga kiritishlar
- c) taktik kombinatsiyalar va o'yin tizimi
- d) himoya

6. Basketbolching taktik harakatlari amalda o'rganish qanday ketma-ketlikda olib boriladi?

- a) videoyozuvlarni (sxemalarni) tomosha qilish, mashg'ulotda sinab ko'rish, musobaqlarda qo'llash
- b) individual, keyin guruhli, so'ngra jamoaviy harakatlarni o'rganish
- c) imitaqiya, texnika mashqlari, taktik mashqlar
- d) rauqibsiz, sust raqib bilan, musobaqa shaklida

7. Jamoali taktik harakatlarga o'rgatish samaradorligi qanday aniqlanadi?

- a) harakatni sifatlari ijro etishni tahlil qilish orqali
- b) o'qituvchi-murabbiy fikriga ko'ra
- c) pozitsion hujum o'zaro harakatlarni qo'llash orqali
- d) shug'ullanuvchining shaxsiy fikriga ko'ra

8. Taktik tayyorgarlikning asosiy maqsadi qanday?

- a) surur qobiliyatlar va sifatlarini rivojlantirish
- b) shug'ullanuvchilarini sport kurashi vaziyatidan kelib chiqib, texnik qurollarni bajarishga o'rgatish

c) hujum va himoyada individual, guruqli hamda jamoaviy harakatlar asosini egallash

d) murakkab o‘yin vaziyatlarda texnik usullarining yuqori darajada ishonchlilagini ta’minlash

9. To‘p qabul qilish uchun chiqishda taktik harakatlarga nimalar kiradi?

a) aldamchi harakatlarni foydalanish, to‘p ilib olish

b) harakatlanish qo‘lga to‘p otish

c) yugurish tezligini va harakat yo‘nalishini o‘zgartirish

d) yugurish tezligini o‘zgartirish ikki oyoqqa to‘xtash va aylanma harakatlar

10. To‘pli o‘yinchilarning taktik harakatlarga nimalar kiradi?

a) to‘p ilib olish va to‘p uzatish “kesishish”

b) o‘yin holatidan kelib chiqib texnik usulni qo‘llash

c) raqibi ta‘qibiga qarshilik ko‘rsatish

d) himoyachi joylashgan holatiga qarab to‘p yo‘nalishini aniqlash

Foydalanimanadabiyotlar:

1. Железняк Ю.Д. Совершенствование спортивного мастерства: Учеб.для студ. Высш.учеб. завед/ Ю.Д. Железняк, Ю.М. Портнов, В.П. Савин и др. – М.: Akademiya, 2004. – 400 с.
2. Краузе Д., Мейер Д., Мейер Дж. Баскетбол / навыки и упражнения. – М.: АСТ, Астрель, 2006. – 216 с.
3. Методы подготовки баскетболистов. Методический журнал. Современный баскетбол. Под редакцией Белаш В.В. Г.Южный Октябрь, 2005. – 56 с.
4. Рекомендации при работе с молодыми баскетболистами. Методические пособие под редакцией Гомельского Е.Я. – М., 2009. – 92 с.
5. Соколова Н.Д. Применение некоторых вариантов позиционного нападения при игре в баскетбол// Методические рекомендации. – Т., 1997. – 27 с.
6. Giorgio Gandolfi. The Complete Book of Offensive Basketball Drills / USA: McGraw-Hill. 2009. - 272 p.
7. Morgan Wootten. Coaching basketball successfully / Morgan Wootten with Dave Gilbert - 2nd ed. USA: Human Kinetics. 2003. – 225 p.
8. Lee Rose. Winning basketball fundamentals. – USA: Human Kinetics, 2013. – 271 p.

VI BOB. BASKETBOL MASHG'ULOTI VA UNI O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

6.1. Mashg'ulotning mohiyati, maqsadi va vazifalari

Har bir mashg'ulot o'ziga xos jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlikni shakllantiruvchi mashqlardan iborat bo'lib, ularni ma'lum didaktik tartibda qo'llash asosida tashkil etiladi.

Jismoniy tarbiya va sport millat genofondini shakllantirish va barkamol avlodni tarbiyalashda kafolatli omil sifatida borgan sari o'quvchi yoshlarning kundalik turmush tarziga singib bormoqda.

1999-yil 27-maydagi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" tarbiya darslari hajmini oshirilishi, "Umid nihollari", "Barkamol ayloq", "Universiada" kabi 3 bosqichli musobaqalar tizimini tadbiq etilishi, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish va shu masala bo'yicha Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori (2002) kabi Konseptual hujjatlar ushbu sohani, ayniqsa, yoshlar o'rtasida yanadn jadalroq ommaviylashishiga keng yo'l ochib bermoqda.

O'rta umumta'limga mifik mukammal mukammal mukammal maktablari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'quv rejalarini tarkibiga mustaqil fan sifatida kiritilgan basketbol darsi o'quvchi yoshlarning jismoniy va funksional imkoniyatlarni oshirish, sog'lig'ini mustahkamlash, hayotiy zarur malakalarini shakllantirish, maxsus sifatlarni tarbiyalash, texnik-taktik va o'yin malakalariga o'rgatish, ma'nnaviy-madaniy, ahloqiy va psixologik hislatlarni kamol toptirishda o'ta muhim ahamiyatga egaadir.

Mashg'ulot o'tkazishning asosiy maqsadi "jismoniy madaniyat" va uning tarkibiy yo'naliislari (jismoniy tarbiya, sport, jismoniy va funksional tayyorgarlik, jismoniy sifatlar va hokazo) haqida dastlabki bilim berish, hayotiy zarur harakat malakalarini va ko'nikmalarini shakllantirish, asosiy jismoniy sifatlarni tarbiyalashdan iborat. O'z valomotligi va jismoniy qudratini mustahkamlash o'quvchi yoshlarning nafaqat shaxsiy ishi, balki bu mas'uliyat ularning jamiyat qobiliyat burchi ekanligini ongiga singdirish o'qituvchi tomonidan hal qabildigan muhim masalalardan biri bo'lishi lozim. Ushbu maqsadga qichish yosh avlodni "katta" hayotga tayyorlash, bo'lajak kasbiy

faoliyatni samarali tashkil qilish, turmush qiyinchiliklarni yengib o'tish va O'zbekiston Qurollari Kuchlari safida harbiy xizmatni sharaf bilan ado etish imkoniyatini yaratadi.

Mashg'ulotning vazifalari yuqorida qayd etilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda sog'liqni mustahkamlash, umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish, muayyan sport turi (basketbol) ga xos harakat malakalari texnikasiga o'rgatish hamda sport intizomini shakllantirish, raqibini hurmat qilish hissiyotini uyg'otish, iroda, diqqat va sezgirlik kabi xislatlarni tarbiyalashdan iborat.

6.2. Mashg'ulotni rejalashtirish va o'tkazish tartibi


Mashg'ulotning sifati va samaradorligi nafaqat trenerning mahorati hamda tajribasiga bog'liq, balki uni muayyan darsga qanday tayyorgarlik ko'rishga ham bog'liqdir.

Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish quyidagi tadbirlarni amalga oshirishdan iborat:


- mashg'ulot jarayonini loyihalash (rejalashtirish);
- mashg'ulotni samarali va sifatli o'tkazish modelini ishlab chiqish;
- mashg'ulotning foydali zichligini ta'minlash imkoniyatlarini aniqlash;
 - shug'ullanuvchilar tarkibidan yordamchilar tayinlash;
 - tayyorlangan va tasdiqlangan mashg'ulot bayonnomasini ko'rib chiqish, agar zaruriyat bo'lsa, o'zgartirish kiritish (mashg'ulot bayonnomasi ilova qilingan);
 - shug'ullanuvchilar tomonidan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash (baholash) mezonlarini ko'rib chiqish;
 - mashg'ulot o'tkazish joyi, foydalilaniladigan asbob-anjom va uskunalar tayyorligini ko'zdan kechirish;
 - mashg'ulotdan so'ng navbatdagi dars qanday fandan ekanligini aniqlash;
 - muayyan mashg'ulotda ishtirot etadigan sinf o'quvchilarining jismoniy va funksional imkoniyatlarini e'tiborga olish.
- Bundan tashqari, o'qituvchi quyidagi rejalashtiruv hujjatlari bilan qurollangan bo'lishi shart;
- ta'lim standarti va klassifikatori;

- o'quv dasturi bo'limlari bo'yicha yillik o'quv soatlarining tizimlanish rejasi;
- o'quv-mashg'ulotlarining soat hajmlarining taqsimoti;
- yillik o'quv-mashg'ulotlarining o'quv rejasi;
- oylik o'quv-mashg'ulotlarining o'quv rejasi;
- mashg'ulot bayonnomasi;
- guruh jurnali.

Mashg'ulotni yuqori saviyada o'tkazish, mashg'ulot davomida o'quvchilar faolligini ta'minlash, beriladigan vazifa, ko'rsatma va muhokular ijrosiga ularni ongli yondashishlariga erishish, mashg'ulotga mehr va hurmat uyg'otish murabbiyning nafaqat kasbiy mahorati va sifatli ishlab chiqilgan mashg'ulot bayonnomasiga, balki uning shaxsiy va insoniy fazilatlariga ham bevosita bog'liqdir 5-andozada va munaviy dars bayonnomasi, mashg'ulotning tuzilishi, uslub va usulita 6-, 7-andozalarda keltirilgan.



6. 1-andoza. Basketbol mashg'uloti tuzilishi



6.2-andoza. O'rgatish uslublari va vositalari

6.1-jadval

Tayyorgarlik siklida o'tkaziladigan musobaqa turlari va ularning minimal hajmi (o'yinlar soni)

Musobaqa turlari	BTBG		O'TBT				STBG		OSMBG			
	1-yil	dan ortiq	2	2	1	1	1	1	1	1	1	1
Jismoniy va taktik tayyorgarlik bo'yicha	6	7	8	8	6	6	8	-	-	-	-	-
Nazorat	6	13	16	14	12	12	8	6	8	10	12	12
Tanlov	-	-	4	10	12	12	4	4	6	12	14	14
Asosiy	2	6	6	12	20	20	4	4	6	16	18	18

6.2-jadval

Nazariy tayyorgarlik bo'yicha namunaviy o'quv rejasi

Mavzu	Boshlan g'ich tayyorgarlik			O'quv mashg'uloti					Sport takomil lashuvi	
	O'rnatish yillari									
	1	2	3	1	2	3	4	5	1	2-3
O'zbekiston da Jumoniy tartibyn va sport										
O'smir sportchi tartibi	+	+	+	+	+					
Jahonda va O'zbekistonda basketbolni rivojlanishi	+	+								
Chorchoq, uni belgilari va oldini olish	+	+	+							
Sportchi gigiyenasi	+	+	+			+	+			
Musobuqa qoldasi	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Sportchilar dopingi									+	+
Sport mashg'u lotida ovqatnash ning roli								+		
Sportchining psixologik tayyorgarlik moshari								+		
Autogen mashg'uloti									+	+

6.3-jadval

**BO'SMda rejalashtirish va o'quv-mashg'ulot musobaqalarini
o'tkazish soni (akademik soat)**

№	Tayyorgarli k turlari	BTBG		O'TBG			STBG			OSMB G
		O'rgatish yillari								
		1	2-3	1-2	3	4-5	1	2	2 Orti q	Barcha yillar
1	Nazariy tayyorgarlik	8	14	16	18	20	24	26	28	32
2	UJT	86	11 0	88	96	11 0	262	284	290	332
3	MJT	45	64	81	10 8	12 4	312	338	348	366
4	Texnik tayyorgarlik	72	10 8	11 9	13 0	15 0	240	260	300	>798
5	Taktik tayyorgarlik	37	46	68	10 3	11 8	308	334	370	
6	Integral tayyorgarlik	26	30	68	10 3	11 8	32	16	38	42
7	Instruktorlik va hakamlik amaliyoti	-	-	10	16	20	20	22	24	30
8	Musobaqa	24	30	10 2	13 2	15 0	KP	KP	KP	KP
9	O'tkazish imtihonlari, nazorat normativlari	14	14	20	22	22	14	2	18	22
1 0	Tiklantiruv chi tadbirlar	-	-	52	10 4	10 4	36	38	40	42
Jami:		31 2	41 6	62 4	83 2	93 6	124 8	135 2	1456	1664

Hafta lar №	Nazary lar	Jismoniy	Teknik	Taktik		Himoya Hujum	Himoya Hujum	İntegral	Musobaqa sonu	Tıklanırımlı ve tadbirler	Hafızalık yakutu sözlükler		
				Jami:	Taktik								
1.	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
1.	4				1							4	9
2.	4	1			1	1						2	9
3.	4	1			2	2							9
4.	3	1			1	1						1	9
5.	3	1			1	2		1				1	9
6.	2	3	1		1	1	1	1					9
7.	2	3	1		1	1	1	1					9
8.	3	2			1	1	1	1				1	9
9.	2	2			1	1	1	1				1	9
10.	2	2			1	1	1	1				2	9
11.	2	1			1	1	1	1				3	9
12.	4	2			1	1	1	1					9
13.	3	2			1	1	1	1				1	9
14.	3	2			1	1	1	1				1	9

39.		2	2	2	1	1	1	2	9				
40.		2	1	1	1	1	1	2	9				
41.		2	1	1	1	1	1	2	9				
42.	2	2	1	1	1	1	1	1	9				
43.	2	2	1	1	1	1	1	3	9				
44.		2	1	1	1	1	1	3	9				
45.		2	2	1	1	1	1	2	9				
46.		2	2	1	1	1	1	1	9				
47.		2		1	1	1	2	3	9				
48.		2	1		1	1	1	3	9				
49.	4	1		1	1		2		9				
50.		2	1		1	1		4	9				
51.		2	1	1	1	1	1	2	9				
52.	3			1	1	1	1	2	9				
Yillik yakun	14	130	64	108	54	54	56	30	26	40	40	16	468

15.		2	2		1	1	1	1	1	9
16.	2	2	2		1	1	1	1	1	9
17.		2	2		1		1	1	2	9
18.		2	2		1			4		9
19.			2				1	6		9
20.		1	1		1	1	1	1	1	9
21.		1	1		1	2	1			9
22.		1	1		1	1	1	1	1	9
23.		2	2		1	1	1	1	1	9
24.		1	1		1	1	2	1		9
25.		1	1		1	1	1	1	1	9
26.		2	1		1	2	1	1	1	9
27.	2	2	1		1	1	1	1	1	9
28.	2	2	2		1	1	1			9
29.		2	2		1	1	1	2	1	9
30.					1			3	4	9
31.			2				1	6		9
32.		4	1		2	2				9
33.		4	1		2	2				9
34.		4	1		1	1		1	1	9
35.		3	1		1	2	1	1	1	9
36.		3	1		1	1	1	1	1	9
37.		2	2		2	2	1			9

6.5-jadval

2-o'quv yilining O'TBG uchun o'quv mashg'ulot soatlarini taqsimlanishi

Tayyorgarlik turlari

Haf talar	Nazariy		Tayyorgarlik turlari		Taktik	Integral tayyorgarlik	Instruktorlik va hakamlik uslubiyati	Musobaqalar soni	Nazorat me'yorlari	Tiklantiruvchi tadbirlar	Haftalik yakun, soatlar
	Jismoniy	UJT	MJT	Jami	Hujum	Himoya	Jami	Hujum	Himoya		
	3	2		1						6	12
	3	1		1	1					4	12
	3	2		1	2		1	1	2	12	
	2	2		2	1		1	2		2	12
	3	2		1	2		2	2		12	
	2	2		1	1		2	2		2	12
	2	2		1	1		1	1	2	12	
	1	2		2	1		1	1	2	2	12
	2	2		1	2		1	1	3	9	2
										12	12
	3	2		2	1		1	1		2	12
	3	3		1	2		1	2		12	
	2	2		2	1		1	2		2	12
	1	2		1	2		1	2		12	
	1	2		2	1		1	1	2	2	12

3-5 o'quv yilining OTBG uchun o'quv masz'ulot soatlarini tajribanish

6.6-1

Yillik sikling bosqich va davrlari	Tayyorgarlik turlari						Taktik			Integral tayyorgarlik va nazorat o'yinlari						
	Haftalar soni	Jismoniy	Teknik	Nazariy	Yumumiy	Maxsus	Jami	Hujum	Himoya	Jami	Hujum	Himoya				
OTBG 3 o'quv yili																
Tayyorlov davri	22	8	57	58	76	38	38	41	21	20	49	7	-	14	44	354
Musobaqa davri	26	10	9	38	48	25	23	62	32	30	48	9	132	8	52	416
O'tish davri	4	-	30	12	6	3	3	-	-	6	-	-	-	-	8	62
OTBG 4 o'quv yili																
Tayyorlov davri	22	12	65	62	86	44	42	48	25	23	59	5	-	15	44	396
Musobaqa davri	26	8	15	44	56	29	27	70	35	35	51	15	150	7	52	468
O'tish davri	4	-	30	18	8	4	4	-	-	-	8	-	-	-	8	72

	2	2	2	1	1	1	1	2	12
	1	2	2	2	1	1	1	4	12
	1	1	1	2	1	1	1	2	12
2	1	1	2	1	1	1	3		12
	1	1	2	2	2	2	2	2	12
								12	12
								9	2
				1	2			2	12
	3	3	2	1	1	2		2	12
	3	3	1	1	1	2		2	12
	3	3	1	1	1			4	12
	3	3	2	2	2			2	12
Yillik yakun	16	88	81	119	61	58	68	36	32
								10	102
								20	20
								52	624

O'TBG 5 o'quv yili																
Tayyorlov davri	22	12	65	62	86	44	42	48	25	23	59	5	-	15	44	396
Musobaqa davri	26	8	15	44	56	29	27	70	35	35	51	15	150	7	52	468
O'tish davri	4	-	30	18	8	4	4	-	-	-	8	-	-	8	72	

5 o'quv yilining O'TBG uchun o'quv mashh'ulot soatlarini taqsimlanishi

6.7-jadval

Haftalar	Nazariy	Tayyorgarlik turlari						Taktik	Integral tayyorgarlik	Instruktorlik va hakimlik uslubiyati	Musobaqalar soni	Nazorat ie'byorlari	Tiklantiruvchi tadbirlar	Haftalik yakun , sogotlar	
		Jismoniy	Texnik	MJT	Jami	Hujumm	Himoya								
Tayyorlov davri															
1.		3	2	2	2	1	3			3	2	18			
2.		3	2	2	2	2	1	3		3	2	18			
3.	2	3	2	3	2	1	3				2	18			
4.	1	3	2	2	3	1	1	3			2	18			

26.		1		2	1		2	2	2	1	6		2	18	
27.		1		1	1		2	2	2	1	6		2	18	
28.		1		2	2		1	1	2	1	6		2	18	
29.		1		1	1		2	2	2	1	6		2	18	
30.		1		1			2	1	1	1	9		2	18	
31.		1			1		1	2	1	1	9		2	18	
32.		2	4	3	4							3	2	18	
Jami	6	15	42	52	27	25	60	30	30	43	11	120	3	44	396

O'tish davri

33.		7	5	1	1			2					2	18
34.		7	5	1	1			2					2	18
Jami		14	10	4	2	2			4				4	36

Tayyorlov davri

35.		6	5	1	1		1	1	1				2	18
36.		4	4	2	1		1	1	2	1			2	18
37.		4	4	3	1		1	1	2				2	18
38.		4	3	2	3		1	1	2				2	18
39.	1	4	3	3	2		1		2				2	18
40.	1	4	3	2	2		1	1	2				2	18
41.	1	3	3	2	3		1	1	2				2	18
42.	1	3	3	2	2		1	1	2	1			2	18
43.	1	3	3	2	2		1	1	2	1			2	18
44.	1	4	2	1	1		1	1	4	1			2	18

146

Murodiga dars

47.								1		15	2	18			
48.								1		15	2	18			
49.	2			1	1		3	2	5	2	4	2	18		
50.		2		1	1		2	3	1	2	4	2	18		
Jami	2		2	4	2	2	10	5	5	8	4	30	8	8	72
O'tish davri															
51.		8	4		1	1			2				2	18	
52.		8	4		1	1			2				2	18	
Jami		16	8	8	2	2			4				4	36	
Yillik yakun	20	110	124	150			130			130	20	150	22	104	936

147

Reyting-nazorat va bilimni baholash testlari:

1. Basketbol bo'yicha dars tuzilishi qanday?

- a) tayyorlov qism, aylanma mashg'ulot
- b) asosiy qism, tayyorlov qism
- c) yakunlov qism, yakka mashg'ulot
- d) tayyorlov, asosiy, yakunlov

2. Darsni tashkil qilish uslubiga nima kiradi?

- a) guruxli, frontal, aniqlilik uslubi
- b) yakka vazifa uslubi, pedagogik nazorat
- c) frontal amaliy vazifalar
- d) og'zaki, guruqli uslub

3. Tayyorlov qismida qanday vazifalar yechiladi?

- a) o'qituvchini zalda joyini tanlashi
- b) nutqni to'g'ri qo'llashi
- c) xatolarni vaqtida to'g'rilash
- d) asosiy qism vazifasini echishga tayyorgarlik

4. Darsni o'tkazishda qo'llaniladigan prinsiplar

- a) ketma-ketlik, maxsus
- b) maxsus mashqlar texnika bo'yicha
- c) yakkalashtirilgan, yordamchi mashqlar
- d) didaktik prinsiplar

5. Mashg'ulotni o'rgatish vositasi nima hisoblanadi?

- a) o'quv o'yinlari, musobaqa
- b) ikki yoqlama o'yin, takтика bo'yicha mashq
- c) jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar va sport o'yinlari
- d) maxsus, yondashtiruvchi mashqlar

6. O'rgatish uslublariga nima kiradi?

- a) yordamchi va maxsus vositalar
- b) o'quv va nazorat o'yinlari
- c) o'yin malakalarini bo'lib va to'liq bajarish
- d) og'zaki, ko'rgazmali, amaliy

7. O'rgatish principlari va mashg'ulotlari

- a) ko'rgazmali, aniq, engil, yakkalik, to'lqinsimonlilik, chuqur mutaxassislik
- b) o'yin vazifasida sportchilarni aniq vazifalari
- c) maksimal nagruzkaga sekin-asta o'tish principi
- d) ruhiy va irodaviy sifatlarni tarbiyalash

- D. O'squv mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan uslublar**
- a) yordicha qaytarish kuchi, oraliq, o'yin musobaqa
 - b) qiyinlashtirilgan vaziyatdagi malakalarini takomillashtirish
 - c) tushuntirish, tushuntirish
 - d) soptirish uslubi
- E. Maktabda basketbol bo'yicha jismoniy tarbiya darsida qanday uslublar qo'llaniladi?**
- a) yalpi, guruhli, individual
 - b) kompleks
 - c) aylanma mashg'ulot
 - d) tekrorly
- F. Maktabda basketbol darsi nechta qismlardan iborat?**
- a) oltita
 - b) to'rtta
 - c) uchta
 - d) ikkita

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Иппиков Ч.Т. Теоретические основы методики физического воспитания. – М.: Insan, 2000. - 351 с.
2. Нестеровский Д.И. Теория и методика баскетбола// Учебное пособие для студентов вузов. – М.: "Akademiya", 2010. 116 с.
3. Рекомендации при работе с молодыми баскетболистами. Методическое пособие под редакции Гомолесского Е.Я. – М., 2009. – 92 с.
4. Соколова Н.Д., Ганиева Ф.В., Исматуллаев Х.А. Баскетбол с мячом и мячом туплами, (III kurs). – Т., 2004. - 185 с.
5. Соколова Н.Д., Бояркина Д.Б. Упражнения, применяемые при обучении ловли и передачам мяча в баскетболе // Методические рекомендации. – Т., 1993. – 29 с.
6. Соколова Н.Д. Упражнения, применяемые при обучении мячом в баскетболе // Методические рекомендации. – Т., 1996. - 27 с.
7. Соколова Н.Д. Применение некоторых вариантов атакующего нападения при игре в баскетбол// Методические рекомендации. – Т., 1997. - 27 с.

VII BOB. JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH VA JISMONIY TAYYORGARLIK

7.1. Jismoniy sifatlar va jismoniy tayyorgarlik haqida tushuncha

Texnik-taktik tayyorgarlik turli musobaqa o'yinlariga modellashtirilgan integral jarayon bo'lib, ularda qo'llaniladigan maxsus harakatlarni maqsadli shakllantirishga qaratiladi.

Keskin raqobat ostida ketayotgan basketbol musobaqlari o'ta tezkor shiddatda favqo'lodda o'zgaruvchan yo'nalish va vaziyatlarda ijro etiladigan harakatlar (yugurish, sakrash, to'xtash, burlish, aylanish va h.) hamda texnik-taktik kombinatsiyalar bilan farqlanadi. Kuniga 2-3 martali tinimsiz mashg'ulotlar evaziga amalga oshiriladigan bunday yuklamalar yuksak shakllangan va funksional tayyorgarlik asosida o'zlashtirilishi isbot talab qilmaydi.

"Jismoniy tayyorgarlik" (yoki imkoniyat) tushunchasi nimani anglatadi, ularning mantiqiy mohiyati nimadan iborat degan savol tug'iladi?

Jismoniy tayyorgarlik bu serqirrali pedagogik jarayon bo'lib, u jismoniy sifatlar va funksional imkoniyatlarni tanlangan sport turi xususiyatlarga muvofiq yo'nalishda shakllantirishga qaratiladi. Binobarin jismoniy tayyorgarlik texnik-taktik va va musobaqa tayyorgarligi bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi darkor.

"Jismoniy va funksional" imkoniyatlar (tayyorgarlik) – bu harakat qobiliyatining ikki bir-biriga uzviy bog'liq tomonlarini ifodalaydi. Jumladan, "Jismoniy" imkoniyat – yurish, yugurish, sakrash, to'xtash, egilish, yozilish, burlish, aylanish, texnik-taktik usullar kabi harakat ko'nikmalari "funksional" organlar (m.n.s, yurak, o'pka, jigar, buyrak, ko'z, qo'lok, mushaklar va h.) faoliyatining tashqi ko'rinishdagi mahsulidir. Boshqacha qilib aytganda "jismoniy" imkoniyat ana shu funksional organlarning "ishlash qobiliyati" bilan belgilanadi. Funksional organlar jismoniy ish qobiliyatini psixobiologik energiya (quvvat) bilan ta'minlaydi.

Insoning yoki sportchining barcha harakat faoliyati xatto ularning intelektual va ruhiy (xotira, diqqat, ong, idrok, iroda va h.) imkoniyatlari ham jismoniy funksional mambalar asosida amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham ko‘p yillik uzluksiz sport trenirovkalarining barcha bosqichlarida jismoniy va funksional tayyorgarlik jarayoniga bo‘lavor nhamiyat qaratiladi. Uzoq muddat davomida muntazam qo‘llanadigan katta hajmli, o‘ta shiddatli mashg‘ulot va musobaqalar samaradorligini ta’minalash ish qobiliyatini shakllantirish, uni saqlash va oshirish hamda yuksak “sport formasiga” erishish har yoqlama yuksak shukllangan jismoniy funksional imkoniyatlarga bog‘liqdir.

Binobarin, bugungi basketbolga xos texnik-taktik ko‘nikmalarga o‘rigatish, ularni o‘zlashtirish va mukammallashtirilish sur’ati ham jismoniy funksional imkoniyatlarga asoslanadi. Ayniqsa, qayta-qayta takrorlanib turadigan musobaqa sikllari davomida texnik-taktik bo‘nikmalar (usullar va kombinatsiyalar) samaradorligini saqlash va oshirish jismoniy va funksional imkoniyatlar evaziga ta’milanadi.

Jismoniy tayyorgarlik keng ma’noda ham, tor ma’noda ham, har bir faoliyatni (mashg‘ulot, musobaqa, ro‘zg‘or, kasb va h. harakatlarga hujjat faoliyatlar) harakatga keltiruvchi energetik manbaga asoslangan qobiliyatini anglatadi.

Sport amaliyotda, shu jumladan basketbolda ham – jismoniy tayyorgarlik barcha texnik-taktik ko‘nikmalar, kombinasion usullar, katto ruhiy holatlarni ham harakatga keltiradi. Masalan, jismonan zaif o‘yinchilarning o‘z raqibi oldida titrash, qo‘rqish va h. holatlarga tushib qolishi isbot talab qilmaydi. Demak, jismoniy imkoniyat (tayyorgarlik) sportchi organizmining ichki a‘zolari (MNS, nafas olish, yurak-qon tomir, mushaklar va h.)ning bioenargetik imkoniyatlariga asoslangan integral tushunchasi ifodalaydi. Binobarin, jismoniy tayyorgarlik bir o‘yin yoki bir necha musobaqa sikllari davomida ijro etiladigan texnik-taktik faoliyatini samarali amalga mahirish poydevori bo‘lib hisoblanadi.

Odatda, jismoniy tayyorgarlikni ifoda etuvchi sifatlar (qobiliyatlar) kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik imkoniyatlaridan iborat deb yuritiladi. Lekin ushbu sifatlar muayyan harakat ko‘nikmalarini (yurish, yugurish, to‘chtash, sakrash, egilish, yurish va h.) va texnik-taktik usullarni (harakatlanish asosida to‘pni qabul qilish, uzatish, zarba berish, to‘sinq qo‘yish va h.) ijro etish imkoniyatlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Yillik tayyorgarlik siklining tayyorgarlik davrida (UJT, MJT va musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichlari) jismoniy tayyorgarlikka ahatildigan soatlar hajmi 60-65 % ni tashkil etishi lozim, musobaqa

davrida 20-25%, o'tish davrida esa 10-20 % ga teng bo'lgani maqsadga muvofiq. Lekin jamoa o'yinchilarining real jismoniy-funksional holatlariga qarab ushbu tayyorgarlik turiga ajratiladigan vaqt har davr va bosqichda oshirilishi mumkin. Basketbolning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan praporsinal nisbatda shakllantirishi darkor. Albatta, bu borada maxsus jismoniy sifatlar (maxsus tezkor-kuch, chaqqonlik, tezkor-kuch chidamkorligi, shu jumladan, sakrash va o'yin chidamkorligi) maqsadli rivojlantirishga ustunlik berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiyl jismoniy tayyorgarlik (UJT)ning vazifalari quyidagilarga qaratiladi:

- sog'liqni mustahkamlash, morfofunksional organlarni (tana va tana qismlari hajmi – uzunligi, diametri va h., qaddi-qomat, ichki organlar) shakllantirish;

- asosiy jismoniy sifatlarni praporsional tartibda rivojlantirish;

- hayotiy zarur harakat ko'nikmalari (yugurish, sakrash, suzish, osilib chiqish va h.) ni takomillashtirish;

- tayanch-harakat apparati, basketbolga xos yuklamalarini o'zlashtiradigan asosiy mushaklar guruhlari va muvozanat saqlash turg'unligi shakllantirish.

UJTni shakllantiruvchi vositalar ikki guruhga bo'linadi: - umumiyl rivojlantiruvch mashqlar, shu jumladan, trenajerlar yordamida bajariladigan mashqlar hos mashqlar; - boshqa sport turlariga xos mashqlar (gimnastika, akrobatika, suzish, harakatli o'yinlar va h.).

Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT)ning vazifalari:

- basketbol xususiyatlariiga xos jismoniy qobiliyatlarni takomillashtirish (tezkor-kuch, sakrash va o'yin chidamkorligi, koordinatsion qobiliyat va h.).

- hujum-himoya harakatlari va texnik-taktik kombinatsiyalarni aniq, tezkor va chaqqon ijro etish qobiliyatlarni shakllantirish.

MJTni shakllantiruvchi vositalar tayyorlov, yordamchi, yondashtiruvchi, taqlidiy va maxsus texnik uskunalar, trenajorlar yordamida bajariladigan mashqlardan iborat bo'ladi.

Maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirishda qo'llaniladigan uslublar.

Kuch va tezkor-kuch (portlovchi kuch) sifatlarini rivojlantirish uslublari:

- qisqa muddatli kuchlanish;
- toliqishga olib kelmaydigan o'rtacha kuchlanishi (maksimal kuchlanishning 30-50%);
- qo'shimcha uslub (tezkor-kuch yoki chaqqonlik sifatlarni o'yin texnikasi bilan qo'shib shakllantirish);
- aylanma mashq uslubi (4-6 ta "bekat"larda aylanib turli yo'nalishli mashqlarni bajarish).

Tezkorlikni rivojlantirish uslublari:

- takrorlov uslubi;
- keskin o'zgaruvchan tezlikda harakatlanayotgan ob'yektga (lo'p, o'yinchil, anjom va h) aniq aks ta'sir ko'rsatish;
- vaqt va oraliqni farqlash-aniq aks ta'sir ko'satsh
- vaziyatli uslub;
- qo'shma uslub;
- mashqni murakkablashtirilgan vaziyatda bajarish;
- aylanma mashq uslubi;
- turdosh va ixtisoslashtirilgan harakatli o'yinlarni qo'llash uslubi;
- o'yin uslubi;
- musobaqa uslubi.

Chaqqonlikki rivojlantiruvchi uslublar:

- o'zlashtirilgan mashqlar mazmuni va yo'nalshini murakkablashtirish;
- ko'pyoqlama (o'ng-chap tomonga, o'ng-chap qo'l, o'ng chap oyoq va h) ijro etiladigan mashqlarni qo'llash;
- biryoqlama va ko'pyoqlama qarshiliklar ta'sirida bajariladigan mashqlarni qo'llash;
- oldindan ma'lum bo'lмаган signallarga ta'sir ko'rsatish;
- keskin o'zgaruvchan yo'nalishili mashqlarni qo'llash.

Chidamkorlikni rivojlantiruvchi uslublar:

- o'zgaruvchan uslub;
- takrorlov uslubi;
- qisqa muddatli mashqlar shiddatini oshirish uslubi;
- uzoq muddatli mashqlarni sekin shiddatda bajarish;
- maksimal imkoniyatgacha uslubi.

Egiluvchanlikni rivojlantiruvchi uslublari:

- asta-sekin uslubi (passiv);
- maksimal imkoniyatgacha uslubi (faol);

- amplitudani oshirish uslubi;
- buqilish-aks buqilish uslubi;
- tashqi ta'sirida buqilish uslubi.


Sakrovchanlikni rivojlantiruvchi uslublar:

- takrorlov uslubi;
- og'irliliklar bilan takrorlov uslubi;
- sakrab burilish-aylanish uslubi;
- estafetali uslub;
- tizzalarni turli burchakcha bukib sakrash uslubi;
- espander uslubi.


Sakrash chidamkorligini rivojlantirishda sakrovchanlik va chidamkorlik sifatlarini rivojlantiruvchi uslublar tabaqlashtirilgan hamda vaziyatlashtirilgan qo'llaniladi.

Koordinatsion chidamkorlikni rivojlantirishda usullar (to'pni urib yugurish, joydan va sakrab uzatish turlari, ilish, savatga to'p tashlash usullari) texnikasini (koordinatsiyasini) saqlab uzoq vaqt davom ettiriladigan uslub va mashqlar qo'llaniladi.

O'yin chidamkorligini rivojlantirishda 2:2, 2:3, 3:3, 3:4, 4:4, 4:5 va aksincha tarkibida bajariladigan mashqlar uslubi va muddati uzaytirilgan o'yin uslublari qo'llaniladi. 19-andozalarda umumiy va maxsus jismoniy sifatlar, ularni rivojlantirishda qo'llaniladigan namunaviy uslublar keltirilgan.



7.1-andoza



7.2-andoza

Turli yoshli basketbolchilar jismoniy tayyorgarligini baholashda qo'llaniladigan test mashqlari va me'yoriy talablar 30-jadvalda keltirilgan.

11-17 юноши баскетболисттар йысмонияттарынан мөнгөн таңбасар

№	Jismony qobiliyatlar	Test mashqlari	Yoshi	Jinsi	Tayyorgartik darajasi	
					past	o'rtacha
1.	Tezkorlik	30 m.yugurish (sek)	11	O'	6,3 va yuqori Q	6,1-5,5 6,3-5,7
			12	O'	6,0	5,8-5,4
			13	O'	6,2	6,0-6,4
			14	O'	5,9	5,6-5,2
			15	O'	6,3	6,2-5,5
2.	Koordinatsion	3x10m.ga mokkisimon yugurish	11	O'	5,8	5,5-5,1
			12	O'	6,1	5,9-5,4
			13	O'	5,5	5,3-4,9
			14	O'	6,0	5,8-5,3
			15	O'	9,7 va yuqori Q	9,3-8,8 9,7-9,3
						8,5 va past 8,9

3.	Tezkor-kuch	Joydan uzunlikka sakrash (sek)	11	O' Q	140 va past 130	160-180 150-175	195 va yuqori
			12	O' Q	145 135	165-180 155-175	200 190
			13	O' Q	150 140	170-190 160-180	205 200
			14	O' Q	160 145	180-195 160-180	210 200
			15	O' Q	175 155	190-205 165-185	220 205
4.	Chidamkorlik	6-daq.li yugurish (m)	11	O' Q	900 va past 700	1000-1100 850-1000	1300 va yuqori 1100
			12	O' Q	950 750	1100-1200 900-1050	1350 1150
			13	O' Q	1000 800	1150-1250 950-1100	1400 1200
			14	O' Q	1050 850	1200-1300 1000-1150	1450 1250
			15	O' Q	1100 900	1250-1350 1050-1200	1450 1250
5.	Egiluvchanlik	Tik holatdan oldinga egilish (sm)	11	O' Q	2 va past 4	6-8 8-10	10 va yuqori 15
			12	O' Q	2 5	6-8 9-11	10 16
			13	O'	2	5-7	9

6.	Kuch	Baland turnikda tortilish-marta (o'g'il bolalar) Past turnikda yotgan holatdan tortilish-marta (qiz bolalar)	14	Q	3	7-9	11
			14	Q	7	12-14	20
			15	Q	4	8-10	12
			15	Q	7	12-14	20
			11	O' Q	1 va past	4-5 10-14	6 va yuqori 19
			12	O' Q	1 4	4-6 11-15	7 20
			13	O' Q	1 5	5-6 12-15	8 19
			14	O' Q	2 5	6-7 13-15	9 17
			15	O' Q	3 5	7-8 12-13	10 16

16-17 yoshli basketbolchilar jismoniy tayyorgarligini baholashda qo'llaniladigan me'yoriy talablar

№	Jismoniy qibiliyatlar	Test mashqlari	Yoshi	Jinsi	Tayyorgarlik darajasi		
					past	o'rta	yuqori
1.	Tezkorlik	30 m. yugurish (sek)	16	O'	5,2 va yuqori	5,1-4,8	4,4 va past 4,8
				Q	6,1	5,9-5,3	
2.	Koordinasion	3x10m.ga mokksimon yugurish	16	O'	8,2 va yuqori	8,0-7,6	7,3 va past 8,4
				Q	9,7	9,3-8,7	
3.	Tezkor-kuch	Joydan uzunlikka sakrash (sek)	16	O'	8,1		
				Q	7,2		
4.	Chidamkorlik	6-daq.li yugurish (m)	16	O'		7,9-7,5	7,2
				Q		9,6-8,7	8,5
5.	Egiluvchanlik	Tik holatdan oldinga egilish (sm)	16	O'	5 va past 7 va past	9-12	15 va past 20 va past
				Q		12-14	
6.	Kuch	Baland turnikda	16	O'	5 va past 7 va past	9-12	15 va past 20 va past
				Q	4 va past 6	12-14	
						8-9	11 va past 18
						13-15	

160

	tortilish-marta (o'g'il bolalar) Past turnikda yotgan holatdan tortilish-marta (qiz bolalar)	17	O' Q	5 6	9-10 13-15	12 18
--	---	----	---------	--------	---------------	----------

7.2. Jismoniy tayyorgarlikning umumiy asoslari

Inson bolalikdan turli yo‘nalishdagi harakat malakalarini ongsiz va ongli tarzda bajaradi. Natijada shu harakatlar ma’lum jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, eguluvchanlik) tusida rivojlanma boradi. Sekin-asta hayotiy zarur harakat malakalari (yurish, yugurish, sakrash, to‘xtash, osilish va h.) sayqal topadi.

Mutaxasislarning fikricha, asosan shu jismoniy sifatlar hayotiy zarur harakat malakalari, o‘yinlar yordamida yanada samaraliroq rivojlanishi isbotlab berilgan.

Oilada, mактабгача tarbiya muassasalarida, turli bosqichdagi ta’lim maskanlarida ushbu muammoga har doim ham rejali va ilmiy jihatdan yondoshilmaydi.

Jismoniy mashqlarni to‘g‘ri qo‘llash, ularni bolalar qanday o‘zlashtirayotganligini nazorat qilib borish, shu bolalardagi jismoniy sifatlarni uning qaddi-qomati, jismoniy va funksional taraqqiyoti tug‘ri yo‘nalishda tarbiyalanib borishiga imkon yaratadi.

Ma’lumki, insoning jismoniy sifatlari uning tug‘ilishidan boshlab shakllana boradi. Lekin, uning bolaligida shu sifatlar qanday darajada shakllanishi, oddiy yoki murakkab harakatlarni o‘zlashtirib olishi nafaqt uni o‘sib, yashab kelayotgan muhitga bog‘liq, balki bolaning muayyan sifatini qanday vositalar yordamida rivojanlantirilishi bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda harakatni turi, yo‘nalishi va qanday maksadga karatilganligiga (kasb, ro‘zg‘or ishi, sport, harbiy faoliyat va h.) qarab har bir jismoniy sifatni shu harakat ijrosidagi o‘rnii turlicha bo‘ladi. Shunday bo‘lsada, turli kasb faoliyatlarida yoki sport turlarida shu jismoniy sifatlarning integral ahamiyati o‘ziga xos ulushga ega bo‘ladi. Ammo qanday bo‘lmasin, ko‘pgina tadqiqotchilarining fikricha, barcha harakat faoliyatida ayrim jismoniy sifatlarning ustuvorligi darhol ko‘zga tashlanadi.

Zamonaviy sport amaliyotida yuqori natijalarga erishish sportchining uzoq muddat davomida yuqori sifatli va samarali ish qobiliyatini saqlay olish imkoniyati bilan bog‘liqdir.

Har xil sport turlari bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqalar muddati xalqaro musobaqalar qoidalari bilan belgilanadi. Shu musobaqalar muddatida qaysi sportchi o‘z ish qobiliyatini sifati va samaradorligi jihatdan qanchalik uzoq vaqt saqlay olsa yoki uni

oshira olish “kuchiga” ega bo’lsa, unga muvaffaqiyat shunchalik kulib boqishi muqarrar. Boshqacha qilib aytganda, ish qobiliyatining sifat va samaradorlik darajasini ko’p yoki kam vaqt davomida saqlanishi umumiyligi va maxsus chidamkorlik sifatlarining turlari (tezkorlik, kuch, tezkor-kuchga bo’lgan chidamkorlik, mukashga bo’lgan chidamkorlik, texnik-taktik chidamkorlik va hokazo) qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Ma’lumki, ish qobiliyati haqida gap ketganda, ayniqsa so‘z uning sifati va samaradorligiga tegishli bo’lsa, masalaning mohiyati va pirovard “mag’izi” boshqa jismoniy sifatlarning shakllangan yoki shakllanmaganligiga borib taqaladi. Ya’ni samarali natijaga mos umumy va maxsus chidamkorlik, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, sifatlarini o’zida mujassam qilgan bo’ladi. Ushbu sifatlarning o’zaro uzviy bog’liqligi va ularning yuksak darajadagi integral natijasi texnik-taktik mahorat taqdirini belgilab beradi.

Jismoniy tayyorgarlik – tayyorgarlik turlaridan biri bo’lib, basketbolchi organizimini rivojlantirish, uni jismoniy sifat va qobiliyatlarini takomillashtirish hamda o‘yin faoliyatini samarali amalga oshirishni ta’minlovchi mustahkam poydevor yaratishga qaratiladi.

Zamonaviy basketbol shug’ullanuvchilaridan nixoyatda katta kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik sifatlarini talab qiluvchi sport o‘yinlari turiga mansubdir.

Har bir o‘yin davomida keskin o‘zgaruvchan yo‘nalishlar bo’ylab turli vaziyatlar ta’sirida ko’plab ijro etiladigan o‘ta tezkor texnik-taktik harakatlar basketbolchidan katta kuch, tezkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlik sifatlarini talab qiladi. O‘z navbatida o‘yinchisi organizimining funksional jihatdan mukammal shakllangan bo’lishini taqazo etadi.

Bugungi basketbolchi bo’yi jihatdan 180-195 sm va undan katta uzunlikka ega bo’lib, harakatchan tezkor, sakrovchan ziyrak, zukko, tez fikrlovchi, o’tkir zehnli, maydonda ro’y beradigan vaziyatni tez fahmlab “foydali” javob qaytara oladigan qobiliyatlarga ega bo’lishi kerak.

Sportchining yoshi, tayyorgarligi, malakasi, hamda sport mashg’uloti davrlari va vazifalariga qarab jismoniy tayyorgarlikni maymuni, hajmi, shiddati va yo‘nalishi turlicha bo’ladi.

7.3. Jismoniy tayyorgarlikning vazifalari va mazmuni

Jismoniy tayyorgarlikning vazifalari quyidagilardan iborat :

1. Sog'liqni mustahkamlash.
2. Hayotiy zarur ko'nikmalarni takomillashtirish (yurish, yugurish, sakrash va hokazo).
3. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik).
4. Harakat malakalari hajmini oshirish va ularning ijroiyligini chegarasini kengaytirish.
5. Organizmning o'yin davomida ishtirok etuvchi organ, bo'lim va mushak guruuhlarining funksiyalarini shakllantirish.
6. O'yin malakalarini samarali o'zlashtirishga imkon yaratuvchi maxsus sifatlarni rivojlantirish.

Jismoniy tayyorgarlik umumiy (UJT) va maxsus (MJT) jismoniy tayyorgarlikka bo'linadi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik sport trenirovkasini muhim vazifalaridan biri sifatida shug'ullanuvchilarining to'laqonli jismoniy taraqqiyoti va har tomonlama jismoniy tayyorgarligini ta'minlashga qaratiladi. UJT zarur hayotiy malakalarni takomillashtirishga va asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayondir. Maqsadi MJTning poydevori bo'lgan UJT bazasini yaratishdir. UJTning vazifalari - asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish, organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish harakat malakalarining hajmi va ijroiyligini chegarasini kengaytirish va sog'liqni mustahkamlash, tiklanish jarayonini faollashtirish, organizmning tashqi va ichki salbiy ta'sirlariga bo'lgan bardoshini oshirishdan iborat.

UJT jarayoni umumiy jismoniy sifatlar – tezkorlik, kuch, chaqqonlik, chidamlilik va egiluvchanlikni rivojlantirishga qaratiladi.

UJT – jismoniy sifatlarni alohida yoki birgalikda rivojlantiruvchi o'ziga xos jismoniy mashqlardan iborat bo'ladi.

UJTni amalga oshirish jarayonida har-xil sport uskunalaridan, anjomlardan, trenajorlardan va tabiat omillaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sport mashg'ulotining ayrim bosqich va davrlarida UJT mashqlari va mashg'ulotlarining hajmi, shiddati, yo'nalishi va turilishi o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik - tanlangan sport turida yuqori natiylarga erishish maqasdida shu sport turida assosiy va hal etuvchi shamiyatga ega bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayondir.

Vazifalari:

- basketbolga xos maxsus harakat sifatlari va qobiliyatlarini (tezkorlik, kuch-tezkorlik, chaqqonlik, maxsus chidamkorlik va h.) rivojlantirish.

- o'yin texnikasini o'zlashtirishda zarur bo'lgan kombinatsiyalarni rivojlantirish;
- o'yin taktikasini o'zlashtirishda zarur bo'lgan kombinatsiyalarni rivojlantirish;

MJT sport mashg'ulotining barcha bosqich va davrlarida hajm va shiddat jihatidan munosib me'yorda qo'llaniladi.

7.4. Jismoniy tayyorgarlikning vosita va uslublari

Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha quyidagi vazifalarni yechishda turli vositalar: tayyorgarlik mashqlari va harakatli va sport o'yinlari va o'quv o'yinlari va musobaqalardan foydalanish mumkin. Shug'ullanuvchining individual xususiyatlarga mashqlarni moslab qo'llanilishi asosiy shartlardan biri bo'lib hisoblanadi.

- a) tana, qo'l, oyoq mushaklarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi kuch va tezkorlik-kuch mashqlari;
- b) chidamkorlik sifatlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi (tezkorlik-chidamlilik, tezkor-kuch chidamliligi) mashqlar;
- v) harakatlanish tezkorligiga ta'sir etuvchi mashqlar;
- g) chaqqonlik sifatlariga ta'sir etuvchi mashqlar;
- d) egiluvchanlik sifatlariga ta'sir etuvchi mashqlar;

Bu mashqlardan foydalanish texnik va taktik usullarni bajarish sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi;

Jismoniy tayyorgarlikning uslublari. Shug'ullanuvchilar uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni tarbiyalashda quyidagi uslublardan foydalinishadi.

Bazaviy umumiy chidamlilikni tarbiyalash bir tekis uzoq muddatli yugurish.

Maxsus chidamlilikni tarbiyalashda o'zgaruvchan xarakterdag'i ishlarni bajarish.

Takroriy mashq usuli. Bu usul tezkorlik, kuch va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishda qo'llanilib, bunda dam olish oraliqlari organizmning to'liq tiklanishiga imkon yaratishi zarur.

Oraliq uslub. Bu uslub asosan tezkorlik va chidamkorligini tarbiyalashda qo'llaniladi. Bunda ish va dam olish qat'iy ravishda tartiblashtiriladi. Dam olish oralig'i odatda katta bo'lmaydi.

Almashinuvchi mashq usullari bu usulning muhim tomoni mashqning borishiga qarab ta'siri bir maqsadga qaratilgan holda o'zgarishidir. Bunga turli hollarda turli yuklama (harakat tezligi, ish hajmi muddati, va hokazo)ning ayrim ko'rsatkichlarini to'g'ri o'zlashtirish (harakat uslubini navbatlashtirish, shuningdek, dam olish oraliqlari va faoliyatining tashqi sharoitlarini o'zgartirish) yo'li bilan erishiladi. Bunda organizmning funksional imkoniyatlariga odatdagiday bo'limgan, ya'ni tobora kattaroq talablar qo'yiladi va bu bilan ularning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Shu bilan birga, harakat shakli va sharoitini yangilab turish tufayli o'zlashtirilgan malakalarining dinamik stereotipiga o'zgartirishlar kiritiladi.

Shug'ullanuvchilarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash uchun berilayotga mashqlar ularning yosh xususiyatlariga va jismoniy sifatlarining qo'llash yosh davrlariga qarab tanlanishi va rivojlanirilishi juda muhim hisoblanadi.

7.5. Umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalash

7.5.1. Tezkorlikni tarbiyalash

Tezkorlik deb muayyan faoliyatni qisqa muddat ichida ijro etilishiga aytildi. Tezkorlikning darajasi soniya, daqiqa, o'lchov birliklar asosida baholanadi. Tezkorlik uchta tarkibiy komponentlardan iborat bo'ladi.

1. Oddiy harakat reaksiyalarining latent (yashirin) vaqtisi.
 2. Murakkab harakatlar tezligi.
 3. Harakatlar chastotasi.
- Tezkorlikning shakllari bir biriga nisbatan bog'liq emas.

Ko'rsatib o'tilgan uchta shaklning birgalikda kelishi tezkorlik namoyon bo'lishining barcha hollarini belgilaydi. Biroq murnikkab-kordinasion yaxlit harakatlardagi tezlik faqat tezkorlik darsinasiga emas, balki boshqa sabablarga ham bog'liq. Shuning uchun yaxlit harakat tezligi kishining tezkorligini faqat bilvosita foydalaydi.

Tezkorlik qobiliyatlari umuman o'ziga xos bo'ladi. Faqat bir-biriga o'xshash harakatlardagina tezkorlik to'g'irdan-to'g'ri yoki bevosita bir-biriga ko'chishi mumkin.

Tezkorlikning fiziologik va bioximik asoslari. Reaksiyaning latent vaqt va beshta tarkibiy qismidan iborat:

- 1) Analizatorlar reseptorda qo'zg'alishning paydo bo'lishi;
- 2) Qo'zg'alishni markaziy nerv tizimiga uzatilishi;
- 3) Qo'zg'alishning nerv yo'llari bo'ylab o'tib borishi va effektor signal hosil bo'lishi;
- 4) Signalning markaziy nerv tizimidan mushakka o'tkazilishi;
- 5) Mushakning qo'zg'alishi va unda mexaniq faollikning paydo bo'lishi.

Maksimal tezlikda bajariladigan harakatlar fizjologik xususiyatlarga ko'ra sustroq harakatlardan farq qiladi. Bular ornsidagi eng muhim farq shundan iboratki, harakatlarni maksimal tezlikda bajarish davomida sensor bog'lanishlar hosil bo'lishi qilyinlashadi: reflektor yoy impulslarni tashib ulgurolmaydi. Tezlik juda katta bo'lganida harakatlarni etarlicha aniqlik bilan bajarishning qiyinligi ana shu bilan bog'liqidir.

Oddiy reaksiya tezkorligini tarbiyalash. Oddiy reaksiya tezligi biror bir ta'sirga javob berishning latent vaqt bilan belgilanadi. Oddiy reaksiya oldindan ma'lum bo'lgan signalga ilgaridan ma'lum bo'lgan harakat bilan javob berishdir.

Tezkorlikning juda ko'p o'tishi (boshqa biror bir harakatga o'tishi) oddiy reaksiyalar uchun xarakterlidir. Ayrim vaziyatlarda tezda biror qarorga keluvchi kishilar boshqa sharoitlarda ham tezroq biror qarorga keladilar. Tez bajariladigan xilma-xil mashqlar bilan shug'ullanish oddiy reaksiya tezkorligini jadallashtiradi.

Oddiy reaksiya tezkorligini tarbiyalashda bir necha usullardan foydalaniladi. Bulardan eng ko'p tarqalgani to'satdan paydo bo'ladigan signalga yoki tevarak-atrofdagi vaziyatning o'zgartirishiga javoban mumkin qadar tezkor reaksiya ko'rsatish

usulidir. Bu usul yangi shug'ullanuvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda tez orada ijobiy natijalar beradi. Afsuski, shundan keyin reaksiya tezkorligi turg'unlashib qoladi va uning kuchayishi to'xtaydi.

Reaksiya tezkorligi katta ahamiyatga ega bo'lgan hollarda uni takomillashtirish uchun maxsus usullardan foydalaniladi. Bu usullardan biri reaksiya tezkorligini yengillashtirilgan sharoitlarda va uni keyingi harakat tezligini alohida takomillashtirishdan iboratdir.

Reakiyaning laten vaqtı reaksiya ko'rsatishidan oldingi rasional xatti-harakatlar hisobiga bir muncha yaxshilanishi mumkin. Jumladan, diqqatning yo'nalishi ahamiyatga ega bo'ladi: agar diqqat bajarilajak harakatga qaratilgan bo'lsa (reasiyaning motor tipi) u holda reaksiya ko'rsatish vaqtı diqqat signalni idrok qilishga (reasiyaning sensor tipi) qaratilganligidan ko'ra kamroq bo'ladi. Mushaklar biroz kuchlanganda ham reaksiya tezkorligi ortadi.

Murakkab reaksiya tezkorligini tarbiyalash. Murakkab reaksiya ikki yo'nalishli harakat tezligi bilan farqlanadi. Harakatlanayotgan ob'yektni kuzatish davomida zarur fursatda unga aks-ta'sir (reaksiya) ko'rsatish va bir necha ob'yektlar ichidan zarusini tanlash va aks-ta'sir ko'rsatish.

Harakatdagi ob'yektga nisbatan ijro etiladigan reaksiya to'p qabul qiluvchi o'yinchi misolida tahlil qilinishi mumkin. Bu holda o'yinchi quydagilarni bajarishi kerak:

- 1) to'pni ko'rish (kuzatish va vaziyatni payqash);
- 2) to'p yo'nalishini va uning uchish tezligini baholash;
- 3) bajariladigan muofiq usulni tanlash qarorini qabul qilish;
- 4) bu rejani amalda ijro etishi.

Mazkur hollarda reaksiyaning yashirin davri mana shu to'rt omildan tashkil topadi. Harakatdagi ob'yekt to'satdan paydo bo'lganda, bu ob'yektga reaksiya ko'rsatish 0,25 soniya – 1 soniya vaqtini oladi. Bu vaqtning asosiy qismi birinchi omilga, ya'ni to'pni tez ko'rib olishga sarf bo'lishi tajribalarda kuzatilgan. Sensor fazaning o'ziga juda kam -0,05 sek vaqt ketadi. SHunday qilib, harakat qilayotgan to'pni ko'ra bilish va farqlash asosiy ahamiyatga ega. Aynan mana shu qobiliyatni o'stirishga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun harakatdagи ob'yektga reaksiya ko'rsatish mashqlardan foydalaniladi; mashg'ulot talablari harakatdagи ob'yekt

tezligini oshirish, ob'yeqtning to'satdan paydo bo'lishi, sportchi bilan ob'yeqt o'rtasidagi masofani qisqartirish hisobiga amalga oshiriladi. Kichik to'p (tennis to'pi) bilan bajariladigan harakatli o'yinlar juda foydalidir.

Harakatdagi ob'yeqtga reaksiya ko'rsatishining aniqligining shu reaksiya tezligini o'stirish bilan parallel ravishda takomillashtirib boriladi.

Tanlash reaksiyasi raqib xatti-harakatlarining yoki tevarak-atrofdagi sharoitning o'zgarishiga muvofiq ravishda mumkin bo'lgan harakatlantiruvchi javoblardan (aks-ta'sir usuli) keragini tanlab olish bilan bog'liq. Tanlash reaksiyaning murakkabligi sharoitining o'zgarish imkoniyatlari rang-barangligiga, chunonchi, raqibning xilma-xil harakat qilishiga bog'liq. Basketbolchilarning murakkab reaksiyasiga bo'lgan talab nixoyatda katta.

Murakkab reaksiyani tarbiyalashda "oddiydan murakkabga" degan pedagogik tamoyilga rioxanasi qilinib, sharoitning o'zgarish soni asta-sekin oshira boriladi. Masalan, dastlab oldindan kelishib olingen harakatga javoban qanday himoyalanish kerakligi o'rgatiladi; keyinchalik shug'ullanuvchilarga ehtimol tutilgan ikki xil usuldan biriga, so'ng uch xildan biriga, to'rt xildan biriga va xakozo javob berish tavsiya qilinadi. Asta-sekin bu mashq asl sharoitga yaqinlashtirilib boriladi.

Harakat tezkorligini tarbiyalash uslubiyati

Harakat tezkorligini tarbiyalash jarayonida organizimning harakat faoliyati xilma-xil turlaridagi (bevosita amaliy va sport faoliyatidagi) tezlik xususiyatlarini belgilovchi funksional imkoniyatlarni har tomonlama oshirib borish zarur. Shug'ullanuvchi biror-bir faoliyatda namoyon qilishi mumkin bo'lgan maksimal tezlik shu kishida fakat tezkorlik qanchalik rivojlanganligiga emas, balki bir kator omillarga – dinamik kuch, chaqqonlik, texnikani ogallayotgalik darajasi va boshqalarga bog'liq. Shuning uchun harakat tezligini tarbiyalash boshqa jismoniy sifatlarni tarbiyalash hamda texnikani takomillashtirish bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi kerak.

Maksimal tezlikda bajarish mumkin bo'lgan mashqlardan (bular odatda, tezkor mashqlar deb ataladi) tezkorlikni tarbiyalash

vositasi sifatida foydaliniadi. Ular kuydagি talablarni qondirishi kerak:

1) texnika mashqini juda tez bajarishga imkon beradigan darajada bo'lishi kerak;

2) mashqlarni bajarish vaqtida diqqat harakat usuliga emas, balki uni bajarish tezligiga qaratilishi kerak;

3) mashqlarning davomiyligи ularni bajarish yakunida charchash tufayli tezlikning kamayib ketishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Tezkorlikni tarbiyalash uslublari ichida takroriy mashq uslubi keng qo'llaniladi. Ushbu uslubning xususiyatlari (masofaning uzunligi, bajarish shiddati, dam olish oraliqlari, takrorlash soni va boshqalar) shunga bo'ysundirilgan. Masofaning uzunligi (yoki mashqning qancha davom etishi) har galgi mashq bajarish oxirida siljish tezligi (ishning shiddati) kamayadigan qilib tanlanadi. Harakatlar maksimal tezlikda bajariladi; shug'ullanuvchilar har safar o'zları uchun eng yaxshi natija ko'rsatishga intiladi. Mashq bajarish navbatni o'rtasidagi dam olish oraliqlari kuchning nisbattan to'la tiklanishini ta'minlaydigan darajada katta bo'lishi lozim. Harakatlar tezligi takrorlash o'rtaida sezilarli darajada kamaya borishiga yo'l qo'ymaslik kerar.

Tez bajariladigan mashqlar takrorlanganda, to'la tiklanish uchun dam olish oraliqlari yetarli bo'Imaganliklari sababli charchash nisbatan tez boshlanadi, tashqi tomondan bu tezlikning pasayganligi bilan ifodalanadi. Tezlikning pasayishi mazkur mashg'ulotda tezkorlikni tarbiyalashni to'xtatish uchun birinchi signal bo'lib xizmat kiladi: bundan keyin mashqni takrorlash fakat chidamlilikning o'sishiga yordam beradi, xolos.

Tezkorlikning jadal shakllanishi uchun mashg'ulotlarda o'yin, va ayniksa, musobaqa uslubidan foydalanish katta ahamiyatga ega. Musobaqalar odatda ko'tarinki ruh paydo qiladi, kishini anchagina zo'r berishga majbur etadi. Bu esa ko'p hollarda sport natijalarining yaxshilanishiga olib keladi.

Yangi shug'ullanuvchilar bilan ishlashning asosiy vazifasi sportchining biror-bir alohida mashqni bajarishga ixtisoslashtirmay, balki boshqa vositalarni qo'llab va ularni ko'p jihatdan o'zgartira borib, nisbattan yuqori natijalarga erishishdan iboratdir. Bunda

tezkorlik mashqlaridan standart holda emas, balki o'zgaruvchan sharoit va shakkarda foydalanish kerak.

Jumladan harakatli o'yinlar va sport o'yinlari, ochik joyda bajariladigan mashq va xokozo ayniksa foydalidir.

Biror bir harakatda tezlikni asosan ikki yo'l bilan oshirish mumkin: maksimal tezlikni oshirish hisobiga va maksimal kuchni oshirish hisobiga.

Tajriba ko'rsatadiki, maksimal tezlikni sezilarli oshirish juda ham qiyin, kuch imkoniyatlarni oshirish esa bir muncha yengil hal qilinadi. Shuning uchun amalda tezlik darajasini oshirish uchun kuchni oshiradigan mashqlardan keng foydaliladi. Harakat vaqtida yengish lozim bo'lgan qarshilik qancha ko'p bo'lsa, bu mashqlarning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Harakatlar tezligini oshirishga qaratilgan kuch mashqlarini qo'llashda ikki asosiy vazifa hal klinadi:

- 1) maksimal mushak kuchi darajasini (kuch qobiliyatlarining o'zini) oshirish;
- 2) tezkor harakatlar sharoitida eng ko'p kuch namoyon qilish qobiliyatini (tezkorlik-kuch qibiliyatlarini) tarbiyalash.

Tezkorlik sifatini rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlar:

1. Ko'rish signaliga ko'ra turli dastlabki holatlardan (turib o'tirib yotib) tezkor yugurishlar.
2. Harakat yo'naliishini tez o'zgartirib yugurishlar.
3. Ayrim harakat ususllarini tez o'zlashtirib taqlid qilish.
4. Bir turdag'i harakatlardan boshqa turdag'i harakatlarga tez o'tish.
5. Tezkorlikni talab etuvchi estafetalar.
6. Tezkorlikni shakllantiruvchi harakatli o'yinlar.

7.5.2. Kuch sifatini tarbiyalash

Tashqi qarshilikni mushak kuchi yordamida ichki va tashqi ta'siri engish yoki unga qarshi turish kuch sifatini ta'riflaydi. Mushaklar kuchi quydagicha namoyon bo'ladi:

O'z uzuniiklarini o'zgartirmay (statik izometrik);

1. O'z uzunliklarini qisqartirib (qarshiliklarni yenguvchi, miometrik)

2. Uzayib (yon beruvchi pliometrik).

Qarshiliklarni enguvchi va ularga yon beruvchi mushak kuchlari birligida "dinamik rejim" deb ham yuritiladi. Kuch sifatini taqqoslashda quydagi kuch turlari farqlanadi.

1. Nisbiy kuch. Nisbiy kuch deganda o'z vaznining bir kilogrammiga to'g'ri keladigan kuch miqdori tushuniladi.

2. Absolyut kuch. Biror-bir harakatda o'z og'irligidan qa'tiy nazar namoyon qilingan kuch tushuniladi.

3. Tezkor kuch (portlovchi kuch) qisqa vaqt ichida katta miqdordagi kuchning namoyon qilinishi tushuniladi.

Qarshiligi oshirilgan mashqlar kuchini rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib hisoblanadi. Bu vositalar ikki guruhga bo'linadi:

1. Tashqi qarshilikni engish bilan bajariladigan mashqlar. Odatda, tashqi qarshilik sifatida quyidagilardan foydalaniлади: buyumlarning og'irligi; sherikning qarshiligi; elastik buyumlarning qarshiligi, tashqi muxit qarshiligi; suvning qarshiligi.

2. O'z vazni og'irligini engib bajariladigan mashqlar.

Og'irlilik ko'tarilib bajariladigan mashqlar juda qo'lay bo'lib, ular yordamida ham kichik, ham katta mushak guruhlariga ta'sir ko'rsatish mumkin. Bunday mashqlarni me'yorlash ham oson. Og'irlilik ko'tarilib bajariladigan mashqlarda dastlabki holat etakchi rolni o'ynaganligi sababli, bunga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

Cho'ziluvchi va elastik buyumlar (prujinali espanderlar, rezinka) bilan bajariladigan mashqlarda harakatning oxiriga borib zuriqishning ortib borishi xarakterlidir.

O'z gavda og'irligini engish mashqlari, odatda, osilish va tayaniш holatlarida amalga oshiriladi.

Kuch mashqlarning yuqorida keltirilgan tasnifi bilan bir qatorda, ularning saralab ta'sir etish darajasiga (umumiy va nisbattan ma'lum bir joyga ta'sir etishga) ko'ra, shuningdek, mushaklarning ishlash rejimiga ko'ra, statik va dinamik, kuchlilik va tezkorlik-kuch, qarshiliklarini enguvchi va yon beruvchi mashqlarga bo'linishini ham e'tiborga olish kerak.

Agar shug‘ullanuvchilarning kuchiga muntazam ravishda zo‘r berilmasa, mushak kuchi o‘smaq qolishi, hatto kamayib ketishi ham mumkin.

Maksimal darajada zo‘r berishni turli yo‘llar bilan hosil qilish mumkin.

1. Chegaraga yaqin bo‘limgan og‘irliklarni (qarshilikarni) engishni chegara darajasida ko‘p marotaba takrorlash.

2. Tashqi qarshilikni chegara darajasigacha oshirish (dinamik va statik faoliyatlarda);

3. Qarshilikni chegara darajadagi tezlik bilan engish.

Kuch sifatini rivojlantirishda quydag‘i uslublardan foydalaniлади:: qisqa vaqt kuchlanish, o‘rtacha kuchlanish, aylanma turtibda mashqlanish.

Kuch sifatini rivojlantiruvchi namunaviy mashqlar

1. Kaft va panjalarni sheringining qarshiligini yengib (yoki gantellar bilan) bukib-yozish mashqlari.

2. Turli og‘irliddagi to‘ldirma to‘plarni irg‘itish. Asosiy e’tibor qo‘l harakatiga qaratiladi.

3. Qo‘llarga tayangan yotgan holda ularni bukib-yozish, erdan uzib chapak chalish mashqlari.

4. Amortizatorli jihozlarni cho‘zish bilan boradigan tuzilishi bo‘yicha texnik usullarga o‘xshash mashqlarni bajarish.

5. Og‘irliklar (shtanga lappagi, gantellar, qum to‘ldirilgan qopchalar) bilan gavdaning aylanma harakatli mashqlari.

7.5.3. Chaqqonlikni tarbiyalash

Chaqqonlik – bu keskin o‘zgaruvchan yo‘nalishlar bo‘ylab vnoqt oraliqlar doirasida bir turdag‘i harakatdan boshqa turdag‘i harakatlarga o‘tib, ularni tezkor, yuksak koordinatsiya va aniqlik bilan ijro etilishini ifodalaydi.

Chaqqonlik o‘z mohiyati va mazmuni jihatdan serqirra va ko‘p komponentli jismoniy sifat hisoblanadi. Chaqqon bo‘lish uchun sportchida kuch tezlik harakat koordinatsiyasi va uning aniqligi yuksak shakllangan bo‘lmog‘i lozim. Yangi harakatlarni tezkor va sifatli o‘zlashtira olish ham chaqqonlik asosida kechadi.

So‘nggi yillarda sport nazariyasi va amaliyotida chaqqonlik isfati kordinasion qobiliyat deb yuritish odat tusiga kirgan.

Bugungi basketbolda chaqqonlik sifati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Raqib yoki bir necha raqibni to'pni urib "aldbab" (chalg'itib) o'tish, to'psiz raqiblar o'rtasidan chiqib, qo'lay va bo'sh joyga chiqib "ochilish", hujumdan keskin himoyaga o'tish va aksincha harakatlarni yuqori tezlik hamda anqlik bilan ijro etish yuksak shakllangan chaqqonlikni talab kiladi.

Chaqgonlik quyidagi uslublar yordamida rivojlantiriladi:

1. Dastlab (avval) o'zlashtirilgan mashqlarni (harakatini) murakkablashtirish. Harakat yo'naliishi, tezligi, mazmuni va hajmini o'zgartirishi dastlabki holatlarni (o'tirib, yotib, orka yoki yon tomonlar bilan joylashib) o'zgartirish, to'plar sonini ko'paytirish va vazifalarni murakkablashtirish orqali chaqqonlik qobiliyatini jadal shakllantirish mumkin.

2. Harakat funksiyalarini ko'p yuklama shakllantirish. Mashqlarni o'ng va chap tomonlarga burilib hamda aylanib bajarish, shu mashqlarni sakrab va sakrab aylanib bajarish to'pni o'ng va chap qo'lda tezkor urib o'zgaruvchan yo'naliishlarda raqibsiz va raqib qarshiligida bajarish, sakrab havoda burilib-aylanib o'ng va chap qo'l bilan to'pni uzatish, yoki savatga tashlash mashqlari orqali chaqqonlikni serqirrali xususiatlarini shakllantirish mumkin.

3. Raqib yoki raqiblar qarshilagini kuchaytirish asosida chaqqonlikni tarbiyalash. Harakatlanmaydigan (to'siqlar, ustunlar, va hokozo) va harakatlanadigan (sherik va raqiblar, osilgan va harakatlanayotgan predmetlar "pushkadan" otiladigan to'plar va h) ob'yektlar ta'sirida mashqlarni bajarish orqali chaqqonlikni shakllantirish.

4. Oralıqlarni uzaytirish-qisqartirish va muddatini oshirish-kamaytirish uslubi. Maydon chegaralarini kengaytirish-toraytirish, o'yinchilar tarkibini oshirish-kamaytirish asosida bajariladigan mashqlarni qo'llash.

5. Hujum-himoya rakobatini kuchaytirish uslubi. Hujumchi-himoyachi tarkibi: 1:1, 1:2, 1:3, 2:2, 2:3, 2:4 va hokazo.

6. O'yin va musobaqa mashqlar, harakatli o'yinlar.

Chaqgonlik sifatini rivojlantiruvchi na'munaviy mashqlar

1. Bir va ko'p marotaba oldinga va orqaga dumbaloq oshishlar. Xuddi shu mashqlar ayrim texnik usullarni bajargandan so'ng.

2. Turgan joydan va yugurib kelib 180, 270, 380 gradusga burilib bir va ko'p marotaba sakrashlar. Burilishlar bilan turli texnik harakatlarni bajarish.
3. Turli buyumlar orasidan va ustidan o'tib harakatlanish.
4. Gimnastika ko'priksidan depsinib havoda turli harakatlarni bajarib sakrashlar.
5. To'siqlar osha estafetalar.
6. Turli signal va ta'sirlarga belgilangan harakatlar bilan javob berish. Signallar va ta'sirlar sekin-asta ko'paytirib boriladi.

7.5.4. Chidamkorlikni tarbiyalash

Basketbol bo'yicha o'tkazilgan bir o'yin davomida va uzoq muddatli, siklik tartibda doimo takrorlanadigan musobaqa davrida texnik-taktik saloxiyatni ravon saqlab kolish orkali foydali natijaga erishish ustuvor jihatdan jidamkorlik sifati bilan belgilanadi.

"Chidamkorlik" keng ma'noli, keng qamrovli va serqirrali integral tushuncha bo'lib belgilangan muddat davomida toliqishga qarshilik ko'rsatish va ish sur'atini tushirmasdan harakatni ijro etalish qobiliyatini anglatadi.

Chidamlilik sifati bir necha turlarga bo'linadi:

- umumiy yoki aerob chidamkorlik;
- tezkor yoki anaerob chidamkorlik;
- kuch yoki anaerob chidamkorlik;
- psixik yoki emosional chidamlilik;
- sensor (MNS) chidamkorlik;
- maxsus chidamkorlik (texnik-taktik harakatlar).

Ushbu chidamkorlik turlarini rivojlantirish sportchining irodasiga bog'liqdir. Iroda esa o'z navbatida, chidamkorlikni shakllantiruvchi mashqlar asosida sayqal topadi.

Barcha sport turlarida qayd etilgan chidamkorlik turlari o'z aksini topadi. Lekin shu sport turlarini o'ziga xos xususiyatlariga qarab, ularning ulushi va ustuvorligi turlicha bo'ladi.

Basketbolda aerob-anaerob va maxsus chidamkorlik ustuvor ulumiyatga egadir. Lekin keskin raqobatli o'yinlarda uzoq muddatli musobaqa sikllarida aerob-anaerob hamda maxsus chidamkorlik psixik sensor chidamkorlik boshqaruvida bo'ladi.

Chidamlilikning kaysi turi bo'lishidan qat'iy nazar bu sifatning o'lchov birligi tanlangan sport turi xususiyatlariiga (talablariga) mos hajm, shiddat va yo'nalishda bajariladigan harakatlarga sarflangan vaqt bo'lib hisoblanadi.

Chidamkorlikning fiziologik xususiyati shundan iboratki, inson organizmida universal energiya manbai bo'lmish adenozintrafosfat (ATF) kimyoviy modda bo'lib, u adenozintrofosfat (ADF) gacha parchalanib, mushaklarni energiya bilan ta'minlaydi: ATF---ADF+energiya. ATFni doimo qayta tiklanishi (resintez) mushaklarni tinimsiz ishlashiga imkon yaratadi.

ATFning resintezi 3-xil yo'nalishda kechadi: loktat va kislorodli yo'nalish.

Fosfatli yo'nalish ATFni ADF asosida tezkor tiklanishi bilan farqjanadi. Lekin bu jarayon juda qisqa muddat ichida samarali bo'ladi xolos. Maksimal yuklama davomida fosfatli yo'nalish 10s. ichida barbod bo'ladi. Dastlab 2sek. davomida ATF sarflanadi, keyin 6-8sek davomida KrF (kreotinfosfat): KrF+ADF----ATF+kreotin. Bunday ketma-ketlik parchalanish har qanday shiddatli jismoniy ish davomida kuzatiladi.


Fosfatli yo'nalish asosida energiya ajralishi keskin o'zgaruvchan tezkor "portlovchi" va qisqa muddatlarda ijro etiladigan harakatlardan iborat sport turlarida (basketbol, boks, sprint futbol va h) muhim ahamiyat kasb etadi.

Kislorodli yo'nalish yoki aerob yo'nalish chidamkorlik bilan bog'liq sport turlarida muhim rol o'ynaydi.

Ish bajarishda O₂ ning miqdori kam bo'lsa, energiya birinchi navbatta uglevodning parchalanishi evaziga ta'minlanadi. Uglevodning imkoniyati chegaralanishi bilan energiya ajratishga yog' moddalar "kirishadi". Yog' moddalarini energiya ajratishi quyidagi tartibda kechadi:



Uglevodlarning parchalanishi (glikoliz) yanada murakkabroq tartibda, ya'ni ikki fazada kechadi:



Loktat yo'nalishi chidamkorlik.

Yuklamaning shiddati ortib borgan sari shunday vaqt keladiki, mushak faoliyat O₂ ni yetishmasligi tufayli faqat aerob

imkoniyatlar hisobiga davom eta olmaydi. Shu vaqtdan boshlab, ATFning loktat mexanizimi asosida qayta tiklanishida ajraladigan sut kislotasi “ishga” tushadi. Lekin sut kislotasi miqdorining oshishi mushaklarga toliqish asoratlarini yuzaga keltiradi. Faqat tezkor tiklanishning ushbu funksional faoliyatini dastlabki holatga keltiradi.

Energiya ajratishning anaerob alaktat manbalari 15-20 sek. li shiddatli mashqlarda ish qobiliyatini saqlash imkoniyatini yaratadi.

Energiaya ajratishning anaerob glikolitik manbalari 20-sek dan 5-6 daq. gacha davomida bajariladigan ishni ta'minlaydi.

Aerob chidamkorlikni rivojlantirishda takrorlov va takrorlov-o'zgaruvchan uslublardan foydalanishi lozim. Ushbu uslublarni qo'llashda quydagi holatlarni e'tiborga olish tavsiya etiladi.

1. Ish shiddatining maksimal ko'rsatkichi taxminan 75-85 % darajada bo'lishi kerak. 130 tadan kam bo'lismiga olib keladigan past shiddatli yuklamalar aerob imkoniyatning sezilarli ortishiga olib kelmaydi.

2. Dam olish oraliqlari shunday bo'lishi kerakki, keyingi bajariladigan ishlar oldingi ishdan keyin ro'y bergan qulay o'zgarishlar holatida sodir bo'lsin. Dam olish oralig'i 3-4 min dan oshmasligi kerak,

3. Dam olish oraliqlarining unchalik tez bajarilmaydigan ishlar (sekin yugurish, yurish va boshqalar) bilan to'ldirish darkor. Buning bir kator afzalliklari bor: dam olishdan ish holatiga va, iksincha, ish holatidan dam olish holatiga o'tish osonlashadi, tiklanish jarayonlari birmuncha tezlashadi va h.

Takrorlash soni shug'ullanuvchilarning barqaror holatini suqlab turish, ya'ni kislorod iste'mol qilish yetarlicha yuksak darajada bo'lgan sharoitida ishlash imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Charchoq paydo bo'lismini to'xtatish uchun signal bo'lib xizmat qiladi.

Chidamkorlik sifatini rivojlantirishda foydalilanadigan mushqlar.

1. 15-20 soniya davomida sakrashlar. Birinchi urinishda maksimal darajada ko'p sakrash. Ikkinci urinishda maksimal darajada balandroq sakrash 4-5 seriyada 1-1,5 daq. davomida to'xtovsiz sakrash. Ushbu mashqni arg'imchoqlar bilan bajarish mumkin.

2. Past turish holatidan 1-1,5 daq. davomida turli yo'nalishlardan harakatlanishlar. 3-4 seriyallardan 2-5 kilogramm og'irliklar bilan.
3. Turli harakatlanishlar bilan estafetalar o'tkazish.
4. Turli yo'nalish va masofalarga "maksimum yugurishlar".
5. 2x2, 3x3, 4x4 tarkibida o'quv o'yinlari.
6. Turdosh va ixtisoslashtirilgan harakatli o'yinlari.

7.5.5. Egiluvchanlikni tarbiyalash

Egiluvchanlik – tana bo'g'imlarini maksimal burchakda (apiplitudada) bukilish-yozilish qobiliyatini anglatadi. Egiluvchanlik darajasi va uni shakllanish sur'ati mushaqlar plastikligiga bog'liqidir. Ushbu sifat ikki xil uslubda shakllantirilishi mumkin:

- faol uslub;
- sust (passiv) uslub.

- faol uslub shug'ullanuvchining shaxsan o'zi tana bo'g'imlarini zo'rma-zo'raki bajarilishi bilan ifodalanadi. Ijrochi organlar (tana, qo'l, oyoq) va bo'g'imlarni maksimal amplituda erkin harakatlanishi, tik turgan holatdan oldinga va orqaga, o'ng va chap tomonga egilish, chalqancha va qorin bilan yotgan holatlardan egilish (bukilish). Most va hokazo mashqlar egiluvchanlikni jadal shakllantiradi.


- sust uslub shug'ullanuvchining egiluvchanlik sifatini og'irliklar, sherikning ta'siri ostida shakllantirishda qo'llaniladi.

Egiluvchanlik mushak va to'qimalarning elastikligiga bog'liq bo'ladi. Mushaklarning elastik xususiyatlari ko'p darajada markaziy nerv tizimining ta'sirida o'zgarishi mumkin.


Egiluvchanlikning namoyon bo'lishi muhitning tashqi haroratiga ham bog'liq bo'ladi. Egiluvchanlik charchash ta'sirida sezilarli o'zgaradi, jumladan faol egiluvchanlik ko'rsatkichlari kamaydi, sut egiluvchanlik ko'rsatkichlari ortib boradi.

Egiluvchanlikni tarbiyalash uchun harakat amplitudasi oshirilgan (cho'ziluvchanlikni oshiradigan) mashqlardan foydalani ladi. Harakatlarda biror bo'g'indagi harakatchanlikning ortishi shu bo'g'indan o'tadigan mushaklarning qisqarishi hisobiga ruy beradi. Egiluvchanlik mashqlari turli mazmun va yo'nalishlarda bajariladi: bir fazali mashqlar va prujinasimon mashqlar; silkinish va ma'lum

holatlarni qayd qilib turish; og'irliklar bilan mashqlar. Cho'ziluvchanlikni oshiradigan mashqlarni seriallar bilan har birini bir necha marotaba takrorlab bajarish tavsiya etiladi. Bunda seriyadan-seriyaga o'tgan sari harakat amplitudasi orttirib boriladi. Har bir mashg'ulotda cho'ziluvchanlik mashqlarini sal-pal og'riq paydo bo'lгuncha bajarish lozim. Egiluvchanlik mashqlarini mustaqil bajarish uchun topshiriq sifatida berilishi mumkin. Egiluvchanlik mashqlari mashg'ulotning tayyorgalik qismida asosiy qismining oxirida va boshqa mashqlar oraliq 'ida bajariladi.



7.3-andoza



7.4-andoza

Reyting-nazorat va bilimni baholash testlari:

1. Tezkorlikni tarbiyalashdagi uslublar.

- a) maxsus o'yin mashqlari (shchit tagida kurash)
- b) sakrab ketma-ket to'p otish, to'p urib yurish va og'ir aylanib o'tish
- c) bir oyoqda joyida sakrash yoki yugurishga o'tish
- d) lider ketidan yurish

2. Kuchni tarbiyalashdagi uslublar.

- a) sakrashni qo'llash mashqlari, kuchli uzun to'p uzatishlar, vaqtini chegaralab to'p urib yurish mashqlarini bajarish, har xil holatlardan start va hakoza
- b) to'p otishlarni tezligi, to'p urib yurish, taktik vazifani echish tezkorligi
- c) har xil holatlarda barmoqlarni siltash
- d) mokkisimon yugurish, yuqori tezlikdagi o'yin harakatlari

3. Chaqqonlikni tarbiyalashdagi uslublar.

- a) yugurish mashqlari, "mokki", krosslar, otishlar imitauiyasi
- b) asosiy guruhi muskullarini bo'shashtirishni bilish
- c) bir o'yin holatidan ikkinchi holatga o'tishda kuchni oxirgacha yetkazish

a) taktik vazifalarni echish va to'p bilan malakalarni bajarish,
b) poiz o'yin

6. Tidu millilikni tarbiyalash uslublar...

- a) bajariladigan mashqni chegaralab qo'yish
b) yugurish mashqlari "mokki", krosslar
c) aylanib o'tishni kiritish, shchit tagida to'p uchun kurash
d) taktik vazifalarni echish uchun to'p bilan mashqlarni barobar bajarish

7. Egiluvchanlikni tarbiyalashdagi uslublar

- a) akrobatik sakrash, dumaloq oshish, kanatka chiqish
b) joydan sakrashni bajarish yoki masofaga yugurish
c) moniy guruh mushaklarni bo'shashtirishni bilish
d) og'irliklur bilan mashqlar

8. UJT bo'yicha qanday testlardan foydalaniadi?

- a) kuchga, to'p urib yurish, otish, uzatish
b) yugurish bilan, sakrash bilan, to'p uzatish bilan
c) to'p otishlar bilan, tez yugurishlar va boshqalar
d) yugurish bilan, sakrash bilan, to'p uzatish bilan

9. 10-12. yoshli bolalar uchun UJT bo'yicha qanday testlardan foydalaniadi?

- a) o'pkoning tiriklik sig'imi
b) sig'anishning uzunligi, tana og'irligi
c) yolgan xolatdan mostga turish
d) 10 mqa yugurish, uzunlikka sakrash, to'ldirma to'plarni aloqtirish

10. Bolalar qobiliyatini baholash UJT uchun sakrash bilan bog'liq qanday testlardan foydalaniadi?

- a) yuqori startda 30, 60 mqa yugurish
b) yo'nalishni o'zgartirib yugurish
c) balandlikka, uzunlikka sakrash
d) to'pni uloqtirish, uzunlikka sakrash

11. "Mokkisimon" va "archasimon" yugurish voleybolchini qaysi o'satini tarbiyalaydi?

- a) massus epchillik
b) kuch chidamkorligi
c) tez harakatlanish
d) tezkor chidamkorlik

- 10. Sakrovchanlikni tarbiyalash uchun qaysi uslubdan ko‘proq foydalaniladi?**
- a) musobaqa
 - b) aylanma mashg‘ulot
 - c) o‘yin
 - d) qaytarma-dinamik yondashish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ганиев Ф.В., Кубейсинова У.Т., Якупова У.Ж., Хусанова Д.Т. Нетрадиционная технология восстановления прыжков работоспособности при занятиях баскетболом // Методическое пособие. – Т., 2013. – 52 с.
2. Годик М.А. Физическая подготовка футболистов. – М.: Terra-Sport, 2006. - 272 с.
3. Иванков Ч.Т. теоретические основы методики физического воспитания. – М.: Insan, 2000. - 351 с.
4. Полиевский С.А., Айрапетян Л.Р., Губенко Л.Я, Романов В.А. Тренажеры в спортивных играх. – Т.: Ibn Sino, 1992. – 134 с.

VIII BOB. MUSOBAQA QOIDALARI VA HAKAMLIK QILISH USLUBIYATI

8.1. O‘yin qoidalari vujudga kelishi va shakllanishi

Jismoniy tayyorgarlik-jismoniy sifatlarning praportsional olabatda rivojlantirish bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, texnik-taktik mahoratni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratuvchi poydevor vazifasini bajaradi. Aynan jismoniy tayyorgarlik darajasi uzoq muddat davomida umumiy va mahsus shu qobiliyatini saqlash chorasini belgilovchi omildir.

Basketbol o‘yining birinchi qoidalari o‘yinning ixtirochisi muhitaram janob Djeks Neysmit (2-rasm) tomonidan ishlab chiqilib, 13 yanvar 1892-yilda AQSHda, Massachusetts shtatining, Springfield kolledjining “Treugolnik” (“Uchburchak”) gazetasida “Basketbol o‘yining qoidalari kitobi” deb nomlangan sahifa ostida narshga chiqarilgan. Bu “kitob” 13 ta qismdan iborat bo‘lib, unda o‘yinning asosiy maqsadi, o‘yinchilarning harakatlari va to‘p bilan o‘ynash qoidalari borasida tushunchalar berilgan edi. Jumladan (Neysmitning fundamental qoidalari):

1. Basketbol faqat dumaloq to‘p va qo‘llar bilan o‘ynaladi;
2. To‘pni qo‘lda ushlab turgan holatda qadam bosish ishqilamadi;
3. O‘yinchi maydonda xohlagan vaqda, xohlagan pozitsiyani egallashi mumkin;
4. O‘yinchilar o‘rtasida personal (shaxsiy) kontaktlar (muloqotlar) taqiqlangan;
5. Halqalar gorizontal holatda o‘yin maydonidan yuqorida o‘matilgan bo‘lishi lozim.

Dustlabki qoidalari hozirgi kungi zamonaviy basketbolning qoidalariida ham saqlanib qolningan.

1927-yilda Shvetsariya poytaxti Jeneva shahrida Xalqaro Jismoniy tarbiya maktab tashkil topti. Maktabning birinchi direktori bo‘vozimiga Springfield kolleji o‘qituvchisi doktor Elmer Berri tayinlandi. Yangi tuzilgan tashkilot Yevropa va boshqa qit’alarda basketbol rivojlaniga, xalqaro “basketbol” muloqotlar o‘rnatalishiga va o‘yin qoidalari shakillanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsata boshladi.

U paytlarda basketbol o'yini dunyo bo'ylab ko'p mamlakatlarda, deyarli barcha qit'alarga o'ynalganiga qaramay, xalqaro uchrashuvlar soni juda kam bo'lgan. Modddiy va transport muammolar bilan birga o'yin qoidalari turli mamlakatlarda o'zgacha tavsiflanganligi mamlakatlararo munosabatlar rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Masalan: Fransiya, Belgiya, Ispaniya va Portugaliya mamlakatlarida "fransuz" basketbol qoidalari qo'llangan bo'lsa, boshqa kit'alarda "amerikali" qoidalarni qo'llab musobaqalar o'tkazilgan. Bir biridan keskin farqlangan o'yin qoidalari xalqaro musoboqalarni o'tkazish imkoniyatini bermagan. Bu va boshqa masalarni muhokama qilish maqsadida 8 ta mamlakat Argentina, Gresiya, Italiya, Latviya, Portugaliya, Ruminiya, Chexoslovakiya, Shveysariya basketbol federasiyalari vakillari, doktor Elmer Berri taklifnomasiga binoan *18-iyun 1932-yilda*, birinchi xalqaro basketbol konferensiyasida ishtirok qilish maqsadida Jenevaga tashrif buyuradilar.

Birinchi halkaro konferensiya ishtiroqchilari, "amerikaning" basketbol qoidariga kichik o'zgarishlar kiritgan holda, ularni yagona xalqaro qoidalari sifitida qabul qilinishiga va Xalqaro basketbol Federasiysi ("XBF" - o'zb. tili, "FIBA" - ingl. tili) tashkil qilinishiga bir ovozdan ovoz berishdi. Shveysariya fuqarolari *Leon Buffar* - *XBF birinchi Prezidenti*, *Vilyam Djons esa* - *Bosh kotib lavozimlari*ga saylandilar.


Oradan ko'p vaqt o'tmay bu tashkilot qoshida bir nechta komissiyalar tuzildi, birinchilardan, o'yin qoidalariiga ma'sul – texnik komissiya faoliyatini boshladi.

1932-1948-yillarda texnik komissiya asosan "amerika" basketbol qoidalari yagona tizimga keltirish ustida ko'p ish yuritdi va *1956-yilda Melburndagi Olimpiya o'ynlaridan* so'ng, XBF kongressida, xalqaro qoidalari AQSHning qoidalardan deyarli ravishda farqli va mustaqil bo'lib shakillandi.

O'yin texnika va taktikasi rivojlanishi, o'yinchilarning o'yin maxorati o'sib, takomillashgan sari, jamoalar uchrashuvlari haqiqiy tomoshaga aylandi. Basketbolchilarning o'yin "san'ati" va jismoniy qobiliyatları o'ziga xos tenglashdi. Basketbol nafis va barkamol, dunyo bo'ylab ko'plab tomoshabinlarni o'ziga jalb qiluvchi o'yin aylandi.

XBFning texnik komissiyasi milliy federatsiyalar bilan hamkorlikda zamon talablari va o'zin rivojlanishi tendensiyalarini inobatga olgan holda qoidalar mazmuni va talqiniga kerakli miqdorda o'zgarishlar, yangiliklar va qo'shimchalar kiritib kelgan. Oxirgi o'n yil ichida ham qoidallarni shakilanishi davom etgan. Jumladan:

- 1998-yilda boshqa o'zgarishlar bilan birga, o'zin vaqt o'zgardi: 20 daqiqali 2 taym o'rniga, 10 daqiqali 4 chorak kiritildi;
- 2010-yilda maydon o'lchovlari o'zgardi. Uch ochkoli chiziq 6,25 metrdan 6,75 metrgacha surildi, chegaralangan zona (uch sekundli zona) oldingi trapesiya shaklidan, to'rtburchak shakliga o'zgardi, halqaning ostida esa yarim doira shaklida chiziq paydo bo'ldi (yarim doira qoidasi) va h.q (83-rasm).
- 2014-yilning o'zgarishlarning biri, o'yinchilarining raqamlari 0 va 00 dan 1 va 99 gacha bo'lishga ruxsat berildi.



8.1-rasm. 2010-yil maydon chizmasidagi o'zgarishlar

Hozirgi kunda kelib o'yinning zamonga mos ravishda to'plangan "qonuniyatlari" 50 banddan iborat 8 ta asosiy qoida "Basketbol rasmiy qoidalari" ("Official Basketball Rules" - ingl.tili) bilan ifodalangan bo'lib, ularning izohlari "Basketbol rasmiy qoidalariiga rasmiy talqinlar" ("Official Basketball Rules. Official interpretations" - ing.tili) deb nomlangan bir-biriga teng huquqiy kuchga ega bo'lgan kitoblarda jamlangan. Basketbolda o'yin mobaynida qo'llanadigan uskuna to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar esa "Basketbol rasmiy qoidalari. Basketbol uskunalar" ("Official Basketball Rules. Basketball Equipment" - ingl.tili) izoh kitobida berilgan. Shuni alohida ta'kidlab joizki, dastlabki hujjatlarga, o'yin talablariga binoan o'zgarishlar kiritish jarayoni davom etmoqda, lekin qoidalarga nisbatan asosiy talablar uzliksiz saqlanib kelmoqda:

1. Qoidalalar o'yinchilar, murabbiylar va hakamlar uchun tushunarli va aniq bo'lishi lozim;
2. Qoidalalar raqib jamoalar o'zlarining ob'yekтив holatlarini namoyon qilishlariga, bevosita yordam va xizmat qilishi lozim;
3. Qoidalalar o'yinchilar, murabbiylar va hakamlarning yuksak ma'naviy va irodali fazilatlarini shakllantirishi lozim;
4. Qoidalalar o'yin texnikasi va taktikasini rivojlanishini rag'batlantirishi lozim.

Basketbolda o'yin jarayonini maydondagi hakamlar boshqaradilar.

Shunday qilib, bir asrdan qo'proq vaqt mobaynida Neysmitning birinchi qoidalari ko'p marotaba o'zgarib, o'yinning rivojlanishiga va talablariga javob beruvchi va o'z o'mida basketbol taraqqiyotiga va dunyo bo'ylab sevimli sport o'ynlari turiga aynashiga bevosita yordam qilgan, mukammal va barqaror qonunlar to'plami bo'lib shakillandi.

8.2. O'yin mazmuni, maydon va uskunalar

Basketbolni besh o'yinchidan iborat bo'lgan ikkita jamoa o'ynaydi. Har bitta jamoaning maqsadi – raqib savatiga to'pni tushirish bilan birga, raqib jamoaga to'pni savatga tushirishiga qarshilik ko'rsatishdan iborat.

Jamoaning umumiy tarkibiga, 12 ta o'yinchi (jamoaning nirdorini bilan birga), bosh murabbiy va murabbiy (kerak bo'lsa), va 5 ta (oshmasligi lozim) tibbiy-texnik xodimlar kiradi. O'yin vaqtida har bitta jamoadan 5 ta o'yinchi maydonda bo'lib, ular jumoaning boshga o'yinchilariga almashtirinishlari mumkin.

O'yinchilarning sport libosi old va orqa tomoni bir hil umimiy rangli mayka va shortiklardan iborat bo'lib, maykalari 0 va 00 dan boshlab, hamda 1 va 99 gacha sonlar bilan raqamlanishi, raqamlar esa yakkol ko'rinish rangli ajralib turishlari lozim. Maykalarning old taraf raqamlari kamida 10 sm, orqa taraf qamida 20 sm balandliqda, qalinligi esa kamida 2 sm bo'lishi shart. Bitta jamoaning o'yinchilari bir hil raqamli maykalarda bo'lishlari taqiqlangan.

O'yin davomi 10 daqiqlik 4 ta chorakdan iborat. O'yinning birinchi va ikkinchi choraklari (o'yinning birinchi bo'limi), uchinchi va to'rtinchi choraklari (o'yinning ikkinchi bo'limi) oralig'ida va har bir ko'shimcha choraklar oralig'ida *o'yindagi tanaffus* 2 daqiqani davom etadi. Bo'limlarning oralig'idagi tanafusning vaqt esa 15 daqiqa davom etadi.

O'yin vaqt "toza vaqt" usulida belgilanadi. Ya'ni, qoidalarda belgilangan vaziyatlar tufayli o'yin jarayonida to'xtashlar vujudga kelsa, o'yin vaqt ham to'xtatilishi lozim.

O'yin vaqt tugagach, to'plangan ochkolari bo'yicha ustunlik qilgan jamoa, o'yin g'olibi deb hisoblanadi. To'rtinchi chorak vaqt tugagach o'yin natijasi durrang bo'lsa, dastalabki natijada muvozanat buzilgunga qadar 5 daqiqli qo'shimcha chorak (-lar) belgilanib o'yin davom etiladi.

O'yin (birinchi chorak) boshlanishi markaziy doira ichida birinchi *bahsli to'p*¹ o'ynalishi orkali amalga oshiriladi. To'p katta hakamning qo'lidan uzulgach o'yin boshlanadi deb hisoblanadi. Keyingi choraqlar maydon tashkarisidan kotiblar stolini qarshisidagi markaziy chiziqning davomida to'p o'yinchi qo'liga hakamdan berilganidan sung boshlanadi. Har bitta jamoadan 5 ta o'yinchi maydonga chiqmaguncha o'yin boshlanmaydi.

O'yin jarayonida ham bahsli to'p vaziyati vujudga kelishi mumkin. Bir yoki bir nechta raqibdosh jamoalar o'yinchilar to'pni

¹ "Baxsli to'p o'ynalishi" - har bitta jamoadan bittadan o'yinchi markaziy doira ichida to'pni kuli bilan o'z jamoadoshlariiga oshirib berish uchun kurashni ifodalaydi. Hakam turpi yugoriga otgach, to'p o'zining eng yugori nuqtasiga etganidan so'ng ikkala o'yinchi yugoriga sakrashi lozim va o'z jamoadoshlari tomon to'pni yo'naltinishga harakat kiladi.

bir, yoki ikki qo'llab mahkam ushlab, unga ortiqcha qo'pol xaratatlar qilmasdan egalik qilish umkoniyatlari bo'lmasa bahli to'p vaziyati vujudga keladi.

Basketbolda to'p bilan harakatlar faqat qo'l(-lar) orqali alamga oshiriladi. To'pni uzatish, savatga tashlash, dumalatish yoki maydondagi istagan tomonga olib yurish, qoidalarda belgilangan cheklanishlarga rioya qilingan sharoitdagina mumkin.

Halqaga tushirilgan to'p va uning baholanishi kuydag'i qoidalarga asosan amalg'a oshiriladi:

- jarima chizig'idan tashlangan to'pga - 1 ochko hisoblanadi;
- 2 ochkoli zonadan tashlangan to'pga - 2 ochko hisoblanadi;
- 3 ochkoli zonadan tashlangan to'pga - 3 ochko hisoblanadi.


O'yin maydoni to'g'ri to'rburchak shaklida, yuzasi qattiq, yassi hamda to'siqlardan holi joy bo'lishi kerak. O'iin maydoni *uzunligi* 28 m, *kengligi* 15 m tashkil kilib, ulchovlar chegaralangan chiziqlarning ichki qirrasidan o'lchanishi lozim. Maydon chizmasini belgilovchi barcha *chiziqlar* 5 sm *kengligida* oq bo'yoq bilan chizilib, yaqqol ko'rinishlari lozim. Maydonning uzun tomonlarini belgilovchi chiziqlar – *yon chiziqlar*, qisqa tomonlarini belgilovchi chiziqlar esa – *en chiziqlar* deb ataladi. Markaziy chiziq en chiziqlariga parallel holda yon chiziqlarning toq o'rtasidan maydonda belgilanishi lozim. Dastlabki chiziq ikkala yon chiziqlardan 15 sm tashqariga chiqib turishi kerak.

To'qnashuv foli belgilanmaydigan yarim doiralar o'yin maydonida belgilangan va:

- halqaning mutloq poldagi markaz nuqtasidan, o'zining ichqi qirrasigacha o'lchanigan, radiusi 1,25 m bo'lgan yarim doira va,
- yon chiziqqa perpendikular, bir-biriga parallel bo'lgan, halqaning mutloq poldagi markaz nuqtasidan, uzining ichqi qirrasigacha 1,25 m masofada va tugash qismi en chiziqning ichki kirrasiga 1,20 m masofada, uzunligi 0,375 m tashkil kiladigan chiziqlar bilan ajralib turishi lozim (8.1, 8.2-rasm).

Jamoa o'rindig'i zonalari maydon tashqarisida, kotib stoli va jamoalar o'rindiqlari joylashgan tomonda belgilanishi lozim. Zonalarning tashqari chegarasi en chiziqning davomi bo'lgan, ichki chegarasi esa markaziy chiziqdan 5 m narida belgilangan 2 m li chiziqlar va old chegarasi maydonning yon chiziqlari bilan ajralib turishi lozim (8.2-rasm).


Maydon tashqarisida kotib stoliga nisbatan qarshi tomonda yon chiziqlarning tashkari chekkasida uzunligi $0,15\text{ m}$ li ikkita *to'pni o'yinda kiritish chiziqlari* begilanishi lozim. Ularning tashqi chekkasi en chiziqlarning ichki chekkasidan $8,325\text{ m}$ masofani tashkil qilishi lozim (8.2-rasm).



8.2-rasm. Maydon o'lchovlari

To'g'ri to'rtburchak shaklida ajratilgan, en chiziq (-lar), jarima *to'pni* tashlash chiziqlari va en chiziqlardan o'tkazilgan paralel chiziqlar bilan chegaralangan maydon qismi *chegaralangan zona* (-

lar) deb ataladi. Jarima to'pini bajarish jarayonida o'yinchilarning to'p uchun kurash joylari, chegaralangan zona(-lar)ning ikkala yon tomonida, uzunligi 0,1 m maxsus belgilar orqali belgilanadi. Birinchi belgi en chiziqlarning ichki chekkasidan 1,75 m uzoqlikda, kolgan uchta belgilar esa bir birining ichki chekkalaridan 0,85 m uzoqlikda belgilanadi. Ikkinci belgi eni 0,4 m, kolgan uchta belgilar esa 0,05 m bo'lishi lozim. Jarima to'pini tashlash chizig'i uzunligi 3,6 m tashkil qilib en chiziqlarning ichki chekkasidan 5,8 m masofada maydonda belgilanadi (85-rasm).




8.3-rasm. Chegaralangan zona

Uch ochkoli zonalar maydonda quyidagi chiziqlar bilan belgilanadi:

- en chiziqga perpendikulyar holda, yon chiziqlarning ichki qirrasidan o'zlarining tashqi qirrasigacha 0,90 m masofada o'tadigan 2 ta parallel chiziq;

- halqaning mutloq poldagi markaz nuqtasidan, o'zining tashqi qirrasigacha o'lchangan, radiusi 6,75 m bo'lgan yarim doira (8.2-, 8.3-rasmlar).



8.4-rasm. Uch va ikki ochkoli zonalar


O'yin maydoni basketbol uskunalar bilan jihozlanishi lozim. Talab qiladigan uskunalar ro'yxati, ularning batafsil tavsifi va belgilangan standart o'lchamlari "Basketbol rasmiy qoidalari" kitobida va "Basketbol uskunalar" izohida yoritib berilgan. Barcha o'yn ishtirokchilari, basketbol anjomlarini ishlab chiqaruvchilar, mahalliy va xalqaro basketbol federatsiyalar tegishli ravishda qoidalarda aks etilgan uskunalar standarlariga amal qilib, o'zlarining sport tadbirlari dasturlariga mos uskunalar standartlarini tasdiqlashlari lozim. Dasturlarda belgilangan anjom-uskunalardan foydalanan jarayoni quyidagi talablarga javob berishi shart:

1. Uskunalar sifatli va mustahkam bo'lishi lozim;
2. O'yinchilarning hayot xavfsizligi ta'minlanishi shart (tanjurohat holatlarni oldini olish uskunalarini texnologik holatini va himoyalovchi moslamalani vaqtida nazorat qilish orqali amalga oshirilishi lozim);
3. Estetik ko'rinishga ega;
4. Foydalinishga qo'lay va mobil bo'lishi lozim;

Hozirgi kunda yuqori darajali musobaqalar (Olimpiya turnirlari, Jahon va Qit'alar Championatlari) o'tqazish uchun mo'ljallangan barcha o'yingoxlar eng zamonaviy va yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan, foydalanish talablariga to'liq javob beradigan basketbol uskunalar, anjomlar va moslamalar bilan jihozlangan. Aynan shu uskunalarning na'munalari va ularning o'lchamlari dastlabki sahifadan o'rinn olgan.

O'yin zalida ikkita (2) ("Shchit") - maxsus qurilmasi (87-rasm) o'yin maydonning ikkala en chiziqlarga bittadan (1) joylanishi lozim. Har bitta qurilma:


- savat ortidagi to'siq "shchit" - bitta (1);
- "shchit"ga o'rnatilgan savat (halqa bilan) - bitta(1);
- basketbol to'ri - bitta (1);
- "shchit"ni ushlab turuvchi tayanch - bitta (1);
- himoyalovchi yumshoq qoplamlardan iborat.



8.5-rasm. "Shchit" - maxsus basketbol qurilmasi.


"Shchit" o'lchovlari gorizontal bo'yicha 1,80 m va vertikal bo'yicha 1,05 m bo'lishi, pastki qirrasi maydon yuzasidan 2,90 m balandlikda turishi kerak.

To'g'ri to'rtburchakning tashqi o'lchovlari gorizontaliga 59 sm, vertikaliga 45 sm bo'lishi kerak. Uning asos chizig'inining yuqori qismi halqa bilan teng turishi kerak. Shchitlarning chetlari 0,5 sm kenglikdagi chiziqlar bilan belgilanadi. Bu chiziqlar shchit rangidan yaqqol ajralib turishi lozim. Shchitlarning hoshiyalari va ularda chizilgan to'g'ri to'rtburchakning ranglari bir xil bo'lishi shart.



8.6-rasm. "Shchit" (savat ortidagi to'siq) o'lchamlari

Ikkala shchit yumshoq material bilan quyidagicha qoplanган bo'lishi kerak: shchitlarning pastki qirrasi va yon tomonlari uchun yumshoq o'ram tagidan kamida 35 sm uzoqlikda tag sirtini va yonlarning ustini qoplaydi. Oldingi va orqa sirtlar tagidan kamida 0,2 sm uzoqlikda qoplanadi va to'ldirilgan material kamida 0,2 sm qalinlikda bo'lishi lozim. Shchitning pastki qismi to'ldirilgan material 0,5 sm qalinlikda bo'lishi kerak.



8.7-rasm. Halqa

Savatlar halqa va to'rlardan iborat. Halqa qattiq metalldan tayyorlangan bo'lib, uning ichki diametri kamida 450 mm ga teng bo'lib, 459 mm dan ko'p bo'lmasligi, va to'q sariq (sabzi) rangda bo'yalishi lozim. Halqa metallining qalinligi kamida 16 mm ga teng bo'lib va 20 mm dan ko'p bo'lmasligi lozim.

Basketbol to'rlari halqalarga 12 ta ilmoqlar yoki shunga o'xshash ilgaklari orqali o'mnatilishi lozim. Ilgaklar o'tkir qismlarsiz, o'yinchilar barmoqlariga shikast etkazmaydigan silliq bo'lishi shart. Halqalar ichki chekkasining yaqin nuqtasi shchitning yuza qismidan 151 mm uzoqlikda joylanishi kerak.

Halqalarga ilinadigan to'rlar oq kanopdan tayyorlanadi, ularning tuzilishi shunday bo'lishi lozimki, to'p savat orasidan o'tayotgan vaqtida bir lahma ushlaniib qolishi. To'rlarning uzunligi kamida 400 mm bo'lib va 450 mm ko'p bo'lmasligi lozim.



8.8-rasm. Basketbol to'pi na'munalari va o'lchamlari

O'lchami	To'p aylanasi	Og'irligi
O'lchami 7	749—780	567—650
O'lchami 6	724—737	510—567
O'lchami 5 Mini basketbol uchun	690-710	470-500
O'lchami 3 Yosh o'gil qizlar uchun	560-580	300-330

To'p sharsimon shaklda va tasdiqlangan qizg'ish rangda bo'lishi kerak: u sirti bilan birga charmdan, rezina yoki sun'iy komashyodan tayyorlanadi; uning aylanasi uzunligi 749 sm dan kam va 780 sm dan ko'p bo'lmasligi lozim; u kamida 567 g dan kam va 650 g dan ko'p bo'limgan og'irlilikka ega bo'lishi kerak; unga havo shunday to'ldirilishi kerakki, to'p taxminan 1,8 m balandlikdan (to'pning pastki qirrasidan o'lchanganda) o'yin maydoniga yoki qattiq yog'och polga tushgan vaqtida to'pning yuqori qirrasidan o'lchanganda 1,20 m dan kam va 1,40 m dan ortiq bo'limgan balandlikka ko'tarilishi lozim.


8.3. Hakamlar tarkibi va hakamlik qilish asoslari

Basketbolda o'yinni hakamlar boshqaradilar. Hakamlar tarkibiga katta hakam, 1 yoki 2 yordamchi hakam^{*}, kotib-hakamlar va komissar (tayinlangan bo'lsa) kiradilar. Kotib-hakamlar deyilganda kotib, uning yordamchisi, soniya hisoblovchi va to'pni savatga tashlash vaqt operatori tushuniladi. Komissar kotiblar stolida, kotib va soniya hisoblovchi o'rtaasida o'tirishi lozim (91-rasm).

- 1 = Topni savatga otish
vaqt operatori
- 2 = Soniya hisoblovchi

- 3 = Komissar (tayinlangan
bulsa)
- 4 = Kotib
- 5 = Kotib yordamchisi

O'yin maydoni



Kotiblar stoli

Kotib stoli va uning stullari maydonga nisbatan tepalikda joylanishi lozim. Suhandon va/yoki statistikachi (tayinlangan bulsalar) kotib stolidan chekkarok va/yoki ortida o'tirishlari mumkin.

8.9-rasm. Kotiblar stoli

Hozirgi kunda basketbol o'yinlarini maydonda 3ta hakam (katta hakam - "Reefere" va 2 yordamchi hakam - "Umpire"), yoki, musobaqa tashkilotchilari qaroriga asosan 2ta hakam (katta hakam "Reefere" va 1 yordamchi hakam - "Umpire") boshqarishi mumkin.

Hakamlar, kotib hakamlar va komissar o'yinni FIBAning rasmiy qoidalariga muvofiq o'tkazishlari lozim. Ular dastlabki qoidalarga o'zgartirish kiritish huqiqiga ega emaslar.

Hakamlarning libosi kulrang hakam ko'ylik, uzun qora shim, qora noski va qora basketbol poyafsalidan iborat bulishi lozim. Kotib hakamlar esa bir hil sport libosida bulishlari lozim.

Hakamlar obro'-e'tiborga ega bo'lishlari kerakligi bilan birga, ular xushmuomalali bo'lishlari ham lozim: "Do'stona tabassum ba'zi paytlarda foydali bo'lishi mumkin!", - degan naqlni hakamlar yodida tutishi lozim.

Hakamlarning o'yin jarayonida o'z faoliyatlarini qoidalarda belgilangan hukuqlari va majburiyatları asosida olib boradilar. Har bitta hakam o'zining vazifalari doirasida qarorlar qabul qilishga haqlidir va shu bilan birga boshqa hakam(-lar) qabul qilgan qarorlarni bekor yoki shubha qilishga haqli emas. Hakamlarning qabul qilgan qarorlari qat'iy bo'lib ular muhokama qilinib inobatsiz qolishi mumkin emas.


Hakamlarning huquqlari o'yin boshlanishi belgilangan vaqtidan 20 daqiqa oldin, hakamlar maydonga chiqishlari bilan kuchga kiradi va o'yin soatining o'yin tugashi signali jaranglaganidan so'ng tugaydi.

Boshqa sport o'yinlaridan (voleybol, tennis, stol tennisi) farqli ravishda basketbol hakamlari maydonda o'yin yo'nalishiga qarab haraqat qilishadi.

O'yin vaqtida maydonda yuzaga kelgan vaziyatlarga to'g'ri baho berish, qoida buzarliklarni hatosiz aniqlash va shu bilan birga o'yin suratiga salbiy tasir qilmaslik, hakamlardan o'yinchilarga xos jismoniy tayyorgarlik, psixologik barqarorlik, basketbol texnikasidan, taktikasidan va albatta qoidalardan chuqr bilimga ega bo'lishni talab qiladi.


Hakamlarning vazifalari, huquqlari, hakamlik qilish jarayoni, ularning harakatlari va imo-ishoralari haqida batafsil izohli ma'lumot "FIBA" - xalqaro basketbol federatsiyasi "*FIBA rasmiy qoidalari. Uch (ikki) xakam mexanikasi*" (*Official Basketball Rules. Three (Two) person officiating - ing. tili*) deb nomlangan kitobida yoritilgan. Jumladan ayrim misollar:

1. Jamoalar razminkasi jarayonida hakamlarning holati.



8.10-rasm. Hakamlar kotiblar stoli qarshisida joylashadilar. Katta hakam "R" markazda, yordamchi hakamla "U1" chap tomonda, "U2" o'n tomonda.

2. O'yindan boshlanishi holati.




8.11-rasm. Katta hakam "R" to'p bilan markazdagi doira qarshisida, yordamchi hakamla "U1" maydonning kotib stoli tomonida, "U2" maydonning kotib stoliga qarshi tomonida.

3. Birinchi tashlangangan so'ng hujum o'n tarafga boshlandi.

En chiziqdagi hakam "L" harifi bilan belgilanib *Lead*-ing. tili, yani "etakchi" hakam deb ataladi.


Yon chiziqdagi hakam "T" harifi bilan belgilanib *Trail*-ing. tili, yani "ko'maklashuvchi" hakam deb ataladi.

Yon chiziqdagi hakam "S" harifi bilan belgilanib *Sentre*-ing. tili, yani "markaziy" hakam deb ataladi.




8.12-rasm. "U2" - ikkinchi yordamchi "L" ga aylandi - boshlovchi hakam, U1 - birinchi yordamchi "C" ga aylandi - markaziy hakam, "R" - katta hakam "T" ga aylandi - ortdag'i hakam.

4. Birinchi to'p tashlangangan so'ng hujum chap tarafga boshlandi



8.13-rasm. "U1" - birinchi yordamchi "U2" - ikkinchi yordamchi "L" ga aylandi - boshlovchi hakam, "U2" - ikkinchi yordamchi "C" ga aylandi - markaziy hakam, "R" - katta hakam "T" ga aylandi - ortdag'i hakam.

5. Hakamlarning masuliyat zonaslari



8.14-rasm. L halqa ostidagi zonaga mas'ul, C maydonning chap zonasiga mas'ul, T maydonning o'ng zonasiga mas'ul

Reyting-nazorat va bilimni baholash testlari:

- 1. Basketbol bo'yicha musobaqalar qaysi guruhlarga qo'shiladi?**
a) tumanlararo, shahar, viloyat, DSOLar
b) asosiy, yordamchi, ommaviy-targ'ibot, ko'rgazmali uchrashuvlar
c) tulabalar va o'quvchilar orasidagi musobaqalar
d) 15. yosh dagi qiz va bolalar o'rtaida, 16-18. yo shdagisi o'smir qizlar va bolalar, 19. va undan katta yoshdagisi erkak va ayollar o'rtaida
- 2. O'yin natijasi bo'yicha tushgan narozinoma bo'yicha kim tomonidan, qanday qaror qabul qilinadi?**
a) trener-rahbarlarni ovoz berish bilan
b) suqat hakamlar hay'ati bilan
c) ochiq ovoz berish bilan hakamlar, rahbarlar
d) musobaqa bosh hakami
- 3. Musobaqa Nizomi qachon ishlab chiqilgan bo'lishi kerak?**
a) musobaqadan 10. kun oldin
b) musobaqadan 1. oy oldin
c) musobaqadan 1. xafsta oldin
d) oldindan, qatnashuvchi tashkilotlarni bilib, Nizom bilan tanishitirishlari kerak

4. Musobaqani o'tkazishni targ'ibot qiluvchi asosiy hujjatlar

- a) musobaqa e'loni
- b) qatnashuvchilar ma'lumotnomasi
- c) musobqa natijalari
- d) qaydnama, o'yinchilar to'g'risida ma'lumotnomasi, o'yin kalendari, bosh hakam hisoboti

5. Musobaqa to'g'risidagi nizom qachon ishlab chiqilib, tasdiqlanishi kerak?

- a) musobaqa boshlanishidan 1 oy avval
- b) musobaqa boshlanishidan 10 kun avval
- c) musobaqa boshlanishidan bir hafta avval
- d) har bir taqvimiylar yilning boshigacha

6. Jarohat olgan o'yinchi qancha vaqt ichida almashtirilishi mumkin?

- a) 10. soniya
- b) 15. soniya
- c) 20 soniya
- d) 25 soniya

7. Basketbol bo'yicha musobaqalar qanday guruhlarga birlashtiriladi?

- a) tumanlar, shahar, viloyatlar, KSJ va idoralararo, xalqaro
- b) asosiy, yordamchi, ommaviy-targ'ibot va ko'rgazmali uchrashuvlar
- c) qiz va o'g'il bola (14 yoshgacha), yigit va qizlar (16,18 yoshgacha), erkak va ayollar (19 yosh va undan katta) orasida
- d) hududiy, idoralararo

8. Musobaqa to'g'risidagi nizom qachon ishlab chiqilib, tasdiqlanishi kerak?

- a) musobaqa boshlanishidan 1 oy avval
- b) musobaqa boshlanishidan 10 kun avval
- c) musobaqa boshlanishidan bir hafta avval
- d) har bir taqvimiylar yilning boshigacha

9. Basketbol bo'yicha respublika va xalqaro musobaqalarning taqvim rejasini kim tuzadi?

- a) Jismoniy atrbiya va sport qo'mitasi
- b) Sportning Olimpiya turlari boshqarmasi
- c) O'zbekiston Basketbol Federatsiyasi
- d) O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi

10. Musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish maqsadi, vazifalari hamda boshqa shartlari qaysi hujjatda qayd qilinadi?
- a) basketbol Federatsiyasi ish rejasida
 - b) hakamlar hay'ati ish rejasida
 - c) Jismoniy atrbiya va sport qo'mitasi ish rejasida
 - d) musobaqalar to'g'risidagi Nizomda

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ganiyeva F.V. Basketbol. // Oliy o'quv yurtlari umumiyl kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T., 2009. – 69 b.
2. Железняк Ю.Д. Совершенствование спортивного мастерства// Учеб.для студ.выс.учеб.завед. / Ю.Д. Железняк, Ю.М. Портнов, В.П. Савин и др. – М.: Akademiya, 2004. – 400 с.
3. Официальные правила баскетбола ФИБА 2010. Утверждены ЦБ ФИБА 2010.
4. Судейский комитет РФБ. Официальные правила Баскетбола 2006 // Руководство для судей. ЗАО «ИнфоБаскет». – 78 с.
5. Сууркаш В., Гейз Л. Правила соревнований. –М., 2004. - 101 с.
6. Соколова Н.Д., Ганиева Ф.В., Исматуллаев Х.А. Баскетбол //Маъruzalар туплами, (III курс). – Т., 2004. - 185 б.
7. www.basket.uz
8. www.basket.ru

IX BOB. SPORT MASHG'ULOTINING UMUMIY ASOSLARI

9.1. "Sport" atamalari haqida tushuncha

Bugungi kunda "sport", "sport mashg'iloti", "sport musobaqalari" atamalari yer yuzida yashovchi, qanday ijtimoiy qatlamga mansub, qanday turmush tarzini yuritishi va kasbidan qat'iy nazar har bir katta-yu kichik inson ongiga singib ketganligi, ularni o'ziga rom qilishi va u bilan muntazam shug'ullanishga chorlashi hech qanday shubha uyg'otmaydi.

Sport keng ma'noda musobaqa faoliyati, unga maxsus tayyorgarlik ko'rish, shu yo'naliш bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy-maishiy, jismoniy va psixofunksional, texnik va taktik jarayonlarni o'z ichiga oladi. "Sport" tushunchasining mohiyati insonni jamiykiy to'siq va qiyinchiliklarni yengib, o'z imkoniyatlari chegarasini yanada kengaytirishga qaratilgan intilishidan iborat.

Sport – bu ruhiyatni "charxlovchi", kayfiyatni ko'taruvchi insonni jismonan, ma'nan va ruhan shakllantiruvchi, uning "ichki" va "tashqi" madaniyatini (morphologiyasi – qaddi-qomati va funksional resursini) takomillashtirib boruvchi, insoniyatga cheksiz quvонч hadya etuvchi, zamonga mos, o'ta ommaviy ijtimoiy harakatdir. Demak, sport chuqur ma'noli, ko'p qirrali ijtimoiy omildir.

"Sport" atamasi etimologik nuqtai nazaridan inglizcha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, daraxt kurtaklarini bir-biridan "o'zib" o'sishini anglatadi.

Zamonaviy sport – bu o'z evolyutsion tarixi, mavqeい va maqomi hamda o'ziga xos musobaqa qoidalariga bo'lgan ko'pdan – ko'p turlardan tarkib topgan.

"Sport" va "Sport mashg'uloti" atamalari pirovardida, "musobaqaga tayyorgarlik", "musobaqa jarayoni", "musobaqa faoliyati" tushunchalarini o'z tarkibiga biriktiradi.

"Mashg'ulot" atamasi inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida "mashq qilish", "charhlash" ma'nosini bildiradi. Ushbu atama turli sohalarda qo'llaniladi. Masalan, "aqliy (intellektual) mashg'ulot", "jismoniy mashg'ulot", "gipoksik mashg'ulot", "hayvonlar

“mashg‘uloti” tushunchalari amaliyotda keng ma’noda o’z aksini topgan. “Hayvonlar mashg‘uloti”, “hayvonni dressirovka qilish” tushunchasidan tubdan farq qilib, hayvonlarni biror-bir tadbiqot uchun tayyorlash (oq kalamushnitretbanda yugurishi) yoki hayvonlarni (masalan itni) “harbiy xizmatga” tayyorlash va hokazo sohalarda amalga oshirilishi mumkin.

Sport amaliyotida “sport mashg‘uloti” atamasi “sport tayyorgarligi” atamasi bilan mantiqan yaqin bo‘lsada, ular bir-biridan tubdan farq qiladi. “Sport tayyorgarligi” tushunchasi keng qamrovli ma’noga ega bo‘lib, sportchini jamiyki faoliyatini (uyqu, trenirovka, ovqatlanish, profilaktika va hokazo) musobaqaiga tayyorlashga qaratilgan jarayondir. “Sport mashg‘uloti” esa bir maqsadga yo‘naltirilgan jarayondir va nisbatan torroq ma’noni anglatadi.

Muntazam sport mashg‘uloti natijasida insonning harakat faoliyati shakllanib boradi, yangi harakat shakllari vujudga keladi, hayotiy zarur harakat malakalari (yugurish, sakrash, yurish va hokazo), ko‘nikmalari takomillashadi, psixik sifatlar (xotira, ong, idrok, iroda, diqqat va h.) sayqal topadi. Muayyan sport turiga xos harakat malakalari mukammallashadi.

Basketbol – sport turi sifatida insonni har tomonlama jismoniy jihatdan rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki, zamонави basketbol o’z xususiyati, mohiyati, mazmuni bilan kishi organizmiga katta talablar qo‘yadi. Basketbol bo‘yicha muntazam mashg‘ulot qilish barcha jismoniy, texnik, taktik, psixofunksional sifatlarni takomillashtiradi. Basketbolga xos turli yo‘nalishda va tezlikda uzoq vaqt davomida (1,5-2 soatgacha) ijro etiladigan texnik va taktik malakalar shug‘ullanuvchini umumiy va maxsus chidamkorligini shakllantirib boradi. O‘yinda ijro etiladigan yakka, gurux va jamoa harakatlari o‘zaro bir-birini qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro yordam, hamjihatlik hislatlarini namoyon qiladi.

9.2. Sport mashg‘ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni

Sport mashg‘uloti – bu uzoq muddatli pedagogik jarayon bo‘lib, o’z oldiga o‘yin malakalariga o‘rgatish, ularni takomillashtirish, yurka, guruh va jamoa texnik va taktik harakatlarini o‘zlashtirishni inmqsad qilib qo‘yadi.

Vazifalari:

- ma'naviy va ruhiy hislatlarni tarbiyalash;
- jismoniy va funksional tayyorgarlikni taraqqiy ettirish;
- sihat-salomatlikni mustahkamlash;
- asosiy jismoniy sifatlarni tarbiyalash (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik);
- hayotiy zarur malaka va ko'nikmalarni shakllantirish (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, suzish);
- “Alpomish va Barchinoy” test me'yorlariga tayyorgarlik ko'rish va topshirish;
- texnik va taktik harakatlarni ijro etishda zarur qobiliyat va maxsus sifatlarni taraqqiy ettirish.
- o'yin malakalari – texnik va maxsus sifatlarni taraqqiy ettirish;
- o'yin malakalari – texnik va taktik harakatlarni yuqori saviyada ijro etishni o'zlashtirish;
- hujum va himoyada jamoa bo'lib, maqsadga muvofiq harakat qilishni shakllantirish;
- basketbol bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallash (rejalashtiruv xujjatlari, kundalik olib borish, o'rgatish texnologiyasi, hakamlik amaliyoti, ish qobiliyatini tiklash vositalari);
- o'zlashtirilgan o'yin, malaka va ko'nikmalarni musobaqada samarali qo'llashni joriy etish.

9.3. Sport mashg'ulotining uslub va vositalari

Shartli ravishda sport mashg'uloti uslublarini 3 guruhga bo'lish mumkin: so'z, ko'rgazmali va amaliy. Ushbu uslublar alohida yoki birgalikda (baravariga) trenirovka mashg'ulotining vazifalariga mos bo'lishi, mazkur vazifalarni hal eta olishi lozim. Bundan tashqari, bu uslublar mashg'ulot prinsiplariga (malakasiga) mos bo'lishi darkor.

So'z uslubi – murabbiy tomonidan biror texnik element, malaka yoki jismoniy mashqlar mohiyati, tarkibiy tuzilishi: koordinasion, biomexanik va kinematik xususiyatlarini bayon etish, tushuntirish hamda tasavvur hosil qilishdan iborat. Ko'rgazmali uslub, odatda, so'z uslubi bilan bir vaqt ni o'zida qo'llaniladi va

mashqlar na'munasi, texnik nushalari hamda ijro etish tartibini videofilmlar, slaydlar va rasmlar yordamida namoyish etishdan iborat.

Amaliy uslublar o'z navbatida 2 guruhga bo'linadi:

- 1) Muayyan sport turiga xos texnik-taktik malaka, harakat ko'nikmalarini hosil qilish va shakllantirishga qaratilgan uslublar;
- 2) Jismoniy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan uslublar.

Ushbu uslublar qayd etilgan ikki holatda ham qo'llanilishi mumkin.

Sport texnikasini (harakat malakasini) to'liq yoki qismlarga (elementlarga) bo'lib o'rgatish uslublari mavjud. Ayrim hollarda harakatlarni qismlarga bo'lib o'rgatish imkoniyati bo'lmasa, bunday harakatlar to'liq holda o'rgatiladi. Ammo sport texnikasini aniq tarkibiy tuzilishiga (strukturasiga) mos ravishda o'rgatish uchun uni imkoniyati boricha qismlarga bo'lib o'rgatish katta samara beradi. Bunda, ayniqsa taqlidiy, ya'ni to'psiz bajariladigan (yoki to'pni o'miga qo'lay buyum, moslama) mashqlar juda qo'l keladi.

Qismlarga bo'lib o'rgatish uslubi. Bu uslubni qo'llash dastlabki, boshlang'ich o'rgatish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Harakatning texnik qismlari shakllana borgan sari (qaytarish uslubi yordamida) uni to'liq holda o'rgatish uslubi o'z o'mini egallab boradi.

Dastlabki o'rgatish jarayonida tayyorlovchi va yondash-tiruvchi mashqlarga e'tibor berish muhim ahamiyatga egadir.

Sport texnikasini qismlarga bo'lib o'rgatish uslubi nafaqat boshlang'ich o'rgatish jarayonida, balki texnik-taktik mahoratning eng yuqori bosqichlarida ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, yangi texnik usul yoki taktik kombinatsiyalarni kashf etishda juda qo'l keladi.

Harakat (jismoniy) sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan uslublar. Bunday uslublarning tarkibiy mohiyati mashqlarni qo'llanish xususiyatiga (mashq soni, og'ir-yengilligi, shiddati) qarab farqlanadi.

Sport mashg'uloti davomida barcha mashqlar 2 ta asosiy uslublar doirasida bajariladi: to'xtovsiz va to'xtab-to'xtab qo'llash uslublari.

To'xtovsiz uslub – bu mashqni to'xtovsiz yoki biror harakat faoliyatini uzlucksiz ijro etilishi bilan farqlanadi.

To'xtab-to'xtab qo'llash (takrorlash) uslubi – mashqni ma'lum vaqt oralig'ida qo'llash (dam berib) bilan ifodalanadi. Ikki uslub qo'llanilganida ham mashqlar uzlucksiz yoki to'xtab bajarilishi mumkin. Mashqlarni tanlash va ularni qo'llash xususiyatiga qarab mashg'ulot mashqi umumlashtirilgan (integral) yoki muayyan yo'nalishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Maksimal kuchlanish uslubi – aksariyat yaxshi tayyorgarlikka ega sportchilarga nisbatan qo'llanilishi tavsiya etiladi. Bu uslub odatda, maksimal og'irliliklar yoki kuch mashqlarini maksimal marta qaytarish bilan izohlanadi. Mashqlarni umumlashtirilgan holda qo'llash ularni bir vaqtini o'zida bir necha sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Mashqlarni muayyan yo'nalishda qo'llash esa aksariyat alohida sifatlarni shakllantirishga qaratiladi. Bundan tashqari o'yin va musobaqa uslublari mavjud bo'lib, ular mustaqil uslublar shaklida qo'llaniladi.

O'yin uslubi – bu biror harakatni o'yin tarzida yoki o'yin davomida ijro etilishi bilan ifodalanadi. Bu uslub nihoyatda samarali bo'lib, uni qo'llanilishida mashqlar muayyan o'yin vaziyati doirasida bajariladi. Mashg'ulotni aynan shu tarzda olib borilishi shug'ullanuvchilarning emosional faolligini ko'taradi. Ushbu uslub yordamida murakkab texnik-taktik ko'nikmalar (taktik fikrlar, taktik kombinatsiyalarni mos tanlash va h.) hamda psixologik hislatlar shakllantiriladi.

Musobaqa uslubi – aynan musobaqa mashqlarini bajarish, mashg'ulotni musobaqa tarzida o'tkazish va turli musobaqalarda ishtirok etish bilan bog'liq. Bu uslub mashqlarni yuqori shiddatda bajarilishini taqazo etadi yoki musobaqada g'alaba qozonish uchunqanday shiddat, usul, aniqlik kerak bo'lsa, shunday tarzda bajariladi. Musobaqa uslubi sport trenirovksi jarayonida jamiyki shakllangan texnik-taktik malakalar, kombinatsiyalar, sifatlar, qobiliyatlarni umumlashtirishda, bog'lashda (integrallashtirishda) asosiy rolni o'ynaydi. Shu bilan bir qatorda, mazkur uslubni qo'llashda sportchilarni malakasi, mahorati va imkoniyatlari inobatga olinishi zarur. Qayd etilgan uslublardan tashqari qo'shma yoki aralash uslub va harakatni tahlil qilish uslublari mavjud.

Qo'shma uslubni qo'llash natijasida bir vaqtning o'zida bir nechta sifatlar (kuch, tezkorlik, chidamkorlik va h.) va malakalar (texnik usul, taktik harakat) shakllantiriladi.

9.4. Sport mashg'uloti prinsiplari

Sport mashg'uloti jarayoni ma'lum prinsiplar (tamoyillar), tartib-qoida, ilmiy va uslubiy qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu qonuniyatlar sportchi tayyorlash tizimini bir tartibda, to'g'ri va samarali tashkil qilishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Sport mashg'ulotining prinsiplari jamiyki tarbiya va o'rgatish jarayonida umumpedagogik-didaktik prinsiplarga asoslanadi. Lekin sport trenirovksi davomida qo'llaniladigan shiddatli, og'ir va davomli mashqlar ushbu prinsiplarga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Chunki, bu xolat shug'ullanuvchilar organizmini to'g'ri taraqqiy ettirish, ularning psixofunksional imkoniyatlarini ehtiyyotkorlik bilan kengaytirishga qaratiladi.

Sport, nazariyasi va amaliyotida quyidagi asosiy prinsiplar qo'llaniladi:

Onglilik va faollik, muntazamlik va uzlusizlik, mutanosiblik, mukammallik, ko'rgazmali, yuklama hajmi va shiddatini "to'lqinsimon" yo'nalishda oshirish, ilmiylik.

Onglilik va faollik prinsipi o'quv-mashg'ulot jarayonida bosqichma-bosqich qo'yiladigan barcha maqsadlarga erishish, o'zin malakalarini o'zlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan muhim shartlardan biridir.

O'quv-mashg'uloti topshiriqlarini shug'ullanuvchi imkoniyatiga mos tarzda berish – mutanosiblik (imkonbob va individuallashtirish) prinsipi. Ushbu prinsip beriladigan barcha trenirovka topshiriqlari shug'ullanuvchini yoshi, jinsi, tayyorgarligi va individual xususiyatlariga mos bo'lishni taqozo etadi.

Muntazamlik-uzluksizlik prinsipi ko'p yillik o'quv-trenirovka jarayonida mashg'ulot uzluksizligini ta'minlashda, mashg'ulotdan mashg'ulotga talablar darajasini oshirib borishni maqsad qilib qo'yadi.

Yuklamani "to'lqinsimon" tartibda oshirish prinsipi – o'quv-mashg'ulot jarayonida mashg'ulot topshiriqlarini murakkablashtirib

borish, yuklama hajmi va shiddatini asta-sekin oshirib borish, mahoratni yangi bosqichlarga olib chiqish.

Ko'rgazmali prinsip – barcha prinsiplarni samarali qo'llash va maqsadga muvofiq natijaga erishishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, yuqorida qayd etilgan barcha prinsiplar quyidagi didaktik tartib-qoidalar asosida qo'llanilishi zarur:

1. oddiydan murakkabga;
2. o'zlashtirilgandan o'zlashtirilmaganga;
3. osondan qiyinga.

Sport trenirovkasi qonuniyatları. Muhokama etilgan prinsiplar sport trenirovkasining qonuniyatlariga mos bo'lishi shu jarayonni samarali tashkil qilinishiga qaratiladi.

Sport trenirovkasi quyidagi qonuniyatlar asosida olib boriladi: "Yuqori natijalarga yo'naltirish", "Umumiy va maxsus tayyorgarlik birligini ta'minlash", "Trenirovka mashg'ulotlarining uzluksizligi", "Yuklamani asta-sekin va maksimal tarzda oshirish", "Yuklamani to'lqinsimon tarzda qo'llash (o'zgartirib borish)", "Trenirovka jarayonini takrorlanishi (sikl) asosida tashkil qilish".

Yuqori natijalarga yo'naltirish. O'quv-trenirovka jarayoninig bosh maqsadi – sportchilarni musobaqaga yuqori "sport forması" darajasida olib chiqish va ushbu musobaqada yuqori sport natijasiga erishish imkoniyatini yaratishdan iborat. Demak, muntazam, uzluksiz o'tkaziladigan mashg'ulotlar davomida qo'yiladigan strategik vazifa sportchini yuqori natijalarga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lishi darkor.

Umumiy va maxsus tayyorgarlik birligini ta'minlash. Basketbol bo'yicha maxsus – ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlar 9-11 yoshdan boshlab o'tkaziladi. Lekin "chuqur" ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik jarayonigacha yosh sportchilar har tomonlama jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlikka ega bo'lishlari maqsadga muvofiq. 15-16 yoshga to'lgan o'smirlar bilan ishslashda ixtisoslashtirish va universallik prinsipi ustun turadi. 17-18 yoshda o'quv-trenirovka jarayoni individuallashgan yo'nalishda bo'ladi. O'yinchilarni mahorat-iste'dodi doirasida ularni egallagan o'yin funksiyalari yanada chuqur ixtisoslashtirilib, shakllantirilib boriladi.

Mashg'ulot mashqlarining uzluksizligi. Mashg'ulot jarayonida uchraydigan turli tanaffuslar sportchi va murabbiyning oldiga

qo'ygan maqsadini yo'q qilishga olib keladi. Shuning uchun ko'p yillik trenirovka jarayonida muntazamlikni uzilishi, turli tanaffuslarni ro'y berishiga yo'l qo'ymasdan, uni uzlucksizligini ta'minlashi kerak. Lekin ushbu uzlucksizlik trenirovka yuklamasini dam olish, ish qobiliyatini tiklash bilan almashinib turishi asosida amalga oshirilishi zarur.

Yuklamani asta-sekin va maksimal tarzda o'stira borish. Aynan shu qonuniyat basketbolchilarining barcha kuch-imkoniyatlarini musobaqaga safarbar qilishga qaratiladi. Buning uchun ko'p yillik trenirovka jarayoni davomida jismoniy, texnik-taktik tayyorgarlikka oid vazifalar, topshiriqlar va mashqlar asta-sekin "osondan qiyinga", "oddiydan murakkabga", "o'zlashtirilgandan o'zlashtirilmaganga" tartibi asosida maksimal hajm va shiddat darajasida ijro etilishiga qaratilishi lozim.

Yuklama hajmi va shiddatini to'lqinsimon oshirish. Ko'p yillik trenirovka jarayonida yuklama to'lqinsimon tarzda oshirib borilishi lozim. Bu qonuniyat organizmni yuklamadan so'ng tiklanish muddatiga, charchoq asoratlarini "yo'qotish" vaqtiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun yuklama yuilan dam olish, yuklama bilanorganizmni tiklovchi mashq-tadbirlarni muvofiq va samarali qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega.

Mashg'ulot jarayonining takrorlanishi (siklliligi). O'quv-mashg'ulot jarayoni mikro, makro va mezosikllarga - bosqich va davrlarga bo'linadi. Aynan ushbu sikllar ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida "spiralsimon" tartibda takrorlanishi yuqori natijalarga olib chiqishga qaratiladi.

9.5. O'rgatish va mashg'ulot vositalari

Basketbolda ham boshqa sport turlari kabi o'rgatishning asosiy vositasi jismoniy va texnik-taktik mashqlardan iborat bo'ladi. Ular juda turli-tumandir. Shuning uchun ularni o'rgatish bosqichida qo'llash ma'lum vazifalarni hal qilish asosida turkumlanadi. Unday turkumlanishga basketbolchilarining musobaqa faoliyati asos qilib olinadi. SHunga bog'liq holda mashqlar ikki katta guruhga ajratiladi: asosiy yoki musobaqa va yordamchi mashg'ulot mashqlari.

Musobaqa mashqlari basketbolga xos bo'lgan xususiy, o'ziga xos bo'lgan mashqlardir. Bunda texnik usullar va taktik harakatlar musobaqa sharoitidagi o'yin xolatlariaga mos holda bajariladi.

Mashg'ulot mashqlari asosiy malakalarni egallahshi yengilashtirish, tezlashtirish va ularni qo'llash samaradorligi, ishonchliligin ta'minlashga qaratiladi. Ular maxsus va umumrivojlanuvchi mashqlardan tashkil topadi.

Maxsus mashqlar ikki guruhga bo'linadi: tayyorgarlik mashqlari va yaqinlashtiruvchi mashqlar. Tayyorgarlik mashqlaridan asosan maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalashda foydalaniladi. YAqinlashtiruvchi mashqlardan muayyan texnik harakatlarni egallahsha qaratilgan jarayonda foydalaniladi.

Umumrivojlanuvchi mashqlardan asosiy jismoniy sifatlarni tarbiyalashda va zarur jismoniy sifat, harakat ko'nikmasi va malakalarini takomillashtirishda foydalaniladi.

Barcha mashqlar o'zining yo'naliishiga qarab trenirovkalarining tarkibiy qismiga kiritiladi. Bu tayyorgarliklar quyidagilardir: umumi jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik, integral (yaxlit o'yin). Har bir tayyorgarlik turlarining o'ziga xos etakchi vositalari mavjud bo'lib, ular yordamida mos vazifalar echiladi. SHu bilan birga bir tayyorgarlik turidagi mashqlar bilan yaqindan bog'langan bo'ladi. Masalan, shug'ullanuvchida tezkor-kuch sifati zarur darajada rivojlanmagan bo'lsa, u hujum texnikasini bajara olmaydi. Bu holda tezkor-kuch sifatini rivojlanishga oid mashqlarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Basketbol harakatlariga o'rgatishda vositalarning samarasini ko'p xollarda o'larni qo'llash uslublariga bevosita bog'liq bo'ladi. Uslublarini tanlash qo'yilgan vazifa, shug'ullanuvchilarining tayyorgarlik darajasi, aniq shart-sharoitlarga bog'liq xolda tanlanadi va amalga oshiriladi.

Qo'yilgan vazifaga bog'liq ravishda aynan bir vositani turli uslublarda qo'llab, turlicha foydalanish mumkin. Undan tashqari har bir tayyorgarlik turida vazifalar va mashqlarni qo'llash ketma-ketligi ham ma'lum mantiqiy bog'liqlikka egadir.

Bir tayyorgarlik turidagi vazifalar sifat jihatidan o'zgarib, keyingi tayyorgarlik turiga zamin yaratadi. Masalan, tayyorgarlik mashqlari o'rganilayotgan texnik usulni umumi tuzilishini ifoda etadi. Yaqinlashtiruvchi mashqlar maxsus jismoniy tayyorgarlikdan

texnik tayyorgarlikka o'tishda ko'priq vazifasini utaydi. Malum murakkablik asosida qo'llaniladigan texnik mashqlar taktik ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. SHu asosida keyinchalik yakka tartibdag'i taktik harakatlar o'r ganiladi.

9.6. Sport mashg'ulotining davriyiligi

Yillik tayyorgarlik siklning davrlari va bosqichlarga bo'linishi ko'p yillik sport trenirovki jarayonida yuqori malakali sportchilar tayyorlash, ish qobiliyati va "sport formasi"ni muayyan tartibda shakllantirish, ushbu faollikni ma'lum muddat ichida (musobaqa sikli davomida) saqlab turish, uni tiklab borish, "vaqtincha yo'qotish" va yana qayta shakllantirish bilan bog'liq vazifalarni echishga qaratiladi.

"Sport formasi" deb sportchining eng yuqori natijaga erishishiga imkon beradigan xolatiga aytildi. Bu xolat jismoni, texnik, taktik va psixofunksional tayyorgarlikning eng yuqori darajada shakllangan "cho'qqi" si bilan belgilanadi.

Sport formasining shakllanishi uch fazadan iborat bulib, ular bir yillik va ko'p yillik trenirovka jarayonida ma'lum tartibda ulmashinib turadi.

Birinchi faza – sport formasini shakllanishiga poydevor yaratish va uni eng takomil darajasiga ko'tarilishini o'z ichiga oladi.

Ikkinci faza – takomillashgan sport formasini turg'un xolatda saqlashdan iborat.

Uchinchi faza – sport formasining vaqtincha susayishi bilan farqlanadi.

Nima uchun yuqori darajada shakllangan sport formasini muttasil uzoq vaqt saqlab turish imkoniy yo'q degan savol tug'iladi.

Bu savolga quyidagicha izoh berish mumkin:

Birinchidan - takomillashtirish jarayonining muayyan bosqichida shakllangan sport formasi navbatdagi bosqich uchun mahorat darajasidagi sport formasi bo'la olmaydi.

Ikkinchidan – shug'ullanuvchi organizmining harakatlariga moslashishida ish qobiliyati doimo yuqoriga qarab uzlusiz o'sib boravermaydi. Mashg'ulotlarning yalpi yuklamalaridan so'ng organizmda charchoq asoratlari vujudga keladi. Ularmi bartaraf etish, "yo'qotish" uchun ish qobiliyatini tiklash zarur. Buning uchun

esa ma'lum muddat kerak. Aynan ana shu tiklanish davri tugagandan so'ng ish qobiliyatini taraqqiy ettirish va sport formasini yanada yuqori darajasiga ko'tarishga imkon yaratiladi.

Uchinchidan – sportchining har tomonlama tayyorgarlik darajasini muntazam oshira borish to'lqinsimon yo'nalishda amalga oshirilishi kerak. Bu organizmni harakat yuklamalariga biologik qonuniyatlar asosida moslanib borish bilan izohlanadi.

Binobarin, sport trenirovkasi jaryonida 3 davrga – tayyorgarlik, musobaqa va o'tish davrlariga bo'linadi.

Tayyorgarlik davri

Ushbu davrda quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

1. Umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish.
2. Basketbol o'yiniga xos kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik sifatlarini yanada shakllantirish.
3. Irodaviy-ruhiy va funksional imkoniyatlarini shakllantirish.
4. O'yin malakalari texnikasini o'zlashtira borish va takomillashtirish.
5. Taktik malakalarni o'zlashtirish.
6. Nazariy bilimni oshirish.

Tayyorgarlik davri o'z navbatda 3 bosqichga bo'linadi:

1. Umumtayyorgarlik bosqichi – mazkur bosqichda tayyorgarlikning barcha turlari bo'yicha ruhiy-jismoniy – funksional bazis (poydevor) yaratiladi, barcha jismoniy sifatlar shakllantiriladi, hayotiy zarur malakalar (yurish, yugurish, sakrash, to'xtash va h.) takomillashtiriladi.

Bu bosqichda tayyorgarlik turlariga oid vositalar (mashqlar) hajmi quyidagi nisbatda taqsimlanadi:

Umumiy tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlar hajmi ko'p, shiddati (mashqlarni ijro etish tezligi) sekin bo'ladi.

2. Maxsus jismoniy tayyorgarlik bosqichi. Ushbu bosqich aksariyat sport formasini tarkib topishiga bag'ishlanadi.

Bu bosqichda maxsus jismoniy sifatlar (basketbolga oid kuch-tezkorlik-chidamkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, sakrash, sakrashga bo'lgan chidamlilik) rivojlantiriladi, ruhiy hislatlar (ko'rish chuqurligi, ko'rish doirasi, xotira, idrok, ong, diqqat, atrof-muhit-vaziyatni farqlash, tafakkur va h.) shakllantiriladi.

Tayyorgarlik turlarining hajmi taxminan quyidagi nisbatda bo'ladi: Trenirovka mashg'ulotlarida ijro etiladigan mashqlar hajmi biroz kamayadi, shiddati esa tezlashadi.

3. Musobaqa oldi tayyorgarligi bosqichi. Bu bosqich shug'ullanuvchilarni to'g'ridan-to'g'ri musobaqaga tayyorlash jorayoni bilan ifodalanadi. Tayyorgarlikning barcha turlariga oid mushg'ulotlarda qo'yiladigan vazifalar basketbolchilarni musobaqa o'yinlariga tayyorlashga yo'naltiriladi. Mashg'ulotlar shiddati maksimal darajaga ko'tariladi, hajmi esa kamayadi.

Ushbu bosqichda o'yinlar hajmi oshadi, jamoa qator tayyorlovchi turnirlarda ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

Musobaqa davri

Ushbu davrga qo'yiladigan vazifalar:

1. Jismoniy va psixofunktional imkoniyatlarni rivojlantirishni davom ettirish;
2. Sport texnikasini takomillashtirish va mukamallashtirish;
3. O'yin taktikasi va taktik kombinatsiyalarni shakllantirish hamda musobaqa tajribasini orttirish;
4. Umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini saqlash;
5. Nazariy bilimlar darajasini oshirish.

Ushbu davrda tayyorgarlikning barcha turlari basketbolchilarni musobaqalarda yuqori natijaga erishishlariga qaratiladi.

Jismoniy tayyorgarlik bu davrda sportchilarni musobaqalarga funksional jihatdan tayyorlashga mmo'ljallangan bo'lib, maxsus ish qobiliyatini yanada rivojlantirish va saqlash bilan ifodalanadi. Texnik-taktik tayyorgarlik o'yin malakalari va musobaqa faoliyatini mukammallashtirishga, mahorat darajasiga olib chiqish vazifasini hal etishga qaratiladi. Musobaqa mashqlarini qo'llash o'yin vaziyatlarini modellashtirish asosida amalga oshiriladi. Bunda mushg'ulotlarning shiddati o'ta yuqori tezlikda kechadi. Mazkur davrda o'tkaziladigan musobaqalarni shartli ravishda 3 tabaqaga bo'lish mumkin.

Birinchi tabaqa musobaqalari – o'rtoqlik uchrashuvlari, turli turnirlar (sinov, nazorat, saralov va o'rtoqlik musobaqalari) ni o'z ichiga olishi mumkin.

Ikkinci tabaqa musobaqalari – bu asosiy ichki – mahalliy championatlar va Kubok musobaqalarini qamrab olishi mumkin.

Uchinchi tabaqa musobaqalari – bu asosiy –tashqi musobaqalar (Xalqaro musobaqalar, kubok egalari kubogi, championlar kubogi, Osiyo championati, Osiyo o‘yinlari, Jahon kubogi va championati, Olimpiya o‘yinlari va h.).

O‘tish davri

O‘tish davrining asosiy vazifasi – o‘quv-mashg‘ulot va musobaqa jarayonlarining yalpi ta’siri natijasida organizm charchash, zo‘riqish hollariga tushib qolmasligini oldini olish maqsadida faol dam olish tadbirlarini tadbiq etish, maxsus ixtisoslashtirilgan basketbol mashqlaridan foydalanishni to‘xtatib, boshqa sport turlariga oid (kross-yengil atletika, suzish, eshkak eshish, turizm va h.) mashqlarni qo‘llashdan iborat. Bundan tashqari, bu davrda musobaqa davridagi mashg‘ulotlar shiddatini sekin-asta minimal darajasigacha kamaytirish va ish qobiliyatini tiklashga oid vositalar hajmini kengaytirish zarur bo‘ladi. Bu davrni tog‘ yon bag‘rida, daryo, dengiz bo‘ylarida, o‘rmon sharoitida o‘tkazish samarali bo‘ladi.

O‘tish davrining ikkinchi yarmidan boshlab asta-sekin navbatdagi trenirovka sikliga poydevor yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Ish qobiliyatini tiklash va kuchaytirish

Sport mashg‘uloti davomida uzlucksiz qo‘llaniladigan mashg‘ulotlar natijasida shug‘ullanuvchilar organizmining ish qobiliyatini goh susayishi, goh kuchayishi tabiiy hodisadir. Lekin yuklamalardan so‘ng vujudga keladigan charchoq asoratlarini bartaraf etish, organizmning funksional faoliyatini muntazam tiklab borish hamda ish qobiliyatini to‘lqinsimon tarzda kuchaytirib borish zaruriyati tiklovchi vositalardan o‘z vaqtida maqsadga muvofiq foydalanib turishni taqozo etadi.

Ish qobiliyatini tiklashga qaratilgan vositalar bir necha turlarga bo‘linadi. Bular pedagogik, tibbiy-biologik (farmakologik) va psixologik yo‘nalishda qo‘llaniladigan vositalardir.

Pedagogik vositalar kichik hajmda, katta amplituda va sekin shiddatda bajariladigan jismoniy mashqlarni o‘z ichiga oladi. Bu jismoniy mashqlar tana mushaklarini maksimal taranglashtirish va maksimal bo‘sashtirish asosida ijro etiladi. Ushbu mashqlar tana qismi va bo‘g‘imlarini “burish”, “bukish”, “yozish”, “siqish”, “ishqalash”, “uqalash”, “silash” kabi jismoniy “muolajalar” bilan ifodalanishi mumkin.

Bunday mashqlarni ma’lum pedagogik tartibda hajmi va shiddati jihatidan munosib me'yorda suv, havo, sauna –muolajalari bilan qo‘sib qo’llanishi yaxshi natija beradi.

Bundan tashqari holisona, sekin tarzda o‘rmon, tog‘ yon bag‘rlari, daryo qirg‘oqlari sharoitida yurish, sekin yugurish, velosiped haydash, eshkak eshin kabi muolajalar o‘ta samarali vositalar bo‘lib hisoblanadi.

Tibbiy-biologik vositalardan foydalanish shug‘ullanuvchi organlari – asab, yurak-qon tomir, oshqozon, nafas olish tizimlari, xujayra, to‘qima va mushaklarni oziqlantiruvchi, ularga quvvat beruvchi va tiklovchi turli vitaminlarga boy sharbatlar, xo‘l va quruq mevalar, sabzavot, ko‘kat hamda boshqa shunga o‘xhash ozuqalarni iste’mol qilish bilan ifodalanadi. Bunday muolajalarni yil davomida, ayniqsa yirik musobaqalar oldidan o‘tkaziladigan o‘quv trenirovka yig‘inlarida va musobaqa davridan so‘ng (o‘tish davrida) omalga joriy etish o‘ta muhim shartlardan biridir.


Ayrim hollarda, ya’ni organizmni to‘liq reabilitasiya qilish sururiyati tug‘ilganda davolash va sog‘lomlashtirish jismoniy turbiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Psixologik vositalar yordamida shug‘ullanuvchilarining nafaqat ish qobiliyati tiklanadi, ruhiyat va irodasi mustahkamlanadi, balki sportchining butun vujudi muayyan musobaqalarga safarbar etiladi, taibiy holatlari (apatiya, lixoradka, ortiqcha hayajonlanish, qo‘rqish, hundiksirash, hayol parishonlik va h.) bartaraf etiladi.


Bu vositalarga “ishontirish formulalari” (autogen trenirovksi), “o‘zini boshqarish”, gipnoz va bashqa shunga o‘xhash mashqlar kiradi.

Barcha yo‘nalishda qo’llaniladigan tiklovchi vositalardan moxirona foydalanish ko‘p yillik trenirovka jarayonida yuqori malikali sportchilarni tayyorlashda muhim ro‘l o‘ynaydigan shartlardan biridir. 9,10,11 va 12- andozalarda mashg‘ulotning

qonuniyatlari, ko'p yillik sport mashqi bosqichlari, basketbolchilarning yosh guruhlari va tayyorgarlik bosqichlari, yillik tayyorgarlik siklining davrlari va ularning bosqichlari aks ettirilgan.




9.1-andoza




9.2-andoza

Yillik tayyorgarlik siklining davrlari va bosqichlari

Sport trenirovki natijalari



9.3-andoza



9.4-andoza

Reyting-nazorat va bilimni baholash testlari:

1. Sport mashg'ulotining vazifalari

- a) o'yin rejasini tuzish
- b) arsenal texnikani kengaytirish, itoatkor taktikani egallash
- c) pedagogik nazorat xisobga olish va axborot, jamoa o'yini modeli
- d) o'quv trenirovka jarayonida jamoani boshqarish

2. Yillik tayyorgarlikni davrlari

- a) tayyorlov, asosiy, yakunlov
- b) umum tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik
- c) istiqbolli, yillik, tezkor reja
- d) tayyorlov, musobaqa, o'tish davrlari

3. O'rgatish principlari va mashg'ulotlari

- a) ko'rgazmali, aniq, engil, yakkalik, to'lqinsimonlilik, chuqur mutaxassislik
- b) o'yin vazifasida sportchilarni aniq vazifalari
- c) maksimal nagruzkaga sekin-asta o'tish princiipi
- d) ruxiy va irodaviy sifatlarni tarbiyalash

4. O'quv mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan uslublar

- a) etarlicha qaytarish kuchi, oraliq, o'yin musobaqa
- b) qiyinlashtirilgan vaziyatdagi malakalarni takomillashtirish
- c) ishontirish, tushuntirish
- d) uqtirish uslubi

5. Musobaqa davri vazifalari

- a) organizmni ish qobiliyatini takomillashtirish va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish
- b) o'yin malakalari va maxsus jismoniy sifatlarni takomillashtirish
- c) sport ustaligini oshirish va mashg'ulot nagruzkasini oshirish
- d) maxsus tayyorgarlik darajasini oshirish

6. Tayyorlov davrinnig vazifalari

- a) texnik-taktik sport ustaligini takomillashtirish, yangi o'yin malakalarini egallash
- b) musobaqada rejalshtirilgan muddatda sport formasini saqlash
- c) nagruzkani sekin-asta kamaytirish faol damga o'tish
- d) sportchini jismoniy va asab kuchlarini tiklash

7. Sport trenirovkasi vositalari

- a) umum tayyorlov, yordamchi, maxsus tayyorlov, musobaqa mashqlari

- b) amaliy mashq uslubi
- c) ruxiy, irodaviy sifatlarni tarbiyalash
- d) taktik fikrlash uchun maxsus sifatlarni tarbiyalash

8. Mashg'ulot mikrosikl xillari

- a) katta, o'rta, nagruzkalarmi kichik uzunligidagi
- b) taxminiy tayanch tayyorgarlik
- c) maxsus tayanch tayyorgarlik
- d) tayanch, musobaqa oldi, musobaqa

9. Sport mashg'ulotini yillik sikli nechta davrdan iborat?

- a) tayyorlov, musobaqa, o'tish davri
- b) nazariy, mahsus tayyorlov, tiklanuvchi davri
- c) umumiy jismoniy, texnik, taktik
- d) umumiy tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik

10. Mashg'ulotni tayyorgarlik davri qaysi bosqichlarga bo'linadi?

- a) jismoniy, oraliq, psixologik tayyorgarlik
- b) umumtayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, musobaqa oldi
- c) texnik, taktik, oraliq tayyorgarlik
- d) boshlang'ich o'rgatish, o'rgatishni davom etish

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Баскетбол. Теория и методика обучения / под.общ. ред. Д.С. Нестеровского. – М.: Akademiya, 2004. – 336 с.
2. Нестеровский Д.И. Теория и методика баскетбола // Учебное пособие для студентов вуза. – М.: “Akademiya”, 2010. – 336 с.
3. Портнов Ю.М. Баскетбол// Учебник для вузов физической культуры. – М: астра семь, 1997. – 480 с.
4. Pasulev A.T. Basketbol. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. O'zDJTI nashriyot bo'limi, 1998. - 278 b.
5. Спортивные игры: техника, тактика, методика обучения // Учеб. для студ. высш. для учеб. Заведения. Под ред. Ю.Д.Железняк, Ю.М.Портнова. – М.: Akademiya, 2004. - 520 с.

X BOB. BASKETBOLCHILAR TAYYORLASH JARAYONINI REJALASHTIRISH VA BOSHQARISH

10.1. Boshqaruv jarayoni haqida tushuncha

Sport mashg‘uloti sport mahoratini shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli pedagogik jarayon bo‘lib, o‘z ichiga nazariy, jismoniy, texnik-taktik va psixologik tayyogarlik turlarini biriktirgan bo‘ladi.

Sportchilar tayyorlash jarayonini boshqarishning strategik maqsadi – ko‘p yillik sport mashg‘iloti davomida shu sportchilarni ma’naviy-madaniy, ruhiy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning jismoniy, texnik-taktik va psixofunksional imkoniyatlarini tanlangan sport turi talablariga muvofiq shakllantirishga qaratiladi.

“Boshqaruv” tushunchasi sub‘yekt (murabbiy) ob‘yekta (sportchi) nisbatan muayyan mashqlarni qo‘llash asosida ta’sir etib, rejalashtirilgan maqsadga erishish ma’nosini anglatadi.

Ko‘p yillik sport trenirovksi jarayonida yuqori malakali basketbolchilar va basketbol jamoasini tayyorlash uzoq muddatli pedagogik jarayon bo‘lib, uni trener boshqaradi. Sportchilar tayyorlash jarayoniga murakkab dinamik tizum sifatida qaralib, uni boshqaruvchi sub‘yekt pedagog-murabbiy, boshqariluvchi ob‘yekt esa sportchilar, jamoa yoki o‘quv guruhlari bo‘lib hisoblanadi.

Sport tayyorgarligi tizimining murakkabligi shundan iboratki, u katta qismdagи bir-biri bilan bog‘langan va bir-biri bilan o‘zarо harakat qiladigan jarayolardan (texnik, taktik, psixologik va boshqa) iborat.

Sport tayyorgarligi natijasida sportchilarning bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishi kuzatiladi.

Sport tayyorgarligini boshqarishning asosiy farq qiladigan xususiyati shundan iboratki, bunda murakkab, o‘z-o‘zini boshqaruvchi odam ob‘yekti yotadi. Bu trenerga sportchining o‘zini boshqarish qobiliyatini har xil yo‘l bilan rivojlantirish vazifasini qo‘yadi. Sport tayyorgarligining samarasи sportchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zini boshqarish va o‘zini mukammallashtirish qobiliyatiga bog‘liq.

Murabbiy-sportchi-jamoja-murabbiy o'zaro uzviy tizimi doirasida olinadigan axborot-ma'lumotlar maqsadli boshqaruvga asos bo'lishi darkor.

Boshqaruvning asosiy vazifalari – mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkil qilish, nazorat qilish va qiyosiy tahlil qilish bilan ifodalanadi. Bularning hammasi boshqaruvning davriyligini va to'xtovsizligini ta'minlovchi yopiq xalqa hosil qilib, bir-biri bilan o'zaro harakat qiladi.

Boshqaruv jarayoni bir mashg'ulot davomida yoki bir hafta davomida, bosqichlarda esada yillik tayyorgarlik sikllari bo'ylab davom etadi.

Tayyorgarlikning asosiy shakllari. Basketbolchilar tayyorlashning asosiy shakllari sport mashg'ulotlari va musobaqalarda ishtirot etish jarayonlaridan iborat. Ular bir-biri bilan bog'langan, lekin shu bilan birgalikda boshqaruvning asosiy vazifalari mazmunini aniqlovchi o'ziga xos xususiyatlarga ega. SHu sababli tayyorgarlikni boshqarish 2 bo'limga bo'linadi:

1. Mashg'ulot jarayoni va musobaqa tayyorgarlik ko'rishni boshqarish.
2. Musobaqa jarayonida jamoani boshqarish.

10.2. Rejalahtirish va tayyorgarlik jarayoni

Boshqaruv jarayonining fundamental asosi (omili) rejalahtirishdir. U nafaqat butun tayyorgarlik jarayonining mazmunini, balki trenerning ish faoliyatini ham tartibga soladi. Rejalahtirish – bu kelajakni ko'ra bilish va uni oldindan aytib, bashorat qilishni bilish demakdir. Basketbolchilar va basketbol jamoalari faoliyatini rejalahtirish, o'rgatish va mashg'ulot mashqlari qonuniyatları, prinsiplari, uslub va vositalarini qo'llash texnologiyasiga asoslanishi lozim.

Basketbol – bu jamoa o'yini, shuning uchun rejalahtirish ham jamoa uchun ham o'yinchi uchun tuziladi. Basketbol ham boshqa jamoali sport o'yinlari turlariga o'xshab qarshi jamoa bilan kurashda nafaqat shaxsiy, balki jamoa o'yinlarining birgalikdagi harakatini mukammallashtirish xususiyati bilan ifodalanadi. Shu sababli texnik, taktik va o'yin tayyorgarligini maqsadli shakllantirish o'ta muhim shartlardan biridir. Tayyorgarlik turlariga

ajratiladigan vaqt taxminan quyidagicha taqsimlanadi: jismoniy tayyorgarlik- 20%, texnik- 30%, taktik, o'yin va musobaqa tayyorgarligi -50%.bu raqamlar o'yinchilarning yoshi, malakasi va tayyorgarlik darajasi, moddiy-texnik bazaning shart-sharoitlari va jamoa oldida turgan asosiy vazifalar e'tiborga olinadi. Ishlab chiqilgan rejalarga o'quv-mashg'ulot va musobaqa jarayonlarida qayd etiladigan real ko'rsatkichlar, kuzatuv hamda ilmiy-tadqiqot natijalar asosida maqsadli o'zgartirishlar yoki qo'shimcha tadbirlar kiritilishi darkor.

Har bir o'yinchi va jamoaga alohida istiqbol rejası (4 yilga), yillik reja, mezo va mikrosikllar rejaları (joriy reja, tezkor reja) tuzilishi lozim.

Rejalashtirilgan mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini o'zlashtirish samaradorligini ob'yektiv va asosli baholash uchun tayyorgarlik turlari bo'yicha erishilgan imkoniyatlar, me'yoriy testlar asosida nazoratdan o'tkazilib turilishi kerak.

Rejalashtirish turlari. Ko'p yillik sport trenirovksi uzoq muddatli pedagogik jarayon bo'lib, u turli davr va bosqichlarga mo'ljallangan o'ziga xos maqsadli rkjalashtiruv hujjatlari asosida boshqariladi.

Yuqorida qayd etilganidek, ko'p yillik tayyorgarlik jarayonini maqsadli boshqarish avvalom bor 4 yilga mo'jallangan strategik hujjat – istiqbol rejasida amalga oshiriladi.

Istiqbol rejası – bu jamoa va o'yinchilar sport mahoratini takomillashtirishga qaratilgan strategik dastur bo'lib, unda yillik tayyorgarlik siklining turli davr va bosqichlari uchun belgilangan real maqsad va vazifalar hal etiladi.

Jamoaning na'munaviy istiqbol rejası quyidagi tartibda tuzilishi mumkin:

1. Tayyorgarlikning maqsadi. Bunda asosiy musobaqalarda erishiladigan pirovard sport natijasi va mashg'ulot jarayoninig ustuvor yo'naliishlari loyihalashtiriladi.

2. Jamoa tarkibi va zaxira tarkibini tayyorlash. Ushbu yo'naliish bo'yicha jamoaning imkoniyati, jamoa tarkibini aniqlash va zaxira basketbolchilarni tayyorlash vazifalari hal etiladi.

3. Musobaqalarda ishtiroy etish. Bunda musobaqalarga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan vazifalar amalga oshiriladi. Asosiy va oraliq musobaqalarga tayyorlovchi modellashtirilgan

mashg'ulotlar tashkil qilinadi hamda ularda erishiladigan natijalar bashorat qilinadi.

4. Mashg'ulot yuklamalari. Mazkur yo'nalish bo'yicha real holat aniqlanadi va vazifalar qo'yiladi, tayyorgarlik yillari bo'yicha mashg'ulotlar yuklamalarining hajmi rejalashtiriladi.

5. Tayyorgarlikning davriyligi. Yillik tayyorgarlik sikli va tuzilishi bo'yicha vazifalar rejalashtiriladi. Tayyorgarlik davrlari, bosqichlari, ularning muddati va mazmuni belgilanadi.

6. Tayyorgarlik vositalari va darajasi. Vazifalar va har xil tayyorgarlik turlari bo'yicha mashg'ulotlar yo'nalishi rejalashtiriladi.

7. Hisobot, pedagogik va tibbiy nazorat. Nazorat sinovlari, tibbiy ko'rik va boshqa barcha nazorat muddatlari belgilanadi.

Jamoa istiqbol rejasining shakli 10-jadvalda berilgan.

10. I-jadval

Jamoa istiqbol rejasining shakli

T/r	Tayyorgarlik turlari	Dastlabki ko'rsatkichlar 2016	Rejadagi va amaldagi ko'rsatkichlar				Izohlar
			2017	2018	2019	2020	
			Reja Amal	Reja Amal	Reja Amal	Reja Amal	
1.	UJT: me'yoriy talablar bo'yicha						
2.	MJT: me'yoriy talablar bo'yicha						
3.	Texnik tayyorgarlik me'yoriy talablar bo'yicha						
4.	Yillik mashg'ulotlar hajmi						
5.	Musobaqalarda ishtirok etish soni va samaradorligi						

Individual istiqbol reja quyidagi tartibda ishlab chiqilishi mumkin:

1. Sportchining umumiy va antropometrik ko'rsatkichlari.
2. Sportchining barcha yo'nalishlar bo'yicha ko'rsatkichlari rejalashtiriladi: jamoadagi o'yin funksiyasi, jismoniy sifatlar, texnik, taktik, nazariy, psixofunksional tayyorgarlik dinamikasi loyihalashtiriladi.
3. Tayyorgarlikning maqsadi va vazifaları;
4. asosiy maqsad va tayyorgarlik yo'nalishi;
5. mashg'ulotlar hajmi bo'yicha vazifalar;
6. tayyorgarlik turlari bo'yicha vazifalar;
7. musobaqlarda ishtirok etish bo'yicha vazifalar;
4. Pedagogik va tibbiy nazorat natijalari: testlarni topshirish muddatlari belgilanadi.
5. 4 yilga tayyorgarlik turlari bo'yicha ko'rsatkichlar rejalashtiriladi.

10.3. Yillik rejalashtiruv hujjati

Yillik rejalashtiruv istiqbol rejasining asosiy tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu hujjatda rejalashtiriladigan tadbirlar tayyorgarlik davrlari va bosqichlari, ularning maqsadi, mohiyati, muddati hamda yo'nalishiga muvofiq loyihalashtiriladi.

Yillik tayyorgarlik 3 davrga – tayyorlov, musobaqa va o'tish davrlariga bo'linadi.

Tayyorlov davri – umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT), maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) va musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichlariga bo'linadi.

Musobaqa davri – mahalliy va asosiy (rasmiy) musobaqalar taqvimiga qarab mezo- hamda mikrosikl bosqichlariga ajratilishi mumkin.

O'tish davri – yillik tayyorgarlik va musobaqalar mavsumi yakunlanganidan to yangi mavsum – yangi tayyorgarlik sikli boshlangunga qadar davom etadi. O'yin davrida maxsus – ixtisoslashtirilgan yuklamalar hajmi imkonli boricha kamaytiladi. Bu davr shartli ravishda 3 bosqichga bo'linishi maqsadga muvofiq. Masalan: agar o'tish davri 30 kunni tashkil etsa, birinchi 10 kun davomida ixtisoslashtirilgan yuklamalar hajmi va shiddati sekin-asta

kamaytirilishi lozim. Ikkinchi 10 kunlikda ish qobiliyatini tiklovchi, sog' lomlashtiruvchi va chiniqtiruvchi vositalardan (boshqa sport turlariga xos mashqlar) foydalanish maqsadga muvofiq.

Uchinchi 10 kun davomida asta-sekin ish qobiliyatini faollashtiruvchi mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Umuman o'tish davrida asosiy e'tibor funksional imkoniyatlarni oshirish va bioenergetik resurslar zaxirasini jamlashga qaratilishi darkor.

Yillik rejalshtiruv hujjatlari asosida, tezkor rejalshtiruv hujjatlari ishlab chiqilishi zarur: ishchi reja, mashg'ulot bayonnomasi va mashg'ulot jadvali.

Ushbu tezkor rejalshtiruv hujjatlari yillik rejada loyihalashtirilgan barcha jarayonlarni yanada aniqlashtiradi va aksariyat hollarda joriy nazorat natijalariga ko'ra mashg'ulotlar hajmi, shiddati, mazmuni takrorlanishi va yo'naliishiga qisman yoki to'liq o'zgartirishlar, qo'shimcha rejalarни kiritish mumkin.

Yillik tayyorgarlik siklining yillik rejasida 4 yilga tuzilgan istiqbol rejasidan joy olgan barcha ko'rsatkichlar yanada aniqlashtiriladi.

Jamoa tayyorgarligini rejalshtirish uchun odatda o'quv rejasi, dasturi va o'quv mashg'ulot materiallarini o'zlashtirish jadvali tuziladi. Ushbu hujjatlarda aks ettiriladigan mashg'ulot yuklamasi, shiddati, yo'naliishi, takrorlanishi ham turli nazorat va rasmiy musobaqalar (nazorat, sinov, kubok musobaqalari, championatlar va h) yillik tayyorgarlik siklining barcha davrlari va bosqichlarida qo'yiladigan talablar doirasida rejalshtiriladi.

Dasturda quyidagilar e'tiborga olinishi darkor:

1. Nazariy tayyorgarlik: shug'ullanuvchilarining taktik tayyorgarligi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar darajasi (hajmi);
2. Shug'ullanuvchilar erishadigan jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik va texnik mahorat (me'yoriy talablar bo'yicha);
3. Nazariy mashg'ulotlar mazmuni va yo'naliishi;
4. Tayyorgarlik turlari bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar mazmuni va yo'naliishi.

Dasturda har bir bosqich va davrlarga hamda musobaqaoldi tayyorgarlik sikllari bo'yicha qo'yiladigan maqsad va vazifalar o'zining aniq ifodasini topishi lozim.

Dasturni tuzilishi. Dasturda dastavval qisqacha muqaddima yoki tushuntirish xati beriladi. Unda shug'ullanuvchi haqida ma'lumotlar (bo'yli, vazni, yoshi, o'yin ampulasi va h.) keltiriladi.

So'ngra o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uslublari, vositalari tayyorgarlik turlari bo'yicha ko'rsatib o'tiladi. Yangi ilg'or innovation texnologiyalardan foydalanish, samarali taktik kombinatsiyalarni ishlab chiqish va qo'llash choralar belgilanadi.

Barcha tayyorgarlik turlari bo'yicha mashg'ulotlarga ajratiladigan yuklama hajmi, shiddati, yo'nalishi tabaqlashtirilgan holda aks ettiriladi.

Basketbolchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi (1 razryad, sport ustasi) mo'ljallangan me'yoriy, model va real talablar hamda test sinovlari turlari belgilanadi.

Bundan tashqari har bir shug'ullanuvchiga alohida individual reja ishlab chiqiladi.

Mazkur reja quyidagi tartibda ishlab chiqilishi mumkin:

1. Shaxsiy ma'lumotlar.
2. Sport-texnik ko'rsatkichlar.
3. Maqsadi va vazifalari.
4. Tayyorgarlik turlari bo'yicha erishiladigan ko'rsatkichlar.
5. Tayyorgarlik jadvali.
6. Tibbiy-biologik nazorat.

Joriy rejalahtirish. Joriy rejalahtirish alohida bosqichlarga yoki muddatlarga tuziladi. Joriy rejalahtirish o'z ichiga ishchi reja, grafik, trenirovka mashg'ulotining reja-bayonnomasi va mashg'ulot jadvalini kiritadi (11,12 va 13-jadvallar).

10.2-jadval

O'quv-mashg'ulot jarayoni ishchi rejasining shakli

Mashg'ulotning tartib raqami	Sana	Vaqti	Mashg'ulot mazmuni	Miqdorlash		Uslubiy ko'rsatmalari
				Hajm bo'yicha	SHiddat bo'yicha	

Yillik tayyorgarlik grafiginin shakli

	Sikllar	Tayyorlov	Kuzgi-qishki	Bahorgi-yozgi
Tayyorgarlik davrlari	Davrilar Bosqichlar		Musobaqa	O'tish
Musobaqlar	Oylar Rasmiy			
Mashg'ulot yig'lnlari	Nazorat			
Mashg'ulot yuklamalari	Hajmi	Ish kunlari soni Mashg'u lot kunlari soni Musobaqa kunlari soni Mashg'ulotlar soni: individual jamoaviy		
Tayyorgarlik vositalari	Shiddati	Mashg'u lotlar tayyorgarlik turlari bo'yicha jismony texnik- taktik o'yin musobaqa o'ta yuksak	Mashg'ulot soni o'ta yuksak	

10.4-jadval

Mashg‘ulot bayonnomasi shakli

Mashg‘ulot qismlari	Mazmuni	Miqdorlash	Tashkiliy-uslubiy ko‘rsatmalar

10.4. Pedagogik va tibbiy-biologik nazorat

Sportchilar tayyorlash jarayonini samarali boshqarish puxta ishlab chiqilgan rejalashtiruv hujjat (dastur)lariga bog‘liqligi isbot talab qilmaydi, lekin rejalashtiruv hujjatlarini puxta ishlab chiqilishi ustuvor jihatdan pedagogik va psixofiziologik nazorat natijalariga asoslanishi shart. Binobarin, ko‘p yillik tayyorgarlik davomida yuqori malakali sportchilar tarbiyalash jarayonini boshqarishda nazorat sinovlarini muntazam o‘tkazish va olingan natijalarga asoslanish zamonaviy sport amaliyotining muhim hamda ustuvor shartlaridan biridir.

Murabbiyning faoliyatida boshqarish funksiyasi “trener (sub‘yekt) – sportchi (ob‘yekt) – murabbiy (ob‘yekt)” shaklidagi uzviy bog‘langan tizim asosida amalga oshirilishi darkor. Ushbu tizimda murabbiyning kasbiy-pedagogik faoliyati (KPF) quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi tavsiya etiladi. O‘quv-mashg‘ulot va musobaqa jarayonlarini nazorat qilishda quyidagi uslublardan foydalanish mumkin:

8. mashg‘ulot va musobaqa jarayonini video tasvirga tushirish, stenografik usulda tahlil qilish, xronometraj olib borish;

9. jismoniy sifatlar, texnik-taktik tayyorgarlikni test sinovlari yordamida baholash;

10. kuzatish va texnik-taktik mahoratni ekspert usulida baholash;

11. psixologik sifatlar (reaksiya, ko‘rish kengligi, vaqt-oraliqni his qilish, xotira, diqqat, fikrlash, iroda va h.) va emosional –motivasion faollilikni maxsus testlar asosida aniqlash;


12. funksional imkoniyatlar (nafas, yurak faoliyati, qon bosimi, analizatorlar va h.)ni maxsus testlar yordamida aniqlash.

Mazkur nazorat tadbirlarini amalga oshirishda zaxiradagi o‘yinchilar, yordamchi trenerlar, ilmiy xodimlar, psixologlar va


shifokorlarning hamkorlikdagi faol ko'magi alohida ahamiyat kasb etadi.

Murabbiy o'zining boshqaruv faoliyatida ushbu nazorat natijalari, ularni qiyosiy tahlili va berilgan tavsiyalardan unumli foydalanishi darkor.

10.1 va 10.2-andozalarda basketbolchilar tayyorlash jarayonini boshqarishda asoslanadigan omillar hamda rejalashtirish hujjatlarining turlari aks ettirilgan. 10.5-jadvalda o'quv-mashg'ulot jarayonini nazorat qilish uslublari va me'yoriy testlari berilgan.



10.1-andoza



10.2-andoza

10.5-jadval

O'quv-mashg'ulot jarayonini nazorat qilish uslublari va me'yoriy testlari

Me'yoriy testlar	Nazorat vositalari
Pedagogik uslublar	
1. 30 mga yugurish	Sekundomer
2. Joydan vertikal sakrash	Belga boylangan o'lchov lentasi
3. Yugurib kelib vertikal sakrash	Basketbol shchitidagi o'lchov-shkala
4. To'p bilan va to'psiz mokkisimon yugurish: 5,80 ↔ 5,80 → 14,00 ↔ 8,20 → 16,40 ↔ 8,20 → 14,00 ↔ 28,00 m	Sekundomer
5. To'ldirma to'pni (1 kg) bosh ortidan ikki qo'llab uloqtirish	Sekundomer
	To'ldirma to'p
Fiziologik uslublar	
1. YUQCH – 60 sek/marta	Sekundomer
2. NOCH – 60 sek/marta	Sekundomer
3. Nafas olib, nafas chiqarish	Sekundomer
Psixologik uslublar	
1. Sekundomer strelkasini ko'zni yumib «0» da to'xtatish	Sekundomer
2. Dinamometrda maksimal bilak kuchining 50% ni ko'zni yumib ko'rsatish	Dinamometr

Reyting-nazorat va bilimni baholash testlari:

- 1. Basketbolchilar sport trenirovkasini davrlash deganda nimani tushunasiz?**
 - a) sport mahoratini oshirish uchun jismoniy, texnik tayyorgarlikni qo'llash
 - b) jamoani sport formasini holatini yuqoriga ko'tarish asosiy musobaqalar boshida trenirovka jarayonini taqsimlashni ilmiy asoslash
 - c) yil davomida mashg'ulotda jismoniy, texnik, taktik taqsimlashni almashtirib foydalanish
 - d) nazorat o'yinlar, matchli uchrashuvlar va turnirlarni vaqtiga vaqtiga bilan o'tkazish
- 2. Sport trenirovkasini yillik sikli nechta davrdan iborat?**
 - a) tayyorlov, musobaqa, o'tish davri
 - b) nazariy, mahsus tayyorlov, tiklanuvchi davri
 - c) umumiy jismoniy, texnik, taktik
 - d) umumiy tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik
- 3. Trenirovkani tayyorgarlik davri qaysi bosqichlarga bo'linadi?**
 - a) jismoniy, oraliq, psixologik tayyorgarlik
 - b) umumtayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, musobaqa oldi
 - c) texnik, taktik, oraliq tayyorgarlik
 - d) boshlang'ich o'rgatish, o'rgatishni davom etish
- 4. Basketbol bo'yicha BO'SM dasturiga asoslanib o'quv guruhni to'g'ri nomlanishini aniqlash?**
 - a) boshlang'ich tayyorlov, o'quv trenirovka, sport takomillashuvi
 - b) o'g'il bolalar, qiz bolalar, o'smir, o'spirin
 - c) boshlang'ich guruh, razryadli guruh (III, II, I.)
 - d) 12 yoshgacha, 14 yoshgacha, 16 yoshgacha, 18 yoshgacha
- 5. Sport tayyorgarligini tayyorlov davri necha bosqichdan iborat?**
 - a) ikkitadan
 - b) beshtadan
 - c) uchtadan
 - d) to'rtadan
- 6. Basketbolchilar tezkor chidamkorligini aniqlashda qaysi testdan foydalilanadi?**
 - a) 30 m.ga yugurish

b) 60 m.ga yugurish

c) "mokkisimon" va "archasimon" yugurish

d) maydon diagonali bo'yicha yugurish

7. Tayyorgarlikni yillik sikli necha davrdan iborat?

a) to'rttadan

b) ikkitadan

c) uchtadan

d) beshtadan

8. Tayyorgarlikni yillik sikli necha bosqichdan iborat?

a) to'rttadan

b) ikkitadan

c) oltitadan

d) beshtadan

9. Musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichi qaysi davrga kiradi?

a) musobaqa davri

b) ko'rsatmali

c) tayyorlov

d) o'tish

10. Musobaqaga jamoani tayyorlashda tezkor reja qanday nomlanadi?

a) strategik reja

b) prognostik reja

c) ko'p yillik reja

d) istiqbol reja

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нестеровский Д.И. Теория и методика баскетбола // Учебное пособие для студентов вуза. – М.: "Akademiya", 2010. – 336 с.
2. Портнов Ю.М. Баскетбол// Учебник для вузов физической культуры. – М: астра семь, 1997. – 480 с.
3. Pasulev A.T. Basketbol. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. O'zDJTI nashriyot bo'limi, 1998. - 278 b.
4. Родин А.В., Губа Д.В. Баскетбол в университете. Теоретическое и учебно-методической обеспечение системы подготовки. – М.: Советский спорт, 2009. – 168 с.
5. Morgan Wootten. Coaching basketball successfully / Morgan Wootten with Dave Gilbert - 2nd ed. USA: Human Kinetics. 2003. – 225 p.

XI BOB. TURLI YOSH GURUHLARIGA MANSUB BASKETBOLCHILAR TAYYORLASH XUSUSIYATLARI

Sport mashg'uloti har bir tayyorgarlik guruhiiga moslashtirilgan meyoriy talablar va rejalashtiruv hujjatlari asosida boshqariladi. Boshqaruv tushunchasi-sub'yekt (boshqaruvchi-o'qituvchi, trenir va h.)ni ob'ektga shug'ullanuvchilar ma'lum mashqlar, texnologik vositalar, uslub va prinsplar asosida ta'sir etib, dastlab belgilangan reja-maqсадga mos amaliy natijaga crishishni anglatadi.

Ko'p yillik sport trenirovkasi uzoq muddatli pedagogik jarayon bo'lib, muayyan yosh guruhlariда o'ziga xos dastur asosida mashg'ulotlar o'tkazish bilan ifodalanadi.

Ushbu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- sog'lomlashtrish guruhi - 7-8 yosh;
- dastlabki tayyorgarlik guruhi - 8-10, 10-11, 11-12 yosh;
- o'quv-mashg'ulot guruhi - 12-13, 13-14, 14-15, 15-16, 16-17 yosh;

- takomillashuv guruhi - 17-18, 18-19, 19-20 yosh;

- yuqori sport mahorati guruhi -17 va undan katta yosh.

Shug'ullanuvchi bolalarning nasliy va hayot davomida o'zlashtirilgan jismoniy, psixologik va morfofunksional imkoniyatlariiga qarab, ular kichik yosh guruhidan katta yosh guruhiга o'tkaziladi.

Bolalarni guruhlarga qabul qilish va ularni bir guruhdan ikkinchi guruhga ko'chirish me'yoriy test sinovlari natijalari asosida amalga oshiriladi.

Barcha guruhlarda o'tkaziladigan o'quv-mashg'ulot jarayoni quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilishi darkor:

13.sog'liqni mustahkamlash, chiniqtirish, jismoniy, psixologik va morfofunksional imkoniyatlarni shakllantirish;

14.hayotiy zarur harakat ko'nikmalarini (o'tirish-turish, yurish-yugurish, sakrash, siljish-to'xtash, tortilish va h.) takomillashtirish;

15.jismoniy sifatlarni (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik) taraqqiy ettirish;

16. basketbolga oid maxsus sifatlarni (sakrovchanlik, sakrovchanlik chidamkorligi, tezlik-kuch, o'yin chidamkorligi, diqqat, xotira, iroda, zukkolik va h.) shakllantirish;

17. texnik va taktik malakalarga o'rgatish va ularni takomillashtirish;

18. o'yin mahoratini o'quv o'yini va musobaqlarda oshira borish.

O'quv-mashg'uloti jarayonida va akademik darslarda beriladigan jismoniy va texnik mashqlar o'z hajmi, shiddati, murakkabligi va qaytarilish soni jihatlaridan turli yoshdagi va jinsdag'i bolalarning funksional hamda jismoniy imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda me'yoranishi kerak.

O'rgatish jarayonida qo'llaniladigan jismoniy va texnik-taktik mashqlarning to'g'ri taqsimlanishi malakali basketbolchilar tayyorlash samarasini belgilaydi.

Boshlang'ich o'rgatish jarayonida mashqlarning aksariyat foizi bolalarning jismoniy va funksional tayyorgarligini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak, qolgan qismi esa texnik-taktik malakalarni o'zlashtirishga mo'ljallangan bo'lishi muhim shartlardan biridir. Bu bosqichda turli harakatli o'yinlar, shu jumladan, basketbol o'yiniga ixtisoslashtirilgan harakatli o'yinlarning qo'llash tayyorgarlik jarayonin samarali tashkil qilishga yordam beradi. Bunday harakatli o'yinlar o'rgatish va takomillashtirish jarayonining barcha bosqichlarda qo'llanalishi maqsadga muvofiq.

Takomillashtirish bosqichida asta-sekin umumiyy jismoniy mashqlar foizi qisqartiriladi, maxsus jismoniy mashqlar va texnik-taktik mashqlar foizi esa ancha ortadi. Mashqlarning hajmi biroz kamaytirilib shiddati va qaytarilish soni oshirib boriladi.

Ko'nikmalarni mukammallashtirish (mustahkamlash) bosqichida mashqlarni ijro etish shiddati musobaqa darajasiga yetkazilishi lozim. Bu bosqichda aksariyat musobaqa mashqlari turli o'yinlar vazifasiga mos ravishda qo'llanilishi katta ahamiyatga ega. Har bir o'yin malakasini (to'pni urib yugurish, uzatish, ilish, savatga tashlash va h.) turli usullarda ijro etishga o'rgatish, masalan, to'p urib yugurishni o'ng va chap qo'lda nisbatan bir xilda bajara olish o'yin malakalarini ijro etish doirasini kengaytiradi va harakat zaxirasini boyitadi.

O'rgatishni takomillashtirish jarayonida o'yin malakalarini uzoq vaqt davomida jismoniy, texnik-taktik jihatdan tez, kuchli, chaqqon, aniq va vaziyatga mos samarali ijro etishni ta'minlash uchun aksariyat xollarda mashqlar charchash asoratlari mavjud hollarda bajariladi. Lekin bunday mashg'ulotlarda nihoyatda extiyotkorlik bilan qo'llanilishi darkor. Chunki me'yоридан оrtiq yuklama (nagruzka) bola organizmini zo'riqishga, jarohat olishga yoki patologik holatlarga duchor qilishi mumkin.

Yosh basketbolchilarni tayyorlashda ularni psixologik sifatlarini ham parallel tarzda shakllantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, basketbol o'yinida yoki o'yinning ayrim vaziyatlarida muvaffaqiyatga erishish barcha sifat, mahorat va qobiliyatlarni yuqori taraqqiy etganligi bilan bir qatorda tez fikrlash, tahvil qilish, farqlay bilish, to'g'ri baholash, diqqat, xotira, oldindan sezish (ansipasiya), iroda, zukkolik hamda "ayyorlik" xislatlarining shakllangan bo'lishini talab qiladi.

Iste'dodli yosh basketbolchilarni tayyorlash samaradorligi ko'п jihatdan sport to'garaklari va sport maktablariga qabul qilishda tanlov jarayonini maqsadga muvofiq tashkil qilishga bog'liq bo'ladi.

O'quv-mashg'ulot jarayonida murabbiy o'z rahbarligi ostida shug'ullanayotgan turli yoshga mansub guruh a'zolari tarkibidan qobiliyatli, boshqalarga o'mak bo'ladigan bolalarni tanlab olish va ularni o'ziga faol yordamchi qilib tayyorlashi nafaqat mashg'ulotlar samaradорligini oshiradi, balki sport intizomi, umuman ta'limtarbiya jarayonini maqsadga muvofiq tashkil qilishga yordam beradi. Ushbu masalaning yana bir ahamiyatili joyi shundaki, ommaviy basketbolni tashkil qilishda iste'dodli bolalarni izlab topish, turar joylarda-mahallalardagi bolalarni basketbolga jalb qilish, musobaqalar tashkil qilish, me'yoriy mashq-testlari hamda "Alpomish va Barchinoy" testlarini qabul qilishda alohida o'r'in egallaydi.

Har bir murabbiyni sport to'garagi va sport maktablarida o'quv-trenirovka jarayonini maqsadga muvofiq tashkil qilishi uchun shug'ullanuvchi bolani ta'lim olayotgan maktabi, o'qituvchilar va ota-onalari bilan hamkorlikda ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, murabbiy mashg'ulotlarni samarali olib borishi, shug'ullanuvchi bolaning mashqlarni o'zlashtirishi, uni mahoratini shakllanishi shu bolani mакtab va uydagi ahvoli, kayfiyati,

dunyoqarashi, qiziqishi hamda hislat va boshqa omillarga bog'liqdir.

Ma'lumki, shug'ullanuvchi bolani o'quv- mashg'ulot jarayonida mashqlarni ongli tushungan holda ijro etishi, yuklamani qanday ijro etayotganligini sezish, malaka va ko'nikmalarni hamda o'yin sirlarini mukammal o'zlashtira olishi ko'p jihatdan uning nazariy-intelektual tayyorligiga ham aloqadordir. Demak har bir murabbiy o'z rahbarligi ostida shug'ullanayotgan bola haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lishi shu bolani nafaqat malakali sportchi qilib etishtirishga yordam beradi, balki uni ma'naviy-madaniy jihatdan etuk inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Quyidagi jadvallarda turli yosh guruhlariaga rejalashtiriladigan tayyorgarlik turlari va yuklamalar hajmi berilgan:

11.1-jadval

Sog'lomlashtirish guruhlari – 7-8 yosh

No	Tayyorgarlik turlari	Yuklamalar hajmi
1.	Nazariy tayyorgarlik	4
2.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	180
3.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	10
4.	Texnik tayyorgarlik	80
5.	Taktik tayyorgarlik	6
6.	Integral tayyorgarlik	-
7.	Hakamlik amaliyoti	8
8.	Musobaqa	14
9.	Nazorat savollari	8
Jami		312

Shug'ullanuvchi bolalarning yoshi, o'rgatish va takomillashtirish bosqichi hamda guruhlarning nomiga qarab, nazariy va amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan o'quv soatlari "pastdan", "yuqoriga" qarab taqsimlanadi.

Sog'lomlashtirish va dastlabki tayyorgarlik guruhlarda umumiy jismoniy tayyorgarlik eng ko'p soatlari hajmini, maxsus jismoniy tayyorgarlik kamroq, texnik - yana kamroq va eng kam soatlari hajmini taktik tayyorgarlik egallaydi. Keyingi guruhlarda


mashg'ulotlar hajmi borgan sari ixtisoslashuvga qarab yo'naltiriladi. Ya'ni maxsus jismoniy tayyorgarlik soatlar bo'yicha ustun bo'ladi, texnik va taktik mashqlar hajmi ortib boradi.

11.2-jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi

No	Mashg'ulotlar mazmuni	1 yil 9-11 yosh	2 yil 10-12 yosh
1.	Nazariy tayyorgarlik	8	18
2.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	131	124
3.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	76	64
4.	Texnik tayyorgarlik	107	99
5.	Taktik tayyorgarlik	38	51
6.	Integral (o'yin) tayyorgarlik	38	40
7.	Nazorat test mashqlari soni	18	20
	Jami	416	416
8.	Mashg'ulot kunlari soni	194	188
9.	Mashg'ulotlar soni	208	208
10.	Musobaqa kunlari soni	14	20

Aynan shu tamoyil sport mashg'ulotining bosqich va davrlarida qo'llanilishi zarur. Jumladan, tayyorgarlik davrining umumiy jismoniy tayyorgarlik bosqichi (1-bosqich), maxsus jismoniy tayyorgarlik (2-bosqich) va musobaqa oldi bosqich (3-bosqich) larida mashg'ulotlarning hajmi va shiddatining nisbati sekin-asta o'zgarib boradi. Ya'ni 1-bosqichga yuklama hajmi ko'p, shiddati esa sekin bo'ladi, 2- va 3-bosqichlarda bu ikki ko'rsatkichning "joyi" o'zgarib boradi. Boshqacha qilib aytganda musobaqa davriga yaqinlashgan sari mashqlar hajmi kamayib, shiddati esa maksimal darajaga ko'tariladi. 11.1-andozada basketbolchilar tayyorlashning tashkiliy ishlari, 20-jadvalda esa basketbolchilar o'quv guruhlari va mashg'ulotlar hajmi keltirilgan.



11.1-andoza. Basketbolchilar tayyorlashning tashkiliy shakllari

Yosh basketbolchilar o'quv guruhlari va ularda o'tkaziladigan mashg'ulotlar hajmi

O'quv yili	Yoshi	Haftalik	Yillik	Shug'ullanuvchi soni	Soni			Yillik umumiy yuklama hajmi
					Yillik mashg'ulotlar soni	Yillik mashg'ulotlar kuni	Musobaqalar kuni	
Boshlang'ich tayyorgartlik guruhi								
1	9	6	288/24	20	144	144	12	312
2	10	6	288/24	18	144	144	12	312
3	11	8	376/40	16	188	188	15	416
O'quv-mashg'ulot guruhi								
1	12	10	472/48	12	196	184	24	520
2	13	12	556/68	12	240	226	34	624
3	14	16	788/88	12	260	216	44	832
4	15	18	886/150	12	308	216	50	936
5	16	20	986/162	12	320	216	54	1040
Sport takomillasuvli guruhi								
1	17	22	1084/180	12	360	220	60	1144
2	18	24	1183/195	12	400	220	65	1248
3	19	28	1386/210	12	460	220	70	1456

11.4-jadval

O'quv-trenirovka guruhi 1 yil - 13 -14 yosh

№	Mashg'ulotlar mazmuni	Yil davomida	Tayyorgarlik davri				M-qadavri	O'tish davri	Tayyorgarlik davri				M-qadavri	O'tish davri
			Jami	I	II	III			jami	I	II	III		
1.	Nazariy tayyorgarlik	26	7	3	4	-	4	-	8	-	-	8	7	-
2.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	121	46	22	16	8	13	10	25	8	9	8	7	20
3.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	89	29	7	14	8	24	-	18	4	6	8	14	4
4.	Texnik tayyorgarlik	120	35	8	15	12	39	6	18	4	6	8	14	8
5.	Taktik tayyorgarlik	60	14	3	7	4	26	-	9	2	3	4	11	-
6.	Integral tayyorgarlik	69	30	8	14	8	11	4	12	2	6	4	4	8
7.	Uslubchi va hakamlik amaliyoti	11	-	-	-	-	7	-	-	-	-	-	4	-
8.	Nazorat test mashqlari sinovi	24	9	9	-	-	6	-	-	-	-	-	6	-
	Jami	520	170	60	70	40	130	20	90	20	30	40	70	40
9.	Mashg'ulot kunlari soni	184	62	24	28	10	46	8	30	8	12	10	24	16
10.	Mashg'ulotlar soni	208	68	24	28	16	52	8	36	8	12	16	28	16
11.	Musobaqa kunlari soni	24	6	-	-	6	8	-	6	-	-	6	4	-

240

11.5-jadval

O'quv-trenirovka guruhi 2 yil- 14-15 yosh

№	Mashg'ulotlar mazmuni	Yil davomida	Tayyorgarlik davri				M-qadavri	O'tish davri	Tayyorgarlik davri				M-qadavri	O'tish davri
			jami	I	II	III			jami	I	II	III		
1.	Nazariy tayyorgarlik	34	9	-	7	2	9	-	8	-	-	8	8	-
2.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	140	53	24	21	8	13	16	19	6	9	4	7	32
3.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	103	35	9	14	12	36	-	18	4	6	8	14	-
4.	Texnik tayyorgarlik	141	36	12	14	10	45	4	27	6	9	12	21	-
5.	Taktik tayyorgarlik	85	31	9	14	8	26	-	18	4	6	8	10	-
6.	Integral tayyorgarlik	81	31	9	14	8	13	4	18	4	6	8	7	8
7.	Uslubchi va hakamlik amaliyoti	16	-	-	-	-	8	-	-	-	-	-	8	-
8.	Nazorat test mashqlari sinovi	24	9	9	-	-	6	-	-	-	-	-	9	-
	Jami	624	204	72	84	48	156	24	108	24	36	48	84	48
9.	Mashg'ulot kunlari soni	174	58	24	26	8	42	8	28	8	10	10	22	16
10.	Mashg'ulotlar soni	208	68	24	28	16	52	8	36	8	12	16	28	16
11.	Musobaqa kunlari soni	34	10	-	2	8	10	-	8	-	2	6	6	-

241

11.6-jadval

O'quv-trenirovka guruhi 3 yil -15-16 yosh

№	Mashg'ulotlar mazmuni	Yil davomida	Tayyorgarlik davri				M-qadavri	O'tish davri	Tayyorgarlik davri				M-qadavri	O'tish davri
			jami	I	II	III			jami	I	II	III		
1.	Nazariy tayyorgarlik	38	15	4	7	4	7	-	8	1	3	4	8	-
2.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	139	42	14	24	4	15	16	23	9	9	5	7	36
3.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	126	36	6	18	12	47	-	22	4	6	12	21	-
4.	Texnik tayyorgarlik	171	43	6	21	16	58	6	27	6	9	12	25	12
5.	Taktik tayyorgarlik	116	32	6	14	12	45	-	25	4	9	12	14	-
6.	Integral tayyorgarlik	136	45	12	21	12	30	8	27	6	9	12	14	12
7.	Uslubchi va hakamlik amaliyoti	24	-	-	-	-	17	-	3	-	-	3	4	-
8.	Nazorat test mashqlari sinovi	30	12	12	-	-	6	-	-	-	-	-	12	-
	Jami	780	60	60	105	60	225	30	135	30	45	60	105	60
9.	Mashg'ulot kunlari soni	164	16	16	28	8	42	8	28	8	10	10	18	16
10.	Mashg'ulotlar soni	312	24	24	42	24	90	12	54	12	18	24	42	24
11.	Musobaqa kunlari soni	44	-	-	-	8	18	8	8	-	2	6	10	-

242

11.7-jadval

O'quv-trenirovka guruhi 4 yil -16-17 yosh

№	Mashg'ulotlar mazmuni	Yil davomida	Tayyorgarlik davri				M-qadavri	O'tish davri	Tayyorgarlik davri				M-qadavri	O'tish davri
			jami	I	II	III			jami	I	II	III		
1.	Nazariy tayyorgarlik	46	32	12	16	4	15	8	18	8	6	4	7	12
2.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	92	9	2	7	-	13	-	16	2	6	8	8	-
3.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	141	38	5	21	12	45	4	25	4	9	12	21	8
4.	Texnik tayyorgarlik	235	61	13	28	20	73	14	31	6	9	16	28	28
5.	Taktik tayyorgarlik	164	49	12	21	16	60	-	27	6	9	12	28	-
6.	Integral tayyorgarlik	198	69	16	33	20	45	10	36	8	12	16	14	26
7.	Uslubchi va hakamlik amaliyoti	30	-	-	-	-	13	-	9	2	3	4	8	-
8.	Nazorat test mashqlari sinovi	30	12	12	-	-	6	-	-	-	-	-	12	-
	Jami	936	270	72	126	72	270	36	162	36	54	72	126	72
9.	Mashg'ulot kunlari soni	158	52	16	28	8	40	8	28	8	12	8	14	16
10.	Mashg'ulotlar soni	364	105	28	49	28	105	14	63	14	21	28	49	28
11.	Musobaqa kunlari soni	50	8	-	-	8	20	-	8	-	-	8	14	-

243

11.8-jadval

Sport takomillashuvi guruhi 1 yil -16-18 yosh

№	Mashg'ulotlar mazmuni	Yil davomida	Tayyorgarlik davri				M-qadavri	O'tish davri	Tayyorgarlik davri				M-qadavri	O'tish davri
			jami	I	II	III			jami	I	II	III		
1.	Nazariy tayyorgarlik	52	10	1	5	4	18	-	12	-	4	8	12	-
2.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	120	39	12	15	12	34	8	24	9	7	8	7	8
3.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	163	36	-	15	12	59	8	27	6	9	12	21	12
4.	Texnik tayyorgarlik	272	62	17	25	20	85	18	36	8	12	16	35	36
5.	Taktik tayyorgarlik	271	59	14	25	2	94	14	36	8	12	16	28	40
6.	Integral tayyorgarlik	298	91	28	35	28	97	-	68	16	24	28	42	-
7.	Uslubchi va hakamlik amaliyoti	36	-	-	-	-	15	-	13	1	4	8	8	-
8.	Nazorat test mashqlari sinovi	36	15	15	-	-	6	-	-	-	-	-	15	-
	Jami	1248	312	96	120	96	408	48	216	48	72	96	168	96
9.	Mashg'ulot kunlari soni	223	54	20	18	16	78	12	29	10	13	16	26	24
10.	Mashg'ulotlar soni	354	105	36	45	24	102	12	69	18	27	24	42	24
11.	Musobaqa kunlari soni	60	10	-	2	8	24	-	10	-	2	8	16	-

244

11.9-jadval

Sport takomillashuvi guruhi 2 yil -17-19 yosh

№	Mashg'ulotlar mazmuni	Yil davomida	Tayyorgarlik davri				M-qadavri	O'tish davri	Tayyorgarlik davri				M-qadavri	O'tish davri
			jami	I	II	III			jami	I	II	III		
1.	Nazariy tayyorgarlik	60	12	4	8	-	21	-	12	2	6	4	15	-
2.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	120	41	12	24	5	29	11	20	6	6	8	7	12
3.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	163	50	9	21	20	47	17	26	5	9	12	8	15
4.	Texnik tayyorgarlik	265	70	12	34	24	90	10	30	8	10	12	29	36
5.	Taktik tayyorgarlik	262	60	9	27	24	96	10	30	8	10	12	33	33
6.	Integral tayyorgarlik	302	64	11	30	23	100	-	85	18	27	40	53	-
7.	Uslubchi va hakamlik amaliyoti	40	-	-	-	-	19	-	13	1	4	8	8	-
8.	Nazorat test mashqlari sinovi	36	15	15	-	-	6	-	-	-	-	-	15	-
	Jami	1248	312	72	144	96	408	48	216	48	72	96	168	96
9.	Mashg'ulot kunlari soni	218	54	20	18	16	75	12	29	10	13	16	24	24
10.	Mashg'ulotlar soni	354	105	36	45	24	102	12	69	18	27	24	42	24
11.	Musobaqa kunlari soni	65	10	-	2	8	27	-	10	-	2	8	18	-

245

11.10-jadval

Sport takomillashuvu guruhi 3 yil -19-20 yosh

№	Mashg'ulotlar mazmuni	Yil davomida	Tayyorgarlik davri			M- qa davri	O'tish davri	Tayyorgarlik davri			M- qa davri	O'tish davri	
			Jami	I	II			Jami	I	II			
1.	Nazariy tayyorgarlik	64	14	1	9	4	23	-	12	2	8	15	-
2.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	149	46	12	22	12	40	10	25	6	9	10	12
3.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	193	55	11	24	20	62	14	25	4	9	12	12
4.	Texnik tayyorgarlik	347	90	24	46	20	102	18	57	14	21	22	40
5.	Taktik tayyorgarlik	338	80	15	37	28	110	18	51	10	17	24	40
6.	Integral tayyorgarlik	387	90	12	42	36	142	-	87	18	28	41	68
7.	Uslubchi va hakamlik amaliyoti	46	-	-	-	-	25	-	13	6	4	3	8
8.	Nazorat test mashholari sinovi	36	15	15	-	-	6	-	-	-	-	15	-
	Jami	1560	390	90	180	120	510	60	270	60	90	120	210
9.	Mashg'ulot kunlari soni	221	59	15	28	16	72	12	39	10	13	16	22
10.	Mashg'ulotlar soni	446	114	30	60	24	170	12	74	20	30	24	42
11.	Musobaqa kunlari soni	70	10	-	2	8	30	-	10	-	2	-	20

Reyting-nazorat va bilimni baholash testlari:

1. Mashg'ulot mashqi turlari.

- a) match uchrashuvlari, birinchiliklar, championatlar, kubok musobaqlari.
- b) yakka guruhli shakldagi mashg'ulotlari aylanma trenirovka.
- v) yondoshtiruvchi, asosiy klassifikatsion.
- g) o'quv trenirovka yig'inlari.

2. Rejalashtirishning asosiy turlari.

- a) istiqbolli, yillik (joriy) jongovar.
- b) musobaqa jamoani boshqarish.
- v) trenirovka nagruzkasini rejalashtirish.
- g) o'yin rejasini tuzish.

3. Yosh basketbolchilarni tayyorlashning nechta bosqichi bor?

- a) 3
- b) 4
- v) 5
- g) 6

4. 10-12 yoshli bolalar jismoniy tayyorgarligi yo'nalishlari qanaqa?

- a) to'g'ri muvozanat, tezkor harakatlanish.
- b) tezkorlikni oshirish, harakatlar, tezlashish.
- v) maxsus basketbol mashqlari, chaqqonlik va kuch.
- g) kuch mashqlari

5. Boshlang'ich tayyorgarlik guruxlari uchun yoshlar bo'yicha taqsimlash.

- a) 7-9 yosh
- b) 10-12 yosh
- v) 12-14 yosh
- g) 14-16 yosh

6. O'quv trenirovka guruxlari uchun yoshlarning taqsimlanishi.

- a) 7-10
- b) 10-12
- v) 13-15
- g) 14-16

7. Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlari uchun o'quv-mashg'ulot mashqlarini davomiyligi vaqt qancha?

- a) 30 soniya.
- b) 60 soniya.
- v) 70 soniya.
- g) 90 soniya.

- 8. Bola organizmida funksional o'zgarishlar qaysi davrda kechadi?**
- a) qizlar 9-10, bolalar 10-11
 - b) qizlar 11-12 bolalar 13-14
 - v) qizlar 13-14 bolalar 14-15
 - g) qizlar 14-15 boalar 15-16
- 9. Boshlang'ich tayyorgarlik guruqlarida qanday turdag'i mashqlar qo'llaniladi?**
- a) yondashtiruvchi.
 - b) umum rivojlantiruvchi.
 - v) maxsus
 - g) tayyorlov.
- 10. Boshlang'ich tayyorgarlik guruxlarida o'quv mashg'ulot mashqlari haftada necha marta o'tkaziladi?**
- a) 1-2 marta
 - b) 2-3 marta
 - v) 3-4 marta
 - g) 4-5 marta

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Нестеровский Д.И. Теория и методика баскетбола // Учебное пособие для студентов вуза. – М.: “Akademiya”, 2010. – 336 с.
2. Портнов Ю.М. Баскетбол// Учебник для вузов физической культуры. – М: астра семь, 1997. – 480 с.
3. Pasulev A.T. Basketbol. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. O'zDJTI nashriyot bo'limi, 1998. - 278 b.
4. Родин А.В., Губа Д.В. Баскетбол в университете. Теоретическое и учебно-методической обеспечение системы подготовки. – М.: Советский спорт, 2009. – 168 с.
5. Morgan Wootten. Coaching basketball successfully / Morgan Wootten with Dave Gilbert - 2nd ed. USA: Human Kinetics. 2003. – 225 p.

XII BOB. YUQORI RAZRYADLI BASKETBOLCHILAR VA TERMA JAMOALAR BILAN MASHG'ULOT O'TKAZISH XUSUSIYATLARI

Yuqori malakali basketbolchilar va terma jamoalar bilan o'tkaziladigan o'quv-mashg'ulot mashqlarining ustuvor yo'nalishlari hamda xususiyatlari – bu individual, guruh va jamoa texnik-taktik harakatlarini o'zaro bog'liq tartibda shakllantirish bilan farqlanadi.

Individual texnik-taktik harakatlar guruh oldiga qo'yilgan vazifalarga, guruhning o'zaro harakatlari jamoa oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lmos'i lozim. Shuning uchun ham har bir jamoani maqsadga muvosiq yo'nalishda tayyolash uchun har bir o'yinchiga, guruhga va jamoaga alohida tabaqalashtirilgan reja-dastur tuziladi.

Mashg'ulotning individual shakli ikki yo'nalishda olib boriladi:

- murabbiy tomonidan boshqariladigan mashg'ulot yo'nalishi;
- mustaqil mashg'ulot yo'nalishi.

Murabbiy tomonidan boshqariladigan individual mashg'ulotlarda har bir o'yinchining o'yin ixtisosligi (ampluasi), o'ziga xos morfofunktional va psixo-jismoniy, texnik-taktik qobiliyatlariga qarab guruh va jamoa oldiga qo'yiladigan vazifalarga mos sifatlar ko'nikmalar (usullar) takomillashtiriladi. Bunday mashg'ulotlar davomida qayd etilgan sifat va ko'nikmalarni yanada mukammallash tirish hamda barqarorlashtirish maqsadida mustaqil tayyorgarlik vazifalari beriladi.

Guruh bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda o'yin davomida o'ziga xos o'yin funksiyalarini bajaruvchi "o'yinchilar bog'lami"ga taalluqli texnik-taktik harakatlar shakllantiriladi. Masalan: 2 yoki 3 o'yinchining o'z shchiti oldidagi himoya harakatlari, 2 yoki 3 o'yinchining raqib shchit oldidagi hujum harakatlari va h. Bunday harakatlar to'psiz va to'p bilan raqib yoki raqiblarning zich qarshiliklari ta'sirida shakllantiriladi.

Mashg'ulotning jamoa shaklini amalga oshirishda individual va guruh harakatlarining jamoa vazifalariga bo'ysindirilgan texnik-taktik usullar hamda kombinatsiyalar takomillashtiriladi.

Jamoa mashg'ulotlari bo'lajak raqib jamoalarining o'yin modellariga qarab qarama-qarshi tartibda modellashtirilgan mazmunda (tezlikda, taktik yo'nalishda va h.) tashkil etiladi.

Jamoa bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bir necha yo'nalishlarda tashkillashtirilishi mumkin:

- kompleks-integral yo'nalish (texnik, taktik, jismoniy);
- texnik yo'nalishi;
- taktik yo'nalishi;
- jismoniy-psixofunksional yo'nalishi;
- kombinatsion yo'nalishi.

Bunday mashg'ulotlarni o'tkazishda frontal va aylanma yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu yondashuvlar asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar bir qator tashkiliy-kvalifikasjion xususiyatlar va mezonlarga erishish vazifalarini hal etishga qaratishi darkor. Jumladan, mashg'ulotlar davomida jamoani tuzish uchun asosiy hamda zaxira tarkibga o'yinchilarini tanlash-saralash, o'zin funksiyalarini (ampluarini) e'tiborga olgan holda jamoa tarkibining o'zin tuzumini shakllanitirish prinsiplari va o'yinchilarga qo'yiladigan talablarga amal qilish masalalari murabbiyning diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Jamoaning to'liq tarkibi 10 kishidan iborat bo'lib, o'yinchilar ning o'zin funksiyalari (amplua) bo'yicha himoyachilar, qanoat hujumchilarchilari va markaziy o'yinchilardan tashkil topadi.

Mashg'ulotlarni tashkil qilishda zamонавиy basketbol musobaqalariga xos model ko'rsatkichlarga mo'ljal olinadi va shunga muvofiq hujum-himoya harakatlari, ularni ijro etish usullarining turg'unligi va mukammalligini kuchaytirishda qaratiladi. Bunda quyidagilar e'tiborga olinishi lozim:

- o'rta va uzoq oraliqlaridan turli usullarda (sakrab, sakrab burilib-aylanib, yuqorida ikki qo'llab, o'ng va chap qo'l bilan va h.) to'p tashlash;
- hujum va himoya harakatlari tezligini oshirish;
- keskin o'zgaruvchan yo'nalishlarda to'pni o'ng va chap qo'l bilan urib yugurish (dribbling) – raqib qarshiligidaga;
- zich qarshi "pressingdan" fint harakatlari (chalg'ituvchi harakatlar) asosida "chiqib" ketish;
- raqibni zich yuzma-yuz ta'qib qilish – to'psiz;
- chap va o'ng yonlama (raqibga orqa bilan joylashib – to'pni "berkitib") to'pni urib tezkor harakatlanish;
- 3 ochkoli to'p tashlash;
- to'psiz bo'sh va qo'lay joyga tezkor chiqish;

- zonali "pressingni" tashkil qilish: 1-2-2, 2-2-1 va h.;
- o‘z shchitiga sapchigan to‘pni olish va savatga qayta tashlash yoki qo‘lay turgan sherikka uzatish;
- uzatilgan yoki savatga yoki tashlangan to‘pni to‘sish yoki urib yugurish;
- to‘p bilan harakatlanayotgan o‘yinchidan to‘pni olib qo‘yish (qoidaga muvofiq).


Ana shu va boshqa shunga o‘xshash texnik-taktik harakatlarni samarali shakllantirish uchun ularning o‘zlashtirilganlik darajasini model ko‘rsatkichlar mezonlariga asoslangan holda baholash va olingan natijalarga muvofiq mashg‘ulotlar mazmuniga zarur o‘zgartirishlar kiritish tavsiya etiladi.

Buning uchun musobaqa faoliyatini (texnik-taktik usullar hajmi, shiddati, samaradorligi va h.) "stenografik" usulda tahlil qilingan model ko‘rsatkichlarga amal qilinadi.

Texnik-taktik usullarni o‘zlashtirilganlik darajasi muvofiq test mashqlari, videotasvir va me’yoriy talablar mezonlari yordamida aniqlanadi.

Mashg‘ulotlarni o‘tkazish davomida jismoniy va texnik-taktik imkoniyalarni praporsional nisbatda shakllantirishga ustuvorlik berilishi lozim.

Yuqori razryadli basketbolchilar (YURB) va terma jamoalar (TJ) bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish shakllari va mashg‘ulot yo‘nalishlari 12.1-andozada keltirilgan.



12.1-andoza


12.1. Tayyorgarlik turlari, ularning mazmuni va takomillashtirish uslubiyati

Ko'p yillik sport mashg'ulotining barcha bosqichlarida jismoniy, texnik, taktik, psixologik va integral tayyorgarlik jarayonlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish hamda ularni shakllantirish samaradorligini ta'mnlash imkoniyati ma'lum darajada nazariy tayyorgarlik bilan belgilanadi. Shuning uchun ham har bir tayyorgarlik bosqichida har bir tayyorgarlik guruhiiga (boshlang'ich, o'quv-mashg'ulot sport takomillashuvi) mo'ljallangan o'quv-mashg'ulot dasturida barcha tayyorgarlik turlari kabi nazariy tayyorgarlikka ham alohida o'quv soatlari ajratiladi. Ushbu o'quv soatlari tayyorgarlik bosqichiga qarab o'z ichiga basketbolni rivojlanish tarixi va zamonaviy basketbol, o'yin texnikasi va taktikasi, musobaqa qoidalari, mashqlar yuklamasini organizmga ta'sir etish qonunyatları, toliqish va ish qobiliyatini tiklash uslubyati kabi mavzularni biriktiradi. Sportchi (basketbolchi) qayd etilgan va boshqa shunga o'xshash mavzular mohiyati haqida chuqur bilimga bo'lsagina, ularning mantiqiy mazmunini yetarli tasavvur qilsagina o'rgatiladigan texnik-taktik ko'nikmalar va rivojlantiriladigan jismoniy sifatlarni jadal o'zlashtirishi mumkin.

Nazariy tayyorgarlik mashg'ulotlarida taqdim etiladigan o'quv materiallarini o'zlashtirish samaradorligi shu mashg'ulotlar davomida informasion va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish choralariga bog'liqdir. Nazariy tayyorgarlik bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar darajasi ekspress-test, Ekspress-intervyu va so'rovnama uslublari yordamida baholanib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhim shundaki, nazariy mashg'ulotlar davomida trener tomonidan berilgan va shug'ullanuvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar amaliy mashg'ulotlarda o'z aksini topmog'i lozim. Bosh-qacha qilib aytganda trener o'z shogirdlariga olgan bilimlarini amalda qo'llay olish, vaziyatini payqash, tahsil qilish va farqlash orqali eng qo'lay hamda foydaliy qaror qabul qilishda mavjud bilimni "ishga solish"ga o'rgatishi darkor.

Basketbol yuksak intellektual mazmunli o'yin bo'lganligi tufayli bugungi kunga hos keskin raqobatli o'yinlarda g'alaba qozonish nafaqat jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik bilan belgilanadi, balki ustuvor jihatdan o'yinchilarning intellektual qobiliyatiga asoslanadi. 35-andozada nazariy tayyorgarlik mashg'ulotlarida rejalashtiriladigan na'munaviy mavzular keltirilgan.



12.2-andoza. Nazariy tayyorgarlik mashg'ulotlari mavzulari

Reyting-nazorat va bilimoi baholash testlari:

1. Yuqori razryadli va terma jamoalari guruhi larida rejalshtirish ahamiyati

- a) yangi kelgandan boshlab sport ustaligigacha tayyorlash
- b) o'quv jarayonini maqsadga yo'naltirganligi
- c) yillik maqsad va vazifalarni berilishi
- d) kompleksli reja yaratilish

2. Yuqori razryadli va terma jamoalariga yiliga necha soatdan o'quv soati rejalshtiriladi?

- a) 780
- b) 916
- c) 1664
- d) 1780

3. Yuqori razryadli va terma jamoalari uchun haftasiga qancha o'quv-trenirovka soati rejalshtirilgan?

- a) 34
- b) 32
- c) 36
- d) 38

4. Sport mashg'ulotining yillik sikli qanday davrlarga bo'linadi?

- a) tayyorgarlik, musobaqa, o'tish
- b) nazoriy, maxsus tayyorgarlik, tiklanish
- c) umumiy jismoniy, texnik, taktik
- d) umumiy tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik

5. Mashg'ulotning tayyorgarlik davri qanday bosqichlarga bo'linadi?

- a) jismoniy, integral, psixologik tayyorgarlik
- b) umumiy tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik musobaqa oldi
- c) texnik, taktik, integral tayyorgarlik
- d) boshlang'ich o'rgatish, kelgusi o'rganish

6. Basketbol bo'yicha BO'SM dasturiga muvofiq o'quv guruhlarining to'g'ri nomlanishi aniqlangan?

- a) boshlang'ich tayyorgarlik, o'quv-mashg'ulot, sport takomillashuvi, oliv sport mahorati
- b) o'g'il bolalar, qiz bolalar, o'smir yigitlar, qizlar
- c) endi shug'ullanuvchilar guruhi, razryadchilar (IIIr, IIr, Ir)
- d) 12 yoshgacha, 14 yoshgacha, 16 yoshgacha, 18 yoshgacha

7. Yuqori razryadli va terma jamoalari guruhi larida shug'ullanuvchilar soni qancha bo'lishi kerak?

- a) 12
- b) 28
- c) 24
- d) 20

8. Shug'ullanuvchilar (sportchilar) tayyorlash jarayoni samaradorligi nimaga bog'liq?

- a) texnikani tomosha qilish va tahlil etish

- b) texnikani ekspert baholash
- c) kompleks nazorat vositalari va uslublaridan foydalanish
- d) shug'ullanuvchilar fikrlarini so'rash

9. Sport tayyorgarligi tomonlarini (yo'nalishlarini) sanab o'ting?

- a) texnik, taktik, jismoniy, psixologik, integral
- b) o'quv va nazorat o'yinlari, musobaqalar
- c) jismoniy sifatlarni tarbiyalash uchun umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlar
- d) texnika bo'yicha tayyorgarlik va yaqinlashtiruvchi mashqlar

10. Mashg'ulotni tashkil qilish va o'tkazish shakllari?

- a) individual
- b) tashkiliy
- c) individual, guruhli, yalpi, erkin, aylanma
- d) erkin

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Дончёнко П.И. Баскетбол. Модель программы самостоятельной (индивидуальной) подготовки по баскетболу в группах спортивного соревнования в вузе // Учебно-методическое пособие. – Т., 2012. – 30 с.
2. Железняк Ю.Д. Совершенствование спортивного мастерства: Учеб.для студ. Высш.учеб. завед/ Ю.Д. Железняк, Ю.М. Портнов, В.П. Савин и др. – М.: Akademiya, 2004. – 400 с.
3. Родин А.В., Губа Д.В. Баскетбол в университете. Теоретическое и учебно-методической обеспечение системы подготовки. – М.: Советский спорт, 2009. – 168 с.

XIII BOB. MUSOBAQALARDA JAMOANI BOSHQARISH

Sport jamoasining musobaqa o'yinlarida g'alabaga erishishi nasaqat uning tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir, balki uni o'yin davomida trener tomonidan boshqarish mahorat bilan belgilanadi.

Musobaqa davomida o'yinchilar va jamoa tinimsiz tayyorgarlik (mashg'ulot) tufayli erishgan o'z imkoniyatlarini g'alabani qo'lga kiritishga bag'ishlaydilar. Lekin boshqaruvsiz qolgan bunday imkoniyatlar, har bir o'yinchchi va bugun jamoaning o'yin faoliyati har doim ham g'alabaga olib kelavermaydi. Aksincha, musobaqa amaliyotida zaif tayyorgarlikka ega o'yinchilar va jamoa o'yin faoliyati mahorat bilan boshqarilganda "kuchli" jamoa ustidan g'alabaga erishish hollari ko'p uchraydi. Binobarin, musobaqalarda o'yinchilar va jamoa faoliyatini ustalik bilan boshqarish o'yinni foydali natija bilan yakunlanishiga olib keladi.

Odatda, musobaqa davomida jamoa faoliyatini boshqarish ikki turga olib boriladi.

- Strategik boshqarish;
- Taktik boshqarish (joriy).

Strategik boshqarish – o'z jamoasi taktik modelini aniqlash, o'zgartirishlar kiritish raqib jamoa o'yin modelini o'yinchilarga tanishtirish raqib jamoa o'yin modelini o'yinchilarga tanishtirish va ushbu modelga qarshi taktik variantlarni qo'llash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bunda, albatta, musobaqa o'tkazish joyi xususiyatlari (maydondan tashqari bo'shliq zo'nalar kengligi, harorat atmosfera bosimi, havo namligi va h) e'tiborga olinadi.

Bundan tashqari, rasmiy o'yinlarni musobaqa Nizomida ko'rsatilgan uchrashuv sikllari o'rganiladi. Masalan, 3-1-2-1 – ya'ni uch o'yin kuni va bir kun dam olish yoki 4-1-3-1 – ya'ni 4 kun o'yin – 1 kun dam – 3 kun o'yin – 1 kun dam (boshqacha sikllar ham bo'lishi mumkin) sikllariga asoslangan holda "mashg'ulot" va "dam olish" tartibini qo'llash talab qilinadi.

Dam olish kunlari, albatta, "profilaktik" mashg'ulotlar o'tkaziladai, ish qobiliyatini tiklash vositalaridan unumli foydalanish choralar qo'llaniladi.

Taktik boshqarish – rasmiy o'yindan oldin raqib jamoasi o'yin modeli (so'nggi vaqtdagi o'yin natijalari) o'yinchilarga eslatiladi, qarshi qo'llaniladigan taktik modellar (usullar, taktik kombinatsiyalar xotirada mukammalashtiriladi). O'yindan oldin muhim ko'rsatmalar, maslahatlar va tavsiyalar beriladi. O'yin oldi "razminka" mazmuni, mohiyati va yo'naliishi belgilanadi, qo'llaniladi hamda boshqariladi.

O'yinda asosiy zaxira tarkiblarini ishtirok etishi avvaldan tuzilgan taktik reja asosida amalga oshiriladi. Raqib o'yinchilarning kuchli va zaif tomonlari hisobga olinadi hamda ushbu omillardan samarali foydali choralar ko'rildi.

O'yin davomida, tanaffuslar va ba'zi to'xtalishlar vaqtida o'yinchilarga muhim ko'rsatmalar berib boriladi. Ko'rsatmalar so'z yoki imo-ishoralar bilan berilishi mumkin.

Tezkor boshqarish samaradorligini ta'minlashda uzatuvchi o'yinchi, etakchi (lider), jamoa sardori va trener o'rtasidagi u兹viy aloqa muhim ahamiyat kasb etadi. Joriy boshqarish nafaqat o'yin davomida balki butun musobaqa siklida "ertayu-kech" vaqtlarda amalga oshiriladi. Bunda jamoaning kun tartibi, ovqatlanishi, ertalabki zaryadka, kechki uyqu, madaniy-maishiy tadbirlar boshqarish va nazorat doirasiga kiritiladi.

Jamoani boshqarish va boshqaruvi natijalari (shu jumladan o'yinlar natijalari) muntazam tag'lil qilinadi va o'yinchilar ishtirokida barcha kamchiliklar o'rganiladi hamda ularni bartaraf etish choralar ko'rildi.

Musobaqada jamoani boshqarish turlari va tartibi 36-andozada aks ettirilgan.

Musobaqada jamoani boshqarish

Strategik boshqarish

Musobaqa muddati va uni o'tkazish joylarni o'rganish

Musobaqada ishtirok etuvchi raqib jamoalarini o'rganish

Raqib jamoalar haqida ma'lumot yig'ish

Musobaqa nizomini o'rganish

Asosiy raqib jamoalarga qarshi o'ynash rejasini tuzish

Musobaqa o'tkazish zali va hududni iqlim sharoitlarini o'rganish

Modellashtirilgan musobaqaoldi mashg'ulotlarini o'tkazish

Har bir va musobaqa natijalarini tahlil qilish hamda keyingi musobaqalarga vazifalar belgilash

Taktik boshqarish

Bo'lajak raqib jamoa imkoniyatlarini o'rganish

O'z imkoniyatlarin raqib imkoniyatlariga solishtirish

Bo'lajak raqib jamoaga qarshi o'ynash rejasini tuzish

Musobaqaoldi ko'rsatmasini berish

Startoldi vaziyatdagi salbiy ruhiy xislarni (qo'rqish, titrash va h) bartaraf etish

Musobaqaoldi razminkasini o'tkazish va jangovor holatini yaratish

13.1-andoza

Musobaqa davomida jamoa faoliyatini boshqarish jarayoni – bu jamoa murabbiy (murabbiylari), jamoa sardori va o'yinchilarning o'zaro hamkorligi asosida amalga oshiriladi. Ammo, o'yining taqdirini hal qilish, o'yin taktikasi va strategiyasini boshqarish va

jamoani g'alabaga olib chiqish mas'ulyati bosh trener zimmasiga yuklatiladi.

Musobaqa jamoa va o'yinchilar faoliyatini belgilangan taktik rejagi asosan samarali boshqarish yuqorida qayd etilgan omillar va shart-sharoitlarni e'tiborga olishdan tashqari bo'lajak raqib haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishni taqazo etadi. Bunday ma'lumotlar aniq maqsadga qaratilgan strategik va taktik "razvetka" (ma'lumotni mahiyat, ya'nini uni oshkor qilmasdan o'rganish) orqali o'rganiladi.

13.1. Bo'lajak raqib haqida to'planadigan ma'lumotlar va ularga ega bo'lish yo'llari

Bo'lajak raqib yoki jamoalar haqida ma'lumotlarni to'plash ularning avvalgi musobaqalarda namoyish etgan o'yin faoliyatini videofilmlar orqali tahlil qilish, musobaqa haqidagi natijalarni o'rganish, fotolavhalar ko'zdan kechirish, oshkor qilmasdan mashg'ulotlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlarda trener quyidagi masalalarga e'tibor berishi va o'z jamoasini musobaqalarga tayyorlashda ularga asoslanishi lozim bo'ladi:

1. Jamoaning asosiy va zaxira tarkibi, o'yinchilarining o'yin ixtisosligi, hujum va himoyada qo'llaniladigan taktik tizimlar.
2. Jamoa o'yinchilarining kuchli va zaif jihatlari.
3. O'yinda qo'llaniladigan ustuvor fintlar, texnik-taktik kombinatsiyalar andozalari.
4. O'yinchilarining jismoniy va psixik imkoniyatlari.
5. Himoyada o'ynash taktikasi, yakkama-yakka va pozision pressingni qo'llash tarkibi.
6. Shchitdan sapchigan to'plarga nisbatan o'ynash taktikasi.
7. O'yinchilarining bo'yi va bo'ydon o'yinchilarining o'ynash taktikasi.

Shu va shunga o'xshash ma'lumotlarni o'rganish asosida musobaqa o'yiniga reja tuziladi. Ushbu reja mazmuni va unda taktik ko'rsatmalra jamoa sardori hamda o'yinchilar bilan sinchiklab o'rganiladi, ular haqidachuqup tasavvur hosil qilinadi. Undan keyin har bir bo'lajak raqib jamoa bilan o'ynash taktikasi modellashtirilgan mashg'ulotlar yordamida mukammal o'zlashtiriladi.

Musobaqa davomida ish qobiliyatini tushirmsandan, texnik-taktik imkoniyatlar salohiyatini saqlab qolish va so'nngi daqiqalargacha

yuksak o'yin mahoratini ko'rsatish uchun vaqtin uzaytirilgan o'yin mashg'ulotlari, 2:2, 2:3, 3:3, 3:4, 4:4, 4:5 va aksincha o'yinchilar tarkibida o'yin mashqlari qo'llanishi mumkin.

13.2. O'yinga ko'rsatma berish

Start oldidan o'yinga ko'rsatma berish samaradorligi avvalam bor o'yinchilarning kayfiyati, psixoemosional holati va motivatsiyasiga bog'liqdir. Shuning uchun trener bиринчи navbatda o'z o'yinchilari kayfiyatini ko'tarishi, ularni jismoniy, texnik-taktik va psixologik imkoniyatlari raqib o'yinchilarnikidan "kuchli" ekanligiga ishontira olishi zarur. Har bir o'yinchi o'yinga barvaqt jangovor shaylanishi, ertalabki "zaryadka" mashg'ulotini bo'lajak o'yin hususiyatiga muvofiqlashtirishi, o'yinda ijro funksiyasini hayolan, autogen (so'zini ishontirish) usulda mashq qilishi va "charxlashi" darkor.

Murabbiy o'z o'yinchilariga o'yoldi ko'rsatmasini berish bilan bir qatorda ularda beixtiyor shartli refleks asosida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy xis-tuyg'ular (o'ta hayajonlanishi, qo'rqish, havotirlanishi, tushkunlikka tushish va h.) – apatiya va lixoradka holatlarini bartaraf etishi va jangovor emotsiyonal holatni hamda ijobjiy motivasiyon faoliyayaratish vositalarini "o'yinchilar hayolini yachshi hodisalarni gapirishorqali chalg'itish", musobaqaga autogen usul orqali shaylantirish va shaylantiruvchi "razminka" mashqlari kiradi.

O'yinoldi ko'rsatmasini berishda trenerning nutqi qisqa, ma'noli va ishonchli xususiyatga ega bo'lishi lozim.

Ko'rsatmalar o'yin davomida, tanaffuslarda va o'yin bo'limlari oraliqlarida ham o'z o'mini muvofiqdir.

O'yin davomida ko'zlangan taktik rejani to'liq va samarali amalga oshirish o'z vaqtida o'yinchilarni almashtirish, tanaffuslarni olish hamda o'yinni texnik sababli to'xtalishlariga ham dolzarb ko'rsatmalar berish bilan bog'liq bo'ladi.

O'yindan keyin natijasi qanday yakunlanganidan qat'iy nazaruni batafsil tahlil qilish, o'yinda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va hatolarni muhokama qilish, o'yinchilarga tanbeh berish tavsiya etilmaydi.

Buday tahlil va muhokama o'yining ertangi kuni vazmin, asosli va mantiqan isbotlangan (stenografik kuzatuvnatjalari, videotasvir va h.) ma'lumotlarni keltirish asosda olib borishi foydali natija beradi.

Musobaqa davomida o'yinchilar va jamoa faoliyatini samarali boshqarish uchun murabbiy kamida quyidagi ko'rsatkichlarga asoslanishi lozim:

- shchit atrofidan savatga to'ptashlash soni (2 ochkoli);
- savatga aniq tushgan to'plar soni;
- 3 ochkoli to'p tashlash soni;
- savatga aniq tushgan to'plar soni;
- ochko bilan yakunlanganidan foydali to'p uzatish soni;
- jarimadan savatga aniq va noaniq tushgan to'plar nisbati;
- raqib shchitidan sanchigan to'pni qayta savatga aniq tushgan to'plar soni;
- o'z shchitiga tashlanayotgan to'pni olib qo'yish yoki urib qaytarish soni;
- raqibdan to'p olib qo'yish soni;
- umumiy hujumlar va ochkolar nisbati.

Reyting-nazorat va bilimni baholash testlari:

1. Musobaqa oldidan uyinchiga murabbiy tomonidan berilgan ko'rsatmalar nima deb nomlanadi?

- a) start oldi maslahati
- b) o'yin oldi ongga singdirish
- c) musdboqa oldi buyiruq
- d) o'yin oldi qo'rsatma

2. O'yin boshlanishidan oldin murabbiy tomonidan berilgan vazifalar nima deb nomlanadi?

- a) dastlabki suhbat
- b) start suhbat
- c) dastlabki qo'rsatmalar
- d) o'yin oldi ko'rsatmalar

3. O'yin vaqtida o'z jamoasiga murabbiy tomonidan taktik ko'rsatmalar qachon beriladi?

- a) o'yin boshida
- b) partiyalar orasida
- c) tanaffusda
- d) barcha javob tug'ri

4. O'yin oldidan murabbiy tomonidan o'z o'yinchisiga aytilgan qursatmalar nima deb ataladi?

- a) start oldi maslaxat
- b) o'yin oldi buyruq
- c) o'yin oldi taqsimlash
- d) o'yin oldi ko'rsatma

5. Murabbiy o'yin davomida jamoa faoliyatini boshqarishi mumkinmi?

- a) mumkin
- b) mumkin emas
- c) mumkin, agar 2-hakam ruxsat bersa
- d) mumkin, agar 1-hakam ruxsat bersa

6. Murabbiy maydonni chegaralovchi va "shtrix" chiziqlar ichida jamoani boshqarishiga ruxsat beriladimi?

- a) ruxsat beriladi
- b) ruxsat berilmaydi
- c) hal qiluvchi partiyada ruxsat beriladi
- d) jamoa yutqazayotgan bo'lsa, ruxsat beriladi

7. Ikki murabbiy bir vaqt ni o'zida jamoani boshqarish huquqiga egami?

- a) ega emas
- b) ikki trener ham jamoani boshqarishi mumkin
- c) boshqarishi mumkin, bosh hakam bunga ruxsat bersa
- d) boshqarish mumkin, agar 1-hakam bunga ruxsat bersa

8. Jamoani boshqarish jarayoniga jamoa boshlig'i aralashishi mumkinmi?

- a) mumkin
- b) mumkin emas
- c) bosh hakam bilan kelishgan holda mumkin
- d) 1-hakam bilan kelishgan holda mumkin

9. Murabbiy jamoani boshqarish mas'uliyatini jamoa sardoriga yuklatishi mumkinmi?

- a) mumkin
- b) mumkin emas
- c) o'yinchilar bilan kelishgan holda mumkin
- d) jamoa boshlig'i bilan kelishgan holda mumkin

10. Jamoaga zarur ko'rsatma berish uchun murabbiy 3-tanaffusni olishga haqlimi?

- a) haqli emas
- b) haqli

- c) agar 1-hakam ruxsat bersa, haqli
- d) agar bosh hakam ruxsat bersa, haqli

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Донченко П.И. Баскетбол. Модель программы самостоятельной (индивидуальной) подготовки по баскетболу в группах спортивного соревнования в вузе // Учебно-методическое пособие. – Т., 2012. – 30 с.
2. Железняк Ю.Д. Совершенствование спортивного мастерства: Учеб.для студ. Высш.учеб. завед/ Ю.Д. Железняк, Ю.М. Портнов, В.П. Савин и др. – М.: Akademiya, 2004. – 400 с.
3. Родин А.В., Губа Д.В. Баскетбол в университете. Теоретическое и учебно-методической обеспечение системы подготовки. – М.: Советский спорт, 2009. – 168 с.
4. Morgan Wootten. Coaching basketball successfully / Morgan Wootten with Dave Gilbert - 2nd ed. USA: Human Kinetics. 2003. – 225 p.

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. ZAMONAVIY BASKETBOL VA UNING DOLZARB MUAMMOLARI.....	5
II BOB. O'YIN TEXNIKASI ASOSLARI	12
2.1. Harakat texnikasi va uning funksional mohiyati.....	12
2.2. Hujum texnikasi.....	15
2.2.1. Holatlar va harakat usullari.....	15
2.3. Himoya texnikasi.....	41
2.3.1. Holat va harakatlanishlar usullari.....	42
III BOB. O'YIN TAKTIKASI ASOSLARI.....	51
3.1. Hujum taktikasi.....	53
3.2. Yakka guruhli va jamoa himoya taktikasi.....	55
3.3. Himoya taktikasi.....	63
3.4. Yakka guruhli va jamoa himoya taktikasi.....	63
IV BOB. O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH VA TEXNIK TAYYORGARLIK.....	77
4.1. O'rgatish asoslari.....	77
4.2. O'rgatish bosqichlari, uslublari, vositalari va prinsiplari...	78
4.3. Hujum o'yin texnikasiga o'rgatish.....	90
4.4. Himoya o'yin texnikasiga o'rgatish.....	92
4.5. O'rgatish va jarayonida qo'llaniladigan texnik vositalar...	95
4.6. Texnik tayyorgarlik.....	96
4.7. Xorijiy tajribaga asoslangan texnik-taktik tayyorgarlik.....	100
V BOB. O'YIN TAKTIKASIGA O'RGATISH VA TAKTIK TAYYORGARLIK.....	116
5.1. O'rgatish asoslari.....	116
5.2. Hujum o'yin taktikasiga o'rgatish.....	116
5.3. Himoya o'yin taktikasiga o'rgatish.....	118
5.4. Taktik tayyorgarlik.....	119
Basketbolda strategiya va taktika.....	123
5.6.1. Taktikaning psixofiziologik va strategik mohiyati.....	125
VI BOB. BASKETBOL MASHG'ULOTI VA UNI O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI.....	131
6.1. Mashg'ulotning mohiyati, maqsadi va vazifalari.....	131
6.2. Mashg'uloni rejalashtirish va o'tkazish tartibi.....	132

VII BOB. JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH	
VA JISMONIY TAYYORGARLIK.....	150
7.1. Jismoniy sifatlar va jismoniy tayyorgarlik haqida tushuncha	150
7.2. Jismoniy tayyorgarlikning umumiy asoslari.....	162
7.3. Jismoniy tayyorgarlikning vazifalari va mazmuni.....	164
7.4. Jismoniy tayyorgarlikning vosita va uslublari.....	165
7.5. Umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalash.....	166
7.5.1. Tezkorlikni tarbiyalash.....	166
7.5.2. Kuch sifatini tarbiyalash.....	171
7.5.3. Chaqqonlikni tarbiyalash.....	173
7.5.4. Chidamkorlikni tarbiyalash.....	175
7.5.5. Egiluvchanlikni tarbiyalash.....	178
VIII BOB. MUSOBAQA QOIDALARI VA HAKAMLIK QILISH USLUBIYATI.....	183
8.2. O'yin qoidalarini vujudga kelishi va shakllanishi.....	183
8.2. O'yin mazmuni, maydon va uskunalar.....	186
8.3. Hakamlar tarkibi va hakamlik qilish asoslari	195
IX BOB. SPORT MASHG'ULOTINING UMUMIY ASOSLARI.....	202
9.1. "Sport" atamalari haqida tushuncha.....	202
9.2. Sport mashg'ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.....	203
9.3. Sport mashg'ulotining uslub va vositalari.....	204
9.4. Sport mashg'uloti prinsiplari.....	207
9.5. O'rgatish va mashg'ulot vositalari.....	209
9.6. Sport mashg'ulotining davriyligi.....	211
X BOB. BASKETBOLCHILAR TAYYORLASH JARAYONINI REJALASHTIRISH VA BOSHQARISH.....	220
10.1. Boshqaruv jarayoni haqida tushuncha.....	220
10.2. Rejalahtirish va tayyorgarlik jarayoni.....	221
10.3. Yillik rejalahtiruv hujjati.....	224
10.4. Pedagogik va tibbiy-biologik nazorat.....	228
XI BOB. TURLI YOSH GURUHLARIGA MANSUB BASKETBOLCHILAR TAYYORLASH XUSUSIYATLARI	233
XII BOB. YUQORI RAZRYADLI BASKETBOLCHILAR VA TERMA JAMOALAR BILAN MASHG'ULOT O'TKAZISH XUSUSIYATLARI.....	249

12.1. Tayyorgarlik turlari, ularning mazmuni va takomillashtirish uslubiyati.....	252
XIII BOB. MUSOBAQALARDA JAMOANI BOSHQARISH	256
13.1. Bo'lajak raqib haqida to'planadigan ma'lumotlar va ularga ega bo'lish yo'llari.....	259
13.2. O'yinga ko'rsatma berish.....	260

B.M.MIRADILOV
B.Z.KARIMOV
M.A.UMBETOVALAR

SPORT PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH (BASKETBOL)